9. Luzuriaga, K. Infectious mononucleosis. - Direct text / K. Luzuriaga, J. L. Sullivan // NEJM. - 2010.-Vol. 362 (21). - P. 1993-2000.

10. Clinical and epidemiological transmission of scarlatina diseases and criteria for diagnosis. Matnazarova G. S. Tirkashev O.S.,Mustayeva G.B. Central asian journal of medical and natural sciences May-June 2021 ISSN: 2660 – 4159 (166-169 стр).

11. Erta yoshli bolalarda gemokolit sindromi bilan kechuvchi o'tkir ichak infeksiyalarini o'ziga xos klinik-laborator kechish xususiyatlari. Tirkashev O.S., Mustaeva G.B., O'ralov J.B. Science and education scientific journal ,volume 5, issue 2 Feb. – 2024 (125-129 стр)

Priapizm surunkali miyeloleykozning dastlabki simptomi sifatida

Kattabek Makhmatovich Abdiyev
Anajon Gazkhanovna Madasheva
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Priapizm - bu to’rt soatdan ortiq davom etadigan, jinsiy stimulyatsiya to’xtatilgandan keyin ham davom etadigan yoki u bilan bog’liq bo’lmagan uzoq muddatli og’riqli erektsiya. Priapizm surunkali miyeloleykozning (SML) dastlabki klinik ko’rinishi bo’lishi mumkin. Klinik kuzatuvning maqsadi - ilgari aniqlanmagan SML bilan kasallangan bemorda rivojlangan ishemik priapizmni tasvirlash hisoblanadi. Ilgari aniqlanmagan SML bilan kasallangan bemorda 12 soat davom etadigan ishemik priapizmni kuzatish taqdim etilgan. Keyinchalik, SML tashxisi periferik qon va suyak iligi tekshiruvi asosida qo’yildi. Davolash taktikasi kavernoz tanalardan qonning zudlik bilan punksiya va aspiratsiyasidan va fenilefrin eritmasini kavernoz tanalar ichiga in’ektsiyasidan iborat edi. Priapizm bartaraf qilinganidan keyin, SML terapiyasi o’tkazildi, bu bemorda priapizmning qaytalanishini oldini olishga imkon berdi.

Kalit so’zlar: priapizm, surunkali miyeloleykoz

Priapism as the first sign of chronic myeloid leukemia

Kattabek Makhmatovich Abdiev
Anajon Gazkhanovna Madasheva
Samarkand State Medical University

Abstract: Priapism is a prolonged painful erection that lasts for more than four hours, persisting after the cessation of sexual stimulation or unrelated to it. Priapism may be the first clinical manifestation of chronic myeloid leukemia (CML). The purpose of the clinical observation is to describe ischemic priapism that occurred in a patient with previously undiagnosed CML. An observation of ischemic priapism with a duration of 18 hours, which occurred in a patient with previously undiagnosed CML, is presented. Subsequently, the diagnosis of CML was established on the basis of a study of peripheral blood and bone marrow. Therapeutic tactics consisted of immediate puncture aspiration of blood from cavernous bodies and intracavernous injection of phenylephrine solution. After priapism was stopped, CML therapy was performed, which allowed to avoid recurrence of priapism in the patient.

(cc) BY

Keywords: priapism, chronic myeloid leukemia

KIRISH

Priapizm - bu jinsiy stimulyatsiya va orgazmdan keyin 4 soatdan ko'proq davom etadigan yoki jinsiy stimulyatsiya bilan bog'liq bo'lmagan to'liq yoki qisman og'riqli erektsiya. Priapizm birinchi marta 1616 yilda Petraens tomonidan tasvirlangan. Priapizm so'zi Afrodita va Dionisiyning o'g'li bo'lgan yunon xudosi Priapus nomidan kelib chiqqan. Priap - unumdorlik xudosi va bog'larning homiysi. U, shuningdek, shahvat va buzuqlikning asosiy xudosi edi [1,2]. Ammo agar qadimgi xudo uchun bu faqat kichik vatanidan surgun qilish uchun sabab bo'lgan bo'lsa, unda zamonaviy odam uchun priapizm urologga zudlik bilan murojaat qilish uchun sabab hisoblanadi, chunki aksariyat hollarda ushbu kasallikning davomiyligi keyingi natijani belgilaydi [1]. Bu kamdan-kam uchraydigan urologik kasallik bo'lib, priapizm bilan kasallanish 100 000 kishiga 0,5-0,9 holatni tashkil qiladi [2]. Biroq, yaqinda erektil disfunktsiyani davolash uchun dori-darmonlarni keng qo'llash tufayli priapizm bilan kasallanish darajasi oshdi [3]. Priapizmning eng ko'p uchraydigan sabablari dori vositalarining nohush ta'siri, jarohat, nevrologik kasalliklar, o'roqsimon hujayrali anemiya va boshqa qon kasalliklari hisoblanadi [4]. Leykoz bilan kasallangan katta yoshdagi erkaklarda priapizm rivojlanish darajasi 1-5 foizni tashkil qiladi [5]. Leykoz organizmda aylanuvchi qonning yopishqoqligi oshishi sababli priapizmning veno-okklyuziv (ishemik) shaklini rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Priapizm surunkali miyeloleykozning (SML) birinchi klinik ko'rinishi bo'lishi mumkin [6-9]. Ushbu klinik kuzatuvning maqsadi - ilgari aniqlanmagan SML bilan kasallangan bemorda yuzaga kelgan ishemik priapizmni tasvirlashdan iborat.

KLINIK KUZATUV

Bemor Begaliyev Siroj Eshmirzayevich 33 yoshda, Samarkand viloyati Urgut tumani Mo'g'ol maxallasida yashovchi, 2022 yil 15 oktyabrda Samarqand viloyat ko'ptarmoqli tibbiyot markaziga tez charchash, terlash, oriqlash, chap qovurg'a osti sohasida og'irlik va og'riq, vaqti-vaqti bilan tana xaroratini ko'tarilishi, doimiy va jinsiy qo'zg'alish bilan bog'liq bo'lmagan og'riqli erektsiya shikoyatlari bilan murojaat qildi. Kasallik anamnezidan: bemor o'zini 6 oydan buyon kasallangan hisoblaydi. Ilgari qon kasalliklari, jarohatlar bo'lmagan, erektil disfunktsiyani davolash uchun dori-darmonlar qabul qilmagan. Bemorning so'zlariga ko'ra, so'nggi ikki yil ichida u shunga o'xshash ikki holatni boshdan kechirgan, og'riqli erektsiya bir necha soat davom etgan va issiq dush qabul qilgandan keyin o'z-o'zidan bartaraf bo'lgan. Bemor shifokorlarga murojaat qilmagan. Tekshiruvda: bemorning umumiy ahvoli o'rtacha og'irlikda. Teri va ko'rinadigan shilliq pardalar odatdagidek, periferik limfa tugunlar kattalashmagan. Qon bosimi 120/80mm simob ustunida. Tashqi jinsiy

(cc) BY

a’zolar to’g’ri shakllangan va rivojlangan (erkak turi bo’yicha). Palpatsiyada jinsiy olat tik va og’riqli, jinsiy olatni tanasi qattiq, boshi yumshoq. Barmoq bilan rektal tekshiruvda: prostata bezi kattalashmagan. Qorin palpatsiyasida taloq chap qovurg’a yoyidan 12 sm pastda, jigar qirrasi o’ng qovurg’a yoyidan 2 sm pastda palpatsiyalanadi. Umumiy siydik tahlilida, qon zardobining biokimyoviy tahlilida (jigarning funktsional sinamalari, kreatinin, karbamid, elektrolitlar), ko’krak qafasi rentgenografiyasida, EKG tekshirivuda patologiya aniqlanmadi. Umumiy qon tekshiruvida (19.10.2022): eritrotsitlar 3,6 × 10^{12}/l, gemoglobin - 118 g/l, gematokrit - 34%, leykotsitlar soni - 354, 96×10^9/l, trombotsitlar soni - 400×10^9/l, leykoformula: blast hujayralar 8%, promiyelotsitlar 10%, miyelotsitlar 12%, metamiyelotsitlar 14%, tayoqcha yadroli neytrofillar 14%, segment yadroli neytrofillar 22%, bazofillar 7%, eozinofillar 10%, limfotsitlar 1%, monotsitlar 2%, EChT 23 mm/soat. Bemordagi mavjud klinik-laborator ma’lumotlar asosida “Surunkali miyeloleykoz rivojlangan bosqichi. Priapizm” tashxisi qo’yilib, gidrea 2,5 gr, omeprazol, allopurinol 300 mg bilan davolash belgilandi. Bemorda asosiy kasallikni aniqlashtiradigan Filadelfiya xromosomasini aniqlash uchun Respublika iqtisoslashgan gematologiya ilmiy amaliy tibbiyot markaziga yuborildi. Bemor markazda 21.10. 2022 -31.10.2022 kunlari “Surunkali miyeloleykoz rivojlangan bosqichi. Priapizm” tashxisi bo’yicha davolangan. *Гемограммада* (19.10.2022): eritrotsitlar 3,4 × 10^{12}/l, gemoglobin 106g/l, rang ko’rsatkich 1,0, trombotsitlar 384.0 × 10^9/l, leykotsitlar 74,0 × 10^9/l, leykoformula: blast hujayralar 10%, promiyelotsitlar 12%, miyelotsitlar 13%, metamiyelotsitlar 12%, tayoqcha yadroli neytrofillar 16%, segment yadroli neytrofillar 16%, bazofillar 6%, eozinofillar 10%, limfotsitlar 3%, monotsitlar 2%, EChT 3 mm/soat. *Миелограммада* (20.10.2022): бластлар 3.4%. megakariotsitlar ko’p, leyko-eritroblastik nisbat - 1.5:1. Suyak iligi hujayralari sitogenetik tekshiruvda Filadelfiya (Ph) xromosomasi topilgan. *Jinsiy olatni doppler sonografiyasida:* kavernoz tananing exogenligi pasaygan, geterojen strukturaning har ikki tomoni konturi notekis. Oqsil qobig’i: bir hil, patologik kiritmalar aniqlanmadi. Kavernoz tananig arteriyalarini o’tkazuvchanligi saqlangan, qon oqimi kamaygan. Shimgichli tana: bir hil, kontur bir tekis, patologik kiritmalar aniqlanmadi. Baka fastsiyasi bir hil, o’rtacha exogenli, dorsal arteriyaning o’tkazuvchanligi saqlangan, qon oqimi kamaygan. Dorsal vena kengaygan, qon oqimi tezligi oshgan. Bemorga urolog ko’rigi o’tkazilib priapizm tashxisi tasdiqlangan va asosiy kasallikni davolash tavsiya etilgan. Bemordagi kasallikning klinik manzarasi, qon tekshiruvi va suyak iligi punktati asosida SML tashxisi qo’yildi va bemorga davolash kuniga 400 mg dozada imatinib, gidroksikarbamid kuniga 3 g, allopurinol kuniga 300 mg bilan o’tkazildi. Davolash natijasida yil davomida qon leykotsitlari soni asta-sekin 5,7×10^9/l gacha kamaydi. Гемограммада (18.09.2023): eritrotsitlar 4,6 × 10^{12}/l, gemoglobin 141 g / l, trombotsitlar 205.0 × 10^9/l, leykotsitlar 5,7 × 10^9/l, leykoformula: tayoqcha yadroli

(cc) BY

neytrofillar 12%, segment yadroli neytrofillar 35%, bazofillar 1%, eozinofillar 2%, limfotsitlar 45%, monotsitlar 5%, EChT 9 mm/soat. Bemorda keyingi 6 oy davomida priapizm hurujlari takrorlanmadi.

MUHOKAMA

Priapizmning ikki turi mavjud - ishemik (veno-okklyuziv yoki past oqimli) va arterial (yoki yuqori oqimli) [10]. Ishemik va arterial priapizm o'rtasidagi qiyosiy tashxis kavernoz tanani punksiya qilish natijasida olingan qonning gaz tarkibini o'rganish asosida o'tkazilishi mumkin [11]. Ishemik priapizm uchun PO < 30 mm sim. ust., PCO_2 > 60 mm sim. ust. va pH < 7.25 harakterli, arterial priapizmda gaz tarkibi arterial yoki aralash venoz qon PO_2 > 40 mm sim. ust., pCO_2 < 40 - 50 mm sim. ust. va pH 7,35-7,40 ga to'g'ri keladi [11]. Arterial priapizm odatda travma tufayli yuzaga keladi. Ishemik priapizmning sabablari papaverin, prostaglandin E1, fentolamin kabi vazoaktiv moddalarning intrakorporal in'ektsiyalari, shuningdek, haqiqiy politsitemiya, SML, miyelom kasalligi kabi gematologik kasalliklarda rivojlanadigan giperviskoz sindromi bo'lishi mumkin [10]. Onkogematologik kasalliklar ko'pincha priapizmning veno-okklyuziv (ishemik, past oqimli) shaklini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Detumesensiya jarayonida azot oksidi (NO) va prostaglandinlar (PGI_2) muhim rol o'ynaydi, onkogematologik bemorlarda organizmda aylanuvchi qonning ko'p hujayraligi va yopishqoqligining oshishi tufayli NO va PGI sintezi buziladi, bu trombotsitlar agregatsiyasining va leykotsitlarning adgeziyasini kuchayishiga olib keladi. Trombotsitlar sinusoidal bo'shliqlarning bazal membranasiga yopishadi, fibroblastlarning ko'payishi rivojlanadi va kavernoz tanalarning silliq mushaklarining qisqarish funktsiyasi buziladi [12]. Shunday qilib, kavernoz tanada qon oqimi sekinlashadi va qonning turg'unligi kuchayadi, bu esa priapizmning rivojlanishiga olib keladi. 18 -32 soatdan ortiq davom etadigan ishemiya endoteliya va trabekulalarning buzulishi bilan birga keladi, so'ngra tiklanmaydigan fibroz shakllanishi erektil disfunktsiyaga olib keladi [12].

Adabiyotda qon leykotsitlari soni 92×10^9/l [10, 13] va 503×10^9/l [11, 14] bo'lgan surunkali limfoleykoz bilan kasallangan bemorlarda ishemik priapizmning ikkita klinik kuzatuvi keltirilgan. Boshqa ikkita kuzatuvda leykotsitoz 274×10^9/l [12, 15] va 618×10^9/l [13, 16] bilan o'tkir limfoblastli leykoz bilan kasallangan bemorlarda priapizm rivojlanishi haqida xabar berilgan. Shuningdek, 2019 yil qonda leykotsitlar soni 449, 96×10^9/l bo'lgan surunkali miyeloleykoz bilan kasallangan bemorda ishemik priapizmning klinik kuzatuvi keltirilgan [20].

SML bilan kasallangan bemorlarda priapizm leykostaz va giperviskoz bilan kechadigan giperleykotsitoz tufayli yuzaga keladi, bu odatda qonda leykotsitlari sonining 100×10^9/l dan oshishi bilan kuzatiladi, bu esa o'z navbatida qon quyqalari va mikrotromblar bilan tomirlarning obstruktsiyasiga olib keladi [10]. Surunkali miyeloleykozda priapizm rivojlanishiga olib keladigan yana bir patogenetik omil - bu

(cc) BY

leykoz hujayralari tomonidan sitokinlar va adgeziya molekulalarining ortiqcha ishlab chiqarilishi, natijada kichik qon tomirlarda hujayralar sekvestratsiyasini kuchayishiga olib keladi [10].

SML bilan kasallangan bemorda priapizmning birinchi tavsifi 1974 yilda S.M. Schreibman va boshqalar tomonidan tasvirlangan [17]. Ushbu asorat SML bilan kasallangan erkaklarning 1-2 foizida bimodal yosh taqsimoti bilan qayd etiladi: u 5-10 va 20-50 yoshda uchraydi [18]. Priapizm gematologik kasallikning birinchi klinik ko'rinishi bo'lishi mumkin. Surunkali miyeloleykozda priapizmni davolash urologlar, gematologlar, morfologlar va boshqa mutaxassislarning ishtirokini ta'minlaydigan ko'p tarmoqli yondashuvni talab qiladi. Amerika urologiya assotsiatsiyasi surunkali miyeloleykozda priapizmni davolashda kombinatsiyalangan yondashuvni tavsiya qiladi va surunkali miyeloleykozni tizimli terapiyasining muhimligini ta'kidlaydi [5].

Priapizmda terapevtik tadbirlarning maqsadi patologik erektsiyani o'z vaqtida bartaraf qilish va kavernoz tananing shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun og'riqni engillashtirish hisoblanadi. Bunga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Birinchi qator terapiya kavernoz tanalardan qonni punksiya orqali aspiratsiyasi va adrenomimetiklarni intrakavernoz yuborish hisoblanadi. Leykotsitaferez paytida surunkali limfoleykoz va SML bilan kasallangan bemorlarda priapizm xurujining yechimi tasvirlangan, Bunda ortiqcha leykotsitlar mexanik ravishda olib tashlanadi [14, 19]. Jarrohlik usullari ikkinchi qator terapiya bo'lib, faqat konservativ choralar muvaffaqiyatsiz bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Priapizmni jarrohlik yo'li bilan davolash kavernoz tanalar va shimgichli tanasi (spongiokavernoz shunt) yoki kavernoz tanalardan qon chiqishi uchun sonning yuzaki venasi tizimi (safenokavernoz shunt) o'rtasida anastomoz hosil qilishdan iborat. Bundan tashqari, shunt operatsiyalari samarasiz bo'lgan yoki priapizm davomiyligi 36 soatdan ortiq bo'lgan hollarda jinsiy olatni protezini implantatsiya qilish o'tkaziladi.

Ushbu klinik kuzatuvda priapizmni bartaraf qilish bilan bir qatorda surunkali miyeloleykozni tizimli terapiyasi o'tkazildi, natijada qonda leykotsitlar soni normallashdi. Ushbu terapiyadan keyin bemorni bir yil davomida kuzatish priapizmning qaytalanishi sodir bo'lmadi. Gematologlar tomonidan olib borilgan surunkali miyeloleykozni tizimli terapiyasi bemorda priapizmning qaytalanishini oldini oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salonia A., Eardley I., Giuliano F., et al. European Association of Urology guidelines on priapism. Eur Urol. 2014; 65(2): 480-9. https://doi.org/10.1016/j.eururo.2013.11.008

2. Shokeir A.A., Hussein N.I. The urology of Pharaonic Egypt. BJU Int 1999;84:755-61

(cc) BY

3. Metawea B., El-Nashar A.R., Gad-Allah A., et al. Intracavernous papaverine/ phentolamine-induced priapism can be accurately predicted with color Doppler ultrasonography. Urology. 2005; 66(4): 858-60.

4. Keoghane S.R., Sullivan M.E., Miller M.A. The aetiology, pathogenesis and management of priapism. BJU Int. 2002; 90(2): 149-54.

5. Montague D.K., Jarow J., Broderick G.A., et al. American Urological Association guideline on

6. Абдиев, К., Махмонов, Л., Мадашева, А., & Маматкулова, Ф. (2021). Business games in teaching hematology. Общество и инновации, 2(6), 208-214

7. Abdiev, K. M., Makhmonov, L. S., Madasheva, O. G., & Berdiyarova, M. B. The main causes of anemia in patients with diseases of the colon. Scientist Of The XXI Century, 12; 8.Abdiev K.M, et al. Modern methods of treatment of hemorrhagic syndrome at an early stage in patients with idiopathic thrombocytopenic purpura // Ученый XXI века - 2021, - № 1- 1-P.41-44 (72);

9. Abdiev K.M, et al. Comparative evaluatation of new treatments for immune thrombocytopenia // Nat.Volatiles & Essent.Oils, 2021; 8(5):10160 -10166.

10. Мадашева, А. Г., & Жураева, М. З. (2019). Биохимические показатели и комплексное лечение больных псориазом с лечебным плазмаферезом. Достижения науки и образования, (10 (51)), 78-82.

11. Каттабек Махматович Абдиев, Эркин Санъатович Тоиров, К.Ж Артыкова. Состояние желудка и двенадцатиперстной кишки при ревматоидном артрите. 2005 Журнал Вестник врача общей практики Том 36 Номер 4 Страницы 5-7

12. К.М Абдиев, ВГ Савченко, СМ Куликов . Оптимизация трансфузионной тактики при переливаниях тромбоцитной массы у больных с амегакариоцитарными тромбоцитопениями. Журнал Терапевтический архив, 1991 №7. стр.- 116-121.

13. Мадашева, А. Г., Дадажанов, У. Д., Абдиев, К. М., Маматкулова, Ф. Х., & Махмудова, А. Д. Динамика электронейромиографических показателей и эффективность электрической стимуляции мышц у больных гемофилией с мышечными атрофиями. Достижения науки и образования, (10 (51)), (2019). 26-30.

14. Ruziboeva, O. N., Abdiev, K. M., Madasheva. A. G., & Mamatkulova, F. K. (2021). Modern Methods Of Treatment Of Hemostasis Disorders In Patients With Rheumatoid Arthritis. Ученый XXI века, 8.

15. Мадашева, А. Г., & Махмудова, А. Д. (2021). Биохимические показатели у больных гемофилией с мышечными патологиями до и после лечения. Форум молодых ученых, (4 (56)), 233-238.

16. Gazkhanovna, M. A., Makhmatovich, A. K., & Utkirovich, D. U. (2022). Clinical efficacy of extracorporeal and intravascular hemocorrection methods in psoriasis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 313-318.

17. Мадашева, А. Г. (2022). Коррекция диффузной алопеции при железодефицитной анемии. Science and Education, 3(12), 231-236.

18. Мадашева, А. Г. (2022). Клинико-неврологические изменения у больных гемофилией с мышечными патологиями. Science and Education, 3(12), 175-181.

19. Мадашева, А. Г., & Жураева, М. З. (2019). Биохимические показатели и комплексное лечение больных псориазом с лечебным плазмаферезом. Достижения науки и образования, (10 (51)), 78-82.

20. Дадажанов, У.Д., & Мадашева, А.Г., (2019), Эритропоэтинлар. Журнал вестник врача, 1(4), 153-155.

Елка камари операцияларида регионал анестезиянинг қўлланилиши ва самарадорлиги

Л.С.Махмонов
Ф.Х.Маматкулова
У.У.Рахмонов
Самарқанд давлат тиббиёт университети
О.Э.Алимов
Самарқанд кўп тармоқли тиббиёт маркази

Аннотация: Мақолада жаррохлик муолажалар вақтида елка камари операцияларида регионал анестезиянинг ўтказувчи блокадаси, яъни елка тутами ёки алохида нерв томирлари блокадаси самарадорлиги ва хавфсизлиги ҳақида асосий маълумотлар келтирилган. Муаллифлар анестезиянинг хусусиятларини, унинг чекловларини тавсифлайдилар, шунингдек, шахсий тажриба, ўзларининг тадқиқотлари ва адабиёт маълумотларини таҳлил қилиш натижаларига асосланиб, регионал анестезиянинг одатий амалиётига киритиш йўли ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: жаррохлик, умумий анестезия, елка камари блокадаси, регионал анестезия, анестетиклар, бупивакаин, ропивакаин

Application and effectiveness of regional anesthesia in shoulder girdle operations

L.S.Makhmonov
F.K.Mamatkulova
U.U.Rakhmanov
Samarkand State Medical University
O.E.Alimov
Samarkand Multidisciplinary Medical Center

Abstract: The article provides basic information about the effectiveness and safety of regional anesthesia conduction block, i.e. shoulder bundle or nerve block in the shoulder girdle, during surgical procedures. The authors describe the features of anesthesia, its limitations, and based on the results of personal experience, their own research and analysis of literature data, there is talk about the way to introduce regional anesthesia into routine practice.

Keywords: surgery, general anesthesia, shoulder girdle block, regional

(cc) BY

anesthesia, anesthetics, bupivacaine, ropivacaine

Долзарблиги: Ҳозирги вақтда тиббиётда жаррохлик амалиёт турларининг кўпайиши билан бир қаторда анестезиянинг (оғриксизлантириш) турлари хам кўпаймокда. Одатда умумий анестезия (вена ичи ва эндотрахеал интубацион), регионал (ўтказувчи ва нейроаксиал блокада) ҳамда улар кўшма ҳолатлари қўлланилади. Елка камари операцияларида регионал анестезиянинг ўтказувчи блокадаси, яъни елка тутами ёки алохида нерв томирлари блокадаси қўлланилади. Регионал анестезиянинг умумий анестезиядан афзаллик томонлари: 1. Умумий анестезияда кўп гуруҳдаги дори воситалари - анестетик (кетамин), гипнотик ва седатив препаратлар (пропофол, верзепам, мидозалам), наркотик анальгетиклар (промедол, морфин, омнопон) ишлатилади. Умумий анестезияда ишлатиладиган дори воситаларининг организмга таъсири, юрак қон томир ва нафас сиситемасига, жигар ва буйрак функциясига салбий таъсири, операциядан кейинги даврда уйғониш стадиясида беморларнинг безовта бўлиши (баъзи беморлар қўзғалувчан бўлади), кўнгил айниши, қусиш кузатилиши, операциядан кейинги даврда беморларда бош оғриши, бош айланиши ҳолатлари кузатилиши кўпгина беморларда умумий анестезияни қўллашни чеклашга тўғри келади. Бундан ташқари, умумий анестезияда кўп гуруҳдаги ва кўп миқдорда дори воситалари ишлатилиши ва иқтисодий жиҳатдан бу дориларнинг қиммат бўлишини ҳисобга олган ҳолда, бу дориларни ўрнини босувчи ягона анестетик ишлатилишини йўлга қўйиш имкониятлари хозирги вақтдаги энг катта муаммолардан бири бўлиб қолмоқда [1,6,8].

Регионал анестезияда биргина маҳаллий анестетик - Бупивакаин ёки Ропивакаин ишлатилади. Регионал анестезияга қарши кўрсатмаси камлиги, организмга умумий салбий таъсири йўқлиги, кам асоратлилиги, иқтисодий жиҳатдан қулайлиги елка камари операцияларида ушбу усулни қўллашга кўрсатма бўла олади. Бундан ташқари, умумий анестезияга қарши кўрсатма бўлган беморларга хам регионал анестезия ўтказиш мумкин. Масалан, беморларда ЮИК, юрак етишмовчилиги, нафас етишмовчилиги, буйрак етишмовчилиги, бўлган беморларга қўллаш мумкин бўлади. Посттравматик ўткир қон кетишларда ривожланган ўртача оғир ва оғир даражали камқонликлар умумий анестезияга қарши кўрсатма бўлади. Бундай вақтда регионал анестезия қўллаш мумкин бўлади. Айниқса, елка тутами блокадасини УТТ аппарати навигацияси ёрдамида маҳаллий анестетик билан блоклаш, бу услубни осонлаштиради ва асоратлар учрашини янаям олдини олади. Операция давомида беморнинг хуши ўзида бўлиши, операциядан кейинги даврда бемор ҳаракатланишига ва овқатланишига чекловлар бўлмаслиги беморлар томонидан

(cc) BY

яхши қабул қилинади. Шу билан бир қаторда операциядан кейинги даврда оғриқсизлантиришга эхтиёж бўлмайди, чунки блокада учун ишлатиладиган махаллий анестетикнинг таъсири 6-8 соатгача таъсир килади. Ишнинг мақсади: Самарқанд вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказида ўтказилаётган елка камари операцияларида УТТ аппарати навигациясида елка тутами блокадаси эффективлигини баҳолаш. Методика: Регионар анестезия биринчи марта XIX асрнинг охирларида америкалик олим William Stuwart Halstead томонидан кокаиннинг оғриқ қолдирувчи хусусиятини экспериментал текшириш билан бошланган. XX асрда илм-фан ривожланиб анестезия турлари хам, фармацевтика хам ривожланди. Маҳаллий анестетиклар билан бир қаторда, анестезия турлари ҳам купайиши, регионар анестезиянинг ривожланишига сабаб бўлди. Тиббиёт ривожланиб регионар анестезиянинг инфильтратив, ўтказувчан, нейроаксиал турлари пайдо бўлди. [5,6,7].

Ўтказувчан анестезия аввал кўрмасдан-анатомик билимларга асосланган холда нерв тутамларини блокадаси, кейинчалик махаллий инфильтратив анестезия остида нерв тутамлари жаррохлик йўли билан очилиб, нерв томирларига анестетик препарат юбориш йўли билан ўтказилади. Кейин электростимулятор билан нерв тутамлари аниқланиб анестетик билан блоклаш ўтказилади. Тиббиёт техникаси ривожланиб, кейинги ўн йилликда нерв тутамлари УТТ аппарати навигациясида аниқланиб, кўринган холда нерв тутамлари ва нерв томирларини блоклаш ривожланди. Бу эса регионар анестезиянинг асорати янаям камайишига, эффективлиги кўпайишига, регионар анестезиянинг кенг қўлланилишига сабаб бўлди. Шу қаторда елка тутами блокадаси хам УТТ аппарати навигацияси ёрдамида кенг қўлланилмокда. Елка тутами шаклланиши: С5- С7 бўйин умуртқалари соҳасида орқа мия нервининг олдинги шохларидан чиқиб елка чигалини (plexus brachialis) ҳосил қилади. Ундан елка чигали ўзаги ва елка тутами шаклланади. Елка тутами елка камари мушакларини, терисини иннервациялайди. Елка тутами 4 та йўл билан блокада килинади:

1-Interscaleneus (мушаклараро) 2-Supraclavicularis (ўмровусти) 3-Subclavicularis (ўмровости) 4-Axillar (қўлтиқ ости)

Блокада методикаси: Бемор орқа билан ётган ҳолатда, боши қарама-қарши томонга қараган ҳолда: Interscaleneus (мушаклараро) усулида - бўйиннинг латерал соҳасида олдинги ва ўрта норвонсимон мушаклари орасига, Supraclavicularis (ўмров усти) усулида - ўмров усти соҳасига, Supraclavicularis (ўмров усти) усулида- ўмров ости соҳасига, Axillar (қўлтиқ ости) усулида - қўлтиқ ости соҳасига ультратовуш текшириш аппаратиниг чизиқли узатгичи ўрнатилади. Бу соҳада артерия ва вена қон томирлари кўринади ва идентификацияланади. Шу соҳада қон томирлар атрофида гиперэхоген нуқта

(cc) BY

кўринишида нерв томирлари кўринади. Териси S. Novocain 0.5% - 5,0мл эритмаси билан оғриқсизлантирилгандан кейин G 20 ўлчамли ангиокат билан ультратовуш текшириш аппарати назоратида нерв тугунлари футляри топилади ва маҳаллий анестетиклар - Бупивакаиннинг 0,5% (Ропивакаин, Левобупивакаин) 20,0 мл эритмаси нервлар атрофига- футляр ичига контрол учун 1,0 мл эритмадан юборилади, ангиокат учи нерв тугуни атрофида - футляр ичида турганлигига ишонч бўлгандан кейин эритманинг қолган қисми юборилади. Блокада давомийлиги ўртача 6-8 соатгача давом этади. Адьювант сифатида Дексаметазон 4 мг қўшилиши мумкин, бу блокаданинг давомийлигиниузайтиради. Блокада бажарилиши қулай ва хавфсиз бўлиши билан бир қаторда, асоратлари кам. Шунга қарамасдан қарши кўрсатма ҳам бор: Маҳаллий анестетикка аллергик реакция ва коагулопатиялар.

Материаллар ва методлар: 2023 йил Феврал - Декабр ойларида Самарқанд вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказида “Пластик ва реконструктив микрохирургия” бўлимида ўтказилган елка камари операцияларида бажарилган регионал анестезия - елка тутами блокадаси самарадорлигини баҳолаш учун қуйидаги амалиёт ўтказилди. Текширувга 60 нафар беморлар киритилди: 16 нафари назорат гуруҳ, яъни блокада ўтказилмаган беморлар. Асосий гуруҳга 44 нафар бемор, яъни елка камари операцияларида регионал анестезия- елка тутами блокадаси қилинган беморлар киритилди. Беморлар ёши 18 ёшдан 65 ёшгача бўлиб, ўртача ёш 35-39 ёшни ташкил этиди. Анальгезия учун Бупивакаиннинг 0,5% -5,0 мл эритмаси билан, ультратовуш текшируви EDAN U50 маркали УТТ аппаратида, чизиқли узатгичда ўтказилди. Адьювантлар қўшилмади.

Вилоят кўп тармоқли тиббиёт марказида “Пластик ва реконструктив микрохирургия” бўлимида қуйидаги операцияларда регионар анестезия (елка тутами блокадаси) ўтказилди:Елка камарида нервлар шикастланиши ва узилиши 18 нафар беморда, билак -панжа соҳасида пайлар, мушаклар кесилиши ва контрактураси 11 нафар беморда, билак-панжа соҳасида куйишдан кейинги контрактураси 5нафар беморда, Елка камари юмшоқ тўқималари гемангиомалари, ҳосилалари 4 нафар беморда; Билак, қўл- панжа суяклари синишидан кейинги нотўғри битиши 6 та операцияларида - жами 44 нафар беморларда регионар анестезия (елка тутами блокадаси) ўтказилди.

Асосий гуруҳ:

		Нерв шикаст-ланиши	Пай-мушак кесилиши	Контрак-тура	Гемангио-малар	Суяклар синишидан кейин нотуғри битиши	
Сони		18±3 (40%)	11 ±2 (25%)	5±1 (11 %)	4±1 (9%)	6±2 (13%)	Жами 44 бемор (100%)
Ёши	18- 30	10 (55%)	7 (63%)	4 (80%)	3 (75%)	4 (66%)	
	31- 49	6 (33%)	3 (42%)	1 (20%)	1 (25%)	1 (16%)	
	50- 65	2 (11%)	1 (9%)	-	-	1 (16%)	

(cc) BY

	Нерв шикастланиши	Пай-мушак кесилиши	Контрактура	Гемангиома	Суяклар синишидан кейин нотўғри битиши	
Сони	18±3 (40%)	11 ±2 (25%)	5±1 (11%)	4±1 (9%)	6±2 (13%)	Жами 44 (100%)
Жинси	А 4 (22%)	А3 (27%)	А 3 (75%)	А2 (50%)	А2 (33%)	
	Э 14 (77%)	Э8 (72%)	Э 2 (40%)	Э 2 (50%)	Э 4 (66%)	

Изоҳ: А-аёллар, Э-эркаклар

Асосий гуруҳдаги жами 44 нафар бемордан 4 тасида (9%) елка камари посттравматик нерв, пай ва мушаклар шикастланиши туфайли операция қилинди. Бу беморлар уй шароитида эҳтиётсизлик туфайли елка камари соҳасида травма олган ва ўткир қон кетишлар кузатилган.

Масалан, бемор М., 26 ёшда. Уйида эҳтиётсизлик туфайли ўнг билак соҳасида дераза ойнаси шишаси синиғи кесган. Кесилган жойдан қон кетган. Марказимизга олиб келиниб текширилганда, гемоглобин миқдори 74 г/л гача тушган. Беморни шошилинч операцияга тайёрланиб, регионал анестезия билан операция қилинди.

Бемор Б., 33 ёшда. Чап билак пастки учлиги соҳасидан кесилган жароҳат. Нерв, пай ва мушаклар кесилиши. Текширилганда постгеморрагик анемия (гемоглобин 75 г/л) аниқланди. Беморни шошилинч операцияга тайёрланиб нерв ва пайларни тиклаш - реконструктив операцияси регионал анестезия усулида ўтказилди.

Назорат гуруҳдаги беморларга тотал вена ичи анестезия тури билан ўтказилди. Ишлатилган дори воситалари: Наркотик оғрик колдирувчи - Морфин 1% - 1,0мл (Омнопон, Промедол), психотроп ёки седатив - Верзипам (Пропофол, Мидозалам), Анестетик сифатида - Кетамин ишлатилди. Операциялар давомийлиги 80 дақиқадан - 150 дақиқагача бўлди.

Операция ва наркозлар давомида асоратлар кузатилмади.

Асосий гуруҳдаги беморларда елка тутами блокадаси эффективлигини баҳолаш учун қуйидаги параметрлар кузатилди: 1. Операция давомида оғрик синдроми борлиги 2. Операциядан кейинги даврда анальгетикларга эҳтиёж борлиги 3. Операция давомида ва операциядан кейинги даврда қусиш, кўнгил айниши (ПОТРсиндроми)кузатилиши 4. Гемодинамика кўрсаткичлари

Оғриқ синдромини ВАШ (визул-аналогли шкала) бўйича (0-5 балл) баҳоланди:

ВАШ (визул-аналогли шкала)

0 балл	оғриқ сезмайди
1 балл	оғриқ кам
5 балл	оғриқ кучли

Оғриқлар кўпайиши билан балл ошиб боради.

Беморларнинг ҳушёрлигини Ramsey шкаласи (1-6 балл) бўйича баҳоланди:

1 балл бемор ҳушёр, нотинч, қўзғалувчан;

(cc) BY

6 балл бемор тинч, ухлайди, таъсиротларга кўп реакция қилмайди.

Натижалар: 1) Назорат гуруҳидаги беморларда 2-3 гуруҳ дори воситалари (наркотик анальгетик, седатив, анестетик- Кетамин) ишлатилди. Операциядан кейинги даврда анальгетикларга эҳтиёж кузатилди, диклофенак, баральгин, промедол (омнопон) қилинди. Асосий гуруҳдаги беморларга эса операция даврида ва операциядан кейинги даврда қўшимча анальгетикларга эҳтиёж кузатилмади. 2) Назорат гуруҳдаги беморларда опиат анальгетик олгандан кейин кўнгил айниши, қусиш (ПОТР), гемодинамикаси ностабиллиги кузатилди. Асосий гуруҳдаги беморларда кўнгил айниши, қусиш кузатилмади. 3) Беморлар ВАШ бўйича кузатилганда назорат гуруҳдаги беморларда операциядан кейинги даврда безовталик, оғрикни сезиш кузатилиб турди. Асосий гурухдаги беморлар 12- 16 соатгача кузатувда тинч ётди, оғрик сезмади, беморлар эрта активлашиши кузатилди. 4) Асосий гуруҳдаги беморларда Елка тутами блокасидан кейин гемодинамикаси ўзгаришсиз, нормал кўрсаткичларда бўлиб турди. Беморларда эрта активлашиш бўлганлиги учун ошқозон-ичак моторикаси тез тикланишига сабаб бўлди.

Операциядан кейинги даврда беморларни кузатиш:

(Дастлабки 12- 15 соатгача)

Гуруҳ	Назорат	Асосий
Оғриқ синдроми	+++	йўқ
Анальгетикка эҳтиёж диклофенак баральгин омнопон(промедол)	 + + + + + + +	 + + йўқ
қусиш, кўнгил айниш	+ +	йўқ

Ramsey шкаласи буйича экстубациядан кейин контрол гурухдаги беморларда 2,0 +/- 0,5, асосий гурухдаги беморлар 2,5 - 3,5 +/- 0,3 балл билан бахоланди. ВАШ буйича 4-6 соатдан кейин контрол гурухда 4,5-5 балл, асосий гурухда 1,0-1,5 балл билан бахоланди

Гуруҳ	Назорат	Асосий
ВАШ шкала	4,5-4,8 балл	1,0 ± 0,5
Ramsey шкала	2,0 ± 0,3балл	3,5 ± 0,3
Гемодинамика: ўртача А/Б пульс	 145 ± 5,0мм.с.у. 85-96 та/мин	 125 ± 5,0 мм.с.у. 84-70та/мин

Хулоса:

1. Елка камари операцияларида елка тутами блокадаси Бупивакаиннинг 0,5% ли эритмаси билан оғриқсизлантириш ўтказилганда наркотик анальгетикларга, седатив препаратларга, Кетамин ва бошқа вена ичи анестетикларга эҳтиёж бўлмади. Операция вақтида ва операциядан кейинги даврда беморлар оғриқ сезмади, операция вақтида ва операциядан кейин гемодинамик кўрсаткичлар стабил бўлиб турди, беморларда кўнгил айниш,

(cc) BY

қусиш кузатилмади.

2. Беморлар операциядан кейин актив ҳаракатланиб юрди. Умумий анестезияда ишлатиладиган дори воситаларининг организмга таъсири, юрак кон томир ва нафас сиситемасига, жигар ва буйрак функциясига салбий таъсири, операциядан кейинги даврда уйгониш стадиясида беморларнинг безовта булиши (баъзи беморлар қўзғалувчан бўлади), кўнгил айниш, қусиш кузатилиши, операциядан кейинги даврда беморларда бош оғриши, бош айланиши ҳолатлари кузатилиши, кўпгина беморларда умумий анестезияни қўллашни чеклашга туғри келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Проводниковая анестезия. Проф. И.Н. Большаков., проф.В.Ф. Байтингер. Москва 2016г

2. Проводниковое обескровлевание как важное достоинство проводниковой анестезии. Вайсблат С.Н.

3. Топографическая анатомия и оперативная хирургия головы и шеи. Геотар-Медиа 2010г

4. Ultra Sound Regional Anesthesia/ Канадская ассоциация ультразвуковой регионарной анестезии.

5. Комбинированная регионарная анестезия при множественной травме опорно- двигательного аппарата. Р.Р. Сафин, Р.Т. Гилялов Казань.

6. Маматкулова, Ф. Х., & Ахмедов, Х. И. (2023). Темир танқислиги камқонлигининг келиб чиқиш сабаблари ва даволашга замонавий ёндошув. Science and Education, 4(1), 195-203.

7. Dadajonov, U., Abdiyev, K., Mamatkulova, F., & Dadajonov, U. (2021). Innovatsionniye metodi lecheniya immunnoy trombotsitopenicheskoy purpuri u lits molodogo vozrasta. Obshestvo i innovatsii, 2(4/S), 52-56.

8. Mamatkulova F. X. Mamatova N. T. Ruziboeva.O. N. Prevention Of Anemia In Patients With Tuberculosis. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 2(11), 62-65.

9. L. S. Makhmonov., F. Kh. Mamatkulova., M. B. Berdiyarova. , K.E. Shomurodov.THE MAIN CAUSES OF ANEMIA IN IRON AND VITAMIN B 12 DEFICIENCY ASSOCIATED WITH HELICOBACTER PYLORI

10. Makhmonov L. S., Mamatkulova F. Kh., Kholturaeva D. F., Muyiddinov Z. Z. IMPORTANCE OF DETECTION OF HEPSIDINE AND INTERLEUKINS IN "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2.

11. Mamatkulova F. X. Mamatova N. T. Ruziboeva.O. N. Prevention Of Anemia In Patients With Tuberculosis. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 2(11), 62-65.

12. L. S. Makhmonov., F. Kh. Mamatkulova., M. B. Berdiyarova., K.E. Shomurodov.THE MAIN CAUSES OF ANEMIA IN IRON AND VITAMIN B 12 DEFICIENCY ASSOCIATED WITH HELICOBACTER PYLORI

13. Makhmonov L. S., Mamatkulova F. Kh., Kholturaeva D. F., Muyiddinov Z. Z. IMPORTANCE OF DETECTION OF HEPSIDINE AND INTERLEUKINS IN IRON DEFICIENCY ANEMIA. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 4, April 2022

14. Dadajanov U. D., Mamatkulova Feruza Xaydarovna, R. Oyjamol N. Features Of Thrombophilia In Covid-19 European Journal of Molecular & Clinical Medicine2020/12/26. 07/03

15. Mamatkulova Feruza Khaydarovna, Akhmedov Husan Isrofilovich, Abdiev Kattabek Makhmatovich. Essential Thrombocythemia - Principal Analysis in Children and Adolescents. JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS Volume: 2 Issue: 10 | Oct - 2023 ISSN: 2720-6882. 23-29.

16. ON Ruziboeva, KM Abdiev, AG Madasheva, FK Mamatkulova MODERN METHODS OF TREATMENT OF HEMOSTASIS DISORDERS IN PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS Ученый XXI века 78 (7), 8-11.

17. Barkagan Z.S. // Gematologiya bo'yicha qo'llanma / Ed. Vorobieva A.I. - M., 1985. - T. 2. - S. 337-338.

18. Abdiyev K.M., Dadajanov U.D., Mamatkulova F.X. Nekotoriye aspekti vedeniya bolnix s trombotsitopenicheskoy purpuroy oslojnennoy s apopleksiyey yaichnika. Problemi ekologii, zdorovya, farmatsii i parazitologii. Nauchniye trudi. Moskva. 2013 g. Str. 372-373.

19. Makhmonov L.S., Sh. Koraboev S.K., Gapparova N..Sh, Mamatkulova F. Kh. Early diagnosis and treatment of funicular myelosis in v12 deficiency anemia. Asian Journal of Multidimensional Research Year : 2022, Volume : 11, Issue : 5.First page : (369) Last page : (373)Online ISSN : 2278-4853.

20. Mamatkulova F.X., Alimov O.E., Namozov M.N.O'. Abdominal jarroxlik operatsiyalardan keyingi davrda regional anesteziyaning samaradorligi va rivojlangan kamqonlikni davolash //Science and Education. - 2023. - T. 4. - №. 2. - C. 445-452.

21. KM Abdiev, AG Madasheva, FK Mamatkulova MODERN METHODS OF TREATMENT OF HEMORRHAGIC SYNDROME AT AN EARLY STAGE IN PATIENTS WITH IDIOPATHIC THROMBOCYTOPENIC PURPURA. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 41-44

(cc) BY

22. MF Khaydarovna, AH Isrofilovich, AK Makhmatovich Essential Thrombocythemia-Principal Analysis in Children and Adolescents. Journal of Intellectual Property and Human Rights 2 (10), 23-29

23. Mamatkulova F.Kh. Shomurodov K.E.,Temirov N. N. Significance. Of Helicobacter Pylori In Iron Deficiency. International Journal for Research in Applied.Science & Engineering Technology (IJRASET)ISSN: 2321-9653; Volume.9 Issue XII Dec.2021.https://doi.org/10.22. 214/ijraset.2021.39443. 1103-1106

24. Maxmonov L.S.,Mamatqulova F.X.,Holiqulov B.Y.Trombotsitopatiya bilan kasallangan ayollarda tuxumdon apopleksiyasi asoratini davolash tamoyillari Biologiya va tibbiyot muammolari 2022, №1.UDK: 615.3:617.01.134 ISSN 2181-5674 61-67s.

25. KM Abdiev, AG Madasheva, F Kh Mamatkulova. MODERN METHODS OF TREATMENT OF HEMORRHAGIC SYNDROME AT AN EARLY STAGE IN PATIENTS WITH IDIOPATHIC THROMBOCYTOPENIC PURPURA. УЧЕНЫЙ XX

26. L.S. Makhmonov, FK Mamatkulova, MB Berdiyarova, KE Shomurodov. The main causes of anemia in iron and vitamin b 12 deficiency associated with helicobacter pylori.Nveo-natural volatiles & essential oils Journal| NVEO, 10167-10174I ВЕКА. Ст.41

27. KM Abdiev, FK Mamatkulova, KM Shomirzaev.STRUCTURE OF COMORBIDITY IN IDIOPATHIC THROMBOCYTOPENIC PURPLE ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 52-56

28. Abdiyev K. M., Mamatkulova F. X., Shomirzayev X. M. Immun trombotsitopenik purpurani davolashning innovatsion va noananaviy usullari //Science and Education. - 2023. - T. 4. - №. 1. - S. 228-234.

29. Abdiev Kattabek Makhmatovich, Mamatkulova Feruza Khaydarovna. Structure of comorbidity in idiopathic thrombocytopenic purple SKM ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 22 (12), 56-60

30. U.D DADAJONOV, KM ABDIEV, FX MAMATKULOVA. Innovative methods of treatment of immune thrombocytopenic purpura in young people Society and innovations, 52-56 Society and innovations, 52-56

31. Mamatkulova F. X., Usmonqulov J. Sh. O‘. Vitamin V12 kamqonligi va uni davolash //Science and Education. - 2023. - T. 4. - №. 2. - S. 252-259.

32. Maxmonov, L., Mamatkulova, F., Abdiyev, K., & Amerova, D. (2021). The importance of using clinical audit in teaching the subject of hematology. Obshestvo i innovatsii, 2(6), 215-221.

33. Abdiyev, K., Maxmonov, L., Madasheva, A., & Mamatkulova, F. (2021). Business games in teaching hematology. Obshestvo i innovatsii, 2(6), 208-214.

34. Gadayev A.G., Maxmonov L.S., Mamatqulova F.X. Helicobacter pylori bilan assotsiyalangan temir va vitamin v12 tanqisligi kamqonliklarida yallig‘lanish sitokinlarining ayrim laborator ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligi. - 2022.

35. Maxmonov L.S., Mamatqulova F.X., Holiqulov B.Y. Gemorragik diatezlar bilan kasallangan ayollarda tuxumdon apopleksiyasi asoratini davolash tamoyillari //Science and Education. - 2022. - Т. 3. - №. 12. - С. 237-244.

35. Дадажонов, У., Абдиев, К., Маматкулова, Ф., & Дадажонов, У. (2021). Инновационные методы лечения иммунной тромбоцитопенической пурпуры у лиц молодого возраста. Общество и инновации, 2(4/S), 52-56.

36. Маматкулова, Ф. Х., & Усмонқулов, Ж. Ш. Ў. (2023). Витамин B12 камқонлиги ва уни даволаш. Science and Education, 4(2), 252-259.

37. Абдиев К. М., Маматкулова Ф. Х., Шомирзаев Х. М. Иммун тромбоцитопеник пурпурани даволашнинг инновацион ва ноанаьнавий усуллари //Science and Education. - 2023. - Т. 4. - №. 1. - С. 228-234.

38. Махмонов, Л. С., Маматкулова, Ф. Х., ўғли Усмоқулов, Ж. Ш., & Меликулов, Б. С. (2024). Кекса одамларда анемиянинг ўзига хос томонлари ва даволашга замонавий ёндошув. Science and Education, 5(1), 64-74.

39. Махмонов, Л. С., Маматкулова, Ф. Х., Усмоқулов, Ж. Ш. Ў., & Меликулов, Б. С. (2024). Антикоагулянтлар ва уларнинг қўлланилиши. Science and Education, 5(1), 75-86.

40. Маматкулова, Феруза Хайдаровна, Одил Эшнорович Алимов, and Мухаммад Насриддин Ўғли Намозов. "Абдоминал жаррохлик операциялардан кейинги даврда регионал анестезиянинг самарадорлиги ва ривожланган камқонликни даволаш." Science and Education 4.2 (2023): 445-452.

Bemor kuratsiyasi - ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasida talabalarning mustaqil ishining asosiy shakli

Nargiza Toirjonovna Mamatova
Bahrombek Abduvalievich Abduxakimov
Shirin Xayrulloevna Axtamova
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Abduvaliy Abduxakimovich Ashurov
Samarqand viloyati Ftiziatriya va pulmonologiya markazi

Annotatsiya: Ta’lim muassasasining asosiy raqobatdosh ustunligi-bu jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim sifati, bu iste’molchilarning ta’lim xizmatidan qoniqishidir. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy shartlari oliy o‘quv yurtida o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘zgarishlarni talab qiladi: o‘quv xonasidagi yuklamani kamaytirish, ma’ruzalarni passiv tinglashni talabaning mustaqil ishi ulushini oshirish bilan almashtirishdir.

Kalit so‘zlar: kuratsiya qilish, ta’lim, talaba, bemor

Patient curation-the main form of independent work of students at the department of phthisiology and pulmonology

Nargiza Toirjonovna Mamatova
Bahrombek Abduvalievich Abdukhakimov
Shirin Khairulloevna Akhtamova
Samarkand State Medical University
Abduvaliy Abdukhakimovich Ashurov
Samarkand Region Phthisiologys and Pulmonology Center

Abstract: The main competitive advantage of an educational institution is the quality of education at the current stage of the development of society, which is the satisfaction of consumers with educational service. Modern conditions for the development of society require changes in the organization of the educational process in a higher educational institution: to reduce the load on the study room, to replace passive listening to lectures with an increase in the share of the student’s independent work.

Keywords: curation, education, student, patient

(cc) BY

Oliy ta’limi uchun zamonaviy talablar, shuningdek, shifokorlarning diplomdan keyingi uzluksiz ta’lim tuzilishi va tartibidagi o‘zgarishlar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va shakllantirishning yangi samarali usullarini ishlab chiqish zarurligiga olib keladi [5,12,35]. Shifokorni tayyorlashning zamonaviy jarayoni talabalarda ijodiy klinik fikrlashni, kasallikning har bir holatini talqin qilishda chuqur yondashuvni rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu ko‘nikma va ma’lum kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan holda, shifokor patologiyaning o‘ziga xos masalalarini mustaqil ravishda o‘rganishi va ularni tushunishi, tibbiy ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashning uzluksizligi printsipini amalga oshirishi mumkin. Ta’lim muassasasining asosiy raqobatdosh ustunligi-bu jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim sifati, bu iste’molchilarning ta’lim xizmatidan qoniqishidir.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy shartlari oliy o‘quv yurtida o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘zgarishlarni talab qiladi: o‘quv xonasidagi yuklamani kamaytirish, ma’ruzalarni passiv tinglashni talabaning mustaqil ishi ulushini oshirish bilan almashtirishdir [2,11,20,41].

Tadqiqotning maqsadi ftiziatriya fanini o‘rganish jarayonida talabalarning darsdan tashqari mustaqil ishlarining xususiyatlarini, ya’ni bemorni kuratsiya qilishni tavsiflashdir.

Material va tadqiqot usullari: Ftiziatriya fani o‘quv rejasiga muvofiq, auditoriyadan tashqari mustaqil ish hajmi 88 soatni yoki fanning umumiy yuklamasining 47 % tashkil qiladi. Ftiziatriy fanini o‘rganish jarayonida talabalarning darsdan tashqari mustaqil ishlari turli xil ish turlari bilan ifodalanadi: bemorni kuratsiya qilish; mustaqil o‘rganish uchun berilgan masalalarni an’anaviy o‘rganish; seminarlarga tayyorgarlik; testlarga tayyorgarlik; o‘quv adabiyotlarini o‘rganish; kasallik tarixi yozish; talabalarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga jalb qilish. Bemorni kuratsiya qilish ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasida pediatriya fakultetining 5-kursida mustaqil ishlashning asosiy shakli hisoblanadi. Bemorni kuratsiya qilish faqat tibbiy muassasada, to‘g’ridan-to‘g’ri bemorning palatasidagina emas, balki ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasida talabalar turli vaziyatlarda bemor bilan ishlashni o‘rganadilar: dispanser negizida (ambulatoriya). Kuzatuvning odatiy shaklini (bemorning yotoqxonasida) mustahkamlash dispanserning kunduzgi shifoxonasi asosida amalga oshiriladi. Shunday qilib, talabalar ambulatoriya qabulida cheklangan vaqt ichida bemor bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘rganadilar, qabulni to‘g’ri tashkil etish bilan tanishadilar, bu esa shifokorga har bir bemor bilan ishlashda barcha kerakli vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Talabalar dastlab dispanser muassasasining ftiziatr-shifokorining harakatlarini kuzatadilar, so‘ngra alohida elementlarni mustaqil ravishda takrorlaydilar: shikoyatlar to‘plami, kasallik va hayot tarixi, tekshiruv, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish: ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam olgan bemorning

(cc) BY

tibbiy kartasi; ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam olgan bemorning kuponi; kasalxonaga yotqizish, tekshirish, maslahat uchun ko‘rsatmalar; dori-darmonlarni buyurish uchun retsept shakllari; tibbiy-ijtimoiy ekspertizaga yo‘llanmalar; dispanserni nazorat qilish kartalari va boshqa hujjatlar [3, 4].

Kafedra o‘qituvchisi kafedra mudiri bilan birgalikda talabaning mustaqil ishini nazorat qiladi. Ishning nazorat bosqichi har bir talaba bilan individual ishlashga asoslangan. Har bir kuratsiya qilinadigan bemor uchun o‘quv tibbiy mikrokururatsiyasini yozish nazoratning asosidir. Bemorning mikrokuratsiyasi talaba tomonidan olib borilgan barcha bosqichlarni (shikoyatlar, kasallik va hayot tarixi, ob’ektiv tekshiruv ma’lumotlari, dastlabki tashxis, zarur tekshiruv va davolash) batafsil bayon qiladi. Ushbu turdagi faoliyat sizga ma’lumotni mantiqiy asoslangan, izchil taqdim etish, so‘ngra tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa. Shunday qilib, shifokor-ftiziatrning kelajakdagi kasbiy faoliyatining asosi bemorni kuratsiya qilish ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasida katta kurslarda boshlangan va “Ftiziatriya va pulmonologiya” mutaxassisligi bo‘yicha ordinaturada davom ettirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдухакимов Б. А. Сил билан касалланган беморлар ва уларнинг оила аъзоларининг эмоционал ҳолати //Инновации в педагогике и психологии. – 2021.– Т. 4. – №. 1.

2. Абдухакимов Б. А. Qalqonsimon bezining funksional holatiga silga qarshi davolash choralarining tasiri //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2020. – Т. 1. – №. 3.

3. Ашуров А. А., Абдуҳакимов Б. А. Қалқонсимон бези патологияси кузатилган беморларда силга қарши даволаш чораларининг оқибатлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 8. – С. 166-173.

4. Ашуров А.А. Силнинг оғир ва сурункали шакллари билан касалланган беморларга паллиатив тиббий ёрдам кўрсатишнинг аҳамияти//Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 2. – С. 52-55. https://doi.org/10.38095/2181-466X-2020942-52-55

5. Ашуров А., Абдухакимов В. (2022). Особенность течения туберкулеза легких у детей в сочетании с гельминтозом. Журнал кардиореспираторных исследований, 2(3), 69–72. https://doi.org/10.26739.2181-0974-2021-3-13

6. Ким А. А., Индиаминов С. И., Асатулаев А. Ф. Патоморфология отравлений угарным газом //Журнал биомедицины и практики. – 2020. – Т. 3. – №. 5. – С. 93.

7. Ким А. А. и др. Структура смертельных отравлений //Журнал биомедицины и практики. – 2020. – С. 316-321.

(cc) BY

8. Индиаминов С. И., Ким А. А. Поражения структур головного мозга при отравлениях кровяными и обще функциональными ядами //Журнал Биомедицины и практики. Ташкент. – 2020. – №. 3-С. – С. 74-84.

9. Маматова Н.Т. Опыт применения краткосрочных курсов лечения у больных туберкулёзом с множественной лекарственной устойчивостью в Самаркандской области. Вестник научно-исследовательского института туберкулёза,106-107, 2020.

10. Маматова Н. Силга қарши даволаш чораларининг қалқонсимон безининг фаолиятига таъсири //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 31-35.

11. Маматова N., Ходжаева S., Ашуров А., Абдухакимов В. (2022). Влияние туберкулеза легких на психическое состояние подростков. Журнал гепатогастроэнтерологических исследований, 2(3.2), 114–117. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/hepato-gastroenterological/article/view/2454

12. Маматова N., Ашуров А., Абдухакимов В. (2022). Особенности течения туберкулеза легких у детей в сочетании с глистной инвазией. Журнал кардиореспираторных исследований, 2(1), 74–77. https://doi.org/10.26739.2181-0974-2021-1-14

13. Маматова Н. Т. и др. Влияние улучшения психического состояния на эффективность лечения женщин, больных туберкулезом органов дыхания //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 156-165.

13. Маматова . Н. Nafas olish tizimining sil kasalligini kompleks davolash samaradorligiga bedakvilinning ta’siri. Журнал кардиореспираторных исследований 1 (1), 77-80.

14. Олимджонов К. Ўпка сили билан касалланган беморларга стоматологик ёрдам кўрсатиш тамойиллари. Журнал стоматологии и краниофациальных исследований 1 (3), 43-46. https://doi.org/10.26739.2181-0966-2020-3-9

15. Турдибеков Х. и др. Исследование ассоциации полиморфных вариантов гена β2-адренорецептора с бронхиальной астмой //Журнал кардиореспираторных исследований. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 41-44.

16. Ходжаева, С., Аджаблаева, Д., Саидова, М., Анисимова, Т., Пардаева, У., Маматова, Н., Мавланова, У. (2011). Данные электрокардиографических исследований при туберкулёзе органов дыхания. Журнал вестник врача, 1(04), 127–128. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/doctors_herald/article/view/12536

17. Ходжаева, С., Аджаблаева, Д., Саидова, М., Анисилюва, Т., Пардаева, У. (2011). Актуальные проблемы туберкулёза в сочетании с ВИЧ. Журнал вестник врача, 1(04), 125–126. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/doctors_herald/article/view/12535

Havoni ifloslantiruvchi moddalaming inson organizmiga o’tkazayotgan ta’siri ifloslantiruvchi moddaning turiga va joylashish hududiga bog’liq. Inson organizmiga o’tkazayotgan ta’sirlar yuqorida aytib o’tilgan bo’lib, ular asosan manbaga yaqin joylar uchun keltirilgan. Boshqa yaqin bo’lgan ta’sirlar nisbatan ikkilamchi ta’sir sifatida ko’riladi hamda NSKOVdagi ikkilamchi standartlariga taalluqli. Ularga toshli konstruksiyalarga ishlov berish va chang to’planish jarayonlari kiradi. Katta ta’sir o’tkazish zonalari, odatda, butun region bo’yicha yoki butun dunyo bo’ylab joylashgan manbalaming keng ko’lamdagi umumiy ta’siriga bog’liq. Ushbu ta’sirlaming ayrimlari global iqlimni o’zgarishi, kislotali yomg’irlar, troposferali ozon va stratosferali ozon kabi o’zgarishIami o’z ichiga olgan. Atrof-muhitga har bir bunday ta’sirlar quyida ko’rib chiqiladi. «Iqlimni o’zgarishi» jumlasi, ko’pincha, «global isish» jumlasi bilan o’zaro almashtirib ishlatiladi. Lekin, AQShning Milliy fanlar akademiyasi ma’lumotlariga ko’ra, «iqlimni o’zgarishi» jumlasi «global isish» jumlasiga nisbatan ko’proq mos keladi, chunki u temperaturani oshishiga qo’shimcha boshqa o’zgarishlar ham borligini ko’rsatishga yordam beradi. Iqlimni o’zgarishi har bir uzoq vaqt davomida (masalan, bir necha o’nlab yillar yoki undan ham uzoqroq) davom etadigan sezilarli iqlim ko’rsatkichlarini (temperatura, yog’in-sochinlar yoki shamol) o’zgarishiga taalluqlidir. Iqlimni o’zgarishi quyidagilar natijasida kelib chiqishi mumkin: Tabiiy faktorlar, ya’ni quyosh faolligini o’zgarishlari,

Yer sharini Quyosh atrofida orbitasidagi o’zgarishlar yoki Quyoshni o’zining faollik darajasini o’zgarishlari;

iqlim tizimidagi tabiiy jarayonlar (masalan, vulqonlar otilishi yoki okean sirkulyatsiyalaridagi o’zgarishlar);

atmosferaning tarkibini (masalan, yoqilg’i yoqish natijasida pamik gazlari miqdorini ortishi) va yer yuzasini (masalan, o’rmonlami kesish, o’rmonlami qayta tiklash, urbanizatsiya, cho’llanish va h.k.) o’zgartiradigan inson faoliyati; Yeming iqlimi millionlab yillar davomida o’zgarib kelganligini hisobga olganda, iqlimning o’zgarishi yangi hodisa emas.

Inson faoliyati atmosferadagi pamik gazlarini miqdorini ko’payishiga ta’sir ko’rsatadi. Pamik gazlarining ma’lum miqdori yerdagi hayotni ta’minlash uchun kerak, chunki ular o’simliklami fotosintezi uchun uglerod yetkazib beradi va ular atmosferada kerakli issiqlikni ushlab qolib, sayyorani issiq va muvozanat holatida saqlab turadi.

Shimoliy dengiz va Atlantik okeanning Shimoliy-Sharq qismidagi fitoplanktonning tahlili 1948-yildan 2003-yilgacha uning o’sishini ko’rsatmoqda hamda o’sish davom etmoqda. Demak, pamik gazlarining yer atmosferasiga ta’siri

(cc) BY

o’rganilishi va muhokama qilinishi zarur. Shunga qaramasdan, ulaming Yeming umumiy iqlimiga ta’siri oxirigacha o’rganilmagan va bu ko’pgina sohalarga, o’rtacha global temperaturadan boshlab, okean o’simliklarigacha, ta’sir ko’rsatadi. 65 Troposferaii ozon. Troposferali yoki Yer sathidagi ozon, awal ko’rib chiqilgandek, inson sog’lig’iga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir ko’rsatishi hamda u pamik gazi bo’lganligi va ko’rinishni yomonlashtirishi sababli, xavotirga solmoqda. Shuningdek, u kuchli oksidlantiruvchi modda bo’lib, atmosferada to’liq boshqa ifloslantiruvchi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi yoki qisman oksidlangan kimyoviy mahsulotlami hosil qiladi, ulardan ayrimlari esa havoni zaharli moddalar bilan ifloslantiradigan birikmalar bo’lishi mumkin.

Ozon to’g’ridan-to’g’ri atmosferaga tashlanmaydi, u azot oksidlari va yoqilg’i yoqish va u bilan bog’liq bir qator sanoat jarayonlarda hosil bo’ladigan uchuvchan organik birikmalar o’rtasidagi kimyoviy reaksiyalar natijasida hosil bo’ladi.

Ozon ko’pincha sog’liqqa zarar etkazadigan darajalardagi miqdoriga issiq Quyosh kuchli bo’lgan kunlarda shahar sharoitida yetib keladi hamda u shamol bilan katta masofalarga tarqalishi mumkin. Shu sababli, qishloq hududlarida ham ozonning yuqori darajalari sezilishi mumkin. Ozon hamda ko’pincha shaharlarda hosil bo’ladigan smogning asosiy komronenti hisoblanadi. Ozonning miqdori nisbatan kam bo’lganda ham, u inson salomatligiga ta’sir ko’rsatishi mumkin. O’pka kasalligiga chalingan odamlar, bolalar, keksalar va ochiq havoda harakat qiladigan odamlar, ayniqsa, ozonga sezgir bo’ladilar. Bolalar, ayniqsa, xavf ostida bo’ladilar, chunki ulaming o’pkalari to’liq rivojlanmagan va bu jarayon davom etadi hamda bolalar kattalarga nisbatan ko’proq astmaga chalinadi. Ozon sezgir o’simliklarga, shu jumladan, daraxt va o’simliklarga vegetatsiya davrida ham ta’sir ko’rsatadi. Stratosferali ozon.

Yer sathidan 6-30 mil. (10-50 km.) balandlikdagi atmosfera qavati stratosfera deyiladi. Bu yerda ozon Quyoshning zararli ultrabinafsha nurlanishini yutib olishda muhim rol o’ynaydi. Oxirgi 20 yil davomida ozon atmosferaga tashlanayotgan, shu jumladan, xlorfitomglerodlar, deb tanilgan antropogen gazlar, xavfi ostida bo’lib kelmoqda. Ushbu kimyoviy birikmalar hamda stratosferadagi meteorologik sharoitlar stratosferadagi ozon miqdoriga ta’sir ko’rsatadi.

Ozon qatlami Quyosh nurlanishining bir qismini yutib olib, uni Yer yuzasiga etib borichiga yo’l qo’ymaydi. Buning eng muhim tomoni shunda-ki, u teri saratoni va kataraktaga olib keladigan UVB nomli ultrabinafsha nurlanishning qismini yutib oladi. UVB Quyosh hosil qiladigan 280-320 to’lqin uzunlikdagi ultrabinafsha nurlanishning qismidir. Ozon molekulalari stratosferada doimiy hosil bo’ladi va 66 parchalanadi.

Umumiy miqdori esa nisbatan bir xil bo’lib saqlanib turadi. Ozon miqdori, tabiiyki, quyoshdagi dog’larga, yil fasli va kenglikka qarab, o’zgarib tursa-da, bu

(cc) BY

jarayonlar yaxshi o’rganilgan va oldindan ma’lum. Olimlar o’nlab yillar davomida tabiiy sikllarda ozonni normal darajasmi o’rganib chiqilganligi haqidagi yozuvlami aniqladilar. Ozonni har bir yo’l bilan kamayishi uning qayta tiklanishi bilan bog’liqdir. Lekin, oxirgi yillardagi ilmiy ma’lumotlarga ko’ra, ozon qalqonini yemirilishi tabiiy jarayonlar natijasida o’zgarishi chegarasidan ancha chiqib ketganligi aniqlandi. Parchalanishda xlor atomlari ajralib chiqadi va shu xlor atomlari ozon molekulalari bilan reaksiyaga kirishib, ozon qatlamini yemiradi. Bir xlor atomi 100000 dan ko’p ozon molekulasini parchalashi mumkin. Natijada, ozonni parchalanishi uning tabiiy yo’l bilan hosil bo’lish jarayonidan tezroq kechadi. Troposferada xloming tabiiy manbalari ham bo’lishi mumkin. Ularga katta yong’inlar, flora va faunaning ayrim turlari hamda vulqon otilishlari kiradi. Lekin, taxmin bo’yicha, bu tabiiy manbalar stratosfyer ozonni yemirilishiga xloming qo’shayotgan hissasidan 15 foizni tashkil qiladi. XFUlardan yoki boshqa manbalardan tushayotgan xlorga stratosferali ozonni yemirilishi qo’shimcha boshqa birikmalarga ham bog’liq. Ularga azot oksidi (NO), azot zakisi (N20) hamda gidroksil (OH) radikali bor bo’lgan birikmalar kiradi. Bu birikmalar reaksiyaga kirishib, ozonni parchalagani bilan taxmin bo’yicha, ulaming samaradorligi va troposferada tarqalganligi XFU moddalariga yaqinlacha olmaydi. Ozon darajasini kamayishi yerga etib kelayotgan UVB nurlarini miqdorini ko’payishiga olib keladi. Quyoshdan UVBni ajralib chiqishi kamaymaydi, lekin, ozonni kamligi himoyalash darajasini pasayishi hisoblanib, Yerga etib kelayotgan UVB nurlarini ko’payishiga olib keladi. Laboratoriya va epidemiologik tadqiqotlar boyicha UVB ten saratoni, melanoma va xatarli melanoma kasalligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. RI Sharofutdinova, AN Asadullaev, Z.X Tolibova. The Factors and Basic Concepts Determining Community Health. Central Asian Journal of Medical and Natural Science 2 (5), 376-379

2. AN Asatullayev, OG Jabborova. Bleeding and its Types, Organization of Emergency Assistance in Bleeding. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 13, 111-116

3. A ASsadullayev. Jamiyatda sog’lom turmush tarzini tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarining o’rni. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 1 (1).

4. A Asadullayev. Sog’lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8).

5. А.Н Асадуллаев. Жамиятда соғлом турмуш тарзини ташкил қилишда жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларининг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар журнали, 3-махсус сон, 31-36 бетлар.

(cc) BY

6. R.S Baymuradov, A.N Asadullayev, M.B Baxshullayeva. Роль гигиены физического воспитания в правильном росте и развитии подрастающего поколения.«Молодой исследователь: вызовы и перспективы» Сборник статей по материалам CCXXVII. Москва, 158-164.

7. А.Н Асатуллаев. Ўткир заҳарланишларда шошилинч тиббий ёрдам. Science and Education 3 (5), 148-153.

8. A.A Narzullayevich. Talabalar salomatligida jismoniy tarbiyaning ahamiyati. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali 2 (9), 223-226.

9. A.Asadullayev. Геоэкологик муаммоларнинг инсон саломатлигига таъсири (Қоракўл йўналиши мисолида). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8).

10. A Asadullayev. Инсон саломатлигини зарур даражада таъминлайдиган омиллар. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8 (8).

11. R.S Baymuradov, A.N Asadullayev. Yosh avlodni to’g’ri o’sishi va rivojlanishida Jismoniy tarbiya geiginasining o’rni. Health Lifestyle And safety Activity.

12. А.Н Асадуллаев, Г.С Муратова, Р.И Шарофутдинова. The American Journal of applied Sciences. The American Journal of Applied .

13. А.Н Асадуллаев, Н.Р Очилова, О.Г Жабборова. Healthy lifestyle. Academicia an international multidisciplinary research journal (ISSN: 2249 .

14. A Asadullayev. Agroklasterlarda organik mahsulot ishlab chiqarish va biomassadan samarali foydalanish. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 45 (45).

15. A. Asadullayev. Iqlim o ‘zgarishining sabablari va oqibatlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 44 (44.

16. A Asadullayev. The role of distance education and its modern solutions in improving the skills of medical workers and staff working in the medical field. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 34 (34).

17. A Asadullayev. Cooperation of family and educational institutions in ecological education of children. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 30 (30).

18. А.Н Асатуллаев. Инсон бош миясининг чайқалиши, эзилиши ва лат ейиши. Science and Education 4 (4), 129-136.

19. I.S Manasova, K.I Ibrohimov, M.B Pulatova, M.K Mansurova. The Main Harmful Factors Of Flour Milling Production. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1200-1208.

20. A.A Narzullaevich. Pedagoglarning Ta’lim Jarayoniga Bola Organizmini O’ziga Xos Xususiyatlarini E’tiborga Olgan Holda Individual Yondoshuvi. Amaliy va tibbiot fanlari ilmiy jurnali. 269-274.

21. N Babamuradova. Zamonaviy ta ‘lim mazmunida yoshlarda ekologik tafakkurni shakllantirish. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 44 (44.

22. N Babamuradova. Ekologiya darslarida interfaol mashqlar va topshiriqlardan samarali foydalanish shart-sharoitlari. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43 (43).

23. N Babamuradova, Sulaymanova Z. A., Umarov B.B., Kadirova Z.Q., Xudoyarova E.A. Thermal behavior of ferrocenoylacetone benzoylhydrazone and its complex with copper(ii) ion. Eurasian journal of medical and natural sciences 2 (4), 2099-2112.

24. N Bobomurodova. Ta ‘lim muassasalarida kasbga yo ‘naltirishning dolzarbligi. Talqin va tadqiqotlar 1 (10).

25. N Babamuradova. Аждодлар меросида баркамол инсон саломатлиги ғояси. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32)

26. N Babamuradova. Conservation of water and soil resources. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).

27. N Babamuradova. Umumiy o ‘rta ta ‘lim maktabi o ‘quv fanlaridagi integratsiya jarayonlar. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).

28. N Babamuradova. Aholini ommaviy sog ‘lomlashtirishda jismoniy mashqlarning o’rni. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32.

29. S.M.Turobjonov, T.T.Tursunov, K.M.Adilov, Atrof-muhit kimyosi, O’quv qo’llanma, Cho’lpon, Toshkent 2012

30. Sh.A.Mutalov, T.T.Tursunov, M.M.Niyazova, K.M.Adilova, B.Z.Zaynitdinova, A.A.Maqsudova, Sanoat ekologiyasi (Atrof muhit muhofazasi), Darslik, O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent 2020

Boyitish fabrikalari jihozlarining yeyilish sabablari

Dusmurat Saydivaliyevich Fazilov
Rustam Sharip o'g'li Mamatqulov
To'ymurod Nematulla o'gli Kenjayev
Abduaziz Abdulazizxon o'g'li Abdukaxxarov
Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali

Annotatsiya: Tog'-kon sanoatida texnologik jihozlari, texnologik transportlari, boyitish fabrikasining ko'p jihozlarining qismlari yeyilishga chidamli po'latdan, uglerodi 0.5-0.7% bo'lgan po'latlardan tayyorlanadi. O'tkazilgan tajribalarda rudalarni maydalashda ishlatiladigan МШЦ-3,6-5,0 sharli tegirmoni 110Г13Л markali po'latidan tayyorlangan futerovkaning yeyilish va deformatsiyalanish sabablari o'rganilgan. Ishlash davrida maydalovchi po'lat yorilgan sharlarning nuqsonlari yuzalar bo'ylab olingan namunalarda o'rganilib, sharlarning yorilib ketishini oldini olish uchun termik ishlov berishda spovitish tezligini rejalashtirish tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: sharli tegirmon, flotomashina, maydalovchi sharlar, perlit, martensit, sovitish tezligi

Causes of Corrosion of Enrichment Plant Equipment

Dusmurat Saidivalievich Fazilov
Rustam Sharip oglu Mamatkulov
Toymurad Nematulla oglu Kenjayev
Abduzaziz Abdulazizkhan oglu Abdukkasarov
TSTU Almaliq branch named after Islam Karimov

Abstract: In the mining industry, technological equipment, technological transport, parts of most equipment of the enrichment plant are made of corrosion-resistant steel, steel with a carbon content of 0.5-0.7%. In the conducted experiments, the causes of corrosion and deformation of the liner made of 110G13L steel of the MShTs-3.6-5.0 ball mill used for crushing ores were studied. Defects of grinding steel cracked balls during operation were studied in the samples taken along the surfaces, and it was recommended to plan spoving speed during thermal treatment in order to prevent the balls from cracking.

Keywords: ball mill, float machine, grinding balls, pearlite, martensite, cooling rate

(cc) BY

Tog’-kon sanoatida ishlatiladigan mexanik jihoz va uskunalar boshqa sohalarga qaraganda o’lchamlari kattaligi, ko'p nomenklaturaligi bilan farqlanadi. Ruda qazib olishda foydalaniladigan burg’ilash dastgohlari, ekskavator va katta yuk tashiydigan transport mashinalari, boyitish fabrikasida qo’llaniladigan tegirmonlar, ajratkichlar, tasmali konveyerlar, flotomashina va boshqalar ishlash jarayoni, ta’mirlash usullari bilan mashinasozlik jihozlaridan ajralib turadi. Ishlab chiqarishni taminlovchi yordamchi mexanizmlar-nasoslar, quvur o’tkazgichlar, elektrodvigatellar, suv bilan ta’minlash tizimlari ham ta’mirlash ishlarini murakkabligi bilan farqlanadi.

Boyitish fabrikalarida olingan rudani tegirmonlarda parchalash, maydalash jarayonlari ko’p energiya va vaqt talab qiladigan, qimmat jarayonlar hisoblanadi. Bu jarayonlarni ta’minlash uchun boyitish fabrikalarida umumiy kapital va ishlab chiqarish uchun ketgan sarf-harajatlarning 50-70 % sarflanadi [1].

Sarf-harajatlarning asosiy qismi rudani maydalashda ishlatiladigan tegirmon va flotomashinalarning futerofkalarini va maydalovchi jismlar-sharlarni ta’mirlash va almashtirish uchun ketadi. Barabanli tegirmonlarda maydalagich sifatida foydalaniladigan 110Г13Л markali po’latdan tayyorlanadigan sharlarni almashtirish uchun ketadigan harajatlar elektroenergiya va boshqa harajatlarga teng, bazida undan yuqori bo’ladi. Katta harajatlar sharlar va ularning ta’sirida futerovkaning jadal yeyilishi bilan bog’liq.

Ishlash sharoiti bilan bog’liq bo’lgan yeyilish va nuqsonlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, МШЦ-3,6*5,0 sharli tegirmonlarning futerovkasi yeyilishining asosiy sababi zarbiy-abraziv yeyilish natijasida bo’ladi. Odatda zarbiy ta’sir natijasida metallning yuza qismida sirtning qattiqlanishi hosil bo’ladi va yuzaning qattiqligi ortadi. Ammo ba’zi sharoitlarda yuzaning qattiqligi yeyilish tezligining ortishiga sabab bo’lishi ham mumkin.

Sharli tegirmonlarning ishlash jarayonida zarbiy-abraziv yeyilishning hissasi katta. Zarbiy-abraziv yeyilish o’zaro dinamik munosabatda bo’lgan sirtlar orasida qattiqligi yuzalar qattiqligidan yuqori bo’lgan zarrachalar bo’lganda yuz beradi. Sharli tegirmonlarda bunday ta’sir maydalovchi shar va tegirmon futerovkasi orasida bo’ladi. Abraziv material sifatida maydalanuvchi tabiiy ruda bo’laklari yeyilishga sababchilardan biri bo’ladi. Chunki ruda bo’laklari qattiq bo’lgani uchun dona (zarracha) lar metal yuzasini tirnash qobilyatiga ega. Bu holat esa yeyilish tezligini oshiradi. Zarbiy-abraziv yeyilishdan tashqari tegirmonlarning ishlash jarayonida gidroabraziv, ya’ni tarkibida qattiq zarrachalar bo’lgan texnologik suyuqlikning ta’sirida yeyilish jarayoni ham yuz beradi. Suyuqlikni uzatish quvurlarida tez harakati paytida kavitatsion jarayonlar hosil bo’lishi mumkin. Kavitatsiya paytida quvurlarning qattiq yuzasi va suyuqlik oqimi orasida havo yoki gazlar bilan to’lgan pufakchalar paydo bo’ladi. Ayniqsa tegirmonga suyuqlik yetkazuvchi quvurlarning o’lchamlari o’zgargan yoki oqim keskin burilgan joylarda bu holat ko’p kuzatiladi. Yuqori bosim

(cc) BY

zonasida pufakchalar yorilganda suyuqlik katta tezlik bilan bushagan joyini to'ldiradi. Oqimning to'liq bo'lishi zarblar paydo qiladi. Bunday holatning ko'p marotaba takrorlanishi metall yuza qismining mustahkamligi kamayishiga, va ayni paytda alohida yuzalarning haddan tashqari qattiqlanishiga sabab bo'ladi. Metal yuzasining parchalanishi avval mustahkamligi past joylardan boshlanib, donalar chegarasida davom etadi. Tegirmonlarda ishlatiladigan texnologik suvning harorati 50 ^{o}C bo'lganda kavitatsion yeyilish tezligi kattalashadi.

Yuqorida ko'rsatilgan yeyilish sabablarini kamaytirish va uning asoratlarini yuqotish uchun korxonada yeyilgan uskuna yoki zihoz o'lchamlarini qayta tiklash usullaridan, yoki uskuna, jihozni yangisi bilan almashtirishga majbur bo'ladi. Har ikkala usul ham uskuna, jihozlarning geometrik o'lchamlari, yechish-o'rnatish murakkabligi va ko'pincha ehtiyot qismlar o'z vaqtida yetkazib berilmasligini hisobga olinsa ko'p mablag', energiya va vaqt talab qiladi.

Tegirmonlar futerovkasining ishlash davrini oshirish uchun ta'mirlash vaqtida dastakli va yarimavtomatlar yordamida qoplash usullari qo'llaniladi. Futerovka 110Г13Л po'latidan tayyorlangani uchun elektr yoyi yordamida elektrodlar va kukunli similar bilan qoplash po'latning xususiyatlari bo'yicha yaxshi samara bermaydi. Qoplash paytida haroratning yuqoriligi issiqlik ta'sir zonasida struktura o'zgarishiga va natijada mexanik, texnologik xossalar o'zgarishiga sabab bo'ladi.


Ma'lumki, 110Г13Л po'latidan tayyorlangan futerovkaning ish davrida yuza qatlamining qattiqligi oshishi maydalovchi sharlarning futerovka yuzasiga urilishida bo'ladigan deformatsiyaga qarab o'zgaradi. Bunda qattiqlikning o'zgarishi

$$\Delta HB=A\cdot\varepsilon^{x}$$

munosabatda bo'ladi,

bu yerda: A va x futerovka materialining konstantalari. ε-deformatsiya kattaligi.

Qattiqlikning ortishi yuzaga uriladigan sharning og'irligi, urilishda bosib o'tilgan yo'l va natijada bajarilgan osh miqdoriga bog'liq.



1-rasm. Sharli tegirmonning ko'ndalang kesim yuzasi

(cc) BY

Bu yerda: Df-futerovka qoplangan diametr, mm; Db-tegirmon barabani diametri, mm; h-sharlarning max ko'tarilgan joyi, mm; l-markaziy o'q bilan tegirmonga to'ldirilgan sharlar oralig'i, mm.

Dastlabki rudaning yanchiluvchanligi deganda uning yanchish natijasida etarli yiriklikdagi mahsulotga aylanish qobiliyatiga aytiladi. Yanchiluvchanlikni aniqlashning bir necha usullari mavjud: ularning ichida eng ko'p tarqalgani Mexanobr usulida hisoblanadi. - 4,7 + 0 mm yiriklikda tayyorlangan namuna elab, mayda: - 4,7 + 2,4; - 2,4 + 1; - 1+ 0,5; - 0,5 + 0 mm li sinflarga ajratilib, ulardan 8-10 ta namuna tortib olinadi. Bu namunalarni yanchiluvchanlikka tekshirish D×L = 3600 x 5000 mm li sharli tegirmonda amalga oshiriladi. Tegirmonning hajmi, aylanish chastotasi n = 13 min^{-1}, diametri 120 mm li sharlarning har qaysisi 20 kg dan (tegirmonning to'ldirish darajasi 47 %).

Namunaning og'irligini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$P_n = 0{,}12\ V\ \delta_e$$

bu yerda: 0,12 - tegirmonni ruda bilan to'ldirish koeffisienti (tegirmon hajmidan 12 % hajm miqdorida).

V - tegirmonning hajmi, dm^3.

δ_e - rudaning sochma zichligi, kg/m^3 (ruda zichligining 2/3 qismiga teng).

Tayyorlangan namunalar har xil vaqt oralig'ida yanchiladi. Masalan, birinchi namuna 5 min., ikkinchi namuna 15 min. va h.k. Har qaysi tajribadan keyin yanchilgan mahsulot elab, to'liq tahlil qilinadi. Elab tahlil qilish asosida nazorat elagida qolgan qoldiqlar yig'indisining yanchish vaqtiga bog'liqlik grafigi tuziladi. Grafikdan ushbu tegirmonning absolyut solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi aniqlanadi va u etalon rudani yanchishda olingan ishlab chiqarish unumdorligi bilan taqqoslanadi.

Tegirmonning solishtirma ishlab chiqarish unumdorligini (kg/m^2 soat) quyidagi formuladan hisoblanadi:

$q = 60\ P_n /(t\ V)$

bu yerda: t - yanchish vaqti, min.

P_n - namunaning og'irligi, kg;

Tegirmon yopiq siklda ishlanganda rudaning yanchiluvchanligi uzluksiz tegirmon va klassifikator (gidrosiklon) dan iborat moslamada yoki tegirmon va unga ketma-ket ulangan elakda davriy ravishda aniqlanishi mumkin.

Mis boyitish fabrikasida 110Г13Л po'latidan tayyorlangan futerovkalarning yeyilgandan keyingi o'rtacha qattiqligi HV_0 =2700 MPa. Shu asosda Mayer doimiysi a_0 =2600 MPa deb olindi.

Hisoblashlar natijasiga ko'ra diametri 120 mm bo'lgan sharning futerovka yuzasiga urilishidan hosil bo'lgan shaklining diametri 13.6-14.2 mm oralig'ida, chuqurligi esa 0.43-0.49 mm oralig'ida bo'lishi aniqlandi.

(cc) BY

Yuqoridagi kattaliklar ta’sirida futerovka qalinligining deformatsiyasi ε≈2-2.1 % ni tashkil etadi.

Deformatsiya ta’sirida qattiqlikning ortib borishi $\Delta HB=A\cdot\varepsilon^x$ tenglama orqali aniqlanadi. Ishlash davriyligi turlicha bo’lgan tegirmonlar futerovkalarining o’lchab borish natijasida deformatsiya kattaligi ε≈2-2.1% bo’lganda formula bo’yicha hisoblangan ΔHB ning o’sishi 700-760 MPa bo’lishi aniqlandi. Futerovka po’latining yuzasi qattiqligi boshlang’ich qattiqligiga nisbatan 1.15-1.2 marta ortishi kuzatildi. Futerovka yuza qatlamining qattiqlanishi tegirmonning ishlash davrini oshiradi, ta’mirlash ishlariga ketadigan sarf-harajatlarni kamaytiradi.

Tegirmonda sharning futerovkaga ta’sirini bilish uchun sharning turli balandlikdan tushib urilish vaqti o’rtacha kattaligi hisoblandi.

Futerovkada sharning urilishidan deformatsiyalangan joy diametri M.M.Saverin formulsi bo’yicha o’tkazildi:

$$d=D_{sh}\cdot V_{o`r}\cdot\sqrt{\left(\frac{S}{6}\right)\cdot\left(\frac{1}{Hg}\right)}$$

bu yerda: S- sharning zichligi, kg/m^3

$$H_g=\frac{4P}{\pi d^2}=\frac{4\cdot a_{0\,din}}{\pi}$$

H_g-futerovka materialining urilish energiyasi va shar diametriga bog’liq bo’lmagan qattiqligi, MPa.

P- urilish kuchi,N

$a_{0\,din}$- Mayer doimiysi, materialning xarakteristikasi, MPa;

Rudalarni maydalashda ishlatiladigan po’lat va cho’yan sharlar qattiqligi bo’yicha 4 guruhga bo’linadi.

- narmal qattiqlik;
- orttirilgan qattiqlik;
- yuqorigi qattiqlik;
- o’ta yuqorigi qattiqlik;

Mis rudalarni maydalash uchun 4-guruh qattiqligidagi sharlardan foydalaniladi. Foydalanish jarayonida ishchi sharlarni markazi orqali o’tuvchi tekislik bo’ylab yorilishi kuzatildi. Ko’pgina holatlarda sharlarning yorilish sabablari shar metalida flokenlarning mavjudligi, metal strukturasining buzilishi ekankigi kuzatildi. Quyidagi tarkibga ega bo’lgan yorilgan sharlar metali tadqiq qilindi(1-jadval).

1-jadval

C-0.72%	Si-0.27%	P-0.008%	Cr-0.36%
Ni-0.03%	Cu-0.040%	N-0.08%	

Tadqiqotlarga sharlarning yorilish tekisliklarining har xil qismlarida olingan namunalarda qattiqlik o’lchandi. Rokvell bo’yicha qattiqlikni o’lchash natijalari 2-jadvalda berilgan.

(cc) BY

2-jadval

Yuza bo'yicha	Markaz bo'yicha	Masofada, R/2
62-65	36-39	37-39

Keltirilgan qattiqlik miqdorlari namunaning ko'rsatilgan qismlarida olib borilgan o'lchashlarning o'rtacha qiymati. Shuni takidlash lozimki, yorilayotgan sharlar ko'pgina holatlarda bir xil tarkiblidir. Kamdan-kam hollarda yorilish tekisligi bo'yicha mikro tarkib bir xil emasligi kuzatildi.

Tadqiqotlar shuni natijasida yorilgan sharlarning markaziy qismida bir xil bo'lmagan mikrostrukturada martensit tarkibi mavjudligi aniqlandi va bu strukturaning paydo bo'lish sabablari o'rganildi. Ilmiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra martensit strukturaning hosil bo'lishiga sabab likvatsiya ekanligi, livatsiya ehtimolligi ko'rsatilgan quyma zagatovkani olish natijasida orttirilgan nuqson. Sharlarni prokatlashda likvatsiya saqlanib qolishi mumkin.

Sharlarning yorilib ketgan yuzalarida perlit va perlit-ferrit strukturalar ham kuzatiladi. Perlit strukturada uglerod ko'p bo'lishi toblash paytida austenit turg'un bo'lishiga, perlit-ferrit strukturada esa austenit turg'unligi kamayishiga sabab bo'ladi [3].

Sharlarning yorilib ketishi prakatlash paytida yetarli darajada gomogenizatsiya bo'lmaganligi va markazga yaqin joylarda martensit struktura hosil bo'lishi sabab bo'ladi, qattiqlik oshib ketadi. Bu kamchiliklarning oldini olish uchun toblash paytida sovitish tezligi kamaytirilishi lozim bo'ladi

Mikrostrukturasi va qattiqligi turlicha bo'lgan sharlar yorilishga moyilligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Обзор рынка стальных помольных (мелющих) шаров и оборудования для их производства в СНГ. М.: Инфмайн, 2016. 256 с.

2. Бршов Г.С., Козияк Я. А. Микронеоднородносить металлов и сплавов. М.: Металлургия, 1985. 214с.

3. Формирование оптимальной микроструктуры в высокоуглеродистой каталке. //В.В.Петрусовб А.Б.Сычковб М.А.Жигаревб А.В.Перчаткин // Сталью 2005. N:|.c/ 82-85.

Kitob do‘konini onlayn boshqarish tizimi

Omonillo Hayotbekovich Zokirjonov
sardor.zokirov1@icloud.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu dastur kitob do‘konlarini boshqarish tizimini osonlashtirish va haridorlarga qulaylik yaratish maqsadida kitob do‘konini onlayn boshqarish tizimini ishlab chiqishdan iborat. Ma’lumki kitob do‘konlarida navbat kutish va shunga o‘xshash kichik muammolar vaqtni ketgazishga sababchi bo‘ladi. Hattoki, ayrim hududlarda kitob do‘konlarini o‘zi yo‘q, bunga yechim sifatida men onlayn kitob do‘koni tizimini ishlab chiqdim. Onlayn kitob do‘konlarining birining yordamida, siz kitobni istalgan joyda o‘qishingiz mumkin. Onlayn kitob do‘koni kitoblardan ko‘proq foydalanish va oson kirish imkonini beradi. Kitob do‘konini boshqarish tizimlari uni 24 soat xizmat ko‘rsatishiga yordam berishi mumkin. C++ da kitob do‘koni onlayn tizimining yutug‘i o‘quvchilarning o‘qishni osonlashtirishda yordam beradi. Bu tizim, o‘quvchilarga kitoblarni istalgan joyda o‘qish va o‘qishni osonlashtirish, o‘qishni o‘zlashtirish, qolgan vaqtni to‘g‘ri ishlatish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: axborot, xavfsizlik, kitob, do‘kon, onlayn savdo

Online bookstore management system

Omonillo Hayotbekovich Zakirjanov
sardar.zokirov1@icloud.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Tashkent State University of Economics

Abstract: This program aims to develop an online bookstore management system in order to facilitate the management system of bookstores and create convenience for buyers. It is known that waiting in line in bookstores and similar small problems cause time wastage. There are even no bookstores in some regions, so I developed an online bookstore system as a solution. With the help of one of the online bookstores, you can read the book anywhere. An online bookstore provides greater use and easier access to books. Bookstore management systems can help keep it open 24 hours a day. The achievement of online book store system in C++ helps in making learning easier for

(cc) BY

students. This system allows students to read books anywhere and make it easier to read, master reading, and use the remaining time properly.

Keywords: information, security, book, store, online shopping

Kirish

1990 yilda C++ standarti ishlab chiqildi va bu standart hozir ANSI C nomi bilan mashxur. Bu til juda kengayib ketdi va hozirgi kunda bu tilning imkoniyatlari juda cheksiz hisoblanadi. C++ funksiya va ob'yektlarning boy kutubxonasiga ega. Bundan kelib chiqadiki C++ dasturlash tilini o‘rganish 2 qismga bo‘linadi: dastlab, C++ tili sintaksisi o‘rganiladi va shundan so‘ng uning asosiy kutubxonalari birma-bir ko‘rib chiqib, yodlash lozim bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu til juda katta hajmni o‘z qamroviga oladi. C++ tilining egasi yo‘q u hech kimga tegishli emas. Bu til S tilidan kelib chiqgani uchun bosh harf S, ++ esa bu tildagi qiymatni bittaga ko‘tarish belgisi hisoblanadi va bu belgi C++ dasturlash tilida paydo bo‘ldi. C++ dasturlash tili kompilyatsiya qilinadigan til hisoblanadi bu degani yozilgan kod oldin mashina tiliga o‘giriladi va keyin ishga tushiriladi.

Nima uchun C ++ dan foydalanish kerak

1. C++ dasturlash tili dunyo bo'yicha keng foydalanib kelinayotgan dasturlash tili hisoblanadi.

2. C++ Barcha Grafik Interfeys ga ega Operatsion Sistemalarda uchratish mumkin.

3. C++ Bu obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili hisoblanib. Tuzilgan dasturni osonlik bilan o'zgartirish imkoniyati mavjud.

4. C++ - Qiziqarli va o'rganishga juda oson.

5. C++ - Ko'chma va bir nechta platformaga moshlashtirilishi mumkin bo'lgan dasturlar yaratsangiz bo'ladi.

6. C++ - C# va Java dasturlash tiliga yaqin bo'lgan dasturlash tili bo'lganligi sababli almashtirish juda oson.

7. C++ dasturlash tili 1985 - yilda Bjarne Stroustrup tamonidan asos solingan. C dasturlash oilasiga mansub hisoblanadi.

Onlayn kitob do‘konining afzalliklari

Onlayn kitob do‘konining bir qancha afzal va yengillik tomonlari bor:

1. Qulaylik - Siz kitoblarni do‘konga bormasdan turib, o‘z uyingizdan turib xarid qilishingiz mumkin.

2. Tanlov - Onlayn kitob do‘konlari ko‘pincha oddiy do‘konlarga qaraganda kengroq kitob tanlovini taklif qiladi.

3. Narx - Internetda tez-tez yaxshiroq takliflarni topishingiz mumkin, chunki ko‘plab onlayn kitob do‘konlari chegirmalar va aktsiyalar taklif qiladi.

4. Foydalanish imkoniyati - Internetga ulangan istalgan joydan onlayn kitob do‘konlariga kirish mumkin, bu esa kitob do‘konlaridan uzoqda yashovchi yoki harakatda muammolari bor odamlarga kitob sotib olishni osonlashtiradi.

Onlayn kitob do‘koni dasturining vazifasi

Kitob do‘konini onlayn boshqarish tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- kitob ma’lumotlarini oson kiritish;
- mijozning vaqtini tejash;
- do‘konlardagi navbatga turish muammosini bartaraf etish;
- savdoni nazorat qilish.

Ma’lumotlarni kiritib qanday kitoblar borligini ko‘rish yangi kelgan kitoblar yoki sotilgan kitoblarni oson boshqarish mumkin. Admin login parol bilan kiradi kitob ma’lumotlarini kiritadi, ortiqcha ro‘yhatga olishlar bo‘lmaydi. Mijozlarning vaqtini tejaydi. Kitob do‘konini aylanib, kitobni qidirib, ortiqcha vaqt yo‘qotilishini oldini oladi, shunchaki kirib kitob nomini kiritiladi ma’lumotlarni chiqarib beradi va kitobni sotib olish mumkin. Shu bilan birga navbat kutish muammosi xam bartaraf etiladi ya’ni navbatga turishlar bo‘lmaydi.

Onlayn kitob do‘koni dasturiga qo‘yilgan talablar

- Kitoblar ma’lumoti
- Foydalanuvchi ma’lumotlari
- Kitoblarni qidirish
- Foydalanuvchi tanlagan kitobni berish
- Kitoblarni sotish

Vazifa	Ta’rif	Izoh
1.1	Login parol	Login parol bilan kirish login parolsiz menyular chiqmaydi
1.2	Bosh sahifasi(Uy sahifasi)	Menyular panelini ekranga chop etish
1.3	Kitoblar ma’lumoti	Kitoblar nomini kiritish
1.4	Kitoblarni qidirish	Nomi bilan qidirish xaridorga kitob nomni kiritishni so‘ralsin
1.5	Kitoblarni sotish	Xaridor tanlagan kitobni sotish

Dastur kodning to‘liq holati

```
#include <iostream>
#include <fstream>
#include <string>
#include <set>
using namespace std;
void Kitobniqidirish(){
string kitobnomi;
string davom = "Ha";
while(davom =="Ha"|| davom =="ha"){
cout<<"Kitob nomini kiriting: ";
cin>>kitobnomi;
string myText;
set<string> fayl;
ifstream MyReadFayl("kitob.txt");
cout<<"Oddiy faylfdan\n";
while (getline (MyReadFayl, myText)){
fayl.insert(myText);
}
MyReadFayl.close();
for (auto i : fayl){
if(kitobnomi == i){
```


(cc) BY

```
cout << "Topildi:"<<i << endl;}
}
string olish = "ha";
cout<<"Kitobni sotib olasizmi? (ha yoki yoq) ";
cin>>olish;
if(olish == "ha" ){
cout<<"\n Haridingiz uchun raxmat! "<<endl;
}else{
cout<<"Bo‘pti hayr! "<<endl;
}cout<<"Davom ettirasizmi: Ha,Yoq "<<endl;
cin>>davom;}
}
void KitobKiritish(){
string davom = "Ha";
string nomi,muallifi;
while(davom =="Ha"|| davom =="ha"|| davom =="xa"|| davom =="Xa")
{
cout<<"Kitob nomini kiriting: ";
cin>>nomi;
ofstream foutput;
ifstream finput;
finput.open ("kitob.txt");
foutput.open ("kitob.txt",ios::app);
if(finput.is_open())
foutput<< nomi <<endl;
cout<<"\nMa’lumot kiritildi"<<endl;
finput.close();
foutput.close();
cout<<"Davom ettirasizmi: Ha,Yoq "<<endl;
cin>>davom;
}
}
void kursIshi(){
string davom = "Ha";
string nomi,muallifi;
while(davom =="Ha"|| davom =="ha")
{
string myText;
ifstream MyReadFayl("login.txt");
string login, parol;
string gettext1, gettext2;
cout<<"Loginni kiriting:"<<endl;
cin>>login;
cout<<"Parolni kiriting:"<<endl;
cin>>parol;
int qator = 0;
while (getline (MyReadFayl, myText))
{
if(qator == 0){
gettext1 = myText;
}else if(qator == 1){
gettext2 = myText;
}qator++;
}
if(login == gettext1 && parol == gettext2){
int menyu = 0;
cout<<"Hush kelibsiz! "<<endl;
cout<<"================================================="<<endl;
cout<<"Kitoblar ma’lumotlarini kiritish ucun 1 ni bosing: "<<endl;
cout<<"Kitoblarni qidirish va sotib olish uchun 2 ni bosing: "<<endl;
cout<<"================================================="<<endl;
cin>>menyu;
if(menyu == 1){
KitobKiritish();
}else if(menyu == 2){
Kitobniqidirish();
}else{
cout<<"noto‘g‘ri";}
}else{
cout<<"Login yoki parol noto‘g‘ri!";
```


(cc) BY

```
}MyReadFayl.close();
cout<<"Davom ettirasizmi: Ha,Yoq "<<endl;
cin>>davom;}
}
int main ()
{
kursIshi();
}
```

Dastur sinovi

Ushbu loyihamiz C++ dasturida yaratilgan.


Code-blocks IDE sidan foydalanib yozilgan.

Ushbu loyiha konsolda yozilgan.

Konsol haqida tushuncha.

C++ tilida “konsol” standart kutubxona komponenti yoki kalit so‘zi emas. Shuning uchun u C++ tilida dasturlash konstruksiyasi emas. “Konsol” aslida Hashi Corp tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot xizmati tarmog‘ining nomi bo‘lib, u taqsimlangan tizim yechimlarini taqdim etadi. C++ tilida yozilgan ba’zi ilovalar va dasturlar konsoldan xizmatlarni aniqlash, sozlash va boshqa infratuzilma bilan bog‘liq funksiyalar uchun xizmat tarmog‘i sifatida foydalanishi mumkin bo‘lsa-da, “konsol” atamasining o‘zi C++ konstruksiyasi emas.

Endi loyihamizga o‘tsak, birinchi “Tekshirish” tugmasini bosiladi ko‘rsatilgan). Bunda qora ekranda ya’ni konsolda login va parol so‘raydi.




Bu yerda:

Login: sardor

Parol: zokirov

Ushbu login va parolni yozilgan kod saqlanadi va kodni qayerda joylashgani aniqlanadi so‘ng o‘sha yerdan login nomli fayl topiladi, faylni ichiga login va parol yoziladi. Agar fayl yo‘q bo‘lsa ko‘dni saqlagan joyga fayl ochiladi va ichiga login parol yoziladi. Bu login va parolni o‘zgatirib olish xam mumkin. Buning uchun “login” nomli faylga kirib istalgan login parol qoyib olsa bo‘ladi.

Login parol kiritilgansan so‘ng “Hush kelibsiz! ” degan yozuv va menyular paneli ochiladi.



Uy sahifasi

(cc) BY

Uy sahifasi, menyular paneli bu sahifada qora ekranda 2 xil bo‘lim ochiladi.


1.Kitob ma’lumotlarini kiritish.

2.Kitoblarni qidirish sotib olish.

Kitob ma’lumotlarini kiritish sahifasida faqat kitoblarni ma’lumotlarini kiritish, saqlash, o‘chirish va tahrirlash ham mumkin.


Kitoblarni qidirish bo‘limida esa xaridordan kitobni nomini so‘raladi,

qidiruvga beriladi, kitob topilsa sotib olishi mumkin bo‘ladi. Bu bo‘lim o‘z nomi bilan qidrish va sotib olish uchun mo‘ljallangan.



Kitob ma’lumotlarini kiritish.


Kitob ma’lumotlari kiritilgandan so‘ng, u ma’lumotlar bazasida saqlanadi va mijozlar kitoblarni ko‘rib chiqish, qidirish va xarid qilishlari mumkin bo‘lgan veb-sayt yoki ilovani to‘ldirish uchun ishlatiladi. Soddaroq qilib aytganda 16-rasmda ko‘rsatilgandek 1 ni bosilsa, kitob nomini rasmda ko‘rsatilgandek kiritiladi va ma’lumot kiritilganligi haqida ma’lumot beradi. Bu yerda ma’lumotni kod saqlangan joydagi kitob nomli faylga saqlaydi undan so‘ng davom etasizmi yoki yo‘q deb so‘raydi ha buyrug‘i kiritilsa yana shu tarzda kitob ma’lumotlari kiritilaveradi. Agar yo‘q buyrug‘i kiritilsa dastur ishdan to‘xtaydi.



(cc) BY


Ma’lumotni qayta-qayta kiritish.

Menyular panelidan 2-sahifaga kirilsa sotuvchidan kitob nomini kiritishni so‘raydi. Undan so‘ng dastur kiritilgan ma’lumotni fayl bilan solishtiradi va izlaydi. Agar 1-bo‘limda kiritilgan ma’lumot bo‘lsa ya’ni fayllar orasidan kitob nomi topilsa topildi degan yozuv chiqadi va xaridordan sotib olishi yoki yo‘qligini so‘raydi.




Qidiruv

Xaridor kitobni olmoqchi bo‘lsa ha buyrug‘ini kiritadi, aks holda yoq buyrugi kiritiladi. Xaridor ha buyrgini kiritsa “xaridirngiz uchun raxmat!” yozuvi paydo bo‘ladi.



Xarid

Xaridor yoq buyrug‘ini kiritsa “Bo‘pti hayr” yozuvi paydo bo‘ladi.



(cc) BY

Xarid inkor qismi.

Dasturning kamchiliklari

Ushbu dasturning kamchiliklari quyidagilar:

1.Dasturning konsolda yozilganligi;

2. Bo‘limlar (menyular) da bajarilgan ish yakunlangandan keyin dasturning tugashi. Bartaraf etish masalasi - biz bu dasturni sinov tariqasida yaratib ko‘rdik, kamchiliklari bor yo‘q emas va bu kamchiliklar kelajakda bartaraf etiladi. Kelajakda bu dasturning to‘liq ishlashi xato va nuqsonlari to‘g‘irlanadi. Buning uchun dasturni Visiual studio yoki shunga o‘xshash ilovalarda yozish, dizayn masalasini yaxshilashda va dasturning chiroyli bo‘lishiga hizmat qiladi. Shuningdek, bo‘limlarning o‘z vazifasini bajargandan so‘ng to‘xtab qolish muammosini bartarf etish uchun takrorlash operatorlari (while, do-while) dan foydalaniladi.

Xulosa

Onlayn kitob do‘konini boshqarish tizimi mavzusidagi kurs ishining qisqacha mazmuni va bunday tizimning ahamiyati, tizimga kiritilishi kerak bo‘lgan asosiy xususiyatlar va tizimni yaratish va unga xizmat ko‘rsatishning texnik jihatlari kabi mavzularni qamrab olishi mumkin. Bunga foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish va tizimga kirish, kitoblarni ko‘rish va qidirish, xarid qilish aravachalari va buyurtmalarni boshqarish, to‘lovlarni qayta ishlash, kabilar kiradi Bundan tashqari, xavfsizlikni ta’minlash, uzilishlar yoki xatolarni minimallashtirish va foydalanuvchi tajribasini maksimal darajada oshirish bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlarni muhokama qilishi mumkin.

Umuman olganda, bunday kurs ishi diqqat bilan rejalashtirish, sinovdan o‘tkazish va takrorlash hamda onlayn kitob do‘konlarini boshqarishning samarali tizimini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlashda doimiy takomillashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga muvaffaqiyatli onlayn kitob do‘konini boshqarish tizimi asosiy xususiyatlar va texnik jihatlardan tashqari, mijozlar ehtiyojini qondirishni ham birinchi o‘ringa qo‘yishi kerak. Bunga o‘ylangan dizayn va foydalanuvchi tajribasi, sezgir mijozlarga xizmat ko‘rsatish va moslashuvchan to‘lov va jo‘natish imkoniyatlari orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun tizim muntazam ravishda yangilanib, sinovdan o‘tkazilishi kerak, va nihoyat, electron tijoratning tez rivojlanayotganligi, jumladan, rivojlanayotgan texnologiyalar, iste’molchilarning xatti-harakatlarini o‘zgartirish va rivojlanayotgan me’yoriy talablar taqdim etadigan davom etayotgan muammolar va imkoniyatlarni tan olish muhimdir. Xulosa qilib aytish mumkinki, puxta ishlab chiqilgan va joriy qilingan onlayn kitob do‘konlarini boshqarish tizimi ham kitob sotuvchilari, ham iste’molchilar uchun katta foyda keltirishi mumkin, shu bilan birga raqobatbardosh va samarali bo‘lib qolishi uchun doimiy e’tibor va investitsiyalarni talab qiladi.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Ismailov, A., Jalil, M. A., Abdullah, Z., & Abd Rahim, N. H. (2016, August). A comparative study of stemming algorithms for use with the Uzbek language. In 2016 3rd International conference on computer and information sciences (ICCOINS) (pp. 7-12). IEEE.

[2] Jalil, M. M., Ismailov, A., Abd Rahim, N. H., & Abdullah, Z. (2017). The Development of the Uzbek Stemming Algorithm. Advanced Science Letters, 23(5), 4171-4174.

[3] Rahimi, A. (2015). A new hybrid stemming algorithm for Persian. arXiv preprint arXiv:1507.03077.

[4] Jalil, M. M., Ismailov, A., Abd Rahim, N. H., & Abdullah, Z. (2017). The Development of the Uzbek Stemming Algorithm. Advanced Science Letters, 23(5), 4171-4174.

[5] Demilie, W. B. (2020). Implemented Stemming Algorithms for Information Retrieval Applications.

[6] Shakirovich, I. A., & Rayxona, X. (2023, April). O ‘ZBEK STEMASI ALGORITMI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 101-105).

[7] Izatovich, B. I. (2021, July). Development of a stemming algorithm based on a linguistic approach for words of the uzbek language. In E-Conference Globe (pp. 195-202).

[8] Ismailov, A. S., Qodirova, G. T. X. Q., & Yigitaliyeva, M. (2023). Arduino mikrokontroller platasini o‘rganish. Science and Education, 4(3), 174-182.

[9] Shakirovich, I. A., & Rayxona, X. (2023, April). O ‘ZBEK STEMASI ALGORITMI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 101-105).

[10] Ismailov, A. S., Yigitaliyeva, M., Qodirova, G., & Xusanova, R. (2023). Arduino orqali avtomatlashtirilgan seyf yaratish. Science and Education, 4(12), 177-187.

(cc) BY

Talabalar qayta o‘zlashtirish tizimi

Nosirillokh Komiljon o‘gli Malikov
Malikov_2004@icloud.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Insoniyat o‘zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida har xil ish qurollarini yaratgan. Bu ish qurollari uning jismoniy mehnatini yengillashtirishga xizmat qilgan. Bularga oddiy bolta, tesha, arradan tortib hozirgi zamon qudratli mashina va traktorlarini misol sifatida keltirish mumkin. Inson bu davrda faqat mehnat qurollarini yaratish bilan chegaralanib qolmay, balki u o‘zining aqliy mehnatini yengillashtirish qurollarini ham yaratdi. Bunga oddiy hisob-kitob toshlaridan tortib, hozirgi kunda ham o‘z kuchi va qulayligini yo‘qotmagan cho‘tlar misol bo‘la oladi. XX asrning 30-40 yillariga kelib, EHMlarning birinchi loyihalari paydo bo‘la boshladi. Birinchi EHM yaratish ishlarini 1937 yilda AQSHning Ayova shtatida joylashgan universitetning professori A. Atanasov boshladi. Millati bolgar bo‘lgan bu olim yaratmoqchi bo‘lgan EHM matematik-fizikaning ayrim masalalarini yechishga mo‘ljallangan edi. Ammo ikkinchi jahon urushi bu ishlarni oxirigacha yetkazish imkonini bermadi [1]. Atanasovning buyuk xizmatlari shundaki, u birinchi bo‘lib EHMlarda ikkilik sanoq sistemasini qo‘llashning qulayligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: axborot, xavfsizlik, talaba, qayta o‘qish

System of student retraining

Nasirillokh Komiljon oglu Malikov
Malikov_2004@icloud.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Tashkent State University of Economics

Abstract: In the course of its historical development, mankind has created various tools. These tools served to ease his physical labor. Examples of these include simple axes, saws, and powerful modern machines and tractors. During this period, man did not limit himself to the creation of labor tools, but he also created tools to ease his mental labor. An example of this is from simple calculus stones, which have not lost their strength and convenience even today. By the 30s and 40s of the 20th century, the

(cc) BY

first projects began to appear. The creation of the first EHM was started in 1937 by professor A.Atanasov of the university located in the state of Iowa, USA. The machines, which this Bulgarian scientist wanted to create, was intended to solve some problems of mathematics and physics. But the Second World War did not allow these works to be completed [1]. Atanasov's great merit is that he was the first to demonstrate the convenience of using the binary number system in machiness.

Keywords: information, security, student, re-reading

Kirish

Axborot kommunikatsion texnonologiyalarini taraqqiy etishida bevosita dasturlash tillarining o‘rni beqiyos. Ayniqsa, hozirgi davrga kelib C++, Java, Delphi dasturlash tillar yordamida shaxsiy kompyuterlar uchun amaliy dasturiy to‘plamlardan tashqari SmartPhone va Planshetlar uchun operatsion tizim (iOS, Android, Windows mobile, Symbian va h.k) va ilovalar yaratilmoqda [2]. Informatsion texnologiyalarning yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, bu fan jadal sur’atlarda o‘sib, yil sayin yangidan-yangi yo‘nalishlarga, mutaxassisliklarga tarmoqlanib ketmoqda: algoritmik, mantiqiy, ob’ektga yo‘naltirilgan, vizual, parallel dasturlash texnologiyalari, animatsiya, multimediya, Web, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, ko‘p protsessorli, neyron arxitekturali kompyuterlar va hokazo.

Ko‘rinib turibdiki, informatika meta fan darajasiga ko‘tarilib, uni bitta o‘quv kursi chegarasida to‘liq o‘zlashtirishning imkoni bo‘lmay qoldi [3]. Informatsion texnologiyalar sohasi bo‘yicha rus va ingliz tillarida kurs ishilar juda ko‘p chop etilmoqda. Oxirgi yillarda o‘zbek tilidagi kurs ishilar ham ko‘payib qoldi. Ushbu taklif etilayotgan qo‘llanma asosan C++ dasturlash tilini o‘rganmoqchi bo‘lganlar uchun mo‘ljallangan. Shu sababli kurs ishida C++ tiliga bog‘liq boshlang‘ich ma’lumotlar yoritilgan. Bu kurs ishidan C++ dasturlash tilini o‘rganuvchilar, dastur tuzishni o‘rganayotganlar hamda “Dasturlash asoslari”, “Informatika va dasturlash” fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun foydalanishlari hisobga olingan. Ushbu kurs ishiga kiritilgan ma’lumotlar dasturlashning bazaviy kursidagi deyarli barcha bo‘limlarini, ya’ni skalyar turlar va boshqaruv operatorlaridan tortib, ma’lumotlarning murakkab turlari kabilarni o‘z ichiga oladi [4].

C++ haqida 1993 yilda bu til ommaga taqdim etildi va C++ nomini oldi. Dastlabki C++ ga oid kitob "The C++ Programming Language (Addison-Wesley, 1985)" nomi bilan mashhur bo‘ldi va bu kitob 1991 yil "Язык программирование C++" tarjimasi bilan rus tiliga tarjima qilindi va bu til (C++) rivojlanishi boshlanib ketdi. ANSIISO (ANSI X3J16; ISO WG21/N0836) birlashmasi 1989-yilda, birlashga holda ish boshladi. Bu korxonaning dastlabki ishi C++ dasturlash tiliga va uning kutubxonasiga standart ishlab chiqishdan boshlandi. Buning uchun 1990-yildagi C++ tili asos qilib olindi. 1990 yilda C++ standarti ishlab chiqildi va bu standart hozir ANSI C nomi bilan

(cc) BY

mashxur. Bu til juda kengayib ketdi va hozirgi kunda bu tilning hamma detallarini biladigan dasturchi bo‘lmasa kerak [5]. C++ funksiya va ob’yektlarning boy kutubxonasiga ega. Bundan kelib chiqadiki C++ dasturlash tilini o‘rganish 2 qismga bo‘linadi: dastlab, C++ tili sintaksisi o‘rganiladi va shundan so‘ng uning asosiy kutubxonalari birma-bir ko‘rib chiqib, yodlash lozim bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu til juda katta hajmni o‘z qamroviga oladi. C++ tilining egasi yo‘q u hech kimga tegishli emas. Bu til C tilidan kelib chiqgani 6 uchun bosh harf C ++ esa bu tildagi qiymatni bittaga ko‘tarish belgisi hisoblanadi. C++ dasturlash tili kompilyatsiya qilinadigan til hisoblanadi bu degani yozilgan kod oldin mashina tiliga o‘giriladi va keyin ishga tushiriladi. C++ juda ko‘p qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan, lekin eng asosiysi u ob’ektlar bilan dasturlashga imkon beradi. Dasturlarni tez va sifatli yozish hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoda. Buni ta’minlash uchun ob’ektli dasturlash g‘oyasi ilgari surildi. Huddi 70- yillar boshida strukturali dasturlash kabi, programmalarni hayotdagi jismlarni modellashtiruvchi ob’ektlar orqali tuzish dasturlash sohasida inqilob qildi.Yani C++ da dasturlashni o‘rganish ikki qismga bo‘linadi. Birinchisi bu C++ ni o‘zini o‘rganish, ikkinchisi esa C++ ning standart kutubxonasidagi tayyor obyekt/funksiyalarni qo‘llashni o‘rganishdir. C++ dan tashqari boshqa ko‘p ob’ektli dasturlshga yo‘naltirilgan tillar paydo bo‘ldi. Shulardan eng ko‘zga tashlanadigani Xerox ning Palo Altoda joylashgan ilmiy-qidiruv markazida (PARC) tuzilgan Smalltalk dasturlash tilidir. Smalltalk da hamma narsa ob’ektlarga asoslangan. C++ esa gibrid tildir. Unda C ga o‘xshab strukturali dasturlash yoki yangicha, ob’ektlar bilan dasturlash mumkin. Yangicha deyishimiz ham nisbiydir. Ob’ektli dasturlash falsafasi paydo bo‘lganiga ham yigirma yildan oshayapti. C++ tilining egasi yo‘q u hech kimga tegishli emas. Bu til C tilidan kelib chiqgani uchun bosh harf C, ++ esa bu tildagi qiymatni bittaga ko‘tarish belgisi hisoblanadi va bu belgi C++ dasturlash tilida paydo bo‘ldi. C++ dasturlash tili kompilyatsiya qilinadigan til hisoblanadi bu degani yozilgan kod oldin mashina tiliga o‘giriladi va keyin ishga tushiriladi. C++ funksiya va ob’ektlarning juda boy kutubxonasiga ega. Yani C++ da dasturlashni o‘rganish ikki qismga bo‘linadi. Birinchisi bu C++ ni o‘zini o‘rganish, ikkinchisi esa C++ ning standart kutubxonasidagi tayyor ob’ekt/funksiyalarni qo‘llashni o‘rganishdir.C++ keng tarqalgan umumiy maqsadli dasturlash tili bo‘lib, u turli ilovalarni, jumladan, operatsion tizimlar, video o‘yinlar va ilmiy hisoblash dasturlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. Tilning asosiy xususiyatlari: 1990-yilda C++ standarti ishlab chiqildi va bu standart hozir ANSIC nomi bilan mashxur. Bu til juda kengayib ketdi va hozirgi kunda bu tilning hamma detallarini biladigan dasturchi bo‘lmasa kerak. C++ funksiya va ob’ektlarning boy kutubxonasiga ega. Bundan kelib chiqadiki C++ dasturlash tilini o‘rganish 2 qismga bo‘linadi: dastlab, C++ tili sintaksisi o‘rganiladi shundan so‘ng uning asosiy kutubxonalari birma-bir ko‘rib chiqib, yodlash lozim bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu til juda katta hajmni o‘z qamroviga oladi.

(cc) BY

Biz ushbu algoritmni C++ dasturlash tilida konsolda yozganmiz. C++ tilida kutubxonani boshqarish tizimining rivojlanishi bizga dasturlash tillaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida tushuncha beradi [9]. Biz yaratgan kutubxonani boshqarish tizimi kutubxonachilarga kitoblarni olish va qaytarish, kitoblarni qidirish kabi muntazam vazifalarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Tizim shuningdek, kitoblarni qidirishda yordam beradi va kitoblar mavjudligi haqida real vaqt rejimida yangilanishlarni taqdim etadi. C++ dasturlash tilida kutubxonalarni boshqarish tizimi kabi yuqori unumli tizimlarni ishlab chiqish uchun ajoyib asos bo‘lib xizmat qiladi [10].



1-rasm. Kitoblar ma’lumotiga blok-sxema.


Izoh: Bu blok-sxemada kitoblar ma’lumoti kiritiladi. Kitob ma’lumotlarini kiritishdan oldin biz “kitob” nomli fayl yaratib olishimiz kerak. Buning uchun biz “Этот компьютер”ga kirib undan “Документы” ga kiramiz va sichqonchaning o‘ng tugmasini bosamiz. U yerdan “Создать”ni tanlab undan “Текстовый документ” degan yozuvni tanlaymiz. U faylga kitob deb nom berib saqlaymiz. Biz kiritgan kitob ma’lumotlari shu yerda saqlanadi.

(cc) BY



2-rasm. Foydalanuvchi ma’lumotlari vazifasiga blok-sxemasi

Izoh: Bu blok-sxemada foydalanuvchi ma’lumotlari kiritiladi. Bu blok-sxema uchun ham birinchi blok-sxemadagiga o‘xshab “foydalanuvchi” nomli fayl yaratib olamiz va foydalanuvchi ma’lumotlarini kiritamiz. Kiritgan ma’lumotlarimiz shu faylda saqlanadi.



3-rasm. Kitoblarni qidirish (kitob nomi bilan) vazifasiga blok-sxemasi

Izoh: Bu blok-sxemada kitoblarni faqat nomi bilan qidiriladi. Bunda foydalanuvchi so‘ragan kitob nomini kiritamiz agar kiritgan kitob nomimiz birinchi blok-sxemamizdagi “kitob” nomli faylda bo‘lsa “Topildi” degan yozuv chiqadi. Keyin “Kitobni olasizmi?” deb so‘raydi “ha” deb kiritsa kitobni beradi va qachon qaytarish muddatini ham aytadi. Agar “Yoq” deb kiritsa “Bo‘pti hayr sog‘ bo‘ling!” degan yozuv

(cc) BY

chiqadi. Bu blok-sxema “Foydalanuvchi tanlagan kitobni berish” va “Foydalanuvchidan kitobni qabul qilish” shartini ham o‘z ichiga olgan.


Dasturga login va parol orqali kiriladi. Dasturning login va paroli quyidagicha:

Login: 2004

Parol: rayxona04


Dastur sinovi

Dasturga login va parol orqali kiramiz. Login va parol hato kiritilsa “Login yoki parol noto‘g‘ri!” degan yozuv chiqadi. Login va parol to‘g‘ri kiritilsa “Hush kelibsiz” degan yozuv chiqadi va bosh sahifa ochiladi. Endi bosh sahifadagi talablarni kiritishni boshlaymiz. Birinchi kitob ma’lumotlari kiritiladi keyin foydalanuvchi ma’lumotlari kiritiladi. Undan keyin kitoblarni qidirish jarayoni boshlanadi. Bunga foydalanuvchi so‘ragan kitob nomini kiritsak, kitob “kitob” nomili faylda bor bo‘lsa “Topildi” deb chiqadi va “kitobni olasizmi” deb so‘raydi “ha” deb kiritsa qachon qaytarish kerakligini aytadi (4-rasm).



4-rasm


Endi “kitobni olasizmi” degan savolga “Yoq” deb kiritsak, tugaydi. Keyin “Davom ettirasizmi?” deb so‘raydi (5-rasm).



5-rasm


(cc) BY

Agar foydalanuvchi so‘ragan kitob yo‘q bo‘lsa “Bunday kitob yoq” degan yozuv chiqadi (6-rasm).




6-rasm

Endigi jarayonda “Davom ettirasizmi?” degan savolga “Ha” deb kiritsak, dastur yana bosh sahifadan birin ketinlikda davom etadi (7-rasm).



7-rasm

“Yoq” deb kiritsak, dastur tugaydi (8-rsm).



8-rasm

(cc) BY

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu algoritm kutubxona boshqaruv tizimini avtomatlashtirishga mo‘jallangan. Bu algoritmda yuqoridagi blok-sxemalar asoslangan holda kod yozilgan va bu kodni ishlash jarayoni yuqorida ko‘rsatilgan. Bu algoritmning foydasi kutubxonani boshqarish tizimi kutubxona resurslarini markazlashgan holda boshqarish imkonini beradi, ya’ni barcha ma’lumotlar bir joyda saqlanadi va ularga xodimlar va mijozlar osongina kirishlari mumkin. Shu kabi birqancha foydali tomonlari bor. Endi kamchiligi shundan iboratki, kitoblarni qidirish jarayonida faqat kitob nomi bilan qidiriladi. Buni oldini olish uchun biz keyinchalik kitobni faqat kitob nomi bilan emas balki kitob yili va muallifi bilan qidiradigan qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Ismailov, A., Jalil, M. A., Abdullah, Z., & Abd Rahim, N. H. (2016, August). A comparative study of stemming algorithms for use with the Uzbek language. In 2016 3rd International conference on computer and information sciences (ICCOINS) (pp. 7-12). IEEE.

[2] Jalil, M. M., Ismailov, A., Abd Rahim, N. H., & Abdullah, Z. (2017). The Development of the Uzbek Stemming Algorithm. Advanced Science Letters, 23(5), 4171-4174.

[3] Allworth, E. A. (2013). The modern Uzbeks: from the fourteenth century to the present: a cultural history. Hoover Press.

[4] Dickens, M. (2002). Introduction to the Uzbek Language. Retrieved from oxuscom.com: http://www.oxuscom.com

[5] Kim, S. B., Seo, H. C., & Rim, H. C. (2004, July). Information retrieval using word senses: root sense tagging approach. In Proceedings of the 27th annual international ACM SIGIR conference on Research and development in information retrieval (pp. 258-265). ACM.

[6] Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019

[7] Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.

[8] N. Mahmudov, A. N. (2007). Ona tili. Toshkent: Ma'naviyat.

[9] Schlyter, B. N. (2001). Language policies in present-day Central Asia.International Journal on Multicultural Societies, 3(2), 127-136.

[10] N. Mahmudov, A. N. (2009). Ona Til1. Toshkent: Tasvir.

Shifoxonaga kelgan bemorlarni ro‘yxatga olish

Maftuna Aliasqar qizi Yigitaliyeva
yigitaliyevamaftuna425@gmail.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Shifoxonalar - bu kasal yoki jarohatlangan shaxslarga tibbiy yordam ko‘rsatadigan sog‘liqni saqlash muassasalari. Ular odatda shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari kabi malakali tibbiy mutaxassislardan iborat. Bemorni shifoxonada ro‘yxatdan o‘tkazish uchun odatda bemor haqida uning ismi, yoshi va kasallik tarixi kabi asosiy ma’lumotlarni taqdim etishingiz kerak bo‘ladi. Bemor - shifoxona, klinika yoki boshqa tibbiy muassasada tibbiy muolaja, parvarish yoki e’tibor olayotgan shaxs hisoblanadi. Quyida dastur funksiya boshqichlari keltirilgan: Bosh sahifa(ochilish sahifasi); Bemor ma’lumotlari; Kasal turi; Doktorga biriktirish; Doktor bergan dori qog‘oz; Yozilgan dorilarni olish. Kasalxonaga kelgan bemorlarni ro‘yxatga olishni qayd etish dasturining bemorlar va shifokorlar uchun afzalliklari quyidagilardan iborat: Samarali ro‘yxatdan o‘tish: Dastur bemorni ro‘yxatga olish uchun zarur bo‘lgan vaqt va kuchni kamaytirishga yordam beradi, bu esa shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlariga o‘z bemorlariga tezroq murojaat qilish imkonini beradi. Ma’lumotlarning aniqligi yaxshilandi: dasturiy ta’minot bemor ma’lumotlarini to‘g‘ri kiritishni ta’minlashga yordam beradi, bu esa tibbiy yozuvlar va hisob-kitoblarda xatolik ehtimolini kamaytiradi. Bemor natijalarini yaxshilash: Tezroq va aniqroq ro‘yxatga olish bilan shifokorlar va tibbiyot xodimlari o‘z vaqtida va samarali yordam ko‘rsatish uchun yaxshi jihozlanadi, bu esa bemorning yaxshi natijalariga olib keladi. Yana yaratilayotgan dasturimizning bir qancha afzalliklari bor.

Kalit so‘zlar: dasturlash, algoritm, blok-sxema, shifoxona, dasturiy ta’minot

Registration of patients who came to the hospital

Maftuna Aliaskar kizi Yigitaliyeva
yigitaliyevamaftuna425@gmail.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Tashkent State University of Economics

(cc) BY

Abstract: Hospitals are healthcare facilities that provide medical care to sick or injured individuals. They are usually made up of qualified medical professionals such as doctors, nurses and other healthcare workers. To register a patient at a hospital, you will usually need to provide basic information about the patient, such as their name, age, and medical history. A patient is a person receiving medical treatment, care or attention in a hospital, clinic or other medical institution. Below are the program function keys: Home page (opening page); Patient information; Type of disease; Attach to the doctor; Medicine paper given by the doctor; Taking prescribed medications. Benefits of hospital admission registration software for patients and doctors include: Efficient registration: The software helps reduce the time and effort required for patient registration, allowing doctors and other healthcare workers to attend to their patients faster. . Improved data accuracy: The software helps ensure accurate patient data entry, reducing the potential for errors in medical records and billing. Improved patient outcomes: With faster and more accurate registration, physicians and healthcare providers are better equipped to provide timely and effective care, leading to better patient outcomes. Our newly created program has several advantages.

Keywords: programming, algorithm, block diagram, hospital, software

Kirish


Kasalxonalarga kelgan bemorlarni ro‘yxatga olish sog‘liqni saqlash sohasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan muhim bosqichdir. Bu bemorlar haqida ma’lumot to‘plashni o‘z ichiga oladi, bu bemorlarni parvarish qilish, ma’muriy maqsadlar, hisob-kitoblar va qonunlarga rioya qilish uchun zarurdir. Ro‘yxatga olish jarayoni bemorning shaxsi, kasallik tarixi va tashrifi sababi haqida aniq ma’lumotlarni olishga qaratilgan, chunki u bemorning tibbiy rekordining asosini tashkil qiladi. Bemorni ro‘yxatga olish, shuningdek, bemor va tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi provayder o‘rtasidagi birinchi aloqa nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bemorni ro‘yxatga olish jarayoni ko‘pincha uzoq kutish vaqtlari, nomuvofiq ma’lumotlar sifati va xodimlarning yetarli darajada tayyorlanmaganligi kabi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklar ma’lumotlarni yig‘ishda xatolarga, bemorlarning noroziligiga va sog‘liqni saqlash tizimidagi samarasizlikka olib kelishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun bemorlarni ro‘yxatga olishning joriy jarayonlarini tushunish va samarali muloqot va soddalashtirilgan ish jarayonlari orqali ma’lumotlarni yig‘ishni yaxshilash hamda kutish vaqtlarini qisqartirish yo‘llarini aniqlash talab etiladi.

Taklif etilayotgan algoritm

Biz ushbu algoritmni C++ dasturlash tilida konsolda yozganmiz. C++ tilida shifoxonaga kelgan be’morlarni ro’yxatga olish bizga dasturlash tillaridan qanday

(cc) BY


foydalanish mumkinligi haqida tushuncha beradi [1]. Biz yaratgan shifoxonaga kelgan bemorlarni ro'yxatga olish tizimi bemor ma'lumotlari , shifoxonaga kelgan bemorlarni kasallik turiga qarab qaysi doktorga biriktirishni yana bir qator vazifalarni avtomatlashtirishga yordam beradi.



1-rasm. Bemor ma'lumotlarini kiritish

Izoh:

1. Boshlash: algoritmni boshlash jarayoni hisoblanadi.
2. Bemorni ismini kiritish: Foydalanuvchidan ismi so'ralsin! Misol uchun: Sabrina
3. Bemor familiyasini kiritish: Foydalanuvchidan familiyasi so'ralsin!Misol uchun: Toshpo'latova
4. Bemor tug'ilgan sanasini kiritish: Foydalanuvchidan tug'ilgan sanasi so'ralsin! Misol uchun: 1998-yil 12-dekabr
5. Shu ma'lumotlarini ekranga chiqarib bersin!
6. Tugash: algoritmni yakunlanganligini belgilaydi.



2-rasm. Kasal turini aniqlash

(cc) BY


Izoh:

1. Boshlash: algoritmni boshlash jarayoni hisoblanadi.

2. Bemordan qanday shikoyati borligi so‘ralsin: masalan: sariqkasal

3. Kasal turi: agar biz yozgan kasal turi bo‘lsa ma’lumot ekranga chiqadi, agar bunday kasal turi yo‘q bo‘lsa “Bizning sohamizga to‘g‘ri kelmaydi” degan ma’lumot chiqadi

4. Tugash: algoritmni yakunlanganligini belgilaydi.



3rasm. Doktorga biriktirish

Izoh:

1. Boshlash: algoritmni boshlash jarayoni hisoblanadi.

2. Kasal turini kiriting: bunda foydalanuvchi qanday kasalligi kiritiladi. Masalan: Ko‘zxiralashishi

3. Kasal turi: faydalanuvchi kasal turini aytadi va bunday kasal turi bo‘lsa doktor ismi kasbi xonasi haqida foydalanuvchiga ma’lumot beriladi masalan; “Qandlidiabet: ENDAGRENOLOG 14-xona Abdusalomov.A” keyin bunday kasal turiga doktor yo‘q bo‘lsa “Bunday kasallikka doktor yo‘q” deb javob beriladi.

4. Tugash: algoritmni yakunlanganligini belgilaydi.

Dastur sinovi

Dastur birinchi bo‘lib “Login va parol”so‘raydi. Dasturning


Logini: 2004;

Paroli: maftuna04;

Biz login va parol uchun “login” nomli fayl yaratganmiz bu faylga kirish uchun “Этот компьютер” ga kirib undan “Документы” ga kiramiz biz yaratgan fayl shu yerda turadi. Bu faylni ochish uchun biz “Этот компьютер”ga kirib undan “Документы” ga kiramiz va sichqonchaning o‘ng tugmasini bosamiz. U yerdan “Создать”ni tanlab undan “Текстовый документ” degan yozuvni tanlaymiz. U faylga login deb nom berib saqlaganmiz.

(cc) BY


Parol va loginni kiritgandan keyin biz kiritgan login va parol to‘g‘ri bo‘lsa “Hush kelibsiz”degan yozuv va bosh sahifaga boradi.



4-rasm

Endi quyidagi ma’lumotlarni kiritganimizdan so’ng 2-kasal turini kiritishni so’raydi.


Bundan keyin bemor kasal turini kiritishni so‘raydigan oyna ochiladi. Bemorga kimga uchrashi qaysi xonaga kirishi ism-familiyasi chiqadi. Keyin bu kasal turiga qanday dori ichishi ham ekranda ko‘rinadi.



5-rasm

Keyin bemor yozib bergan ro‘yxatdagi dorini kiritish so‘raladi. Dori nomini kiritganimizdan so‘ng “ishlab chiqargan firma” narxi chiqib keladi.Keyin bemor “to‘lov qilasizmi?” deb so‘raladi.


(cc) BY



6-rasm


Bundan so‘ng “ha” qiymatini kiritsak yana doktor yozib berdan dori qog‘ozda yana dorilar bo‘lsa dori nomini kiritishni so‘raydi. Agar “yo‘q” qiymatini kiritsak dastur davom ettirasizmi deb so‘raladi.

Dasturni davom ettirasizmi deganga “ha” deb kiritsak dastur yana boshidan davom etadi.



7-rasm

“Yo‘q” qiymatini kiritsak dastur tugaydi.



8-rasm

Xulosa

Xulosa qilib aytganda biz yuqorida yozib o‘tgan ma’lumotlarga asoslanib, bemor ma’lumotlarini kiritish, bemorni kasal turini kiritish, doktor bergan dori qog‘ozni olish va doktor yozgan dorilarni olish rasmlari ko‘rsatilgan, umuman olganda, shifoxonaning tavsiyalari va tavsiyalariga amal qilish, dori-darmonlarni ko‘rsatmalarga muvofiq qabul qilish va siz uchun mavjud bo‘lgan har qanday qo‘shimcha yordam yoki resurslarni qidirishni davom ettirish muhimdir. Yaratilgan

(cc) BY

dasturni sinovdan o‘tkazdik. Sinov bizga shuni ko‘rsatdikki, dastur orqali bemorlar va shifokorlar yengillikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] G‘.Tojiboyev – “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, M.Jalilov – TATU farg‘ona filiali ”Kompyuter tizimlari” kofedrasi dotsenti. “C++ dasturlash tili”ni o‘rganish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.

[2] Karimov Q.M., Razzoqov I.D. Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O‘quv - uslubiy qo‘llanma. “Nasaf” nashriyoti, 2014;

[3] Y. Daniel Liang. Introduction to Programming with C++

[4] Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog - o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). O‘quv - uslubiy qo‘llanma. - T.: Iste’dod, 2008. - 180 b.

[5] http:// www.ziyonet.uz – dasturlash asoslari bo’yicha referatlar topish mumkin.

[6] B.J.Boltayev, A.R.Azamatov, A.D.Rahimov, B.A.Azamatov, D.T.Asrayeva, SH.Z.Qambaraliyev “C++ tili asoslari” amaliy qo‘llanma.

[7] Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019

[8] Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.

[9] N. Mahmudov, A. N. (2007). Ona tili. Toshkent: Ma'naviyat.

[10] Schlyter, B. N. (2001). Language policies in present-day Central Asia.International Journal on Multicultural Societies, 3(2), 127-136.

[11] Kim, S. B., Seo, H. C., & Rim, H. C. (2004, July). Information retrieval using word senses: root sense tagging approach. In Proceedings of the 27th annual international ACM SIGIR conference on Research and development in information retrieval (pp. 258-265). ACM.

Mehmonxona xonasini onlayn buyurtma qilish tizimi

Gulnoza To‘xtasinjon qizi Qodirova
Qodirovagulnoza0905@gmail.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Mehmonxona - bu sayohatchilar va sayyohlar uchun turar joy, ovqatlanish va boshqa xizmatlarni taqdim qiluvchi muassasa. Ularda odatda mehmonlar qolishlari uchun bir qator xonalar shuningdek, restoranlar, barlar, fitnes markazlari va suzish havzalari kabi qulayliklar mavjud. Ko‘pgina mehmonxonalar ular taqdim etayotgan hashamat va xizmatlar darajasini ko‘rsatadigan yulduz tizimiga ko‘ra baholanadi, yuqori yulduzli mehmonxonalar odatda ko‘proq qulayliklar va yuqori sifatli turar joy taklif qiladi. Mehmonxonalarni yirik shaharlardan tortib to olis joylarga qadar butun dunyo bo‘ylab topish mumkin va ular turli sayohatchilarga, dam olishda bo‘lgan sayohatchilardan tortib konferensiya va uchrashuvlarda qatnashadigan biznes sayohatchilargacha xizmat qiladi. Biz yaratayotgan algoritmning quyidagicha foydasi bor: 1. Qulaylik: Mehmonxona xonasini onlayn buyurtma qilish juda qulay, chunki siz internetga ulangan istalgan joydan tizimga osongina kirishingiz mumkin. 2. Vaqtni tejash: Mehmonxona xonasini onlayn buyurtma qilish vaqtni tejaydigan jarayon bo‘lib, foydalanuvchilar bir necha daqiqada xonalarni qidirish, solishtirish va band qilishlari mumkin. 3. 24/7 Mavjudligi: Mehmonxona xonalarini buyurtma qilish tizimlaridan 24/7 foydalanish mumkin, ya’ni siz istalgan vaqtda, kechayu kunduz buyurtma qilishingiz mumkin. 4. Narxlar va sharhlarni solishtirish: Onlayn buyurtma qilish tizimlari foydalanuvchilarga turli mehmonxonalar narxlari va sharhlarini solishtirish imkonini beradi, bu ularga asoslangan qaror qabul qilishga yordam beradi. 5. Moslashuvchanlik: Onlayn buyurtma qilish tizimlari foydalanuvchilarga hech qanday qiyinchiliksiz bandlovni o‘zgartirish yoki bekor qilish imkoniyatini beradi. 6. Chegirmalar va maxsus takliflar: Onlayn buyurtma qilish tizimlari ko‘pincha o‘z foydalanuvchilariga pulni tejash va tajribasini oshirish uchun eksklyuziv chegirmalar va maxsus takliflarni taqdim etadi. Yaratilayotgan dasturda birinchi mehmonxonadagi xonalar ro‘yxati kiritiladi, keyin mehmonxonadagi bo‘sh xonalar ro’yxati aniqlanadi undan keyin buyurtmachini registratsiya qilish jarayoni boshlanadi.

Kalit so‘zlar: dasturlash, algoritm, blok-sxema, mehmonxona, dasturiy ta’minot

(cc) BY

Hotel room booking system online

Gulnoza Tokhtasinjan's daughter Kadirova
Kadirovagulnoza0905@gmail.com
Alisher Shakirovich Ismailov
alisherismailov1991@gmail.com
Tashkent State University of Economics

Abstract: A hotel is an establishment that provides accommodation, meals and other services to travelers and tourists. They usually have a number of rooms for guests to stay in as well as amenities such as restaurants, bars, fitness centers and swimming pools. Most hotels are rated according to a star system that indicates the level of luxury and service they offer, with higher star hotels generally offering more amenities and higher quality accommodation. Hotels can be found all over the world, from major cities to remote locations, and they cater to a variety of travelers, from leisure travelers to business travelers attending conferences and meetings. The algorithm we are creating has the following benefits: 1. Convenience: Booking a hotel room online is very convenient because you can easily access the system from anywhere with an internet connection. 2. Save Time: Online hotel room booking is a time-saving process where users can search, compare and book rooms in minutes. 3. 24/7 Availability: Hotel room booking systems are available 24/7, meaning you can book anytime, day or night. 4. Compare Prices and Reviews: Online booking systems allow users to compare prices and reviews of different hotels, which helps them make an informed decision. 5. Flexibility: Online booking systems allow users to change or cancel their booking without any hassle. 6. Discounts and Special Offers: Online booking systems often provide their users with exclusive discounts and special offers to save money and enhance their experience. In the program being created, the list of rooms in the first hotel is entered, then the list of empty rooms in the hotel is determined, after which the process of customer registration begins.

Keywords: programming, algorithm, block diagram, hotel, software

Kirish

C++ yuqori darajadagi dasturlash tili bo‘lib, tizim dasturlari, amaliy dasturlar, qurilmalar drayverlari, video o‘yinlar va boshqa dasturlarni ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. U 1983 yilda Bjarne Stroustrup tomonidan C dasturlash tilining kengaytmasi sifatida ishlab chiqilgan.

C++ dasturlash tilining ba’zi asosiy xususiyatlari:

(cc) BY

1. Ob’ektga yo‘naltirilgan: C++ bu ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlash tili bo‘lib, u dasturchilarga o‘z kodlarini tartibga solish va tuzish uchun sinflar va ob’ektlar yaratish imkonini beradi.

2. Platformadan mustaqil: C++ kodi turli platformalarda, jumladan Windows, Linux, Mac va boshqalarda kompilyatsiya qilinishi va ishlashi mumkin.

3. Tez ishlash: C++ samarali xotira boshqaruvi va apparat ustidan past darajadagi nazorat tufayli tez ishlashi bilan mashhur.


4. Standartlashtirish: C++ xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan standartlashtirilgan va oxirgi versiyasi C++20.

5. Keng ko‘lamli ilovalar: C++ turli sohalarda, jumladan, operatsion tizimlar, o‘yinlar, moliya, muhandislik va ilmiy ilovalarda keng qo‘llaniladi.

6. Kengaytirish imkoniyati: C++ kengaytirilishi mumkin, ya’ni u kutubxonalar va ramkalar yaratish hamda tilga yangi funksiyalarni qo‘shish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan algoritm:


Biz ushbu algoritmni C++ dasturlash tilida konsolda yozganmiz. C++ tilida mehmonxonani xonasini buyurtma qilish tizimining rivojlanishi bizga dasturlash tillaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida tushuncha beradi. Biz yaratgan mehmonxonani xonasini buyurtma qilish tizimi mijozlarga xonalarni onlayn buyurtma qilish va topshirish kabi muntazam vazifalarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Tizim shuningdek, mehmonxonadagi bo‘sh xonalarni aniqlashga yordam beradi. C++ dasturlash tilida mehmonxonani xonasini buyurtma qilish tizimi kabi yuqori unumli tizimlarni ishlab chiqish uchun ajoyib asos bo‘lib xizmat qiladi.



1-rasm. Mehmonxona xonalarini kiritish blok-sxemasi

(cc) BY


Izoh: Bu blok-sxemada mehmonxona xonalari kiritiladi. Mehmonxona xonalarini kiritishdan oldin biz “xona” nomli fayl yaratib olishimiz kerak. Buning uchun biz “Этот компьютер”ga kirib undan “Документы” ga kiramiz va sichqonchaning o‘ng tugmasini bosamiz. U yerdan “Создать”ni tanlab undan “Текстовый документ” degan yozuvni tanlaymiz. U faylga xona deb nom berib saqlaymiz. Biz kiritgan mehmonxona xonalarini ma’lumotlari shu yerda saqlanadi.



2-rasm. Buyurtmachini registratsiya qilish blok-sxemasi.

Izoh: Bu blok-sxemada buyurtmachi ma’lumotlari kiritiladi. Bu blok-sxema uchun ham birinchi blok-sxemadagi kabi “registratsiya” nomli fayl yaratib olamiz va buyutrmachi ma’lumotlarini kiritamiz. Biz kiritgan ma’lumotlar shu faylda saqlanadi.

(cc) BY



3-rasm. Buyurtmachidan xonani qabul qilib olish blok-sxemasi.

Izoh: Bu blok-sxemada buyurtmachidan xonani qabul qilib olinadi.


Dasturga login va parol orqali kiriladi. Dasturning login va paroli quyidagicha:

Login: TMIAF

Parol: 2004.12

Dastur sinovi:

Dasturga login va parol orqali kiramiz. Login va parol hato kiritilsa “Login yoki parol noto‘g‘ri!” degan yozuv chiqadi. Login va parol to‘g‘ri kiritilsa “Hush kelibsiz” degan yozuv chiqadi va bosh sahifa ochiladi. Endi bosh sahifadagi talablarni kiritishni boshlaymiz. Birinchi mehmonxona xonalarini kiritiladi keyin mehmonxonani bo‘sh xonalari kiritiladi. Undan keyin buyurtmachilarni registratsiya qilinadi va buyurtmachidan xonani qabul qilib olinadi (4-rasm).



4-rasm

(cc) BY

Dastur kodi

```
#include<iostream>
#include<fstream>
#include<set>
#include<string>
using namespace std;
void XonaKiritish() {
string xona;
string nechakishilik;
 cout<<"Xona nomerini kiriting:";
 cin>>xona;
 cout<<"Xona necha kishilik ekanligini kiriting:";
 cin>>nechakishilik;
 ofstream foutput;
 ifstream finput;
 finput.open("xona.txt");
 foutput.open("xona.txt",ios::app);
 if(finput.is_open())
 foutput<<xona<<"-xona"<<" "<<nechakishilik<<"-kishilik"<<endl;
 cout<<"\n Ma'lumot kiritildi!";
 finput.close();
 foutput.close();
}
void XonaMalumotiniChopEtish(){
string myText;
 // faylni o`qish
 ifstream MyReadFile("xona.txt");
 while (getline (MyReadFile, myText)) {
 // natija
 cout << myText<<endl ;
 }
 MyReadFile.close();
}
void boshxona(){
string myText,myText2;
set<string>fayl;
set<string>fayl2;
set<string>fayl3;
ifstream MyReadFile("xona.txt");
ifstream MyReadFile2("registratsiya.txt");
while(getline(MyReadFile,myText)) {
 fayl.insert(myText);
}
while (getline(MyReadFile2,myText2)){
 fayl2.insert(myText2);
}
for(auto i:fayl2){
 for(auto j:fayl){
 if(j==i){
 fayl3.insert(j);
 }
 }
 for(auto z:fayl3){
 cout<<z<<endl;
 }
}
}
void RegistratsiyaKiritish(){
 cout<<"========================================"<<endl;
 cout<<"Buyurtmachini mehmonxonaga registratsiya qilish:"<<endl;
 string ism, familya, passport, tel, xona;
 cout<<"Ismni kiriting:";
 cin>>ism;
 cout<<"Familyani kiriting:";
 cin>>familya;
 cout<<"Passport nomerni kiriting:";
 cin>>passport;
 cout<<"Telefon nomerni kiriting:";
 cin>>tel;
```


(cc) BY

```
 cout<<"Xona nomerni kiriting:";
 cin>>xona;
 ofstream foutput;
 ifstream finput;
 finput.open ("registratsiya.txt");
 foutput.open ("registratsiya.txt",ios::app);
 if(finput.is_open())
 foutput<<ism<<" "<<familya<<" "<<passport<<" "<<tel<<" = "<<xona<<"\n";
 cout<<"\n Registratsiya qilindi!";
 finput.close();
 foutput.close();
}

void RegistratsiyaMalumotiniChopEtish(){
string myText;
 // faylni o`qish
 ifstream MyReadFile("registratsiya.txt");
 while (getline (MyReadFile, myText)) {
 // natija
 cout << myText<<endl ;
 }
 MyReadFile.close();
}
void XonaniQabulQilibOlish(){
cout<<"========================================="<<endl;
 int xona,kun,narxi;
 cout<<"Qaysi xonani band qilganini kiriting:"<<endl;
 cin>>xona;
 cout<<"Necha kunga buyurtma qilinganini kiriting:"<<endl;
 cin>>kun;
 narxi=kun*150000;
 cout<<"To'lov miqdori:"<<narxi<<endl;
 ofstream foutput;
 ifstream finput;
 finput.open ("xonaniqabulqilibolish.txt");
 foutput.open ("xonaniqabulqilibolish.txt",ios::app);
 if(finput.is_open())
 cout<<"\n Xona qabul qilindi!";
 finput.close();
 foutput.close();
}
void XonaniQabulQilibOlishniChopEtish(){
string myText;
 // faylni o`qish
 ifstream MyReadFile("xonaniqabulqilibolish.txt");
 while (getline (MyReadFile, myText)) {
 // natija
 cout << myText<<endl ;
 }
 MyReadFile.close();
}

void kursIshi(){
string myText;
 // faylni o`qish
 ifstream MyReadFile("login.txt");
 string login, parol;
 string davom ="Ha";
 string gettext1, gettext2;
 cout<<"Loginni kiriting:";
 cin>>login;
 cout<<"Parolni kiriting:";
 cin>>parol;
 int qator = 0;
 while (getline (MyReadFile, myText)) {
 // natija
 if(qator == 0){
 gettext1 = myText;
 }else if(qator == 1){
 gettext2 = myText;
```


(cc) BY

```
}
//cout << myText<<endl ;
qator++;
}
if(login == gettext1 && parol == gettext2){
int menyu = 0;
cout<<"Hush kelibsiz!"<<endl;
while(davom =="Ha" || davom =="ha")
{
cout<<"========================================"<<endl;
cout<<"1- Mehmonxona xonalarini kiritish"<<endl;
cout<<"2- Mehmonxonani bo'sh xonalarini aniqlash"<<endl;
cout<<"3-Buyurtmachini Registratsiya qilish "<<endl;
cout<<"4- Buyurtmachidan xonani qabul qilib olish"<<endl;
cin>>menyu
```

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu algoritm mehmonxona xonasini onlayn buyurtma qilishga mo‘jallangan. Bu algoritmda yuqoridagi blok-sxemalar asoslangan holda kod yozilgan va bu kodni ishlash jarayoni yuqorida ko‘rsatilgan. Bu algoritmning foydasi mehmonxona xonasini onlayn buyurtma qilish resurslarini markazlashgan holda boshqarish imkonini beradi, ya’ni barcha ma’lumotlar bir joyda saqlanadi va ularga xodimlar va mijozlar osongina kirishlari mumkin. Shu kabi birqancha foydali tomonlari bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Ismailov, A., Jalil, M. A., Abdullah, Z., & Abd Rahim, N. H. (2016, August). A comparative study of stemming algorithms for use with the Uzbek language. In 2016 3rd International conference on computer and information sciences (ICCOINS) (pp. 7-12). IEEE.

[2]J. Ma va X. Cheng tomonidan “Mehmonxonada onlayn bron qilish tizimlarini baholash: taqqoslash tadqiqoti”

[3] A. Adeniran va O. Adeoye tomonidan “Model-View-Controller (MVC) va ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash paradigmasidan foydalangan holda mehmonxonani buyurtma qilish tizimini ishlab chiqish”. 2015.

[4] M.A.Salaam, M.Bello va A.Adekitan tomonidan “Onlayn mehmonxona buyurtma qilish va boshqarish tizimini loyihalash va joriy etish”. 2017.

[5] Informatika va programmalash.O‘quv qo‘llanma. Mualliflar: A.A.Xaldjigitov, Sh.F.Madraximov, U.E.Adamboev, O‘zMU, 2005 yil, 145 bet.

[6] O.Shukurov, F.Qorayev, E.Eshboyev, B.Shovaliyev “Programmalashdan masalalar to‘plami”. Toshkent 2008,160 bet

[7] Jeyms A. Bardi tomonidan “Mehmonxonaning old ofisini boshqarish”. 2016.

[8] Devid K. Xeys va Jek D. Ninemeyer tomonidan “Mehmonxona operatsiyalarini boshqarish”. 2015.

[9] Jon R. Uokerning “Mehmondo‘stlikni boshqarishga kirish”. 2018.

[10] Jek D. Ninemeier va Kelli A. MakGuayr tomonidan “Mehmondo‘stlik operatsiyalari: tizimli yondashuv”. 2019.

(cc) BY

[11] Maykl L. Kasavana va Richard M. Bruksning “Front ofis operatsiyalarini boshqarish”. 2019.

Ishlatilgan moylarni tozalashning zamonaviy usullari

Behruz To'ymurodovich Salomatov
salomatovbehruz@gmail.com
Nodir Shavkatovich Panoyev
panoyev89@mail.ru
Jasur Alijon o'g'li Safarov
jasur.safarov1993@mail.ru
Hasan Rahmatovich Abdulloyev
abdulloyevhasan2022@mail.com
Buxoro muhandislik texnologiya instituti

Annotatsiya: Maqolada ishlatilgan moylarni tozalash usullari, moy tarkibidagi keraksiz komponentlarni ajratish jarayonlari va qurulmalari haqida bayon qilingan. Ishlatilgan moylarni tozalashning fizik, fizik-kimyoviy va kimyoviy usullaridan, fizik usullarda tindirish, ajratish, filtrlash jarayonlar orqali tozalash. Fizik-kimyoviy usullarda adsorbsiya, koagulyatsiya, termovakuum quritish, selektiv eritish jarayonlari yordamida tozalash. Kimyoviy usullar kislota bilan ishlov berish va ishqor bilan ishlov berish jarayonlari haqida ma'lumotga ega bolishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: regeneratsiya, tindirish, ajratish, filtrlash, adsorbsiya, koagulyatsiya, termovakuum quritish, selektiv eritish, silikagel, aluminiy oksidi

Modern methods of cleaning used oils

Bekhruz Salomatov
salomatovbehruz@gmail.com
Nodir Panoyev
panoyev89@mail.ru
Jasur Safarov
jasur.safarov1993@mail.ru
Khasan Abdulloyev
abdulloyevhasan2022@mail.com
Bukhara Technological Engineering Institute

Abstract: The article describes the methods of cleaning used oils, processes and structures for separating unnecessary components in the oil. Physical, physico-chemical and chemical methods of cleaning used oils, purification by physical methods of filtering, separating, filtering. Purification using the processes of adsorption,

(cc) BY

coagulation, thermovacuum drying, selective melting in physico-chemical methods. Chemical methods You can learn about acid treatment and alkali treatment processes.

Keywords: regeneration, settling, separation, filtration, adsorption, coagulation, thermovacuum drying, selective melting, silica gel, aluminum oxide

Moylarni tozalash usullari. Ishlatilgan moyning utilizatsiyasi o‘z-o‘zidan moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, biroq tannarxi ishlab chiqarishning murakkabligi tufayli juda yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan surkovchi moylardan bir marotaba foydalanish undan ham notejamkor bo‘ladi. Surkovchi moylarining regeneratsiyasini amalga oshirish tejamkorroq bo‘lib, bunda to‘plangan ifloslantiruvchi moddalar ulardan ajratib chiqariladi va moy qayta ishlatilishi va surkov tizimiga qaytarilishi mumkin.

Tozalashning muayyan usuli ifloslanishning tabiati, moyning umumiy tarkibi hamda tozalashning talab qilingan darajasiga qarab tanlanadi. Kompleks ifloslanish holatlarida turli usullar yordamida moyni tozalashning bir necha bosqichlari qo‘llanilishi mumkin. Umumiy tamoyil shundan iboratki, birinchi navbatda eng katta va eng oson ajratilgan ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi, so‘ngra mayin tozalash bosqichi amalga oshiriladi. Agar tozalash qurilmasi har xil turdagi moylar va ularni ifloslantiruvchi moddalar bilan ishlashga mo‘ljallangan bo‘lsa, unda uning tarkibiga muayyan holatga qarab, zarurat bo‘lganda ulanadigan turli konstruksiyadagi tozalash apparatlari kiritilishi mumkin.

Moylarni tozalashning barcha usullari uchta umumiy guruhga bo‘linadi:

- fizikaviy;
- fizikaviy-kimyoviy;
- kimyoviy.


Fizikaviy usullar. Fizikaviy usullar yerdamida tozalashda moy biron-bir kimyoviy o‘zgarishlarga uchramaydi, jarayon esa ma’lum fizikaviy ta’sirni qo‘llab amalga oshiriladi. Gravitatsion yoki markazdan qochma kuchlar maydoni, elektr yoki magnit maydon va boshq foydalanish mumkin. Shuningdek, har xil issiqlik almashinuvi jarayonlari, filtrlash va vibratsion ta’sirlar ham qo‘llaniladi. Ushbu guruhdagi usullar odatda tozalashning dastlabki bosqichi bo‘lib xizmat qiladi, bunda mexanik aralashmalar, suyuq ifloslantiruvchi moddalar (shu jumladan suv) va gaz qo‘shimchalari chiqariladi. Fizikaviy tozalashning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardan iborat:

- tindirish;
- ajratish;
- filtrlash.

Tindirish. Mazkur usul amalga oshirish jihatdan eng sodda, lekin jarayonning davomiyligi tufayli unumdorligi past bo‘lib hisoblanadi.


(cc) BY

Nisbatan yirik mexanik yoki suvli aralashmalar tortishish kuchlari ta’sirida tubga tushib ajraladi. Tindirish tindirgichlar deb ataladigan oddiy konstruksiyadagi qurilmalarda sodir bo‘ladi. Ushbu usulning xususiyatlari keyingi mayin tozalash qurilmalariga yuklamani kamaytirish maqsadida undan dastlabki tozalash bosqichi sifatida foydalanish afzalligini beradi. Tindirish jarayonini amalga oshirish qurilmasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tindirish qurilmasining umumiy ko’rinishi

Ajratish. Bu moyni sentrifugalash jarayoni bo‘lib, tindirish jarayoniga o‘xshaydi, ammo yer tortishish kuchlarining nisbatan kuchsiz maydoni o‘rniga qiymatlari bir necha marta kattaroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan markazdan qochma kuchlar maydoni qo‘llaniladi, bu esa ajratish jarayonini sezilarli jadallashtiradi. Jarayonni jadallashtirish narxi murakkabroq qurilmalar - sentrifugalardan foydalanish hisobidan oshib, ular ishlash uchun qo‘shimcha energiya manbasini (odatda elektr motorlar) talab qiladi. Ajratish jarayonini amalga oshirish qurilmasi 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Ajratish qurilmasining umumiy ko’rinishi

Filtrlash. Bu ifloslangan moyni filtrlovchi material hajmi orqali o‘tkazishdan iborat bo‘lib, mazkur materialning g‘ovakli yoki to‘rli tuzilmasi moy komponentlarini o‘tkazish hamda mexanik va ba’zi suyuqlik aralashmalarni ushlab qolish imkonini beradi. Tozalash darajasi ham ajratiladigan zarrachalar hajmiga, ham to‘rning g‘ovaklari yoki hujayralarining o‘lchamiga bog‘liq bo‘ladi. Filtr materiallari sifatida metall yoki plastmassa to‘r, keramika, mato, qog‘oz va yanada murakkabroq kompozitsion materiallardan foydalanish mumkin. Filtrlashni amalga oshirish apparati

(cc) BY

filtr deb ataladi. Filtrlovchi materialni to‘g‘ri tanlash filtrni dag‘al va mayin tozalash uchun sozlash imkonini beradi. Mazkur jarayonning asosiy kamchiligi bo‘lib foydalanish davomida tiqilib qoladigan filtrlovchi to‘siqlarni regeneratsiyalash, yoki ish qobiliyatini tiklashning iloji bo‘lmaganda ularni utilizatsiyalash zarurati bo‘lib hisoblanadi. Filtrlash jarayonini amalga oshirish qurilmasi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Filtrlash qurilmasining umumiy ko’rinishi

Fizikaviy-kimyoviy usullar. Mazkur guruhdagi usullarni qo‘llashda moy komponentlari tozalash jarayonida qisman kimyoviy o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Odatda ularni amalga oshirish murakkabroq va fizikaviy usullarga qaraganda qimmatroq bo‘ladi, ammo ular moyg‘larni chuqurroq va to‘liq tozalashni ta’minlaydi. Fizikaviy-kimyoviy tozalash usullariga quyidagilar kiradi:

- adsorbsiya;
- koagulyatsiya;
- termovakuum quritish;
- selektiv eritish.


Adsorbsiya. Moyni adsorbsion tozalash uni adsorbent - tuzilmasi bir qator erigan aralashmalarni ushlab turish imkonini beradigan yuqori g‘ovakli modda qatlamidan o‘tkazishdan iborat. Bunday yuqori g‘ovakli materiallarga oqartiruvchi loy va boksitlar kabi tabiiy materiallar, shuningdek, silikagel yoki aluminiy oksidi kabi maxsus tanlangan materiallar kiradi. Adsorbsion tozalash samaradorligi ko‘p jihatdan g‘ovak o‘lchamlari va ushlab qolingan zarrachalar nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu usullarning yuqori tozalash darajasi adsorbent materiallarini ishlab chiqarishning yuqori xarajati ko‘rinishida salbiy tomonga ega bo‘lib, ular ish paytida davriy regeneratsiyani talab qiladi, eng yomon holatda esa bir martalik bo‘ladi. Tabiiy adsorbentlar arzonroq, ammo ularning samaradorligi sun’iylardan sezilarli darajada past bo‘ladi. Adsorbsiyani amalga oshiradigan apparatlar adsorberlar deb ataladi. Adsorbsiya jarayonini amalga oshirish qurilmasi 4-rasmda keltirilgan.

(cc) BY



4-rasm. Adsorber qurilmasining umumiy ko’rinishi

Koagulyatsiya. Mazkur usul ko‘proq bir qator fizik usullarning samaradorligini oshirishga qaratilgan, chunki u filtrlash va cho‘ktirish yo‘li bilan ajralmaydigan yoki ajratilishi qiyin bo‘lgan, yiriklashgandan so‘ng yuqorida aytib o‘tilgan fizikaviy usullar bilan ajratilishi mumkin bo‘lgan moyni ifloslantiruvchi moddalarning kolloid zarrachalarining yopishishi va yiriklashishi (koagulyatsiya) tamoyiliga asoslanadi. Koagulyatsiyani amalga oshirish uchun bir qator fizikaviy ta’sirlar (elektr toki, aralashtirish, kuchli isitish yoki sovutish va boshq.), shuningdek maxsus koagulyant moddalar qo‘llaniladi. Koagulyatsiya jarayonini amalga oshirish qurilmasi 5-rasmda keltirilgan.




5-rasm. Koagulyatsiya jarayonini amalga oshirish qurilmasining umumiy ko’rinishi

Termovakuum quritish. Bu usulda asosan suv va erigan gazlarning katta qismi moydan chiqariladi. Usul suv va moy o‘rtasidagi qaynash nuqtalarining farqiga asoslanib, bu suvni bug‘latish amalga oshiriladigan kameraga past bosim qo‘llash orqali yanada kuchaytiriladi. Bug‘lanish maydonini sezilarli darajada oshirish uchun moy qo‘shimcha tarqatiladi, bu esa moyni tozalash jarayonining yanada to‘liq va tez borishini ta’minlaydi. Jarayonni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan qurilmalar nisbatan sodda konstruksiyaga va ishlatish osonligiga ega, ammo ularning germetizatsiya darajasini nazorat qilish va atmosfera havosining kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

(cc) BY

Selektiv eritish. Jarayon moy bilan aralashmasligi hamda moydan olib tashlanishi kerak bo‘lgan moddalarni o‘zlarida sezilarli yaxshi eritishi kerak bo‘lgan selektiv erituvchilardan foydalanishga asoslanadi. Moy va erituvchini aralashtirishda fazalar aloqasi rivojlangan yuzasi hosil bo‘lib, u orqali ifloslantiruvchi moddalarning moydan erituvchiga jadal o‘tishi sodir bo‘ladi. Keyin fazalar ajratiladi, shundan so‘ng erituvchi ham unda erigan ifloslantiruvchi moddalardan tozalanishi va moyni tozalash uchun qayta ishlatilishi mumkin. Usul yuqori samaradorlikka ega, ammo moyda tez-tez ishlatiladigan qo‘ndirmalar mavjud bo‘lsa, uni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi, chunki ko‘p hollarda ifloslantiruvchi moddalar bilan bir qatorda qo‘ndirmalar ham selektiv erituvchilarga o‘tadi, buning natijasida moy o‘zining asosiy xususiyatlarini yo‘qotadi.



6-rasm. Selektiv eritish jarayonini amalga oshirish qurilmasining umumiy ko’rinishi

Kimyoviy usullar. Mazkur guruh usullari moyni ifloslantiruvchi komponentlar bilan kimyoviy reaksiyalarga kirishadigan turli reagentlardan foydalanadi. Ya’ni, moyda kimyoviy o‘zgarishlar boradi. Kislotali va ishqorli ishlov berish usullari ajratib ko‘rsatiladi.

Kislota bilan ishlov berish. Ko‘p hollarda sulfat kislotasi ishlatiladi. Mazkur usul yangilikdan yiroqdir, ammo vaqt o‘tishi bilan u o‘z samaradorligini isbotladi. Usul asfalt-qatronli moddalarni, to‘yinmagan uglevodorodlarni hamda sulfat kislota bilan o‘zaro ta’sirlashganda cho‘kmaga tushadigan boshqa birikmalarni yo‘votish uchun ishlatiladi. Moydan juda oson ajratiladigan bunday cho‘kma odatda kislotali gudron deb ataladi. Yakuniy bosqich sifatida kislotali gudron qoldiqlarini va kislotaning o‘zini neytrallash uchun ishqor bilan ishlov berish usuli qo‘llaniladi.

Ishqor bilan ishlov berish. Mazkur usul moyning kuchli eskirishida, turli xil organik kislotalar va efirlarni olib tashlash kerak bo‘lganda qo‘llaniladi. Bunda suvda oson eriydigan kimyoviy birikmalar hosil bo‘lib, bu esa keyingi yuvishni samarali qiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ishqor bilan ishlov berish kislota bilan ishlov berishning yakuniy bosqichi sifatida qo‘llanilishi mumkin, shu bilan birga, moyni tozalashning mustaqil bosqichi sifatida ham qo‘llanilishi mumkin.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафаров, Ж. А., Хайитов, Р. Р., Муродов, М. Н., & Жумаева, М. Т. (2019). Комплексная переработка отработанных моторных масел с получением ценных продуктов. Теория и практика современной науки, (4 (46)), 201-206.

2. Сафаров, Б. Ж., Сафаров, Ж. А. У., & Зинатдинов, И. Б. (2021). Гидроизомеризация гексена-1 в присутствии алюмосиликатных катализаторов, содержащих никель и сульфид никеля. Universum: технические науки, (6-4 (87)), 9-13.

3. Сафаров, Ж. А. У., & Хайитов, Р. Р. (2021). Исследование физико-химических свойств и химического состава отработанных моторных масел. Universum: технические науки, (6-4 (87)), 14-19.

4. Hotamov, Q. S. O. G. L., & Safarov, J. A. O. G. L. (2021). Neft shlamlarini qayta ishlash usullarini taxlil qilish. Science and Education, 2(2), 145-151.

5. Abdulloyev, H. R., & Safarov, J. A. O. G. L. (2022). Surgil konidagi 43-quduqdan olingan kondensatning fizikkimyoviy xossalarini o'rganish. Science and Education, 3(11), 385-390.

Payvandlash usullari bilan tiklash va mustahkamlash

A.A.Abdukaxxarov
R.Sh.Mamatkulov
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada payvandlash usullari bilan tiklash va mustahkamlash to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: payvandlash, detallar, mexanik ishlov berish

Restoration and strengthening by welding methods

A.A. bdukkasarov
R.Sh.Mamatkulov
Almalik branch of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Abstract: This article provides detailed information on restoration and strengthening by welding methods.

Keywords: welding, details, mechanical processing

Ta'mirlash amaliyotida eskirgan detallarni tiklashning bir qator asosiy usullari qo'llaniladi, masalan: metallga mexanik ishlov berish, payvandlash, eritib qoplash, xromlash, nikellash, qolgan (temir qoplama), qismlarning sirtini yopishtirish, bosim ostida detal yuzalarini qattiqlashtirish va ularning shaklini tiklash. Detallarni yuqoridagi tiklash va mustahkamlash usullari bilan o'lchamlari tiklangandan so'ng, unga mexanik ishlov beriladi. Bu ishqalanib ishlaydigan yuzalarning mosligini ta'minlash, sirtlarining ovalligi yoki konusligini yo'q qilish va ishlov berishning zarur tozaligini ta'minlash uchun amalga oshiriladi.

Mexanik ishlov berish, asosan ishqalanib ishlaydigan va boshqa bir detal yuzasi bilan kontaktda bo'ladigan detallarga nisbatan amalga oshiriladi. (yo'naltiruvchi staninalar, plankalar, vallar va h.k.z). Yo'naltiruvchi staninalar 0,2 mm gacha yeyilgan bo'lsa, ular sheberlash bilan 0,5 mm gacha yeyilganda - jilvirlashash va 0,5 mm dan ortiq yeyilganda - yo'nish va undan keyin jilvirlash yoki sheberlash orqali tiklanadi.

Vallarni, o'qlarni, vintlarni tiklash. Vallarni, o'qlarni, vintlarni va boshqalarni ta'mirlashda birinchi navbatda ularning markaziy teshiklari tekshiriladi va tiklanadi. Shundan so'ng, kichik yeyilgan sirtlar (kichik chizilishlar, teshiklar, 0,02 mm gacha

(cc) BY

ovallik) jilvirlanadi va sezilarli darajada yeyilgan hollarda ular kattalashtiriladi, yo‘niladi va ta’mirlash hajmiga qadar jilvirlanadi.

Qayta tiklashning eng oson usuli - faqat yeyilgan ishchi yuzani o‘zinigina ta’mirlash yuzasigacha tiklash. Biroq, ta’mirlash o‘lchamlari cheklangan miqdordagi mashina qismlari uchun o‘rnatiladi. Shuning uchun, ko‘pincha ishlov berish mumkin bo‘lgan eng katta hajmda amalga oshiriladi va valga o‘tiradigan ishqalanish podshipniklari yangilanadi.

2 mm dan ortiq yeyilgan mashinalarining vallari va o‘qlari eritib qoplash usuli bilan tiklanadi. Yo‘l mashinalarini ta’mirlash vaqtida vallar bo‘yinlarini xrom bilan qoplash va metalllash orqali qayta tiklash ixtisoslashtirilgan ta’mirlash korxonalarida amalga oshiriladi, chunki bu maxsus jihozlardan foydalanishni taqazo etadi. Belgilangan usullardan biri bilan o‘lchamlar tiklangandan so‘ng, yuzalar yo‘niladi, jilvirlanadiva agar yuza tozaligi yuqori bo‘lsa jilolanadi. Shpon pazlarning va shlitsalarning noto‘g‘ri ishlashi ularning sirtlarining ezilishi, metallning ishlaydigan yuzalarida yeyilish ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Detallarni tiklashning bir necha usulari mavjud bo‘lib, har bir usul detalning yeyilish darajasiga qarab, detalning ekspluatatsion sharoitiga qarab, detalning geometrik o‘lchamlari va talab etiladigan mustahkamlik darajasiga qarab tanlanishi mumkin.

Qayta tiklashning barcha usullari uzluksiz birikma olish, qattiq deformatsiyalangan yoki hatto singan elementlarga o‘lchamlarni qaytarish tiklash, shuningdek, sirtlarning dinamik kuch ta’sirlariga chidamliligini oshirish zarur bo‘lganda dolzarbdir.

Ta’mirlashning ilk bosqichlarida bu operatsiyalar qo‘lda amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda texnologik ta’mirlash jarayonlari avtomatlashtirilgan bo‘lib, bu natijaning aniqligini va bajarilgan ishlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.Ushbu sohadagi zamonaviy yechimlarga bir qator taniqli ishlab chiqaruvchilarning mobil mashinalari, xususan, HK450, HK750 va HC Пионер-4000 modellari misol bo‘lishi mumkin. Bunday mashinalar teshiklarning avvalgi olchamlarini tiklash uchun mo‘ljallangan (elliptiklikni yo‘q qilish, diametrni standartlashtirish) va yuqori samaradorlik, shuningdek, aylanish tezligi va sozlash varianti bilan ajralib turadi.Ta’mirlashni qo‘lda amalga oshirish, albatta, unchalik oson emas chunki, avtomatik qurilmalar bilan solishtirganda: unchalik ko‘p qo‘shimcha funktsiyalar mavjud emas, natija ko‘p jihatdan chilangarning tajribasi va mahoratiga bog‘liq, xato qilish ehtimoli yuqori va hokazo. Ammo agar ish nostandart bo‘lsa yoki ta’mirlash ishlari hatto eng ko‘p mobil uskunani o‘rnatib bo‘lmaydigan joyda amalga oshirilishi kerak bo‘lsa, qo‘lda ta’mirlash - bu hali ham muammoning yagona yechimi.

Detallarni qayta tiklashning 3 ta asosiy turlari mavjud bo‘lib, biz har birini o‘z navbatida ko‘rib chiqamiz.

(cc) BY

Gaz alangasida payvandlash

Bu usul turli xil elementlar uchun ishlatiladi, kulrang cho‘yan va qalinligi 3 mm gacha bo‘lgan po‘latdan yasalgan yupqa devorli detallar uchun. Ushbu usul quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- Yonuvchan muhit - asetilen (ko‘pincha) yoki metan, propan-butan, vodorod.
- Asosiy metall kimyoviy tarkibi qo‘shimcha material (eritib qoplash simlari, chiviqlari, tasmalari) taribi bilan qanchalik yaqin bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Chokning mustahkamligini yaxshilash uchun НП-40, НП-50, Св-08А, Св-08ГС, НП-651, НП-10Г kabi markadagi yuqori uglerodli yoki yuqori legirlangan simlar olinadi.
- Olov quvvati va isitish tezligi texnologik jarayon davomida - mos ravishda mundshtuk va nakonechnik bilan tartibga solinadi, shunda eritib qoplash simi yoki chiviq uchi va erigan material ishchi yuzada iloji boricha uzoq vaqt qoladi.

Bu usul yeyilgan detallarni tiklashning samarali usullaridan biri bo‘lib, ayniqsa cho‘kmalar, rakovinalar, g‘ovakliklar va teshiklar hosil bo‘lgandan keyin qo‘llash yaxshi natija beradi. Bu usul o‘z mohiyatini cho‘yan nisbatan yomon payvandlanishiga qaramay, (tarkibida uglerod, fosfor va oltingugurt qo‘shimchalarining yuqori miqdori tufayli) dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga usulning kamchiligi sifatida ichki kuchlanishlar va haroratning keskin o‘zgarishi ta’sirida materialning yorilishga moyiligi bilan murakkablashadi va ish jarayonida asosan shu hodisalar kuzatiladi. Chokning tekis va g‘ovakliklarsiz bo‘lishi uchun mahalliy qizdirish (300-400 ºC gacha) yoki to‘liq qizdirish (600-800ºC gacha) bilan hal qilinadi.

Elektryoyli payvandlash

Gaz alangasida payvandlash bilan solishtirganda, bu usul iqtisodiy jihatdan samaraliroq va birikma sifatini yaxshiroq chiqishini ta’minlaydi. Bu detallarni tiklashning yanada oqilona usuli bo‘lib, ayniqsa payvandlash materiallari va jihozlari to‘g‘ri tanlansa, detallarni yig‘ish va tayyorlash to‘gri amalga ishirilgan bo‘lsa. Bunin g uchun esa:

- qirralarga ishlov berish va yuzani tozalash;
- yuzadagi zarralarni tozalash uchun po‘lat cho‘tka bilan sirt ustini tozalash, abraziv effekt uchun qum qog‘oz bilan silliqlash, notekisliklarni olib tashlash uchun jilvirlash;
- kerosin yoki benzin bilan yuvish, yuzani yog‘sizlantirish;
- qirralarga 60-70 gradus burchak ostida, faska ochish (agar list payvandlanayotgan bo‘lsa)

Tabiiyki, bu barcha yordamchi operatsiyalar ma’lum vaqtni oladi, ammo bu operatsiyalarning natijasi yakuniy sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu operatsiyalarga ketgan vaqt o‘zini oqlaydi.

Eritib qoplash bilan tiklash usuli

(cc) BY

Ish paytida ma’lum elementlar doimiy ravishda bir-biri bilan kontaktda bo‘ladi,ularni yeyilishini oldini olish uchun ulardan kamida bittasining yuzasi yeyilishdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Buning uchun detal yuzasi, qattiqroq material bilan ikki yoki uch qatlam qilib qoplanadi. Bu esa o‘z navbatida detalning umumiy xizmat muddatini sezilarli darajada uzaytiradi.

Здесь акцент смещён на не менее важный, мотивирующий аспект эмоциональных процессов, а также дополнительно обращается внимание на то, что эмоциональный процесс представлен в сознании переживанием. Можно также заметить, что в деятельностном подходе восприятие, мышление и действия - являются составными элементами деятельности.

Таким образом, под эмоциональными процессами в психологии понимают процессы, имеющие как психическую, так и физиологическую составляющие, выделяющиеся из других психофизиологических процессов тем, что отражают

(cc) BY

собой для субъекта значение чего-либо, и соответствующим этому значению образом регулирующие его поведение, мышление и даже восприятие. В сознании эмоциональные процессы представлены в виде различных переживаний. Например, страх. Кроме очевидной психической составляющей, он имеет и ярко выраженную физиологическую (повышение выделения адреналина, потение, замедление пищеварительных процессов). Страх отражает собой реальную или мнимую опасность чего-либо для субъекта, а также готовит организм к деятельности, направленной на избегание опасности (обостряются ощущения, увеличивается приток крови к мышцам). В то же время, например, стресс, также являющийся психофизиологическим процессом, появляется при любом воздействии, независимо от его значения для субъекта, и потому к эмоциональным процессам не относится. Часто настроения также выделяют как отдельный класс. В результате получается следующая классификация:

Аффекты - кратковременные и интенсивные эмоциональные процессы, сопровождающиеся резко выраженными двигательными проявлениями и изменениями в работе внутренних органов. Например, испуг;

Эмоции - более продолжительные и менее интенсивные, чем аффекты, эмоциональные процессы, отражающие субъективное значение ситуаций, но не конкретных объектов самих по себе. Например, тревога;

Чувства - более продолжительные и менее интенсивные, чем аффекты, эмоциональные процессы, отражающие субъективное значение конкретных объектов. Например, ненависть;

Настроения - достаточно продолжительные эмоциональные процессы невысокой интенсивности. Например, скука.

В отличие от чувств, всегда направленных на тот или иной объект, настроение, даже будучи обусловлено определенными причинами, проявляется в особенностях эмоционального отклика человека на любые события. Настроение отражает обобщенную эмоциональную оценку происходящего с ним.

Использованная литература

1. КБ Холиков. Musiqachilar markaziy miya tizimining faoliyati. "pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2 (2), 134-138

2. КБ Холиков. Цитоархитектонический сравнительный анализ структур головного мозга одарённых музыкантов. "pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2 (2), 171-175

3. КБ Холиков. Вокальная культура как психологический феномен. Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии 2 (11), 118-121

(cc) BY

4. КБ Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. Science and Education 4 (7), 384-389

5. КБ Холиков. Важнейшие полифонические формы многоголосных произведений. Scientific progress 2 (4), 557-562 2 (4), 557-562

6. КБ Холиков. Уровень и качество усвоения предмета музыки, закрепление памяти и способности учащихся. Science and Education 5 (2), 452-458

7. КБ Холиков. Обученность педагогике к освоению учащихся сложным способам деятельности. Science and Education 5 (2), 445-451

8. КБ Холиков. Обязанности миелина, о левом и правом пороге миелина. Science and Education 5 (2), 33-44

9. КБ Холиков. Эффективное действия сквалан-углеводород тритерпенового ряда и амаранта к заболеваниям рака, опухоли. Science and Education 5 (2), 27-32

10. КБ Холиков. Педагогическое корректирование психологической готовности ребенка к обучению фортепиано в музыкальной школе. Science and Education 4 (7), 332-337

11. КБ Холиков. Защитный уровень мозга при загрузке тренировочных занятиях и музыкального моделирование реальных произведениях. Science and Education 4 (7), 269-276

12. КБ Холиков. Прослушка классической музыки и воздействия аксонов к нервной системе психологического и образовательного процесса. Science and Education 4 (7), 142-153

13. КБ Холиков. Новые мышление инновационной деятельности по музыкальной культуры в вузах Узбекистана. Science and Education 4 (7), 121-129

14. К.Б. Холиков. Отличие музыкальной культуры от музыкального искусства в контексте эстетика. Science and Education 3 (5), 1562-1569.

15. КБ Холиков. Модели информационного влияния на музыку управления и противоборства. Science and Education 4 (7), 396-401

16. КБ Холиков. Измерение эмоции при разучивании музыки, функция компонентного процессного подхода психологического музыкального развития. Science and Education 4 (7), 240-247

17. КБ Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383

18. КБ Холиков. Внимания музыканта и узкое место захвата подавление повторения, сходство многовоксельного паттерна. Science and Education 4 (7), 182-188

19. КБ Холиков. Сравнение систематического принципа музыкально психологического формообразования в сложении музыки. Science and Education 4 (7), 232-239

20. КБ Холиков. Мозг и музыкальный разум, психологическая подготовка детей и взрослых к восприятию музыки. Science and Education 4 (7), 232-239

21. К.Б. Холиков. Музыка как релаксатор в работе мозга и ракурс ресурсов для решения музыкальных задач. Science and Education. 3 (3), 1026-1031.

22. КБ Холиков. Характеристика психологического анализа музыкальной формы, измерение ракурса музыкального мозга. Science and Education 4 (7), 214-222

23. КБ Холиков. Абстракция в представлении музыкально психологического нейровизуализации человека. Science and Education 4 (7), 252-259

24. КБ Холиков. Ответ на систему восприятия музыки и психологическая состояния музыканта. Science and Education 4 (7), 289-295

25. КБ Холиков. Проект волевого контроля музыканта и воспроизводимость музыкального произведения. Science and Education 4 (7), 189-197

26. КБ Холиков. Психика музыкальной культуры и связь функции головного мозга в музыкальном искусстве. Science and Education 4 (7), 260-268

27. КБ Холиков. Внимание и его действие обученному музыканту и оценка вопроизводимости тренировок. Science and Education 4 (7), 168-176

28. КБ Холиков. Рост аксонов в развиваемшийся музыкально психологического мозга в младшем школьном возрасте. Science and Education 4 (7), 223-231

29. КБ Холиков. Аксоны и дендриты в развивающийся музыкально психологического мозга. Science and Education 4 (7), 159-167

30. КБ Холиков. Фокус внимания и влияние коры височной доли в разучивании музыкального произведения. Science and Education 4 (7), 304-311

Ijtomoiy pedagogikada meyordan cheklangan o‘smirlar bilan olib boriladigan ish shakillari, metodlari va vositalari

Omina Abdug‘aniyeva
Zamira Abdumutalova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo’lgan me’yordan cheklangan o‘smirlar bilan olib boriladigan ish shakllari va medotlar to’g’risida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy pedagogika, me’yordan cheklangan,bola, ota-ona, jamiyat, maktab

Forms, methods and means of working with adolescents with disabilities in social pedagogy

Amina Abduganiyeva
Zamira Abdumutalova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article will talk about the forms of work and medotes carried out with adolescents limited by the norm, which are one of the relevant topics today.

Keywords: social pedagogy, limited by norm, child, parent, society, school

Biror bir muammoni gapirish yoki jamoatchilikka ko‘tarib chiqib muhokama qilish oson meni nazdimda. Ammo bu muammoga yechim topib, uni xayrli yo‘lda jamoatchilik uchun foyda keltirgan holda hal qilish biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin aslida. Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto‘g‘ri tushunib, shaxsning ba’zi fazilatlarini noto‘g‘ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o‘z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o‘smirlar o‘zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko‘rsatadi. Uning hatti-harakati, o‘z kuchiga, mayliga yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o‘z o'rnini topishga intilishi o‘zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O‘smirlarda o‘zini anglash yangi bosqichga ko‘tarilgach, ular o‘ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O‘quvchi o'ziga namuna bo‘lgan shaxsning xulq-atvori bilan o‘zining hatti-harakatini solishtiradi va o‘zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi.

(cc) BY

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Tarbiya buzilishi va xulq ogishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar

Ijtimoiy omillar: erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalardan qochish; qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik; o'z(men)iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik; moddiy kam ta'minlanganlikni his qilish, ota-ona xulq-atvoridan uyalish;

Oilaviy omillar: ota-ona, o'qituvchi, kattalar va bolalar o'rtasida muloqotdagi muammolar; bolalar ga kattalar tomonidan diqqate'tiborning yetishmasligi; otaonalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro tushunishning yo'ligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi; otaonalarning o'gil va qiz bolalarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;

Shaxsiy omillar: tengdoshlar, o'rtoqlar, sinfdoshlari, o'z-o'zini tushunmaslik va o'ziga salbiy munosabat; hayotiy yo'nalishlardagi orzu va havaslar; ichki ruhiy yolgizlik, o'zgalarning tushunmasigi;baxtsizlikdan qiynalish, shaxsiy qiyinchiliklar; shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan havotirga tushish, irodasizlik;

Fiziologik omillar: agressivlik, jahldorlik, asabiylashish va ruhiy zo'riqish; bolaning ko'p kasal bo'lishi; qo'zgal uvchanlikning kuchayishi; o'zini-o'zi boshqara olmaslik; o'zlashtirishda aqlan qolib ketish; o'quvchining aqlan zaiflashishi; psixofiziologik va jinsiy tomondan bir xilda rivojlanmaganlik; tugma xususiyatlar; tugma nuqsonlar;

O'quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o'ziga xos tomonlar, ular o'rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta'lim maqtablari amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya'ni psixotrening va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko'p holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilari ro'yhatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimlik ichishga, bezoriliq va o'g'rilikka moyil o'quvchilar nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshiliq ko'rsatadi, ularning xulqida o'zini biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Maktab rahbarlarining ushbu muamumo bo'yicha maxsus pedagogik tizim - o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig'indisidan iborat bo'gan dasturlarida har bir sinf o'quvchilarining oilalari to'grisida tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lishlari masalani hal qilishga qo'lyilgan dastlabki qadam bo'ladi.

O'quvchilaming ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai-nazaridan bola tarbiyasiga muhtoj oilalarni aniqlab olish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning roli va mas'uliyatini talab qilishdan oldin muhtoj otaonalar uchun maxsus tavsiyalarni ishlab chiqish, seminarlar, trening hamda konsultatsiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bu masalada sinf rahbarlarining ota-onalarga beradigan yordamlari doimiy va malakali boiishi talab

(cc) BY

etiladi. Xulqi og‘ishgan (deviant) bolalar bilan ishlash tajribasi ota-onalar, pedagoglar o‘rtasida keng targ‘ib etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, xulq og‘ishining kelib chiqishida shaxsning individualpsixologik xususiyatlarining o‘rni kattadir.Shu boisdan ijtimoiy psixologiyada ushbu muammo bilan jiddiy shug‘ullanish va xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsini korreksiya qilish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaxsning keng qamrovli munosabatlar, ijtimoiy amaliyot va tarbiya jarayoni ishtirokida komol topishini hisobga oladigan bo‘lsak, xulq og‘ishiga ega bo‘lgan o‘smir shaxsi muammosi yuzasidan yanada kengroq ilmiy ishlarni olib borish zaruriyati kelib chiqadi. Chunki, har bir shaxs oila, maktab, mahalla ta’siri natijasida shakllanadi va kamol topadi. Ularni sog‘lomlashtirish, tarbiyaviy ta’sir samaradorligini oshirish esa yoshlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan xulq og‘ishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsi muammosini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bugungi kunda bu sohada bir qator muammolar ko‘zga tashlanadi. Ana shunday muammolardan biri xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot metod va metodikalarining yetishmasligi va borlarining ham respublikamiz milliy muhitiga moslashtirilmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsini korreksiya qilish va ular shaxsi deformatsiyalashuvining oldini olish borasidagi ishlarning talab darajasida emasligidir. Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsida olib boriladigan psixokorreksion ishlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatga egadir. Biroq, ilmiy manbalar va amaliyotda xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsining o‘ziga xos individualpsixologik xususiyatlari, ular shaxsidagi ijtimoiylashuvning izdan chiqishi, shaxs “men” idagi o‘zgarishlar va boshqalar to‘g‘risida aytarlik ma’lumotlar uchramaydi. Bu o‘z navbatida xulq og‘ishiga ega bo‘lgan o‘smir va o‘spirinlar shaxsida psixokorreksion ishlarni olib borish ishlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqova, Y., Gayirova, D., & Xaydarov, S. (2024). Ijtimoiy pedagogikada meyordan og’ishgan o’smirlar bilan olib boriladigan ish shakillari metodlari va vositalari. Science and Education, 5(2), 493-496.

2. Otamurodova, G., & Xaydarov, S. (2024). Me’yordan og’ishgan o’smirlar bilan olib boriladigan ish shakillari. Science and Education, 5(2), 497-500.

3. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo`yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo`llanma. T-20152.

4. N.G`.Komilova. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. T.-2007

(cc) BY

5. Ta’lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostika vositalaridan foydalanish (Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va tashxis markazlari psixologilari uchun uslubiy qo‘llanma) /Tuzuvchi psixol. fan. nomz., dos. N.A.Sog‘inov. - Toshkent - 2001. - 40 b.

6. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, “Fan” nashriyoti – 2008, 314 bet.

7. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

8. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

9. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

10. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

11. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Jamoa shartnomalarida ijtimoiy sheriklik taraflari o‘zaro hamkorligining namoyon bo‘lishi

Jasur To‘lqin o‘g‘li Abdug‘afforov
abdugaffarovjasur01@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: O‘zbekistondagi davlat idoralari va boshqa tashkilotlarda ijtimoiy sherikchilik natijasida yaratilgan jamoa shartnomalarining Mehnat Kodeksi normalari bilan uyg‘unligi, jamoa shartnomalarini yaratish jarayonida ijtimoiy sheriklik organlaridagi taraflarning o‘zaro hamkorligi, xodimlar va ish beruvchilar manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘ziga xos bo‘lgan tizimni tashkil etish hamda ushbu tizimni tashkil etishda duch kelinayotgan ba’zi bir muammoli vaziyatlarning paydo bo‘layotgani ham hech kimga sir emas. Jamoa shartnomalarida ijtimoiy sheriklik prinsiplarining aks etishi va ijtimoiy sheriklik organlari faoliyatining amaldagi holati ifodalanadi. Mehnat Kodeksini ijtimoiy sheriklik tushunchasi asosida o‘rganish va tasniflash davomida quyidagi to‘rtta alohida yo‘nalish bo‘yicha jamoa shartnomalariga taalluqli moddalar tahlil qilindi. Jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlarda ijtimoiy sherikchilik tushunchasining amaldagi ifodasi va uning mehnat sohasida aks etishi namoyon bo’ladi.

Kalit so‘zlar: Mehnat Kodeksi, jamoa shartnomasi, ish beruvchi, xodim, jamoa kelishuvlari, kasaba uyushmasi, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy sherikchilik organlari, tashkilot, kasaba uyushmasi qarori, ta’til, ish vaqti

Manifestation of mutual cooperation of social partnership parties in collective agreements

Jasur Tulkin ugli Abdugaffarov
abdugaffarovjasur01@gmail.com
Tashkent State Law University

Abstract: Compatibility of collective agreements created as a result of social partnership in state agencies and other organizations of Uzbekistan with the norms of the Labor Code, mutual cooperation of parties in social partnership bodies in the process of creating collective agreements, self-protection of the interests of employees and employers It is not a secret to anyone that the organization of a unique system and the emergence of some problematic situations encountered in the organization of this system. Collective agreements reflect the principles of social partnership and the

(cc) BY

current state of activities of social partnership bodies. During the study and classification of the Labor Code on the basis of the concept of social partnership, articles related to collective agreements were analyzed in the following four separate directions. Below we will consider the practice and reflection of the concept of social partnership in collective agreements and other local normative documents.

Keywords: Labor Code, collective agreement, employer, employee, collective agreements, trade union, social partnership, social partnership bodies, organization, trade union decision, vacation, working time

Kafolatlovchi moddalar tahlili

Kafolatlovchi moddalar tahlili deganda biz qonunchilik hujjatlarining ijrosini jamoa shartnomalarida ham mustahkamlash bilan bog‘liq qo‘shimcha kafolatlar haqidagi qoidalarni tushunamiz.

Mehnat Kodeksi (bundan keyin matnda “MK” tarzida beriladi) 233-moddaga asosan, har yilgi mehnat ta’tili vaqti uchun haq to‘lash jamoa shartnomasi yoki boshqa hujjatlarda belgilangan muddatlarda, biroq ta’til boshlanguniga qadar oxirgi ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi [1]. Men o‘rgangan jamoa shartnomalarida mehnat ta’tili uchun haq to‘lashning oxirgi muddatlari ta’til boshlanishidan oldingi kun sifatida belgilangan. Ularning ro‘yxatini maqola so‘ngida keltirib o‘taman.

MK 235-moddaga ko‘ra, xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda foydalanilmagan mehnat ta’tilini olish huquqi kafolatlangan. “BOSHTRANSLOYIHA” AJning jamoa shartnomasi 4.14-bandida mehnat shartnomasi bekor qilinganda (shu jumladan, uning muddati tugashi munosabati bilan) xodimning xohishiga ko‘ra unga yillik asosiy va qo‘shimcha ta’til berilishi va keyinchalik mehnat munosabatlari bekor qilinishi mumkin [2].

MK 244-moddaga asosan, xodimning mehnatiga haq to‘lash asoslari keltirilgan. Jamoa shartnomasi yoki boshqa ichki hujjatlarda qonunchilikda belgilanganiga nisbatan xodimlarning mehnatiga haq to‘lash sohasidagi qo‘shimcha kafolatlar nazarda tutilishi mumkin. “OLMALIQ KMK” AJning jamoa shartnomasi 5.1-bandiga ko‘ra, xodimlar mehnatiga haq to‘lanishi tizimi belgilangan. Xodimlar mehnatiga haq to‘lanishini “OLMALIQ KMK” AJ mehnatga haq to‘lash bo‘yicha Yagona tarif setkasi asosida tarif stavkalari va lavozim okladlari bo‘yicha amalga oshiradi. Jamiyatda quyidagi mehnatga haq to‘lash tizimlari belgilangan: ishbay; vaqtbay; ishbay-mukofotlanadigan; vaqtbay-mukofotlanadigan [3].

MK 286-moddaga ko‘ra, ish beruvchi xodimning ish bilan bog‘liq xarajatlarini kompensatsiya qilib berishi lozim. “BOSHTRANSLOYIHA” AJning jamoa shartnomasi 5.10 bandiga muvofiq xodimlarning xizmat safarlari chog‘ida shaxsiy avtomobillaridan foydalanishlari bilan bog‘liq xarajatlari hamda Buxoro davlat

(cc) BY

universitetining jamoa shartnomasi 62-bandiga ko‘ra, farroshlarning zararsizlantirish vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlari ham kompensatsiya qilib beriladi.

Imtiyoz beruvchi moddalar tahlili

Imtiyoz beruvchi moddalar tahlili deganda Mehnat Kodeksida belgilab qo‘yilganiga nisbatan yuqoriroq imtiyozlar jamoa shartnomalarida belgilanishi mumkinligi nazarda tutiladi. Jamoa shartnomasi qonunda nazarda tutilmagan yengilliklarni ham o‘zida mujassam etishi mumkin.

MK 214-moddaga ko‘ra, xodimlarga qo‘shimcha ta’tillar berish kafolatlanadi va jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ta’tillar sohasidagi qo‘shimcha huquq va kafolatlarni berishi shart. “BOSHTRANSLOYIHA” AJning jamoa shartnomasi 1-ilovasi va “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MChJning jamoa shartnomasi 4.9-bandida noqulay mehnat sharoitlarida mehnat qiluvchi xodimlar uchun ish sharoitining xavfli va zararliligiga qarab turli xil miqdorlarda qo‘shimcha mehnat ta’tillari berilishi ko‘zda tutilgan [4].

MK 289-moddaga asosan, xodim ish beruvchi bilan boshqa ish joyiga ko‘chganda xodimga to‘lanadigan kompensatsiya miqdori jamoa shartnomasida belgilanishi mumkin. “Urganch ekskavator” AJ va “UzXCMG” MCHJ qo‘shma korxonasi jamoa shartnomasining 5.9.7-bandiga ko‘ra, ish beruvchining taklifiga binoan xodim boshqa joydagi ishga ko‘chib borganda uning quyidagi qo‘shimcha xarajatlari to‘lanadi: a) ko‘chish va mol-mulkni ko‘chirib borish bilan bog‘liq xarajatlar; b) yangi joyda o‘rnashib olish bilan bog‘liq xarajatlar; v) xodim tomonidan ish beruvchi bilan kelishib qilingan boshqa xarajatlar. Demak xodim ish beruvchi bilan boshqa ish joyiga ko‘chganda xodimning qaysi turdagi xarajatlar uchun kompensatsiya to‘lanishi hamda miqdori qonunchilik va jamoa shartnomalarida belgilanganidan tashqari, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanishi mumkin ekan [5].

Aniqlashtiruvchi moddalar tahlili

Aniqlashtiruvchi moddalar tahlili deganda biz MKda aniq berilmagan miqdorlar, muddatlar va holatlarga jamoa shartnomalarida aniqlik berib ketilishini o‘rganamiz.

Dam olish kunlari bilan bog‘liq umumiy qoidalar MK 207-moddasida keltiriladi. Besh kunlik va olti kunlik ish haftasida umumiy dam olish kuni yakshanbadir. Besh kunlik ish haftasidagi ikkinchi dam olish kuni jamoa shartnomasida yoki boshqa hujjatlarda belgilanadi. Buxoro davlat universitetining jamoa shartnomasi 39-bandida MKga muvofiq, ta’lim muassasida ish vaqti rejimiga ichki me’yoriy hujjatlarda aniqlik kiritiladi. Pedagoglarning dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus vaqtlari dars soatlari oralig‘idagi tanaffuslarda, tushlik paytini dars jadvalidan kelib chiqqan holda katta tanaffus paytida 20 daqiqa qilib belgilash mumkin. Besh kunlik va olti kunlik ish haftasida umumiy dam olish kuni yakshanbadir. Besh kunlik ish haftasidagi ikkinchi dam olish kunini shanba qilib belgilash maqsadga muvofiq [6].

(cc) BY

MK 287-moddasida xizmat safarlari chog‘idagi xarajatlar turlari belgilangan va xizmat safarlari bilan bog‘liq xarajatlarning o‘rnini qoplash miqdorlari esa jamoa shartnomasi yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. “OLMALIQ KMK” AJ jamoa shartnomasining 16.10-bandiga ko‘ra tashkilot yuqorida qonunchilikda belgilab qo‘yilgan kompensatsiyalardan tashqari mehnatkashlar vakillarining yuqori kasaba uyushmalari tomonidan tashkil qilingan o‘quv-seminar va boshqa turdagi qisqa tadbirlarga xizmat safari yuzasidan boradigan xodimlarining barcha MK 323-moddaga binoan, xodimning sog‘lig‘iga ziyon yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa miqdori jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi[2]. “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” MChJ tomonidan qabul qilingan jamoa shartnomasida xodim sog‘lig‘i va hayotiga ziyon yetishi bilan bog‘liq holatlarning qancha miqdorda kompensatsiya qilinishi 8.6-8.8-bandlarida belgilab qo‘yilgan.

MK 407-moddasiga binoan xodimlarga bolalarini ovqatlantirish uchun tanaffuslar berilishi nazarda tutilgan. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslarning aniq davomiyligi va ularni berish tartibi jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishuvga ko‘ra ish beruvchi tomonidan belgilanadi. Men o‘rganib chiqqan barcha jamoa shartnomalari Mehnat Kodeksi qoidalarini bir xilda jamoa shartnomalariga ko‘chirishgan va ularda hech qanday boshqa imtiyozli holatlar belgilangan qoidalarni uchratmadim [7].

MK 481-moddaga binoan noqulay mehnat sharoitlaridagi ish uchun qo‘shimcha ta’til olish huquqini beradigan ishlar, kasblar va lavozimlar ro‘yxati, ta’tillarning davomiyligi, ularni berish tartibi va shartlari jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, — ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Ish o‘rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunaning jarohat yetkazish xavfi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq belgilanadi. “BOSHTRANSLOYIHA” AJning jamoa shartnomasining 1-ilovasida noqulay mehnat sharoitlariga ega bo‘lgan ish joylari ro‘yxati va ularga beriladigan qo‘shimcha ta’tillar miqdori belgilab qo‘yilgan.

Istisno etuvchi moddalar tahlili

Istisno etuvchi moddalar tahlili deganda alohida toifadagi xodimlar uchun moslashuvchan qoidalarning o‘rnatilishi – istisno etuvchi holatlarning jamoa shartnomalarida belgilanishini nazarda tutishimiz mumkin.

MK 142-moddaga binoan, xodimning iltimosi bilan vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish holatlari belgilab qo‘yilgan. Xodimning tashabbusiga ko‘ra vaqtincha boshqa ishga o‘tkazish uchun uzrli sabablar ro‘yxati, shuningdek bunday o‘tkazish chog‘ida mehnatga haq to‘lash tartibi jamoa shartnomasida belgilanishi mumkin, agar bunday

(cc) BY

shartnoma tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi. “BOSHTRANSLOYIHA” AJning jamoa shartnomasi 3.3-bandiga muvofiq xodimning tashabbusi bilan vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilishining uzrli sabablari quyidagilar hisoblanadi: kasal oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish zarurati; ishni o‘qish bilan birlashtirish natijasida.

MK 188-moddaga binoan, tungi vaqtdagi ish haqida umumiy qoidalar berilgan. Mazkur ishlar ro‘yxati jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishuvga ko‘ra belgilanishi mumkin. Jizzax davlat pedagogika universiteti jamoa shartnomasi 58-bandiga muvofiq, universitetda tungi vaqtda ishlovchilar uchun oshirilgan miqdordagi mehnat haqi, ustamalar, qo‘shimcha to‘lovlar va kompensatsiyalarning quyidagi turlari va miqdorlari o‘rnatiladi: tungi vaqtdagi ish (qorovul) uchun bir yarim baravar haq to‘lanadi. Demak JDPU da qorovul lavozimi tungi vaqtda ishlovchi xodim hisoblanadi[8].

MK 397-moddaga ko‘ra, uch yoshgacha bolani parvarishlayotgan oila a’zolaridan biriga qisqartirilgan ish vaqti qilib beriladi. Uch yoshga to‘lmagan bolaning budjetdan moliyalashtirilmaydigan ish beruvchilarda ishlaydigan ota-onasidan biriga, vasiysiga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi jamoa shartnomasida belgilanishi mumkin. “Urganch ekskavator” AJ va “UzXCMG” MCHJ qo‘shma korxonasi jamoa shartnomasining 11.2.6-bandida uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga Mehnat Kodeksiga binoan 1 soatga qisqartirilgan ish kuni belgilanishi ko‘zda tutilgan.

MK 425-moddada nogironligi mavjud shaxslarning mehnat huquqlari belgilangan. Jamoa shartnomasida belgilanadigan mehnat shart-sharoitlari, shu jumladan ish haqi, ish vaqti va dam olish vaqti rejimi, yillik mehnat ta’tilining davomiyligi qonunchilikda belgilanganidan kam bo‘lishi hamda boshqa xodimlarga nisbatan nogironligi bo‘lgan shaxslarning holatini yomonlashtirishi yoki ularning huquqlarini cheklashi mumkin emas. Quyida ro‘yxatini beradigan o‘zim o‘rgangan barcha jamoa shartnomalarida nogironlar mehnatiga doir masalalar mustahkamlab qo‘yilgan.

MK 458-moddaga ko‘ra vaqtincha masofadan ishlashga o‘tishga imtiyozli xodimlar toifalari keltirilgan. Bundan tashqari jamoa shartnomasi yoki boshqa mehnat haqidagi ichki hujjatlarda nazarda tutilgan xodimlarning boshqa toifalari ham vaqtincha masofadan turib ishlashga o‘tish yoki o‘tkazish uchun ustuvor huquqqa ega bo‘lishi mumkin. Toshkent davlat yuridik universiteti jamoa shartnomasi 4.24-bandi 2-qismiga ko‘ra, Mehnat kodeksida belgilanganidan tashqari professor-o‘qituvchilar ham ta’lim sifatini ta‘minlash maqsadida vaqtincha masofadan turib ishlashga o‘tish yoki o‘tkazish uchun ustuvor huquqqa ega bo‘ladilar [9].

Xulosa

(cc) BY

Mehnat Kodeksi va jamoa shartnomalarini ijtimoiy sherikchilik nuqtayi nazaridan tahlil qilish mehnat munosabatlarini tartibga solish uchun keng qamrovli asoslarni tushuntirib beradi. Jamoa shartnomalari dam olish vaqti, ta’til olish huquqi, kompensatsiya, ish joylarida xavfsizlik choralarini ta’minlash, mehnat sharoitlari, imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish, moddiy yordam olish kabi Mehnat Kodeksida e’tirof etilgan va etilmagan turli mehnatga oid jihatlarni o‘zida jamlaydi. Ushbu shartnomalar ish beruvchilar va xodimlarning huquqlari, manfaatlari, majburiyatlari va ularning himoyasini ta’minlab bergan holda ish joyida ijtimoiy adolat, shaffoflik va barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi kabi kelishuvlar doirasidagi qoidalarning yaratilishi manfaatdor shaxslar, xodimlar farovonligini oshirish, shuningdek, ish beruvchilar va keng jamoatchilik xohish-istaklarini qo‘llab-quvvatlovchi standartlarni yaratish yo‘lida birgalikda hamkorlik qiladigan, ijtimoiy sherikchilik prinsiplariga sadoqatli bo‘lgan fuqarolik jamiyati farovonligini ta’minlashda va mehnat sohasida tomonlarning huquqlarini faolroq himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEHNAT KODEKSI. 30.04.2023

2. 2018-2021 yillar uchun “BOSHTRANSLOYIHA” AJ va kasaba uyushma qo‘mitasi o‘rtasida tuzilgan jamoa shartnomasi;

3. “OLMALIQ KMK” AJning 2023-2025-yillar uchun tuzilgan jamoa shartnomasi;

4. "Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2022-2024 yillar uchun jamoa shartnomasi;

5. “Urganch ekskavator” AJ va “UzXCMG” MCHJ qo‘shma korxonasi hamda kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasidagi 2018-2020-yillar uchun jamoa shartnomasi;

6. Buxoro davlat universiteti ma’muriyati va kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasida 2023-2025-yillar uchun tuzilgan jamoa shartnomasi;

7. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filialining 2021-2023-yillar uchun jamoa shartnomasi;

8. Jizzax davlat pedagogika institutining 2021-2023-yillar uchun mo‘ljallangan jamoa shartnomasi;

9. Toshkent davlat yuridik universiteti hamda Kasaba uyushmasi qo‘mitasi o‘rtasida 2023-2025 yillar uchun tuzilgan jamoa shartnomasi

(cc) BY

O‘zbekistonda oilaviy bolalar uyining tashkil etilishi

Shohida Abdullayeva
Sojida Vahobova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekistonda oilaviy bolalar uyini tashkil etish va uni tartibga soluvchi qonun hujjatlari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: bolalar uyi, qonun, qaror, ota-ona, jamiyat, insonparvarlik

Establishment of a family orphanage in Uzbekistan

Shahida Abdullayeva
Sojida Vahobova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article talks about the establishment of a family orphanage in Uzbekistan and the legal documents regulating it.

Keywords: orphanage, law, decision, parents, society, humanitarianism

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022 yil PQ-345-son qaroriga asosan oilaviy bolalar uylarini tashkil qilish va ularni moliyalashtirish, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni mazkur uylarga berish to’g‘risida qaror qabul qilindi.

Bu qarorga ko‘ra, «Mehribonlik» uylari (541 nafar), Bolalar shaharchalari (236 nafar), oilaviy bolalar uylari (46 nafar) hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimining Bolalar uylarini (506 nafar) bola Milliy gvardiyaga biriktiriladi. Bundan tashqari «SOS - O‘zbekiston bolalar mahallalari» uyushmasining bolalar mahallalari bilan ham hamkorlik o‘rnatildi. Bunday chora-tadbirlar yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning butkul yangilangan tizimini joriy qilish, ularni barkamol avlod sifatida rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvini taminlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish berish maqsadida qabul qilinmoqda.

2021 yil 15 avgustdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan taminlashning quyidagi tartibi o‘rnatilgan: o‘zlariga biriktirilgan turar joyga ega bo‘lmagan va turar joyga muhtojlar sifatida ro’yxatda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ular 18

(cc) BY

yoshga to‘lishi bilan ko‘p honalin uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metr bo’lgan 1 xonali, voyaga yetgan yetim bolalar nikoh qurgan hollarda, 50 kvadrat metrdan bo‘lgan 2 xonali kvartiralar ajratiladi.

Buga ko’ra ushbu toifaga kiruvchi nogironligi bo‘lgan bolalarga ko‘p qavatli uylarning uchinchi qavatigacha ajratiladi. Yetim va ota-ona qaramog‘idan ajragan bolalarga uy-joylar mulkka egalik qilish huquqi asosida, lekin ular 30 yoshga to’lmagunicha uy-joyni sotish, hadya qilish va garovga qo‘yish hamda uy-joyda o‘zi va oila a’zolaridan tashqari boshqa fuqarolarni doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga qo’yich huquqisiz ajratiladi.

Bunda, yetim yoki ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolaning asoslangan sabablari bo’lgan taqdirda mahalliy hokimliklar tomonidan uy-joyning maydonini kengaytirish va mazkur bandda ko’zda tutilgan talablar saqlab qolingan holda sotishga ruxsat beriladi;

O‘zbekistonda yoshlarga oiddavlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 6-bob. Kutilayotgan natijalar: deb nomanadi.va unda quyidagilar nazarda tutiladi.

1. Mehribonlik uylari bitiruvchilari ish bilan to‘laqonli ta’minlanadi, ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuviga yordamlashishda samarali mexanizmlar joriy etiladi;

2. Yoshlarning saviyasini oshirish maqsadida kutubxonalar, muzeylar va boshqa muassasalarining sonini oshirish ishlari amalga oshiriladi;

3. Yoshlarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, sport inshootlarining soni 30 foizga oshiriladi;

4. Mahallalarda yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi;

5. Barcha hududlarda IT-parklar bunyod etiladi, tuman (shahar)larda raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari barpo etiladi, “Bir million dasturchi” loyihasi asosida 250 mingga yaqin yoshlar o‘qitiladi;

6. Yoshlarning tezkor va arzon internetdan foydalanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi, aloqa va axborotlashtirish 2 baravar o‘shirilishi ta’minlanadi;

Xulosa o’rnida shuni aytish joyizki bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar ijtimoiy jamiyatga moslashishlari uchun ijtimoiy institutlar, oila, maktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish va Vazirlar mahkamasining qarorlarini hayotga to’liq tadbiq etish va bolalarni qaramog‘iga olgan oilalarga xuquqiy, pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish, bola asrab olgan ota-onalar bilan do‘stona aloqa o‘rnatish va bolalarning tabiatiga mos munosabatda bo‘lish, ularga kasb hunar o’rgatish, bola asrab olgan oilalarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo‘llab - quvvatlash ishlarini real, kompleks nazorat qilinsa barcha rejalashtirilgan ishlarga erishgan bo‘lar edik.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.Yetim bolalarga oid muhim qarori.Janiyat. 2019-yil 11 fevral kuni.

2. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

3. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

4. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64-67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

5. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

6. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

7. Xamidov, A. A. (2021). O ‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING KELAJAGIMIZ UCHUN AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 408-411.

8. Turakulov, L. (2023). OILAVIY BOLALAR UYLARI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I).

(cc) BY

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagog faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalardan foydalanish

Hilola Abduvahidova
Maftuna Egamberdiyeva
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: O'zbekistondagi zamonaviy utimoiy vaziyat sharoitida so'nggi yillarda eng qiyin hodisa ijtimoiy etimlikning sezilarli darajada ko'payishi boldi, Yetimlik ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat jamiyati davrida mavjud bo'lgan ya sivilizatsiyaning ajralmas elementi hisoblanadi. Har doim urushlar, epidemiyalar va tabiiy ofatlar ota-onalaming o'limiga olib keldi, buning natijasida bolalar etim qoldi. Zamonaviy jamiyatda oila shaxsning asosiy shakllanishi va uning ijtimoiylashuvi bolgan tizim sifatida qaraladı, oila axloqiy va ma'naviy qadriyatlami avlodlar o'rtasida saqlash va uzatishda vositachidir. Oilarning tarbiyaviy funktsiyasi bolaning axloqiy va qadriyatlar tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi, bu o'zi va boshqalar bilan, yaqinlan bilan hamjihatlikda yashaydigan, keksa avlodni hurmat qiladigan, halol samimiy va mehribon shaxsni shakllantinshga yordam beradi

Kalit so'zlar: yetim bolalar, shaxs qadriyatlar, ta lim, ijtimoiy bolalar

The use of individual-oriented educational technologies in the socio-pedagogical activities conducted with children of the orphanage

Hilola Abduvahidova
Maftuna Egamberdiyeva
Scientific supervisor: S. Khaidarov
TMC Institute

Abstract: In the conditions of the modern social situation in Uzbekistan, the most difficult event in recent years has been a significant increase in social orphanhood. Wars, epidemics, and natural disasters always killed my parents, and as a result, the children became orphans. In modern society, the family is considered as a system that is the main formation of the individual and his socialization, the family is a mediator in the preservation and transmission of moral and spiritual values

(cc) BY

between generations. The educational function of families includes the development of the child's moral and value system, which helps to form a person who lives in close harmony with himself and others, respects the older generation, is honest, sincere and kind.

Keywords: orphans, personal values, education, social children

KIRISH

Yetim bolalar o'rtasida oilaviy tarbiyaning etishmasligi ushbu toifadagi belalarning qadriyatlar tizimira shakllantinshda shuqur iz qoldiradi. Maktab-internat o'quvchilan jamiyatdagi hayotga moslashishga yordam beradigan o'zlarining ijtimoiy-emotsional mexanizmlarini ishlab chiqdilar, ular gender-rol xulq-atvori, oiladagi munosabatlar va aloqalar tuzilishi hamda o'zlarining buzilgan g'oyalarini shakllantiradilar.

Oilaviy qadriyatlar oila institutini undagi odamlarning ozaro munosabatlarini tushunishga, shaxsning nikoh va oilaviy xatti- harakatlari uchun mas'uliyatni tan olishga, shuningdek, maktab Internatlarda tarbiyalangan bolalarga dimak bolmagani uchun asoslanadi, oilaning xulq-atvori ushbu tizimni tushunishdan mahrum bolsa, etim bolalar o'rtasida oilaviy qadriyatlami ivojlantirish va shakllantinsh mexanizmi sifatida ijtimoiy-pedagogik texnologiyalaming yuqori rolini ta'kidlash kerak.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yetim bolaning axloqiy va qadriyatli oilaviy yo'nalishini tarbiyalash uchun jtimoiy-pedagogik texnologiyalami joriy etish orqali maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish kerak ular oilaviy ta'limda tajriba etishmasligini qoplaydi va normalarni shakllantirish, o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan jamiyat an'analari, oilaviy qadriyatlar va shaxsning gender-rol xulq-atvori. Maktab-internetlarda yashovchilar o'rtasida oilaviy qadriyatlarning rivojlanish darajasini o'rganishda yetim bolalarning rivojlanish darajasi ancha past ekanligi ma'lum bo'ldi, bu quyidagilarda ifodalanadi yetim bolalarning oila oiladagi gender-rol munosabatlari, oila a'zolarining vazifalari ota va onaning roli, uy-ro'zg'or ishlari, oila boshqaruvi haqida tasavvurlari cheklangan-bog'lanish zaif aka-uka va opa singillar o'rtasida ishonch va g'amxo'rlik yo'q eng oddiy hayotiy muammolami hal qilishda o'quvchilarda o'zini past baholaydi bolalar-qarindoshlarda shaxslararo munosabatlardagi hissiy aloqalar holati noqulay: oilaviy hordiq, bayramlar va an'analami tashkil etishda bilim va tajribaning yetishmasligi..... oqsoqollar oldidagi mas'uliyat va burch hissi yomon rivojlangan

Bolalarni maktab-internatlarda tarbiyalash kelajakdagi oila, jins va oilaviy rollar haqidagi g'oyalarni buzish xavfini oshiradi. Bolalar o'zlarining tashqi ko'rinishiga befarqlikni rivojlantirdilar va gender roli standartlari va xatti- harakatlar standartlarini

[1] Abulxonova K. Aloqa etishmovchiligi sharoitida shaxsiyat // Maktab o'quvchilan tarbiyasi. 2000.-10-son-P.4-9.

(cc) BY

shakllantirish qiyin. Yetim bolalarning bitiruvdan keyingi hayotiy holati monitoringi shuni ko'rsatdiki, bitiruvchilar gender rol xulq-atvorining noto'g'ri imidji tufayli o'z oilasini shakllantirish va saqlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ular esa onalik mehr-muhabbatt tajribasi yoqligi sababli, tajovuzkorlik, qo'pollik, onalik etishmasligiga olib keladigan gender rolining o'zgarishi.

Talim jarayonida bolalarning ushbu muammosini hal qilish uchun bolaning shaxsiyatining umumiy axloqiy tamoyilini rivojlantirish orqali oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradigan zamonaviy va qulay texnologiyalardan foydalanish kerak. Bolalarda sevgi o'zaro hurmat, iffat, erkinlik, xavfsizlik, onalik, oralik, uy, sog'liq oilaviy hayot kabi ma'naviy va axloqiy qadriyatlami shakllantirish juda muhimdir

Shu bilan birga, oilaviy qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy vazifalarga namoyon qilish kerak-oilaviy qadriyatlar va oilaviy hayot qadriyatlarini oshirish, oila maqomini ohirish orqali oila va asosiy ma'naviy axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish oilaviy qadriyatlarni rivojlantirishda axborot-marifiy, itimoiy yo'naltirilgan faoilyatni rivojlantirish.

Shuningdek, yetim bolalarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda bir qator psixologik va pedagogik shartlarni bajarish kerak. Bolalarda oilaning urf-odatlar an'analar, axloqiy va huquqiy me'yor bilan mustahkamlangan murakkab tuzilishga ega bolgan oilaning barcha azolari butun munosabatlar tizimi bilan birlashtirilgan oila haqida yetarli tushunchani shakllantirishga yordam berish, yetim bolalar uchun muvaffaqiyat sharoitlarini yaratish, bu ham, umuman jamoaning ish faoliyatini yaxshilashga imkon beradi

Muvaffaqiyatli vaziyat yetimlarda tajovuzni bartaraf etishga izolyatsiya va passivlikni yengishga yordam beradi; Bolalarning homiylik ostidagi oilaga o'tishga motivatsiyasi va tayyorgarligini oshirish. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda oila haqida tushunchani shakllantirishda yangi ilaga o'tishga tayyorgarlik bosqichi muhim rol oynaydi, bunda hal qiluvchi daqiqa bolaning o'z ushbu o'zgarishlarga tayyorligi va xohishida Olaviy qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini amalga oshirish ushbu maqsadga erishishga qaratilgan turli dasturlarni oquv va darsdan tashqari tadbirlarga karish orqali mumiy texnologiyalar quyidagilar bolishi mumkin pedagogik standart, texnologlik darslar, loyiha faoliyati o'yin dasturlar, diagnostika, texnikalar va boshqalar.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarda oila haqida tushunchani shakllantirishida yangi oilaga olishga tayyorgarlik bosqichi muhim rol o'ynaydi, bunda hal qiluvchi daqiqa bolaning ushbu o'zgarishlarga tayyorligi va xohishidir. Olaviy qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarni amalga oshirish ushbu maqsadga erishishga qaratilgan turli xil dasturlarni o'quv va darsdan tashqari tadbirlarga kiritish orqali mumkin, bunday texnologiyalar quyidagilar bolishi mumkin, pedagogik

(cc) BY

seminarlar, tematik darslar, loyiha faoliyati o'yin dasturlardan, turli diagnostika texnikalar va boshqalar

Shu bilan birga, turli yoshdagi bolalarga tasir qilish texnologiyasi farqlanadi. Shunday qilib, maktabgacha va boshlangich maktab yoshi uchun hissiy ta'sir usullari eng mos keladi. O'smirlik qoida tariqasida, intizom va shaxsiy muloqotda namoyon bolish, oziga, imkoniyatlari va o'zini rivojlantirishga qiziqishning uyg'onshi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ish joyidagi talimning faol subiekti sifatida harakat qilishi kerak. Shunga asoslanib, ushbu yosh toifasi bilan faoliyatning asosiy usuldan muhokamalar, mashg'ulotlar elementlari bilan mashg'ulotlar, shu jumladan majburny mashg'ulotlar va aks ettirish bolishi mumkin. Ushbu usullardan foydalangan holda o'spirinlarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish o'smirning ozini rivojlantirish potentsialini, uning harakatlarining va ularning naqshlarini tushunish qobiliyati va istagini faollashtirishi tufayli mumkin.[2]

Bolalarda shaxsiy oilaviy qadriyatlarrni, ehtiyojarni, oilaviy rollar tizimini va muayyan munosabatlar va vaziyatlarde xatti harakatlaming mumkin bolgan strategiyalarini rivojlantirish uchun turli xil o'yin mashg'ulotlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir, ular oilaviy o'zaro ta'sir holatlarini taqlid qilish, ishtirokchilarrni sinab korishga taklif qilish imkoniyatini beradi turli xil olaviy rollar, pozitsiyalar strategiyalar, bu albatta oila haqida nuqtal nazaringizni shakllantimshga yordam beradi.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar orqali oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bolani ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonining umumiyligi va ketna ketligi deb hisoblash mumkin. Shunday qilib, maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda turli qadriyatlarni shakllantirishda ertaklarning roli yuqori. Bu yoshdag bolaning tafakkuri obrazlilik va konkretlik bilan ajralib turadiganligi sababli, mavhum tushunchalar bilan emas, balki vizual tanvirlar va g'oyalar bilan ishlaydi va ular asosida umumlashma va xulosalar chiqaradi. Ertak qahramonlar, qoida tariqasida, harakterning ma'lum bir xususiyatiga mehribonlik, jasorat, qorqoqlik va boshqalarga urg'u beradi, bu erda bolaga ochiq bo'lgan ijobiy va salbiy qahramonlarning xususiyatları ertak vaziyatining mohiyatini tushunishga yordam beradi, konflikt, ularga nisbatan munosabatlarni aniqlaydi va qahraamonlarning xatti-harakatlariga o'z bahosini shakllantiradi yordam beradi konflikt, ularga nisbatan munosabatni aniqlaydi va qahramonlarning xatti-harakatlariga o'z bahosini shakllantiradi.

XULOSA

Ma'lumotlarni umumlashtirish, shuni tushunishimiz mumkinki, oilada tarbiya yo'qligi sababli, etim bolalarda gender-rol xulq-atvori haqida tushuncha buzilgan, oddiy qarindoshlik va oilaviy munosabatlar, oilaning qadriyat sifatida g'oyasi yo'q

[2] Azaroy Yu. Boshpanasizlik va bolalik jinoyati // Maktab o'quvchilarini tarbiyalash 2002.-7-son-B.60-64.

(cc) BY

etim bolalaming jamiyatga kirib borishiga va o’z oilasini yaratishga tayyorligiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillar shakllanmagan. Shu sababli, bolalarning ta’lim jarayonida oilaning etishmasligini ta’lim ya ijtimoiylashtiruvchi manba sifatida qoplash uchun turli xil ijtimoiy-pedagogik texnologiyalardan foydalanishning yuqori ahamiyati va zarurligi haqida gapirish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abulxonova K. Aloqa etishmovchiligi sharoitida shaxsiyat // Maktab o’quvchilan tarbiyasi. 2000.-10-son-P.4-9.

2. Azaroy Yu. Boshpanasizlik va bolalik jinoyati // Maktab o’quvchilarini tarbiyalash 2002.-7-son-B.60-64.

3. Alieva, M. A, Grishanovich T. V., Lobanova LV, Travnikova N. G., Troshixina E. G. Men o’z hayotinas quraman Ed. E G. Troshixina -SPb Rech

4. Amosov N. M., Nikitina, L. A., Vorontsov D. D. Bolalik mamlakati To’plam M: Bilim, 1990.-288 b.

5. Andrienko E. V. Ijtimoiy psixologiya Darslik talabalar uchun yordam yuqoriroq ped. darslik muassasalar / Ed. V. A. Slastenina 3-nashr, o’chirilgan - M: "Akademiya" nashriyot markazi, 2004.-264 b.

6. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

7. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

8. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

9. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

10. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

O‘zbekiston hamda chet elda vasiylik va homiylik

Azizabonu Dilshod qizi Abduxashimova
Saodat Muxtor qizi Komilova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo’lgan qarovsiz qolgan bollararga vasiylik qilish va qaramog‘iga olish uning shartlari va huquqiy hujjatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: vasiylik, homiylik, shaxslar, huquq, ota ona, qonun, oila kodeksi, fuqorolik kodekisi

Guardianship and sponsorship in Uzbekistan and abroad

Azizabonu Dilshad kizi Abduhashimova
Saodat Mukhtar kizi Komilova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article will talk about the conditions and legal acts of guardianship and custody of the unattended bollararar, which today is one of the relevant topics.

Keywords: guardianship, patronage, persons, law ,parent, law, family code, code of citizenship

O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga asosan vasiylik yoki homiylik ota-ona vafot etganda, ota-ona tarbiyalashga layoqatsiz deb topilganda, ota-onalik huquqi rad etilganda, ota-onalik huquqi cheklanganda, ular kasal bo’lganda, ota-ona uzoq muddat bo’lmaganda, ota-ona bolalarni huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo’yin tortganda, ota-ona tarbiyalash, bolalar ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan va boshqa hollarda, shuningdek, voyaga yetgan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan ularni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish maqsadida, ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va ularning manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

Qaramog’ini yo’qotgan bollarga vasiylik va homiylik organi himoyasiga tushgan vaqtida, bolada ruhiy zo’riqish holatida yashayotgan bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham bolalarga yordam ko’rsatish bo’yicha barcha harakatlar yaxshi rejalashtirilgan va uyg’unlashtirilgan bo’lishi juda muhim. Har bir bola individual tarixga, hech bir

(cc) BY

bolaning ijtimoiy vaziyati boshqa bir bolaning ijtimoiy vaziyatini qayta takrorlamaydi. Shuning uchun ham har bir bolaning muammolariga alohida yondoshish zarur hisoblanadi.

Balki bola:

- yolg'iz qolishni;
- siz bilan yakka suhbatlashishni;
- yana kim bilandir suhbatlashishni;
- tutingan ota-onaning farzandlari bilan suhbatlashishni istashi mumkindir.

Ko'p hollarda bolalar o'zini qo'pol va jahldor tutishi yoki aksincha barcha talab va bergan savollaringizga javob qaytarmasdan turishi yoki xatto ovqatda ham bosh tortishi mumkin.

Bolaning dastlabki kunlardagi xulqi atvori qanday bo'lishidan qatiy nazar, uni o'z holiga qo'ying, va uni yonida bo'ling. Diqqatli, ziyrak va e'tiborli bo'ling, har qanday vaziyatda ham yordamga tayyor turing. shunda sizga o'z farzandlaringiz yoki boshqa tutingan tarbiyalanuvchilar yordam berishlari mumkin.

Boquvchisini yo'qotgan bolalar kategoriyalariga quyidagilari kiradi:

1. Ota-onalari vafot etgan.
2. Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan.
3. Ota-onalik huquqlari cheklangan;
4. Noma'lum, daraksiz, yo'q hisoblangan.
5. Ishga yaroqsiz (nosog'lom, ish qobiliyati cheklangan);
6. Jazoni ijro etish kolonniyalarida jazo olayotgan.
7. Jinoyat qilganlikda ayblanadi va qamoqqa olingan.
8. Bolalarni tarbiyalashdan bosh tortgan.
9. Bola vaqtincha joylashtirilgan davolash, ijtimoiy tashkilotlardan bolani olib ketishdan bosh tortagan.

Yetim bolalarni vasiylikka olish va ota-onasidan qarovisiz qolgan bolalarni boqish, ta'lim berish va ularning huquq qiziqishlarini himoya qilish uchun joylashtirish muhimdir.

Vasiylik 14 yoshdan oshmagan bolalar ustidan o'rnatiladi, qaramog'iga olish 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar ustidan o'rnatiladi.

Har bir davlatda, har bir jamiyatda ham ota-onasidan yetim qolgan bolalar bo'ladi. Bu holatda davlat va jamiyat bu bolalarning tarbiyalanishi va rivojlanishi mas'uliyatini o'z bo'yniga oladi. Internat turidagi muassasalarda bolalarning muammolarini o'rganish bilan shug'ullanayotgan pedagoglar shuni aniqlashdiki hayotning dastlabki davrlaridanoq yaqinlarini yo'qotgan bolaning kelgusidagi taqdirini oldindan belgilab berar ekan. Ota-onasidan ayrilish yoki barcha yaqinlaridan ayrilib qolish bolalar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalik insonning hayotga qiziqishini, ruhiy bardoshliligi, maqsadga intiluvchanligini ta'minlovchi asosiy shakllanish davridir. Bu

(cc) BY

ma’naviy xislatlar tartibsiz shakllanmaydi, ular ota-ona mehrida, oila bolaga o’zi va boshqalar uchun mas’ul bo’lish, birovga kerakligini sezish sharoitida shakllanadi.Ota-onaga ega bo’lish bolaning eng kuchli ehtiyojlaridan biri.

Vasiylikkka olingan bola turli xildagi qabul qiluvchi oilalarga borib qolishi mumkin. Ular o’rtasidagi farq shundaki birinchi holatda bolani yaqin qarindoshlari topib olishadi,yoki oila vazifasini bolaga qarindoshlik aloqalari bo’lmagan shaxslar bajaradi. Vasiylik sud qarori bilan aniqlanadi. Vasiy oilaning vazifalariga bolani tarbiyalash,ta’lim berish va rivojlantirish, uning huquqlarini himoya qilishdan kiradi. Vasiy oila bola egaligida bo’lgan ko’chmas mulklardan foydalanish va ularni saqlab qolishni ta’minlaydi. Biroq bu mulkdan o’zi foydalanishi mumkin emas. Boqib oluvchi oila bolaning yuridik jihatdan yangi ota-onasi hisoblanadi. Bola bu oilaning familiyasini olishi mumkin.Vasiy oila unga boshqa ism ham berishi mumkin. Bolalikka olingan bolaning barcha majburiyatlari o’z bolalarining majburiyatlariga tenglashtiriladi. Bolalikka olish bir nechta bosqichda o’tishi mumkin: buning uchun bolaga shu mintaqada yangi ota-ona topishga harakat qilishadi, agar buning imkoni bo’lmasa unda bolalikka oluvchi oilani boshqa davlatdan qidirishadi. Boqib oluvchi oilaning yana bir turi mavjud: - vaqtinchalik qabul qiluvchi oila. Bu bizning jamiyatimiz uchun yangi hodisalardan biridir. Bunday oilaga berishdan asosiy maqsad bola shoshilinch tarzda oilasidan judo bo’lsa (turli sabablar asosida; o’z oilasida inqirozli vaziyat, o’lim va boshqalarda) amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.01.2014 yildagi O‘RQ-364-son

2. Mavlonova R.A., To’rayev O.T., Xolikberdiyev K.M. - «Pedagogika» T., «O’qituvchi» 2008.

3. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

4. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences.

5. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

6. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

7. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

O‘zbekistonda alohida yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam tashkil etish

Osiyo Aminova
Nilufar Akbarjonova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo’lgan alohida yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy pedagogik ta’lim berishda yangicha yondashuv bo’lgan inklyuziv ta’lim to’g’risida so’z yuritiladi. Ma’lumki, alohida yordamga muhtoj bolalar rivojlanishida pedagogik va psixologik jihatdan turli bosqilarida o‘zgalarning ko‘magiga muhtojlik sezadi. Bog’cha va maktab muhitida ularga ko‘maklashish har-xil hayotiy vaziyatlarda imkon qadar mustaqil qaror qabul qilishi va ma’lum hatti-harakatlarni ongli ravishda amalga oshirishini rag‘batlantirish (motivatsiyalash) hamda jamoaga moslashishini yengillashtirish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so’zlar: ijtimoiy pedagogika, imkoniyati cheklanganlik, ta’lim, rag‘batlantirish, pedagogik ta’lim, tizimlilik, qonun, yondashuv

Organization of social pedagogical support for children with special needs in Uzbekistan

Osiyo Aminova
Nilufar Akbarjonova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article will talk about inclusive education, a new approach to social pedagogical education for children who need special assistance, which is one of the current topics today. It is known that children who need special assistance feel a need for other people's support in their various invasions, both pedagogical and psychological, in their development. Assisting them in kindergarten and school environments shapes the skills of encouraging (motivating), as well as alleviating their adaptation to the team, to make as independent decisions as possible in different life situations and to carry out certain actions consciously.

Keywords: social pedagogy, limitation of opportunity, education, encouragement, pedagogical education, systemality, law, approach

(cc) BY

«O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»da, «Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda ta’kidlanganidek, respubikamizda barcha fuqarolar teng huquqqa ega. Alohida yordamga muhtoj bolalar ham jamiyatimizda teng huquqli fuqarolar hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davridan boshlab yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga qodir, jismoniy va ma’nan yetuk yoshlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda bolalarga har tomonlama ko‘mak berish, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari davlat siyosati darajasida ko‘rilmoqda.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ularga huquqiy erkinlikni yaratish, kam ta’minlangan oilalar, ayniqsa ota-onasidan mahrum bo‘lgan, nogiron, bolalarni himoya qilishga qaratilgan bir qator me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, dunyo arenalarini zabt etishga qodir yoshlar bo‘lib ulg‘ayish juda muhimdir.

Ayniqsa, ota-ona qaramog‘isiz qolgan, yetim, nogiron va rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan yoshlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni olishini tashkil etish va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzluksizligini ta’minlash ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishida kuzatiladigan keskin o‘zgarishlar yoshlarning hayotda o’z o’rnini topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarga ta’lim berish va tarbiyalash uchun maxsus shart-sharoitlar yaratilishi kerak, ya’ni ular maxsus ixtisoslashtirilgan internat maktabgacha ta’lim muassasalari va me’yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori, kerak bo‘lsa, maxsus darslikva dasturlar asosida tarbiyalanishi va o’qitilishi zarur.

Darhaqiqat alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta’lim tizimi birinchi navbatda bolaning talablari o‘rganilgan, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olingan, kamchiliklari hisobga olinga bo’lishi lozim.. Ushbu ta’lim tizimida ma’lum shart-sharoit yaratilishi kerak. Bunga kompensatsiya, modifikatsiya, reabilitatsiya adaptatsiyalar kiradi.

Agarda bola yura olmasa nogironlar aravachasidan foydalanish, eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta’minlash; qo‘lida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta’minlash lozim.

(cc) BY

Alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalar sog’lom tengdoshlari orasida inkluziv ta’limda yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolalarning rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko’rsatadigan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb atalishiga asos bo‘lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat o’ng qulog‘i eshitmasa, bu nuqson bolaning har tomonlama rivojlanishiga kuchli ta’sir etmaydigan, u tengdoshlari bilan bir xil o‘zlashtiradigan bo‘lsa, u alohida yordamga muhtoj bolalar qatoriga kirmaydi. Katta yoshdagi odamlarda ma’lum sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan nuqsonlar ularning rivojlanishiga ta’sir etmasa, bu kishini alohida yordamga muhtojlar toifasiga kiritish mumkin emas.

Yurtimizda bolalar va katta yoshdagi kishilarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan chora tadbirlar ko‘rilmoqda, bu sohada ko’pgina yutuqlarga ham erishildi.

Mamlakatimizda aholini davolash profilaktikasi yuzasidan meditsina sohasida katta yutuqlar erishildi va shu munosabat bilan alohida yordamga muhtoj bolalar soni sezilarli jihatda kamaydi. Bolalarning o‘lat, tif, vabo, chechak, qizamiq, traxoma va bolalarga xos yuqumli kasalliklar orqasida alohida yordamga muhtoj bo‘lib qolish hodisalari kuzatilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» qonuni.

2. V.S.Raxmanova "Defektologiya asoslari" O'quv qo'llanma. Niso poligraf, Toshkent 2017

3. M.U.Xamidova "Maxsus pedagogika", NIF MSH, Toshkent 2020

4. Khaydarov S,A. (2023).Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, (pp. 305-308). 11(9).

5. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi.https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

6. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissancee: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(1/2), 92-96.

7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 42-44).

Alohida yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam tashkil etishning shaklari

Azamat Abdullayev
Sherzod Gulmamadov
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dolzarb mavzulardan biri bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalarga ijtimoiy pedagogik ta'lim berishda yangicha yondashuv bo'lgan inklyuziv ta'lim to'g'risida so'z yuritiladi. Ma'lumki, alohida yordamga muhtoj bolalar rivojlanishida pedagogik va psixologik jihatdan turli bosqilarida o'zgalarning ko'magiga muhtojlik sezadi. Bog'cha va maktab muhitida ularga ko'maklashish har-xil hayotiy vaziyatlarda imkon qadar mustaqil qaror qabul qilishi va ma'lum hatti-harakatlarni ongli ravishda amalga oshirishini rag'batlantirish (motivatsiyalash) hamda jamoaga moslashishini yengillashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogika, imkoniyati cheklanganlik, ta'lim, rag'batlantirish, pedagogik ta'lim, tizimlilik, qonun, yondashuv

Forms of organization of social pedagogical support for children with special needs

Azamat Abdullayev
Sherzod Gulmamadov
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article talks about inclusive education, which is a new approach to providing social pedagogical education to children with special needs, which is one of the current topics. It is known that children with special needs feel the need for support from others at various stages of their development, both pedagogically and psychologically. Helping them in the environment of kindergarten and school forms the skills to encourage (motivate) them to make independent decisions and consciously perform certain actions in various life situations, and to facilitate their adaptation to the community.

Keywords: social pedagogy, disability, education, motivation, pedagogical training, system, law, approach

(cc) BY

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qaroriga muofiq “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Bung ko’ra:

a) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni tashkil qilish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq:

- inklyuziv ta’limning maqsadi, vazifalari;
- alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonini tashkil qilish tartibi;
- o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul etish tartibi;
- inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda ta’lim sifatini nazorat etish va uni boshqarish tartibi;

b) Jismoniy, aqliy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizomga muvofiq:

- alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, ularda o‘quv-tarbiya va davolash-sog‘lomlashtirish jarayonlarini tashkil etish tartibi;
- alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning umumiy o‘rta ta’lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida qo’llab quvatlash tartibi;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni bir ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasidan boshqa ta’lim muassasasiga yoki inklyuziv sharoitda ta’lim olishi uchun umumta’lim tashkilotlariga ko’chirish tartibi;

Alohida yordamga muhtoj bolalarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishida kuzatiladigan keskin o‘zgarishlar yoshlarning hayotda o’z o’rnini topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bunday bolalarga ta’lim berish va tarbiyalash uchun maxsus shart-sharoitlar yaratilishi kerak, ya’ni ular maxsus ixtisoslashtirilgan internat maktabgacha ta’lim muassasalari va me’yorda rivojlangan tengdoshlari orasida hamma qatori, kerak bo‘lsa, maxsus darslikva dasturlar asosida tarbiyalanishi va o’qitilishi zarur.

Darhaqiqat alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta’lim tizimi birinchi navbatda bolaning talablari o‘rganilgan, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olingan, kamchiliklari hisobga olinga bo’lishi lozim.. Ushbu ta’lim tizimida ma’lum shart-sharoit yaratilishi kerak. Bunga kompensatsiya, modifikatsiya, reabilitatsiya adaptatsiyalar kiradi.

(cc) BY

Agarda bola yura olmasa nogironlar aravachasidan foydalanish, eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta’minlash; qo‘lida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta’minlash lozim.

Alohida yordamga muhtoj bo’lgan bolalar sog’lom tengdoshlari orasida inkluziv ta’limda yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim tarbiya olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolalarning rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko’rsatadigan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb atalishiga asos bo‘lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat o’ng qulog‘i eshitmasa, bu nuqson bolaning har tomonlama rivojlanishiga kuchli ta’sir etmaydigan, u tengdoshlari bilan bir xil o‘zlashtiradigan bo‘lsa, u alohida yordamga muhtoj bolalar qatoriga kirmaydi. Katta yoshdagi odamlarda ma’lum sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan nuqsonlar ularning rivojlanishiga ta’sir etmasa, bu kishini alohida yordamga muhtojlar toifasiga kiritish mumkin emas.

Inklyuziv ta’lim - umumta’lim jarayonini rivojlantiradi va bolalarga mos bo‘lgan ta’limni joriy qiladi. Inklyuziv ta’lim xar xil ehtiyojli bolalarning ta’lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta’lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta’limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta’limni joriy etishda dars berish, o‘qitish bir qancha samarali va unumli bo‘lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta’lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaholangki ular o‘qitilmasa ham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar birbirlari bilan muloqot qilish jarayonida o‘zlarining o‘qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individuum ekanliklarini anglaydilar

Yurtimizda bolalar va katta yoshdagi kishilarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan chora tadbirlar ko‘rilmoqda, bu sohada ko’pgina yutuqlarga ham erishildi.

Mamlakatimizda aholini davolash profilaktikasi yuzasidan meditsina sohasida katta yutuqlar erishildi va shu munosabat bilan alohida yordamga muhtoj bolalar soni sezilarli jihatda kamaydi. Bolalarning o‘lat, tif, vabo, chechak, qizamiq, traxoma va bolalarga xos yuqumli kasalliklar orqasida alohida yordamga muhtoj bo‘lib qolish hodisalari kuzatilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son

2. M.U.Xamidova "Maxsus pedagogika", NIF MSH, Toshkent 2020

3. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

4. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences.

5. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

6. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

7. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ijtimoiy pedagogik muammolar

Azizbek Sobirov
Azizbek Yo'ldashaliyev
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogik texnalogiyalar va uning turlari va mazmuni haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, pedagog, ijtimoiy, ta'lim, bola, dastur, kontsepsiya, natija

Social pedagogical problems organized with school and preschool children

Azizbek Sobirov
Azizbek Yoldashaliyev
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article presents ideas about social pedagogical technologies and its types and content.

Keywords: technology, pedagogue, social, education, child, program, concept, result

Bolaning rivojlanishi qanday bo'ladi, u qanday shakillanadi va unga ta'sir etuvchi omillar nimadan iborat degan muammo qadim zamonlardan beri psixolog va pedagoglarning diqqatini jalb etib kelmoqda. Bolalarning taraqqiy etishini tushintirib berishga uringan keksa nazariy "Bola katta yoshli kishining kichik nushasi" degan so'z bilan tariflanadi. Bu nazariy tarafdorlari bola sifati e'tibori bilan katta yoshli kishidan hech bir farq qilmaydi. Bola bo'yi, shuningdek tasavvurlari, xotirasi, diqqati, tafakkuri va boshqa jarayonlaridan anchayin kichkina bo'lgan katta yoshlik kishilardir deb ko'rsatishga urinadir. Lekin bola psixikasini sifat jihatidan o'ziga hosligini tushintirib bera olmaydilar va taraqqiyotning asosiy sabablarini yoritib bera olmaydilar XVII asrdan boshlab filosofik va psixologik yo'nalishlarda bolaning taraqqiyoti haqida kurash boradi: psixologik yo'nalish tarafdorlari psixik taraqqiyot butunlay muhitga va turmush tajribasiga bog'liq deydilar. Xo'sh odam psixikasi va

(cc) BY

xatti harakatlaridan bor bo'lgan o'ziga hos xususiyatlarini nima bog'laydi - tabiy, tug'ma xususiyatlarmi? yoki hayot davomida ortirgan xususiyatmi degan muammoda turlicha qarashlar maydonga keldi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida maktabgacha yoshidagilar ta'lim va tarbiyasida shahsiy yo'nalganlik modeli ustuvor bo'lib hissoblanadi. Shahsiy yondashuvning maqsadi - bu shahsning shakillanishi bo'lib, belgilangan standart boyicha uni o'zgartirish emas, balki uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishdir. Shahsiy yondashuv ta'lim jarayoni sub'ektning shahsiy vazifalari (funksiyalari) rivojlanishining to'laqonli namoyon bo'lish uchun shart - sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Shaxsiy vazifalar shaxs bo'lish ijtimoiy buyurtmasini amalga oshiruvchi ma'lum bir sifatlarini shaxs tomonidan namoyon bo'lishidir. Ta'lim jarayonini tashkil qilishning asosiy sifatida shaxsiy yondashuv shaxsning jamoada e'tirof etilishi, unda insonparvarlik o'zaro munosabatlarini bildiradi.

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN TASHKIL ETILADIGAN MUAMMOLAR KO"PDIR. BAZI MUHIM MUAMMOLAR QUYIDAGILARNI O'Z ICHIGA OLADI

1. O'quvchilarning har biri o'zining shaxsiy xususiyatlari talablari va qobiliyatlari bo'yicha individual qarorlar qabul qilishlari zarurati.

2. O'quvchilarning ijtimoiy tarbiyasi va dostlari bilan muloqotda bo'lishi guruhda ishtirok etishlari va jamoatda muvofiqligini o'rganidh uchun darslar tashkil etish.

3. O'quvchilarning o'zlarini ifodalash, o'zgaruvchanligini qabul qilish va boshqacha fikirlar bilan muloqotda bo'lish uchun maslahatlar va darslar tashkil etish.

4. O'quvchilarning o'zlarini o'rganish va rivojlantirish uchun motivatsiyani oshirish, va ularning maqsadlariga erishish uchun yordam berish.

5. O'quvchilarning o'zlarini qo'llab quvatlash, o'zlarini boshqalariga yordam berosh va jamoatda foydali a'zolari bo'lishi uchun darslar tashkil etish.

6. Oquvchilarning salomatliyligi, ruhoniyligi va jismoniy rivojlanishni taminlash uchun sport va sog'lom turmush tarzi darslarini tashkil etish.

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN QUYIDAGI MUAMMOLAR YUZAGA KELISHI MUMKIN

1. Oquvchilarning aloqasi va muhiti: o'quvchilar o'z o'rtalarida yahshi aloqa qurishadi, shuningdek, ularning o'zaro munosabatlari va muhit bilan ham aloqasi mavjud bo'lishi kerak. Bunday muammolar o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qila olishi mumkin.

2. Bullying (intihor) Bullying yoki intihor maktabda kop uchrashgan muammolaridan biri bo'lib bu o'quvchilarning ruhiyjoniy va jismoniy holatiga zarar keltirishi mumkin. Bu muammoilarni oldini olish uchun maktabda bullyinga qarshi

(cc) BY

kurashish dasturlari va qo'llanmalari tuzilishi kerak.

3. Tashqi ta'sir: O'quvchilar tashqi ta'sirlarga (masalan narkotiklar, alkogol va boshqa zararli moddalar) duch kelishlari mumkin. Bu muammolar bilan kurashish uchun o'quvchilarga ta'lim berish, ularni ma'lumotlardan o'girlash va o'zgarishlarga kirishish uchun qo'llanmalar tuzilishi kerak.

4. O'quvchilar o'rtasida munosabatlar va ularga bo'lgan urinishlar o'quv jarayonida va ijtimoiy rivojlanishlarini ta'sir qila olishi mumkinm. Bu muammolarni oldini olish uchun o'quvchilarga jamoaviy ishlash, guruh ishlari va komunikatsiya ko'nikmalarini oshirish uchun darslar tashkil etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova F.M. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni.−T.: ToshdFI, 2008.

2. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

3. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

4. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

5. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference.

6. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43). Boysoatovna, R. R., Kamol o'g'li, R. S., & Islomovna, B. D. Z. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(8), 784-751.

7. Bespalko V.P. Slagaemые pedagogicheskoy texnologii. – M., 1989.

8. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2009

9. G'oyibnazarov E. va Matkarimova J.D. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.–T.: ToshtYMI.

10. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

Mehribonlik uylaridagi ijtimoiy pedagogik faolyat

Madina Muminova
Mushtariybonu Rahmonova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola mehribonlik uyidagi olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat haqida.

Kalit so'zlar: ota-ona, ijtimoiy pedagogika, psixologik, mehribonlik uyi, xamkorlik, tarbiya, muloqot

Social pedagogical activity in orphanages

Madina Muminova
Mushtaribanu Rahmonova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article is about the social pedagogical activities carried out in the children's orphanage.

Keywords: parents, social pedagogy, psychological, orphanage, cooperation, upbringing, communication

Mamlakatimizda kelib chiqishi, millati, irqi, fe'li, dini har xil insonlar yashaydi. Shu jumladan, Mehribonlik uyida ham sanab o'tilgan toifalarning barchasiga taalluqli bolalar va o'smirlar mavjud. Demak, Mehribonlik uyini ijtimoiy institut sifatida tavsiflasak, u yerda tashkil etiluvchi barcha jarayonlarda davlatning insonparvarlik siyosati aks etadi. Millatimiz azaldan boquvchisini yoqotgan qarovsiz bolalarni o'z bag'riga olib ta'lim- tarbiya berb voyaga yetkazadi.

Ma'lumki mehribonlik uylari tarbiyachilari ham ijtimoiy pedagogik faoliyatning bevosita ishtirokchisidir. Yoshlarning mustaqil xayotga moslashuvi esa ijtimoiy ko'nikma va malakalarga asoslanadi. Ijtimoiy ko'nikma malakalar muassasada tashkil etiluvchi tarbiyaviy ishlar jarayonida samarali shakllantiriladi. Psixolog bilan xamkorlikda tashxis qo'yilib, keyingi bosqichga ijtimoiy pedagogik ish rejasini tuzishga xizmat qiladigan ma'lumotlarni to'playdi. Bunda asosan bola yashaydigan uzoq muddat bo'ladigan mikromuhit (oila,qarindoshlar, tug'ilgandan buyn yashagan joyi....) xususiyati va tarkibi o'rganiladi.

(cc) BY

Asosan ushbu muhitda kimlar bilan muloqotda bolgani, o'sha joydagi insonlarning shug'ullanadigan ishlari, maqsad va vazifalari, kelajak rejalarini tuzish ko'nikmallariga egaligi, ma'naviy va moddiy jihatlari taxlil qilinadi Taxlil qilish yo'llari- bevosita bola bilan suhbat, savol-javob orqali o'rganish, maxsus maqsadli anketalar bilan tuzib uning bola tomonidan to'ldirilishini, o'sha muhitdan habardor insonlarning mulohazalarini to'plash, tegishli tashkilotlarning mutahasislari bilan olib boriladigan Pedagogik psixologik ishlarni tashkil etish. Jamiki tahlil xulosalarga tegishlicha qaror chiqariladi.

O'zbekistonning turli mintaqalarida olimlar tomonidan olib borilgan amaliy va ilmiy Kurs ishilar shuni ko'rsatadiki, Mehribonlik uylarining ko'plab bitiruvchilari o'zlarining hayot yo'llarini tanlashga etarlicha tayyor emaslar, mustaqil hayotga moslasha olmasliklari va ijtimoiy faolligi pastligi bilan ajralib turadilar. Ularning hayoti davomida to'liq davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan iste'molchilarning munosabati, ijtimoiy-madaniy me'yorlar va qoidalarga muvofiq hayot qura olmaslik, odamlar o'rtasidagi ko'plab ijtimoiy munosabatlarni tushunmaslik salbiy oqibatlarga olib keladi. Mehribonlik uyidagi bitiruvchilar jamiyatga qo'shila olmayapti. Bugungi kunda ular moslashishga majbur bo'lgan yangi ijtimoiy muhitning tubdan o'zgarishi faktiga duch kelishmoqda. Mehribonlik uylari bitiruvchilari kasbiy o'zini o'zi belgilashda, nikohda, professional va do'stona munosabatlarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ularning katta qismi huquqbuzarlar safiga qo'shiladi. Bugungi kunda bolalar uyida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishmasalasi kam o'rganilgan va pedagogika fani va amaliyotining dolzarb va ijtimoiymahamiyatga ega muammolaridan biridir.

Ilmiy ishlanmalar Yetim bolalarga yordam berishning eng yaxshi vositalari va usullarini topishga qaratilgan. Olimlarning tahlilicha barcha mamlakatlarda onalik va g'amxo'rlikdan e'tibordan chetda qolgan bolalarga psixologik va pedagogik yordam masalasini ko'rib chiqishmoqda.

Mehribonlik uyidagi mavjud pedagogik tizim bolalarda qiyin hayotiy vaziyatlarni engish, psixologik himoya va stress paytida to'g'ri xulq-atvorni shakllantirish ko'nikmalarini shakllantirmaydi. Natijada, ular osongina hissiy buzilishlar va deviant xatti-harakatlarga ega. Ijtimoiy Yetim bolalar bilan ishlashning pedagogik texnologiyalarining orqada qolishi va ularning etarli darajada psixologik ta'minoti va qo'llab - quvvatlanishining natijasi, oxir-oqibat, bolalar uyidan keyin bu bolalar ijtimoiy moslashuvning barcha asosiy parametrlari bo'yicha oilalarda tarbiyalangan bolalardan ancha past bo'lishi namoyon bo'ladi:

- kasb va ish topish qobiliyati bo'yicha;
- hayotdagi inqiroz va jinoiy vaziyatlardan qochish qobiliyati bo'yicha;
- o'z oilasini shakllantirish va ota-ona tarbiyaviy funktsiyalarini muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatiga ko'ra. Kelib chiqayotgan muammolarni ongli ravishda bartaraf

(cc) BY

etishga yondashiladi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasalar xodimlari o'quvchilarni - bo'lajak bitiruvchilarni ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishga undashlari, mustaqil yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishlari, hayot istiqbollarini ko'rish qobiliyatini va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Ularga maqsadlarni belgilashni va ularni amalga oshirish uchun javobgar bo'lishni o'rgatish, ko'proq mustaqillik berish, ba'zida har bir qadamdan keyin qanday natijaga erishish mumkinligini tushuntirish, ba'zida to'liq mustaqillikni ta'minlash kerak. Mehribonlik uyidagi ish shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak:

- odamlarga ijobiy munosabat;
- turmush tarzi sifatida mehnatga bo'lgan ehtiyoj;
- ijtimoiy makonda yashash qobiliyati (qonunlarda harakat qilish, huquqlar va

Bu muammolarni hal qilish uchun fuqorolik majburiyatini bajarishga tayyor turish. Bitiruvchi mustaqil hayotga moslashish uchun atrof-muhitning yordami kerak. Professional tarzda qurilgan muloqot va o'smirlar bilan ishlash uning muvaffaqiyatli moslashuvi uchun asos bo'lishi mumkin. Samarali ishni qurish uchun mutaxassis hayot rejasini shakllantirishda katta qiyinchiliklarga duch kelgan Yetim muassasalari bitiruvchilarining xarakterologik va shaxsiy xususiyatlarini tushunishi kerak, ularning mavjudligi hayotni boshqarish va ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatiga bog'liq. Muassasada o'quvchilarni o'qitishni tashkil etish muassasa tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan o'quv rejasiga muvofiq o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va darslar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim, mehnat va dam olishning ilmiy asoslangan kombinatsiyasini ta'minlaydigan kun tartibi o'quvchilarning muassasada tunu kun bo'lishini hisobga olgan holda tuziladi. O'quvchilar umumta'lim muassasalarida, boshqa muassasalar va tashkilotlardagi bolalar uchun qo'shimcha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan klublar, seksiyalar, to'garaklar, studiyalar, qiziqish birlashmalariga tashrif buyurishlari, shuningdek tanlovlar, Olimpiada, ko'rgazmalar, ko'riklar va ommaviy tadbirlarda qatnashishlari mumkin.

O'quv jarayonidagi psixologik va pedagogik hodimlarni qo'llab-quvvatlash zarur. O'quvchilarning hayot rejalarini shakllantirishda pedagogik yetakchilikning an'anaviy tizimi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilishi kerak, bu bolalar uyida bolaning to'liq aqliy rivojlanishi, uning aql-zakovati, irodasi, his-tuyg'ulari, motivlari, moyilligi, qobiliyatlari uchun sharoit yaratishi kerak va shuning uchun uni ta'minlashi kerak. bolalar uyining o'zida normal hayot va farovonlik, tayyorgarlik oila qurish, ta'limni davom ettirish, kasb-hunar.

Xulosa qilib aytganda Mehribonlik uyidagi pedagogik jarayon imkon qadar tezroq o'quvchilarni etarli darajada psixologik qo'llab-quvvatlash va qo'llab-

(cc) BY

quvvatlash bilan to’ldirilishi kerak, bu ularning shaxsiyatining rivojlanish darajasini va keyingi ijtimoiy moslashuvdagi imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab- quvvatlatlash va oila, institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari’’ to‘g‘risidagi PF-5325-son Farmoni.

2. Olimov L.Ya. Xulqi o’gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. - 460.

3. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

4. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

5. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

6. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Ijtimoiy pedagogikada meyordan og‘ishgan bolalarni diagnostika va profilaktikasi

Nigora Ne’matullayeva
Ruxsora Ibragimova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada me’yordan og’ishgan o‘smirlar bilan olib boriladigan diagnostik va profilaktik ish shakllari va medotlar to’g’risida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: anomal bolalar, iqtidorlilik, ijtimoiy me’yorlar, rivojlanoshda og’ishlik bo’lgan bola, nogiron bola, deviant xulq, delikvent xulq, qarovsizlik

Diagnosis and prevention of deviant children in social pedagogy

Nigora Nematullayeva
Rukhsora Ibragimova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article will talk about the forms of diagnostic and preventive work and medotes carried out with adolescents who have deviated from the norm..

Keywords: anomalous children, giftedness, social norms, a child with deviance in development, a disabled child, deviant behavior,delinquent behavior, neglect

Ma’lumki insoniyat rivojlanishning qaysi davrida bo’lishidan qat’iy nazar, har bir jamiyatda,eng rivojlangan, farovon, iqtisodiy rivojlangan davlat bo’ladimi yoki rivojlanayotgan jamiyat, ularda o’zlariga alohida e’tibor talab etadigan insonlar bo’ladi. Bunday insonlar biror bir jihatdan: psixik, jismoniy yoki ijtimoiy rivojlanishda orqada qolgan insonlardir. Bunday insonlar jamiyat va davlatda har doimo alohida guruhga ajralib turadi. Ularga doimo aloxida munosabatda bo’lib kelingan. Ammo bu toifaga kiruvchi insonlarga jamiyatning tarixiy-madaniy sharoitiga asosan turli davrlarda turlicha munosabatda bo’lingan. Masalan, Qadimgi Spartada jismoniy, psixik nuqsoni bor bolalarni Spartachilar baland qoyalardan uloqtirganlar. Bu toifadagi insonlarga boshqa bir jamiyatda esa insonparvarlik nuqtai nazardan yondashganlar va ularga mehribonchilik ko’rsatganlar.

(cc) BY

Hozirgi rivojlanib kelayotgan davirda imkoniyati cheklangan insonlarga munosabat ko'rsatishda, eng avvalo sog'liq masalasi dolzarb masala hisoblanadi. Chunki bunday insonlar soni butun jahon miqyosida o'sib bormoqda. YUNESKO ning bergan ma'lumotlar bo'yicha yaqin vaqtda jahon hamjamiyati bu ko'rsatkichni o'zgartira olmaydi. Sog'lom muhit har doimo insonlar ongida o'z chegarasiga ega bo'lib, chegaradan tashqarida bo'lganlar "potologik", "nome'yoriy" deb belgilanadi. Amaliyotda inson anglab yetgan yoki anglab yetmagan holda layoqatli yoki layoqatsiz deb baholanadi.

Ijtimoiy pedagogikada "me'yor" va "me'yordan og'ishlik" tushunchalari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bolalarning ijtimoiy xulq - atvori rivojlanish jarayonini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Xulqiy og'ishlik yaxshsi va yomon xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, me'yordan xulqiy og'ishlik xolatida bola rivojlanishdan ham aqliy norasolik ham qobiliyatlilikda ifodalanishi mumkin.

Me'yordan og'ishlikni 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Jismoniy
2. Psixik
3. Pedagogik
4. Ijtiomoiy

Jismoniy og'ishlik insonning sog'lig'i bilan uzviy bog'liq bo'lib, tibbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. U bolaning yosh ko'rsatkichlari va jinsi bilan ifodalanadi. Ular bolalarning sog'lig'ini xarakterlaydi. Aslida bular juda ideal ko'rsatkichlar bo'lib, bunday ko'rsatkichlarga to'la muvofiq keladigan bolalarni topish ancha qiyin bo'lsa kerak.

Me'yordan psixik og'ishlik bolaning aqliy rivojlanishi va uning psixik nuqsonlari bilan bog'liq. Bu guruhga avvalo psixik rivojlanishda to'xtalish bo'lgan aqliy norasolar yoki oligofreniyalar kiradi. Bu tur esa psixik og'ishlikning eng so'nggi shakli (autism) bo'lib, muloqotga ehtiyoji yo'qligi, odamoviligi bilan harakterlanadi va o'zini-o'zi o'ldirishga moilligi yuqori bo'ladi.

Pedagogik me'yordan og'ishlik. Hozircha bu pedagogikada juda kam qo'llaniladi. Pedagogik me'yorlarda avvalo standartlar nazarda tutiladi. Ular asosan ta'lim darajalarini aniqlab beradi. Ta'limni o'zlashtirganlik yoki o'zlashtira olmaganlik me'yordan og'ish me'yorlari haqida so'z yuritish mumkin. Pedagogik me'yorlar yurtimizda qabul qilingan umumiy ta'lim standartlar hisoblanadi.

Ijtimoiy me'yordan og'ishganlik. Ijtimoiy me'yorlar - bu jamiyatning ma'um bir bosqichida maxsus o'rnatilgan hatti-harakat namunalari, xulq-atvorga oid qoidalar yoki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan (ruxsat etiladigan yoki majburiy) qoidalar hisoblanadi.

Bolalarning ijodiy va ruhiy salohiyatlarini rivojlantirish, ularning o'z-o'zini ifoda qila olish qobiliyatlarini shakillantirish va o'zini-o'zi hurmat qilish hissini

(cc) BY

mustahkamlashga ko'maklashadi. Musiqa, san'at, raqs, sport va boshqa bir qancha faoliyatlar orqali bolalar o'z qiziqishlarini kashf etadilar va yangi bilimlar orttiradilar. Bolalarga o'z maqsadlarini aniqlash va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatish, ularning o'z-o'zini boshqara olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakka bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni ijtimoiy faollashuvga turtki beradi. Meyordan og'ishgan bolalarni qo'llab-quvvatlashda integrativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, bolalarni shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirish va jamiyatning barcha qatlamlari bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bolalarning muvaffaqiyati, nafaqat ularning harakatlariga, balki jamiyatning qo'llab-quvvatloviga ham bog'liqdir. Shunday qilib, har bir bola o'z imkoniyatlarini to'liq ishga sola bilishi va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lib o'sishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mo'minova L.R Inklyuziv ta'lim. Dastur. T., 2020.

2. Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim. - T.: "Chashma print", 2021.

3. R.Sh.Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent 2021.

4. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

5. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

6. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

7. Ҳайдаров,С.А.(2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

O’zbekistonda oilaviy bolalar uyining tashkil etilishi

Madinabonu Sabirova
Maftuna Nig’matullayeva
Sabrina Ro’ziyeva
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekistonda oilaviy bolalar uyining tashkil etilishi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: oila, bolalar, shart-sharoit, qarovsiz, ota-ona, ariza

Establishment of a family orphanage in Uzbekistan

Madinabonu Sabirova
Maftuna Nigmatullayeva
Sabrina Roziyeva
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article presents ideas about the establishment of a family orphanage in Uzbekistan.

Keywords: family, children, conditions, neglect, parents, application

Oilaviy bolalar uylari bu ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlashning qulay sharoitidir.

Ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan va yetim bolalarni tarbiyalashning batamom yangicha tizimini joriy etish, bolalarni joylashtirishning oilaviy hamda boshqa muqobil shakllarini amaliyotga kiritish, ularni mustaqil hayotga tayyorlashning qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

Oilaviy bolalar uylari yetim bolalar va ota-ona qaramog’idan mahrum bo‘lgan bolalarnI tarbiyaga olishni istagan fuqarolar tomonidan yuridik shaxs maqomisiz tegishli shahar hokimining qarori asosida tashkil etiladigan oilaviy bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilar soni 3-5 nafarni, lekin kamida 3 nafarni ko‘pi bilan 5 nafarni tashkil qilish kerak. Bunda, oilaviy bolalar uyini tashkil qilgan fuqarolarning o‘z farzandlari yoki tarbiyalanuvchilarning jami soni 8 nafardan oshmasligi kerak.

Oilaviy bolalar uylarining tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslarini a’lo baholarga tugatgan fuqarolar tomonidan tashkil qilishga ruxsat etiladi va oilaviy

(cc) BY

bolalar uylari faoliyatini takomilashtirish va nazorat qilish Milliy gvardiya hamda tuman hokimliklari bolalarni himoya qilish uchun amalga oshiriladi.

Oilaviy bolalar uyini tashkil qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan fuqorolar tegishli joylardan vazirlik va idoralarning elektron hujjatlarni ba'zalaridan olish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni talab qilish qat'iyan man etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tomonidan viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 1-oy muddatda amalda yuridik shaxs maqomidagi tarbiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy bolalar uylarini yuridik shaxs maqomisiz qayta o'zgartirish va tashkil etish choralari ko'rilsin. Mazkur qarorga ko'ra, 1-bandida oilaviy bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilarning eng ko'p soniga o'rnatilgan cheklov va tarbiya muassasasi ushbu oilaviy bolalar uylaridagi tarbiyalanuvchilar 18 yoshga to'lgunigacha yoki boshqa sabablarga ko'ra, ketgunga qadar mazkur oilaviy bolalar uylarda qoladi.

Oilaviy bolalar uylarini tashkil qilmoqchi bo'lgan shaxslar uchun tutingan ota-ona ro'liga tayyorlash kurslarini tashkil etish va ushbu jarayonga bilimli va malakali, shu jumladan chet-el mutaxassislarni jalb qilish choralari ko'rilsin. Jamoat xavfsizligi universiteti tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslari faoliyatini takomilashtirib borilsin. Oilaviy bolalar uylarini tashkil qilmoqchi bo'lgan shaxslar nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan tashkilashtirilgan tutingan ota-onalarni tayyorlash va takomilashtirish ularni o'qishi va tegishli sertifikatni olishi mumkin.

Oilaviy bolalar uyiga tarbiyaga olingan har bir nogironligi bo'lgan bolarga mehr ko'rsatish va davolash-sog'lomlashtirish uchun har oyda ba'zaviy 1 baravar miqdorida mablag ajratiladi.

Oilaviy bolalar uyi tuman hokimining qarori bilan tashkil etiladi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi Oilaviy bolalar uyini tashkil etishni uchun hoxlagan er-xotinning tegishli arizasi, vasiylik va homiylik organining, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tumanlar va shaharlar idoralararo komissiyasida er-xotinning tarbiyalovchi ota-onalar bo'lishi va bolalarni tarbiya qila olishga imkoniyati to'g'risidagi xulosasi tuman hokimining qarori qabul qilinishi uchun asos bo'la oladi.

Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotin o'zining turar joyidagi vasiylik va homiylik organlariga ariza bilan murojaat qilishlari lozim.

Arizada bo'lajak ota-onaning familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joyi, bolalari o'zlarining farzandlari yoki tarbiyalashga olgan bolalari mavjud bo'lgan taqdirda ularning soni va yoshi ko'rsatiladi.

Arizaga quyidagilar fakt qilinishi kerak: Ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarning, nikohdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari, ish va o'qish joyidan ma'lumotnoma, ishlamayotgan yoki belgilangan tartibda ishsiz deb e'tirof etilganlar uchun mahalliy mehnat organlarining ma'lumotnomasi va mehnat daftarchasidan ko'chirma (ish staji mavjud bo'lsa), oila

(cc) BY

a’zolari ko‘rsatilgan holda turar joyidan ma’lumotnoma, ota- ona sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq bo’lgan mulk huquqi, ijara shartlarida ijaraga olingan yoki boshqa qonuniy asoslarda yashash joy mavjudligini tasdiqlovchi ma’lumot yoki hujjat tegishli uy joy mavjud bo’lmagan taqdirda arizada xizmat yashash joyi bilan ta’minlash zarurligi ko’rsatib o’tiladi.

Tibbiy komissiyasining er-xotinning sog’lig’i to’g’risidagi ma’lumot kasal yoki sog’lomligi tog’risida xulosasi, psixiatriya va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari dispanseri ma’lumotnomalari olinadi.

Tarbiyalanuvchi asrab olish vaqtida er-xotinning shaxsini tasdiqlovchi ma’lumotnoma yoki hujjatlari bo’lishi kerak. Oilaviy bolalar uyini maqomi, tashkil etish, bolalarni qabul qilish tartibi, tarbiyalavuchi ota-onalar va shunday uyalarga tarbiyalash uchun berilgan bolalarni huquqlarini belgilaydi.

Ota onasi qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalash, o’qitish, psixologik va jismoniy rivojlanish qulay sharoit yaratish, oilaviy bolalar uyini asosiy vazifasi.

Vasiylik va homiylik organlari bolalar uyini tashkil etishga yordam berish ko’rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goziyev E.G. Mamatov M.M. va boshkalar "O‘spirin psixologiyasi" ToshD.U. 1992.

2. Goziyev E.G Utanov B "Xamkorlik psixologiyasi" T., Tosh D.U. 1992

3. Lyaudis V.L. - Metodika prepodavaniya psixologii, iz.vo 2000.

4. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

5. Khaydarov S.A. (2023). Using technologies in teaching social sciences.

6. Хайдаров. С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение.

7. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference

Ijtimoy pedagogik faoliyatda texnologiyalar

Barchinoy Usmonaliyeva
Namuna Xoliqnazarova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogik metodologiya tushunchasi ijtimoiy pedagogik faoliyatning shakllari, usullari, vositalari va mazmunini nazorat qilishni o’z ichiga oladi. Turli usullarning birlashuvi ijtimoiy pedagogik texnologiyaning mohiyatini tashkil etadi.

Kalit so’zlar: umumiy va xususiy ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar, diagnostik-prognostik, ekspert-baholash ijtimoiy - pedagogik texnologiyalar

Technologies in social pedagogical activity

Barchinoi Usmonaliyeva
Example Khaliqnazarova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: In this article, the concept of social pedagogical methodology includes control over the forms, methods, means and content of social pedagogical activities. The combination of different methods is the essence of social pedagogical technology.

Keywords: general and special socio-pedagogical technologies, diagnostic-prognostic, expert-assessment social-pedagogical technologies

KIRISH

“Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar” atamasi “pedagogik texnologiya” va “ijtimoiy texnologiya” tushunchalaridan kelib chiqqan.

Pedagogik texnologiya ikki sohani qamrab oladi. Birinchidan, bu o’quv-ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun texnik vositalardan foydalanishni o’z ichiga oladi. Ikkinchidan, u ijtimoiy fanlarni o’z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

80-yillarning o‘rtalarida S.H. kabi atoqli pedagoglar. Amonashvili (ijtimoiy-shaxsiy texnologiya), V.P.Bespalko (dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi), S.N.Lo’senkova (adaptiv ta’lim), shuningdek, V.A.ning pedagogik texnologiyalari. Karakovskiy, N.E.Selivanova, N.I.Xurkova va boshqalar pedagogik amaliyotda keng

(cc) BY

tanildi. Ta’lim sohasi mutaxassislarini tayyorlash bo’yicha o’quv dasturiga “Pedagogik texnologiyalar” kiritildi.

Bugungi kunda "pedagogik texnologiyalar" atamasi inson va texnik resurslardan foydalangan holda o’quvchilar uchun o’qitish va ta’lim jarayonlarini tushunish va rejalashtirishni anglatadi. Pedagogikada texnologik integratsiyaning maqsadi barcha maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan yaxshi tuzilgan o’quv jarayonini ta’minlashdir.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarini tizimli ravishda tahlil qiladi va nazorat qiladi.

“Ijtimoiy texnologiyalar” tushunchasi sotsiologiyada ijtimoiy jarayonlar natijalarini rejalashtirish imkoniyatlari atrofida aylanib chiqdi.

Ijtimoiy texnologiya turlaridan biri bu ijtimoiy ish texnologiyalari bo’lib, ular ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish o’rtasida umumiy bo’lgan ko’plab jihatlar tufayli ijtimoiy pedagogik texnologiyalar bilan chambarchas bog’liqdir. Ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtirgan texnologiya sifatida qaraladi.

Ijtimoiy ta’lim va ijtimoiy tarbiya o’rtasidagi munosabat, ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy faoliyat bilan bir qatorda o’zgarib boradi. Bu kontekstda, e’tibor qaratadigan asosiy nuqta, bola va uning ijtimoiy muhitidagi o’zgaruvchan turadi. Ijtimoiy pedagog, bola bilan to’g’ri tarzda muloqot qilishda, uning kelgusi o’ziga xos vazifalarni bajarishi yoki uzoq muddatli vazifalarni bajarishi mumkinligini hisobga oladi. Ijtimoiy pedagogika metodlari orqali bolani o’z o’ngiga, xulki va his-tuyg’ulariga maqsadga muvofiq ta’sir etish va uni ijtimoiy muhitga ta’sir etish mumkin. Bu metodlar, bolani ijtimoiy o’zgargan, mustahkam qilishda yoki pozitiv ijtimoiy tajribalarni to’plashda yordam beruvchi, ijtimoiy pedagog va bolaning o’zaro munosabatlari bo’yicha metodlardir.

Ijtimoiy pedagogika, pedagogikning yangi sohalaridan biri bo’lib, "ijtimoiy-pedagogik faoliyat"ning yangi shakllanishiga oid bo’lgan metodlar tizimi haqida so’zlash uchun ham zamon keladi. Bu sababli, ijtimoiy pedagog amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishdagi metodlardan keng foydalanadi. Bola shakllanish jarayonida u o’z kasbiy faoliyatini bajargan holda ijtimoiy pedagogikaning ajralib usullaridan ham foydalanishi kerak. Metodlar, usullar va vositalar bir-biriga bog’liqdir.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatda ishontirish va mashqlash metodlari ham keng ko’lamda ishlatiladi. Ular keng ko’lamda qo’llanilishining sababi, ijtimoiy pedagogga mos kelayotgan sabablar bilan munosib axloqning odatlari shakllanmagan yoki noto’g’ri shakllangan bolalarga ko’ngilga solish majburiyati. Shu jamiyatda ommalashtirilgan hayot odatlari, ularning to’g’ri va aniqligi, shaxsning ishonchini va uning hayotidagi o’rnini shakllantiradi. Ular bilim va insonning o’zgina tasavvurlari bilan bog’liqdir.

(cc) BY

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish imkoniyati ijtimoiy pedagogik faoliyatning tashkiliy tuzilishiga bog'liq. Ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayoni maqsad va vazifalarni belgilashdan boshlanadi. Keyinchalik mutaxassislardan bolaning xulq-atvorini shakllantirish, ularni yangi muhitga moslashtirish va boshqa maqsadlarni, faoliyat mazmunini, uni amalga oshirish usullarini va tashkiliy shakllarini belgilash kabi echimlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati uning maqsadlari, natijalari va mazmunini to'g'ri belgilash hamda tegishli usullarni tanlashga bog'liq.

XULOSA

Demak, ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy pedagogik faoliyat uslublari va usullari to'plamini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy pedagogik aralashuvni talab qiladigan har qanday muammoni hal qilish uni aniqlashdan boshlanadi. Identifikatsiya axborotni tahlil qilish, to'plash va tizimlashtirishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. M. Mirziyoyev tanqidiy tahlil, qatiy tartib – intizom va shahsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- Toshkent – O'zbekiston – 2017 yil.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" 1997yil. 29 avgust.

3. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

4. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

5. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

6. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Methodology of development of physical qualities in highly skilled judokers

Jurabek Khajibayev
jurabekkhojibayev@gmail.com
Renaissance University of Education

Abstract: This in the article qualified of judokas physical readiness improvement methodology and his efficiency experimental justification according to conclusions given is the results and belongs to practical recommendations illuminated.

Keywords: physical quality, strength, Special force, repeated voltages, max voltage, special power, explosive strength

INTRODUCTION

On the basis of the reforms implemented in Uzbekistan, the issue of personnel training in physical education and sports is considered as a separate direction. In particular, Decision PQ-4877 of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to improve the system of personnel training in the field of physical education and sports and increase scientific potential" is important in this regard. As stated in the decision, "...in the field of physical education and sports, the main goal is to improve the quality of training qualified personnel with comprehensive knowledge in accordance with international standards, to rapidly develop science in sports, and to further improve the processes of training highly qualified competitive trainers, specialists and scientific staff " [1]is counted.

At present, our judokas are achieving great results in the world sports arenas and winning important victories. Improving the educational training process and increasing attention to the physical training of athletes is important for maintaining the achieved victories and maintaining optimal training in the future.

The development of physical fitness in training sessions with qualified judokas is one of the main places for winning important victories in competitions. The development of five physical qualities based on the development of physical fitness in training sessions creates the basis for showing good results in competitions.

“Strength”, a physical quality, means the athlete’s ability to overcome the opponent’s resistance or resist him due to muscle tension.

[1] Uzbekistan Republic President of November 3 , 2020 " Physical education and sports in the field personnel preparation system improvement and scientific potential increase measures on" PQ-4877 - no The decision .

(cc) BY

It is accepted to distinguish the following types of strength: general and special strength, absolute and relative strength, quick and explosive strength, strength endurance.

General strength is the strength displayed by the athlete, regardless of the specific movements of the judoka. Special strength is shown by the athlete in special movements corresponding to the competition movements. Absolute strength is characterized by the power potential of an athlete, which is manifested in movements of a very large nature. In judo, it is important for getting one-on-ones with power.

Relative strength, that is, the strength corresponding to 1 kg of the athlete's weight, is an indicator of his ability to overcome his personal weight.

Quick strength is reflected in the ability of muscles to quickly perform movements associated with overcoming relatively small external resistance.

Explosive strength describes the ability to exert large stresses in a short period of time relative to their intensity.

Endurance is the athlete's ability to exert muscle tension for a relatively long period of time. The following techniques are used to develop the power capabilities of a judoka: repeated tensions; short-term maximum voltages; ever-increasing heaviness, combined influence styles.

The method of repetitive stresses is that the athlete performs the exercise repeatedly with weights equal to 70-80% of the maximum weight while performing the exercise at high intensity. This method involves performing a series of strength exercises. Each series is 3-4 series in total, the rest interval between series is 3-4 minutes.

Repetitive voltages style one type dynamic tension style is considered He exercises 20-30% by weight from the maximum on the border at speed perform with is described. In this big muscle the strain weight weight at the expense of not but high speed movement at the expense of is achieved.

He is on the border and to the border near was weights with to work mean holds Muscles in training maximum voltages style on trainers and one in approach one or two actions performed using In training, 3-4 approaches are performed in total. The rest interval between approaches should be 3-5 minutes.

As a method of using a striking method of developing the explosive power of the legs, we can say high jump exercises performed with high or long jumps. The exercise is performed by falling to the ground from a height of 70-80 cm with the knees slightly bent, and jumping up quickly and violently. Jumps serially: in 2-3 series, each one 8-10 in series jumps is done with Series rest between the interval is 3-5 minutes . Exercise per week a lot with two times will be done.

Together effect to show style that's it It depends on the judoka strength opportunities development directly specialized exercises perform during happen will

(cc) BY

be One of time in himself judoka strength abilities and technical and tactical actions is developed and will be improved. Judo in judo together effect show from style to use example as so exercises to bring maybe a judoka this in exercises own technical actions heavier weight category rival with improves .

Methods much heavy rival with improvement separately strength opportunities to develop, small weight category rival with while promptness opportunities to develop help will give.

Muscles isometric Voltage style different muscle groups in 4-6 seconds continue which static maximum voltage mean holds Isometric of exercises value is that their volume so much big no, many p time can not be done much easy

References

1. Samandarov, A., & Andriyevskaya, O. Problems of Development of the Activities of Educational Institutions in the Field of Physical Education and Sports.

2. Abduvaliyev, X. (2023). TOOLS AND METHODS FOR DEVELOPING STRENGTH QUALITIES OF YOUNG JUDOGAS. Экономика и социум, (3-1 (106)), 14-17.

3. Soatov Dilshod Makhmaraimovich, Judo in the System of Physical Education and Sports Position in Uzbekistan, Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 04 | 2023

4. Atilov, A.A., Kik-boksing (Lou kik) Tekst.: /A.A. Atilov, Ye.I. Glebov. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2002. - 560 s.

5. Akopyan, A.O. Analiz xarakteristik sorevnovatelnoy deyatelnosti kak faktor postroyeniya trenirovochnogo prosessa v yedinoborstvax / A.O.Akopyan, A.A.Novikov, A.Sh.Romazanov // Problemы modelirovaniya sorevnovatelnoy deyatelnosti: Sb. nauchi, trudov VNIIFK. – M., 1985. – S. 33-36.

6. Alixanov, I.I. Didakticheskiye osnovы sovremennoy sportivnoy borbы: avtoref. diss. v forme doklada na soisk. uchenoy stepeni doktora ped. nauk. – Tbilisi, 1982. – 71 s.

(cc) BY

Қўқон хонлигида мамлакат бошқарув тизимининг маҳаллий бўғинлари ва уларнинг ўзига хос жиҳатлари

Миржалол Ҳайрулло ўғли Рустамалиев
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-2990-5650
mirjalolrustamaliyev@gmail.com
Наманган давлат университети

Аннотация: Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи Ўрта Осиё ҳудудида турли даврларда мавжуд бўлган давлатлар ўзининг ички ва ташқи сиёсатини мураккаб бошқарув тизимига асосланиб амалга оширганлигини кўрсатади. Бу жараёнда марказий бошқарув тизими билан бир қаторда маҳаллий бошқарув тизими ҳам муҳим роль ўйнаган.

Калит сўзлар: беклик, оталиқ, қушбеги, девонбеги, парвоначи, хазиначи, додҳох, “Тарихи Нофеий”, муллалик, муфтийлик, қозилик, мирзалик ва мударрислик

Local links of the country’s management system in the Kokan Khanate and their specific aspects

Rustamaliev Mirjalal oglu Khayrullo
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-2990-5650
mirjalolrustamaliyev@gmail.com
Namangan State University

Abstract: The history of the statehood of the Uzbek people shows that the states that existed in Central Asia at different times implemented their domestic and foreign policy based on a complex management system. Along with the central management system, the local management system also played an important role in this process.

Keywords: beklik, atalik, qushbegi, devanbegi, parvanachi, khazinachi, dodhokh, “History of Nofei”, mullah, mufti, qazi, mirza and mudarris

Хонликнинг маъмурий - ҳудудий бирлиги вилоятлар, ўз навбатида бекликларга бўлинган эди. Хонликдаги маҳаллий бошқарув аппарати вилоятлар марказида жойлашган. Маҳаллий бошқарув тизими ҳам марказий бошқарув тизими сингари ижро органи бўлиб, олий ҳукмдор номидан берилган, мамлакатнинг ички ва ташқи ҳолатини мустаҳкамлашга қаратилган топшириқларни бажararди. Жумладан, у вилоятлардаги аҳолининг турмуш

(cc) BY

тарзини бир маромда ушлаб туриш, уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари устидан назоратни амалга ошириш, ҳарбий кучларни сафарбар этиш, солиқларни тўплаш, давлат билан аҳоли ўртасидаги муносабатларни амалга оширувчи орган сифатида вилоятларда ижтимоий ҳимоя сиёсатини олиб боришга масъул эди.

Шу ўринда маҳаллий бошқарув тепасида ким турган эди, унинг вазифалари нималардан иборат эди ва Қўқон хонлигида маҳаллий бошқарув тизими тепасида турган ҳукмдорларнинг фаолиятига хос хусусиятлар қандай эди каби саволларга жавоб топиш тарих фани олдида турган бир қатор муаммоларни ҳал этиш учун муҳимлигини назарда тутган ҳолда Қўқон хонлигининг маҳаллий бошқарув тизимини мавжуд манбаларга асосланиб тадқиқ этдик. Биринчи навбатда, Қўқон хонлиги маҳаллий бошқарув тизимида биринчи мансабдор шахс, яъни вилоят бошлиғи кимлигини аниқлаб олиш керак. Бу хусусда Қўқон хонлиги тарихига оид тадқиқотларда турлича фикрлар мавжудлигини қайд этиб ўтиш лозим. Жумладан, Т.Бейсембиев хонликдаги вилоятларни ҳокимлар ёки волийлар бошқарган деган фикрни билдириб, «айрим ҳолларда марказий бошқарув тизимида муҳим ўрин тутган амалдорлар - оталиқ, қушбеги, девонбеги, парвоначи, хазиначи ва додҳох мансабидагилар ҳам хонликдаги маъмурий ҳудудий бирлик бўлган вилоятларни бошқариши мумкин эди», - деб ёзади[1].

В.Плоских эса вилоятларни «...хоннинг гумашталари бўлган қушбеги ва ҳокимлар бошқарган», - деб кўрсатади[2]. Олимнинг вилоят ҳокимларини «хоннинг гумаштаси» деб аташи унинг бу масалага шўро мафкураси нуқтаи назаридан ёндашганлигидан далолат беради.

Айрим тадқиқотчилар вилоят ҳукмдорларини ҳокимлар деб атайдилар. Жумладан, А.П.Қаюмов ўз тадқиқотида хонликда «вилоятларни ҳокимлар бошқарар эди», - деб қайд этади[3]. Шундай фикрни Ҳ.Зиёев ҳам таъкидлайди[4].

Баъзи тадқиқотлар таҳлили бу масалага бошқача ёндашувлар ҳам мавжудлигини кўрсатади. Хусусан, Й.Қосимов Қўқон хонлиги тарихига бағишланган тадқиқотида «...беклар ҳоким ва парвоначи деб номланганлар», - деб ёзади[5]. Вилоят бошлиқлари ҳоким деб номланганлигини билса-да, бу тадқиқотчининг шартли равишда уларни «беклар» деб аташи Қўқон хонлиги маъмурий бошқарув тизимини бузиб кўрсатишга олиб келади. Бу каби ҳолат С. Сооданбековнинг тадқиқотида ҳам кузатилади. У «Вилоятларни бек ва ҳокимлар бошқариб, улар баъзан қушбеги деб ҳам аталган» - деб ёзар экан, маҳаллий бошқарув тизимининг бош фигураси - ҳокимлар масаласида чалкашликка йўл қўяди[6].

Хонликдаги маҳаллий бошқарув тизими тепасида турган вилоят бошлиқларининг «ҳоким» (حاكم) деб аталиши хусусида маҳаллий муаррихларнинг XIX асрда ёзилган Қўқон хонлиги тарихига оид асарларида жуда кўп маълумотлар келтирилади. «Ансоб ус - салотин ...» асари муаллифи

(cc) BY

Мирзо Олим Муширифқ Қўқон хони Шералихоннинг ҳукмрон доира вакиллари билан кенгашиб, Марғилон вилоятига янги ҳукмдор тайинлаши ҳақида ёзар экан, қуйидагиларни қайд этади: «Аркони давлат билиттифоқ маслаҳат қилиб, ...Юсуф мингбошини Марғилонга ҳоким қилдилар»[7].

Бундай маълумотни Муҳаммад Юнуснинг асарида ҳам кўриш мумкин. Унда «Маллахон Ўтамбой қушбегини Тошканд ҳукуматидан олиб, Муҳаммад Мусо парвоначини Тошкандга ҳоким қилди» - дейилади[8].

Манбалардаги мавжуд бу каби маълумотлар А.П.Қаюмов ва Ҳ.Зиёевларнинг маҳаллий бошқарув тепасида турган ҳукмдорларнинг «ҳоким» деб аталгани хусусидаги фикрларини тасдиқлайди. Демак, манбалар маълумотларини таққослаш ва уларни тарихий тадқиқотлар маълумотлари билан солиштириш орқали хонликнинг маҳаллий бошқарув тизимидаги энг юқори лавозими ҳоким деб аталган деган қатъий фикрни илгари суриш мумкин.

Бу ўринда вилоят ҳокимларининг қушбеги, девонбеги, парвоначи деб номланиши масаласи ҳам алоҳида изоҳ талаб қилади. Қайд этиб ўтиш лозимки, ушбу мансабдорлар маҳаллий ҳокимиятда мазкур мансабларни эгаллагунларига қадар марказий бошқарув тизимида фаол иштирок этганлар. Улар ўз амаллари доирасида давлатнинг ички ва ташқи сиёсатида муҳим роль ўйнаганлар ва муайян обрў-эътибор қозонганлар. Уларнинг айримларига баъзи сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий сабабларга кўра вилоятлар бошқаруви ишониб топширилган. Кўп ҳолларда улар бирор вилоятга ҳоким этиб тайинланганларидан сўнг ҳам мамлакат марказий бошқарув тизимида илгари эгаллаб турган мансабининг номи билан ҳам аталган. Тарихий манбаларда бу ҳолатни тасдиқловчи маълумотлар кўп учрайди. Шулардан бири ҳақида «Мунтахаб ут - таворих» асарида Қўқон ҳукмдори Умархон Тошкент ҳокими Ражаб девонбегининг илтимосига кўра, унинг ўрнига Лашкар қушбегини ҳоким этиб тайинлагани ҳақида қуйидагилар қайд этилади: «...ваъдасиға вафо айлаб Ражаб девонбегининг ўрниға Лашкар қушбегини Тошкандға ҳоким қилиб, ўзлари солим ва ғоним мутаважжиҳи Ҳўқанд бўлдилар»[9].

Марказий ҳокимиятда бирор бир мансабни эгаллаган амалдорни маҳаллий бошқарув тизимига раҳбар этиб юбориш тажрибаси бошқа Ўрта Осиё хонликларида ҳам қўлланилган. Жумладан, Бухоро амирлигида, Муҳаммад Али Болжувонийнинг «Тарихи Нофеий» асарида қайд этилишича, агарда бирор шаҳар ёки вилоятга ҳоким тайинламоқчи бўлсалар, аввало, тўқсаболардан тайинлаганлар[10].

Вилоят бошлиқларининг «бек» деб аталиши хусусида Сатторхон Абдуғаффоровнинг маълумотлари эътиборга лойиқ. У вилоятларни беклар ва ҳокимлар бошқарган деб эътироф этар экан, уларнинг фарқига тўхталиб, «...иккаласининг ҳам мавқеи тенг, фарқи, бек хон уруғидан, ҳоким эса оддий

(cc) BY

фуқаролардан» бўлган - деб ёзади [11]. Худоёрхоннинг сўнгги ҳукмронлиги даврида Марғилон вилоятида укаси Султон Муродбек, Андижон вилоятида катта ўғли Насриддинбек, Наманганда эса иккинчи ўғли Ўрмонбек ҳоким бўлганлиги ва уларнинг маҳаллий бошқарувда фаол иштирок этганликлари Сатторхон Абдулғаффоровнинг юқоридаги маълумотини тасдиқлайди. Демак, айрим вилоят ҳокимлари хоннинг яқин қариндошларидан бўлганлиги учун «бек» деб аталганлар.

Шу билан бирга хонлик тарихига оид манбаларда вилоят ҳокими этиб ҳукмдорнинг акаси ёки укаси тайинланган бўлса ҳам улар ҳоким деб юритилгани ҳақида ҳам маълумотлар мавжуд[12].

Хонликда кечган сиёсий ва ижтимоий жараёнлар маҳаллий бошқарувда ҳам бир қатор ўзгаришларни юзага келтирди. Хусусан, пойтахтдан анча узоқда жойлашган ва XIX асрнинг дастлабки ўн йиллигида хонлик таркибига қўшиб олинган Тошкент ва жанубий Қозоғистон ҳудудларини бошқариш бирмунча қийинчиликларга олиб келди. Бу эса мазкур ҳудудларни бошқариш тизимига айрим ўзгартиришлар киритишни талаб этди. Шундан келиб чиқиб 1831 йилда Муҳаммад Алихон томонидан янги унвон жорий қилинди. Бу *бекларбеги* (بیکلر بیگی) унвони бўлиб, у фақат Тошкент вилояти ҳокимига берилган. Ушбу мансабдор бир қатор имтиёзларга эга бўлган, жумладан, унга хонликнинг шимолий ҳудудларидаги маъмурий бирликлар устидан назорат қилиш вазифаси топширилган.

Вилоят ҳокимларига маъмурий ҳудудни тўла бошқариш билан бир қаторда, вилоятдаги қўшинни бошқариш ҳам юклатилган эди. Хонликнинг асосий ҳарбий кучлари асосан вилоятларда тўпланган бўлиб, В.Наливкин ва А. Кун ўз асарларида бу қўшинларни бошқарган вилоят ҳокимларини «саркарда» ҳам деб қайд этадилар[13].

Уларнинг бу фикрларини маҳаллий муаррихларнинг маълумотлари ҳам тасдиқлайди. Жумладан, «Ансоб ус - салотин...» асарида шундай маълумот келтирилади. Унга кўра, Худоёрхон биринчи сафар тахтга ўтиргандан сўнг мамлакат сиёсий ҳаётида муҳим ўрин тутган шахслардан бири Мусулмонқули томонидан Нормуҳаммад додҳох ҳарбий аҳамиятга эга бўлган қалъа Кировчига саркарда (سرکردہ) қилиб тайинланади[14].

Вилоят ҳокимлигига ва маҳаллий бошқарув тизимининг нуфузли вазифаларига мансабдорлар хон томонидан махсус давлат ҳужжати бўлган ёрлиқлар асосида тайинланган. Маҳаллий бошқарув кенгаши ҳам вилоят ҳокими ҳузуридаги мансабдорлардан тузилган.

Т.Бейсембиев «Тарихи Шохрухий» асари маълумотларига таяниб, Тошкент вилояти ҳокимининг икки ёрдамчиси бўлганлигини қайд этиб, улар маҳаллий бошқарувнинг муҳим жабҳаларига жавобгар бўлганликларини таъкидлайди[15].

(cc) BY

Унинг кўрсатишича, уларнинг биринчиси фуқаролик ишлари ва солиқ йиғиш билан шуғулланиб, у саркор (ёки мирзабоши), иккинчиси ҳарбий масалалар билан шуғулланиб ботирбоши деб аталган[16]. Бу икки мансаб эгаси маҳаллий бошқарув тизимида муҳим ўрин тутган бўлиб, уларнинг фаолиятисиз вилоятлар маъмуриятини тасаввур қилиб бўлмас эди. Айниқса, вилоятлардаги фуқаролик ишлари ва солиқлар йиғишга мутасадди бўлган саркорлар (سرکار) ҳокимларнинг асосий ёрдамчилари бўлган. Маҳаллий бошқарув тизимида саркорнинг асосий рол ўйнаганлигини Р.Набиев ҳам ўз тадқиқотида таъкидлаб, уларнинг бир вақтнинг ўзида ҳам аграр масалаларни, ҳам савдо - сотиқ муносабатларини, ҳам ҳунармандчилик корхоналарини назорат қилганлигини ва олий ҳукмдорнинг ҳамда вилоят ҳокимларининг хўжалигидаги барча масалаларда ҳам муҳим ўрин тутганлигини қайд этади[17].

Саркорлар зиммасига қишлоқларнинг амин (امین) ва оқсоқоллари (اقساقال) билан биргаликда олий ҳукмдорнинг топшириғига биноан ҳашарларга мардикорларни тўплаш ҳам юклатилган[18].

Айрим вилоятларда саркорнинг ўрнига бу вазифани мирзабоши бажарганлиги тарихий манбаларда ўз аксини топади. Хусусан, «Ансоб ус - салотин...» асарида, 1848 йилда Мусулмонқулининг мингбоши мансабидан бўшатилиб, Чуст вилоятига ҳоким қилингани, у билан бирга Мирзо Абдураҳимнинг мирзабоши этиб тайинлангани қайд этиб ўтилади[19].

Маҳаллий бошқарув тизимида молия ишлари билан ҳам саркор (ёки мирзабоши) шуғулланган. Бу фикрни тарихий асарлар ва архив ҳужжатлари маълумотлари ҳам тасдиқлайди. Жумладан, 1873 - 1874 йилларга оид архив ҳужжатида Марғилон вилоятида молия ишлари, хусусан, кирим - чиқим дафтари Муҳаммад Олим саркор томонидан юритилганлиги қайд этилади[20]. Саркорлар зиммасига, шунингдек, бошқа вазифалар ҳам юклатилган. Тарихий ҳужжатлар саркорларнинг марказий ва маҳаллий бошқарув тизимида унинг мансабдорлари, турли шахсларнинг илтимосларини қондиришга жавобгар шахс бўлганлигини ҳам кўрсатади. Бир сўз билан айтганда, саркорлар уларнинг турли характердаги моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондиришга жавобгар эди. Бу ҳолатни тасдиқловчи маълумотлар «Қўқон хонлари архивида» кўплаб топилади. XIX асрнинг 70 - йилларига оид айрим ҳужжатларда саркорларга бу борада аниқ кўрсатмалар берилгани акс этган. Хусусан, 1873 - 1874 йилларга оид паттада Сайид Шоҳ саркордан Марғилондан келган меҳмонларнинг зиёфати учун ҳўл мева ва ширинликлар сотиб олишга пул, хатми қуръон учун қўй, қориларга бериш учун пул ажратиш ҳақидаги кўрсатма ўз аксини топган. Шу даврга оид бошқа бир ҳужжатда эса, Сайид Шоҳ саркорга Манас сағирининг тўйига тўёна сифатида адрас ва чит бериш ҳақида кўрсатма берилади. Асосан, «хон амлокларининг бошлиғи, хонга тегишли устахоналар, корхоналар ҳамда -

(cc) BY

қурилиш ишларига бошчилик» қилишга мутасадди бўлган саркорнинг марказий бошқарув тизимидаги каби маҳаллий бошқарув тизимида ҳам фаолияти доираси ўзгариб борганлиги хонликдаги мураккаб бошқарув тизимининг XIX аср 50 - 70 йилларига келиб соддалашиб борганлиги, бир амалдор бир неча мансаб эгалари вазифаларини ўз фаолиятида мужассамлаштирганини кўрсатади.

Хонликнинг маҳаллий бошқарув тизимида марказий бошқарув тизимидаги каби турли диний мансаб ва амаллар мавжуд эди. Қўқон хонлари томонидан берилган ёрлиқлардан маълум бўлишича, вилоятларда ҳам марказий бошқарув тизимидаги сингари қозикалон, хожакалон, садр каби бир қатор мансабдорлар фаолият юритишган. Улар ушбу мансабларга олий ҳукмдор томонидан тайинланган. 1825 йилда Муҳаммад Алихон томонидан Ўратепа вилоятига Муҳаммад Солиҳхожанинг хожакалонлик мансабига тайинлангани, Султон Саййидхон томонидан эса 1864 йил Тошкент вилояти қозикалони мансабига Ҳакимхўжа эшон тайинлангани ҳақидаги ҳужжатлар юқоридаги фикримизни тасдиқлайди. Бу маҳаллий бошқарувдаги нуфузли лавозимларга турли амалдорлар фақат хон томонидан тайинланганлигидан далолат беради.

Маҳаллий бошқарувида садр лавозими ҳам мавжуд бўлиб, улар, одатда, «вақф мулкларининг даромадларига ва ҳисоб - китобига жавобгар киши» ҳисобланган. А.Семёновнинг кўрсатишича, Бухорода ҳам садрнинг вазифаси деярли шундай бўлиб, у вақф мулкларидан олинадиган солиқларни назорат қилган. Садрларнинг фаолияти фақат шу билан чегараланиб қолмаган. Улар Шарқ мамлакатлари ижтимоий - сиёсий ва маънавий ҳаётида муҳим ўрин тутган. Хусусан, Муҳаммад Рафи Ансорийнинг ёзишича, Эронда садрлар бутун вақфларни бошқариш билан бирга барча саййидлар, уламолар, мударрислар, қозилар, шайхулисломлар, муаззинлар ва қориларни ўз раҳнамолигига олган. Бу ҳолатдан Ўрта Осиё, жумладан, Қўқон хонлиги ҳам мустасно эмас эди. Садрларга олий ҳукмдорлар ҳам, вилоят ҳокимлари ҳам алоҳида эҳтиром кўрсатганлар. Вилоят марказларида маънавий ҳаётни бир маромда ушлаб туриш ва ҳокимларни ўзбошимчаликлардан сақлаш учун садр лавозими жорий қилинган, дейиш мумкин.

Қўқон маҳаллий бошқарув тизимида ҳам, бошқа Ўрта Осиё хонликларида кузатилгани каби, қозилар (قاضی) муҳим ўрин тутган. Уларнинг зиммасига фуқароларнинг арз ва шикоятлари, талаблари асосида шариат қонунларига асосланган ҳолда судлов ишларини амалга ошириш юклатилган эди. Қўқон хонлигида вилоят ва шаҳар қозилари, Бухоро ва Хива хонликларидан фарқли равишда «хон ёрлиғига биноан» шаҳар ҳокимлари томонидан тайинланар эди. Шаҳар ҳокимлари ҳузурида илмий мунозаралар ташкил этилиб, унда ўзининг диний билимларини кўрсата олган, шариат асосларини билган ўқимишли кишиларга ҳоким «муллалик, муфтийлик, қозилик, мирзалик ва мударрислик

(cc) BY

лавозимларини берган». Бухорода эса қозиларни марказий бошқарув тизимидаги каби маҳаллий бошқарув тизимида ҳам олий ҳукмдор тайинлаган. Кўп ҳолларда қозиларни тайин этишда уларнинг қозилар авлодидан эканлигига ҳам эътибор берилган.

Қозилар, одатда, хазинадан маош олмаганлар. Улар асосан турли қозилик ҳукмларининг тайёрланиши, хусусан, никоҳ ўқиши, ҳар хил ҳужжатларни расмийлаштириши ва бошқалардан келиб тушадиган даромадлар ҳисобига яшаганлар. Уларнинг маош билан таъминланмаганлиги баъзи ҳолларда қозилар орасида салбий ҳолатлар, жумладан, порахўрликнинг келиб чиқишига олиб келган.

Маҳаллий бошқарув тизимида фаолият юритган қозилар бу бошқарув тизимининг тепасида турган ҳокимлар, беклар олдида жавобгар эди. Шу билан бирга маҳаллий ҳукмдорлар ҳам айрим ҳолларда қозилар фикри билан ҳисоблашишлари лозим эди. Бундай ҳолатлардан бирини тасдиқловчи маълумотни сибирлик казаклар Милюшин ва Батарышкинлар қайд этиб ўтади. Унга биноан, Авлиёотада асир этилганидан сўнг Тошкент ҳокимига топширилган казакларни саркор қатл этишни маслаҳат беради. Ҳоким уни қози олдига юбориб, бу ишнинг қонунга зид бўлмаслигини суриштириб келишни буюради.

Қўқон хонлигидаги маҳаллий бошқарув тизимининг таҳлили шуни кўрсатадики, у Бухоро ва Хива хонликларидаги каби кўринишга эга бўлиб, Қўқонда бу тизимнинг ўзига хос хусусиятлари ҳам мавжуд эди. Хонликнинг марказий бошқарув тизимида кузатилгани каби, маҳаллий бошқарув тизимида ҳам турли даврларда чигал тарихий жараёнлар оқибатида, айниқса, XIX асрнинг 50 - 70 йилларида, мураккаб бошқарув аппаратининг соддалашиб борганини, турли мансаб эгалари масъул бўлган вазифаларнинг битта мансабда мужассамлашганини кузатиш мумкин. Шунингдек, Қўқон хонлигининг маҳаллий бошқарув тизими асосан мамлакатнинг бюджетига маблағ тўплаш, яъни солиқ тизими билан банд бўлганлигини кўриш мумкин. Маҳаллий ҳукмдорлар ҳисобланган ҳокимлар кўп ҳолларда ўзи бошқараётган ҳудуд иқтисодиётининг ўсиши, аҳолининг фаровон ҳаёт кечириши борасида бирор бир тадбирни амалга оширишни ўйлаб ҳам кўрмаганлар. Сурункали давом этган хонлик маҳаллий бошқарув тизимидаги бундай ҳолат натижасида аҳолининг норозилиги кучайиб борган. Оқибатда Россия империясининг Қўқон хонлигининг шимолий ҳудудлари бўлган жанубий қозоқ ерларини жадал босиб олишига имкон яратилган.

(cc) BY

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бейсембиев Т. Бейсембиев Т. «Тарихи Шахрухи» - как исторический источник… - С. 70.

2. Плоских В. Киргизы и Кокандское ханство… - С.110.

3. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити… -Б. 30.

4. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш… -Б. 33.

5. Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари… -Б.14.

6. Сооданбеков С. Кўрсатилган асар, -С. 97.

7. Мирзо Олим Муширф. Ансоб ус - салотин ..., -Б. 33.

8. Муҳаммад Юнус Тойиб. Тарихи Алимқули Амирлашкар. №1. -Б. 218.

9. ЎзРФА ШИ қўлёзма, инв. №594. -281а варақ.

10. Болжувоний Муҳаммад Али. Тарихи Нофеий. Т., «Академия» 2001, -Б. 23.

11. Саттархан Абдул-Гафаров. Краткий очерк внутренного состояния Кокандскаго ханства перед завоеванием его русскими // Туркестанские ведомости, 1892, №26.

12. Мирзо Олим Муширф. Ансоб ус - салотин ..., -Б. 80.

13. Кун А. Некоторые сведения о Ферганской долине // Туркестанский сборник. Т.117, -С. 170.

14. Мирзо Олим Муширф. Ансоб ус - салотин ..., -Б. 41.

15. Бейсембиев Т. Высшая администрация юга Казахстана в период Кокандского ханства (1809 - 1865),

16. Ўша жойда,

17. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. Т., 1973. -С. 228 - 231.

18. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства., -С. 236.

19. Мирзо Олим Муширф. Ансоб ус - салотин ..., -Б. 46.

20. ЎзР МДА, Ф - 1045, оп - 1, д - 2393; 2394.

Ijtimoiylashuv - ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida

Xadicha Voxidova
Xolida Qilicheva
Ilmiy rahbar: Sulaymon Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ijtimoiylashuvning maqsadi insonlarni ijtimoiy muhitga moslashish, ularga ijtimoiy qoidalar va normativlarni o'rgatish, o'zaro munosabatlarni rivojlantirish va ijtimoiy o'zgarishlarga o'rgatish hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, tashqi va ichki omillar, mikro, makro, mezo

Socialization as a social pedagogical phenomenon

Khadija Vokhidova
Kholida Kilicheva
Scientific supervisor: Sulaymon Khaidarov
TMC Institute

Abstract: The purpose of socialization is to adapt people to the social environment, to teach them social rules and norms, to develop mutual relations and to teach them about social changes.

Keywords: socialization, external and internal factors, micro, macro, meso

"Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib insonlarga nisbatan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings qo'llagan. "Ijtimoiylashuv nazariyasi" kitobida "Ijtimoiylashuv" haqida hamma ma'lumotlarni ta'kidlab o'tgan va shunday degan: "Ijtimoiylashuv tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan.

Ijtimoiylashuv jarayoni: bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslaShuvi uning hamma narsani egallashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Ammo bu bilan bola boshqa bir ob'ektiv ehtiyojda - o'ziga xosligini namoyon qilish hissi shakllanishni boshlaydi. Bola buni ko'rsata olishi uchun har xil usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi paydo bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual bo'lib faqat shu shaxsga tegishli bo'ladi. Shu tariqa bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba va madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni

(cc) BY

qo’lga kiritishlardir). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv ya’ni (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog’liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. Moslashuv sub’ekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasi hisoblanadi.

Ijtimoiylashuvning 3 ta omili bor. Bular:

Mega omil: (mega-eng katta) - kosmos,planeta,dunyo shuningdek bularga demografik, ijtimoiy siyosiy, ekologik, planetar jarayonlarini ham kiritsa bo’ladi.Ular boshqa omil guruhlari orqali yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta’sir ko’rsatadi.

Makro omil: (makro-katta) - davlat, xalq, jamiyat. Bu omillar muayyan hududda yashovchi aholi ijtimoiylashuvga ta’sir qiladi.

Mezo omil: (mezzo-o’rta) - hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, auditoriya, guruhlarning ijtimoiylashuvi, shart-sharoitlari. Mezo omillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta’sir qiladi. Ijtimoiylashuvga mezo omillar mikroomillar orqali ta’sir qiladi. Mikroomillarga muayyan shaxslarga ta’sir qiluvchi omillar-oila, qo’shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

Biologik omillar. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o‘xshashlik, xususiyatlarning o’tishiga aytiladi. Irsiyat o’tishida, bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miyasi va his-tuyg‘u organlari va qomat tuzilishi, soch, teri rangi o‘tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek, irsiyatda nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o‘tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida mu ayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko‘zda tutadi. Psixologik ma’lumotlarni o’rganib chiqganimizda, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo‘la olmasligini tushunamiz. Bola qobiliyatlarining namoyon bulishi uning hayoti, ta’lim-tarbiyajarayonlariga bog‘liq.

Ota-onadan bolaga o‘tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqa kasalliklar. Bu kasalliklarni ginetika fani o‘rganadi. Biz bilamizki, bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosfera va suv xavzalarining ifloslanishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi va buning natijasida jismoniy nuqsonli tug‘ilayotgan bolalar soni borgan sari ko‘paymoqda. Bunday bolalarning boshqalar bilan muloqotga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og‘ir bo’ladi. SHuning uchun ular uchun o‘qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning rivojlanishida tengdoshlariga yetishishlari uchun yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug‘ullanadilar. Bu bolalar o‘z tengqurlari bilan muloqotga

(cc) BY

kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishidhligi mumkin. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini ma'lum darajada qiyinlashtirishi ham mumkin. Shuning uchun ham bunday bolalarbilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar: Insonning biologik mavjudottan ijtimoiy sub'ektga aylanishi,uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat,ijtimoiy norma,xulq-atvor namunalari orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigam ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayon ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi, chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T.: 2009

2. G'oyibnazarov E. va Matkarimova J.D. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma.–T.: ToshtYMI.

3. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

4. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

5. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

6. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

8. F.B.Ne'matova, Ijtimoiy pedagogika, o'quv qo'llanma, Fan va Ta'lim, Buxoro 2022

9. G.B.Ergashova, Maktabgacha pedagogika, O'quv qo'llanma, Buxoro 2023

10. Kushakova, G. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimiy-hissiy rivojlanishida ijtimoiy omillarning o'rni. Мактабгача таълим журнали, 3(3).

Umum o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini oshirish usullari va metodlari

Dilnoza Turg‘unboyeva
Latifa Bahromova
Ilmiy rahbar: Sulaymon Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Maqolamizning asosiy mazmuni shundan iboratki, Umumiy O‘rta ta’lim maktablari o‘quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini ta’minlash, to‘g‘ri yo‘nalish berish, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, darslardan keyingi bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalantirish, biron natijaga erishish, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan shaxs sifatida shakllantirish, keyingi hayotga qadam qo‘ydirish.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, vatanga sadoqat, jamiyat, harakatchan, tashabbuskorlik, fazilatlar, iroda, matonat, tirishqoqlik, mehnat, samara, faol, ijtimoiy, safarbar etish

Methods and methods of increasing the social activity of female students of general secondary schools

Dilnoza Turgunbayeva
Latifa Bahromova
Scientific supervisor: Sulaymon Khaidarov
TMC Institute

Abstract: The main content of our article is that it is necessary to ensure the social activity of female students of general secondary schools, to give the right direction, to mobilize oneself to study, after classes to make good use of free time, to achieve some result, to form as a person who has found his place in society, to take a step into the next life.

Keywords: student, loyalty to the country, society, active, initiative, virtues, will, tenacity, diligence, work, efficiency, active, social, mobilization

Bugungi zamonaviylashuv jihatidan rivojlanayotgan davlatda hotin-qizlarga ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘quvchi qizlariga globallashuvning tobora yuqorilashayotgan tizimiga ko‘ra tarbiyaga alohida yangicha yondashuvlar olib kirgan holda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda, hunar o‘rgatishda ota-ona, oila a’zolari va mahalla bilan bir qatorda maktablar ham samarali ta’sirini o‘tkazmoqda. Chunonch, ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda keng ko‘lamli chora-tadbirlar olib

(cc) BY

borilib, ko‘zlanga maqsadlarga o‘rinma-o‘rin erishib kelishilmoqda. Jumladan, maktablarda yo‘lga qo‘yilgan to‘garaklar, yutuqli bellashuvlar, ko‘rik-tadbirlar, kreativlikni shakllantiruvchi yig‘ilishlar o‘tkazilib, maktab reytingini ko‘tarib bermoqda. Bu kabi foydali ishlar ham maktab reytingi uchun, ham o‘quvchi qizlarining keyingi hayoti uchun juda katta hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari Respublikamizda qizlarni sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirish, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish dolzarb mavzuga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu sababdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son qaroriga ko‘ra, «Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasi» qabul qilindi. «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi»da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, xotin-qizlarda jamoatchilik, siyosat, huquq-tartibot, ishlab chiqarish, ta’lim, sanoat, tadbirkorlik, boshqaruv sohalarida o‘ziga ishonchni hamda faollikni oshirishni oldilariga maqsad qilib olishadi. Shundan kelib chiqib, har bir millatning kelajagini ta’minlashda qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, to‘g‘ri yo‘nalish bera olish, foydali shaxs qilib ta’minlashni ustivor vazifa sifatida olish mumkin. Ularga yoshlariga mos faoliyat turlarlarini tanlab berish har bir pedagogning burchi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlarida «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi»ning gender pedagogik imkoniyatlari hamda qizlar tarbiyasining milliy-pedagogik negizlari ochib berilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: «Ma’lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu maqsadda biz «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi» doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta «Tarbiya» fanini joriy etmoqdamiz», deya ta’kidladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyati orqali vazifalarni amalaga oshirishda tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e’tiborga olgan holda o‘rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish uchun albatta ularni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq. Rag‘batlantirishni 2 asosiy turi bor. Bular:

1) Moddiy
2) Ma’naviy

(cc) BY

Moddiy rag‘banlantirishga faollikka erishgan o‘quvchi qizlarga qimmatbaho sovg‘alar, pul mukofotlari va hakoza hisoblanadi. Ma’naviy rag‘batlantirishga diplom, faxriy yorliqlar, tashakkurnoma va boshqalar. Hozirga kunda ma’naviy mukofotlarning turlari va imtiyozlari ko‘paygan. Bunga misol qilib, “Zulfiyaxonim” nomidagi davlat mukofoti, “To‘maris qizlari” sport mukofoti va olimpiadalardagi mukofotlarni olsag bo‘ladi.

Ya’ngilalanayotgan O‘zbekistonda yoshlar, ayniqsa xotin-qizlarning o‘rni beqiyos. Yangi avlodni yetishtirib, tarbiyalash ayollar zimmasida, shunday ekan maktab yoshidagi qizlarga alohida e’tibor zarur. Jumladan, ularning sog‘liqlari, yashash tarzi, qiziqishlari, kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun muhim omillar hisoblanadi. Hozirda davlat boshqaruv organlarida, tibbiyotda, yuridik sohada, tadbirkorlikda peshqadam bo‘lib kelayotgan xotin-qizlarni uchratish mumkun. Yurtimizda akademik, proffessor, fan doktorli bo‘lgan ayollar ko‘p. Maktab o‘quvchi qizlariga ular bilan uchrashuv, yaqindan suhbatlar tashkil qilish qizlarni ijtimoiy faolligini yanada oshiradi. Ularda intiluvchanlikni shakllantiradi. O‘quvchi qizlar bizning faxrimiz, yurtimiz kelajagi!

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti- shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.

2. Xabibullayevna, Y. D. (2022). O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan islohatlarning muhim ahamiyati’. Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot» jurnali.

3. «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi». -T.: 2019.-B. 12.

4. Bakiyeva M.K. O‘quvchi qizlarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishda oilaning ta’siri // «O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim» mavzusidagi Respublika ilmiy konferentsiya materiallari. Qo‘qon, 2020.

5. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

6. Khaydarov S, A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

7. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.

8. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

9. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

(cc) BY

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining kasbga yo‘naltirish

Munisa Abdurasulova
Mubina Anvarova
Nozima Sharofiddinova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistoning maktablari va o‘qitish jarayoni haqida kiritilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, fundamental, professionalizm, an’anaviy, zamonaviy

Vocational guidance of students of general education schools

Munisa Abdurasulova
Mubina Anvarova
Nozima Sharofiddinova
Scientific supervisor: S. Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article is about the schools of Uzbekistan and the teaching process.

Keywords: profession, fundamental, professionalism, traditional, modern

Umumta’lim maktablarini o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish deganda ko‘z oldimizga kelajagi bor inson, o‘z kelajagi uchun tirmashib kechayu kunduz hunar o‘rganib charchamaydigan insonlar ko‘z oldimizdan o‘tadilar hozirgi yosh avlodlarimizni ongli va mustaqil bo‘lib ular o‘zlarini qiziqishlari orqali kasbga yo‘naltirilishlarini kasbiy faoliyatligini shakillantirishlari nazarda tutilmoqda. Har xil kasb hunar yo‘nalishlaridan maqsad nimada deb savol bershingiz mumkun. Hozirgi kunga kelib yurtimizda juda ko‘plab har xil kasb hunar kollejlari Oliy ta’lim muassasalari kundan kunga tobora ortib bormoqda. Bizni yosh avlod farzandlarimiz ham o‘zligi qiziqan kasb hunar oliygohlarini tanlab tahsil olishyapti. Xattoki Prezidentimiz Shavkat Miromonvich Mirziyoyev kasb hunar haqida shunday deganlar o‘qigan,izlagan, kasb egallagan odam qadrli deb etib o‘tkanlar. Shu so‘ngi yillardan barcha o‘qituvchilarga ta’limga ham e’tibor oshdi. Oliy ta’limda qabul soni ham oshdi. Lekn maktablarda hali ham o‘quv sifati yaxshi emas, bolalar rus tilini, ingliz tilini yaxshi mukammal bilishmayapti. Shuning uchun davlatimz chet tillarini

(cc) BY

sifatini oshirish uchun juda katta harakatlar qilib kelishmoqda. Chet tilini sifatli o‘rgatish uchun maktablarga. Oliy malakali o‘quvchilar kasbga yo‘naltirishdan asosiy maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlash, shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy subyekt sifatida shakllantirish,hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashadi. Kasb-hunarga yoshlarni yo‘naltirishdan asosiy maqsad ongli ravishda kasbni tanlashga tayyorlash. Yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali,kasbiy qarorlarni shakllantrish,kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun mustahkam zamin yaratuvchi, ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Malumki umumtalim maktablarida kasb-hunarga yoshlarni yo‘naltrishning turli nazariy izoxlarni asosiy ikkita eng muhim tushunchalarni ko‘rsatish mumkun:

1) An’anaviy (diagnostic) kasb-hunarga yoshlarni yo‘naltirish nazariyasini asosiy vazifasi,shaxsda kasbiy moyillikni psixologik xususiyatlar va shaxsiy extiyojlarini solishtirish yo‘li orqali aniqlash. Bunda asosiy mas’uliyat kasbiy konsultantga yuklanadi. U test o‘tkazish yo‘li bilan va ulardan olingan natija asosida shaxsni u yoki bu kasb-hunarga moyilligini aniqlaydi.

2) Zamonaviy (rivojlantiruvchi) kasb-hunarga yo‘naltrish konsepsiyasi shaxs kelajagni aniqlashda ishtrok etadi. Asosiy e’tibor shaxsning turli xil sohalarni egallashiga, rivojlanshga qaratilgan. Kasb hunar tanlashga tayyorgarlik shaxsga jamiyat ta’sir etuvchi tarbiyavi tizim asosda ko‘rladi.

Bu xolda shaxs,ta’lim oluvchi passiv ro‘lini o‘ynaydi. Hozirgi kunda mutaxassis tayyorlash ,hayotmizda bolayotkan ta’lim va bilim berish jamiyatimizda bolayotkan islohot, yaqindan bog‘liqlik yo‘qligi yangilanish jarayoni talabalari bilan har tomonlama sezilmoqda. ochiqchasiga tan olish kerak maktablarmizda moddiy taraflama juda nochor axvolda bu masalada qishloq maktablarini yoritsak mubolag‘a bolmaydi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olsak ham bo‘ladi. Ikkinchi masala esa o‘qituvchiga taqalyapti o‘qituvchilarning malakasini oshirish zamonaviy bilim berish ularni malumotini oshirish lozim bu dolzarb muammolardan biri. O‘z fikrimni aytsam ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo mana shunda. O‘qituvchilarimiz o‘quvchilarimizga zamonaviy bilim berishlari lozim deb bilamiz. Zamonaviy bilim berishdan avval buning uchun murabbiylarimizni zamonaviy ta’limga o‘qishlariga malaka o‘shirishlariga maktab tomonidan qo‘llab quvatlashimiz kerak. Ha to‘gri bu masalani birdaniga yechish mushkul, lekin bu masalani yechmasdan turib biz kelajak avlodni quraolmaymiz. Misol qilib aytkanda umummta’lim maktablarida o‘qitilayotkan fanlar 20 ta bo‘lishi mumkin. lekin afsus fanlarning orasida axloq va odob, ijtimoiy, iqtisodiy bilimlar o‘rgatadigan fanlar yetarli emas. Mavjud fanlar eski holda saqlanib qolmoqda. Bu bilan mustaqillik va bozor sharoitida davlat milliy ehtiyojlarini qo‘ndirishga tosqinlik qilmoqda. E’tibor bersangiz pedagogika tajribasida (bitiruvchi) degan ibora bor va bunga izox berish

(cc) BY

shart emas. Shuni aytmoqchimanki bolani bilimiga emas maktabni bitirishi muxim bo‘lib qoldi bitiruvchi degan maqomi bor bo‘lsa bas.Talim haqida gap ochar ekanmiz buning islohotini mazmuni lo‘nda qilib ifoda etish mumkin Bizga bitiruvchilar kerak emas, bizga oliy malumotli bilimli kadirlar muxum. Shu joyda bir fikrimni aytsam qaysi sinfdan boshlab bolaga mustaqil fikirlay olishini o‘rgatiladi? Aminmanki o‘rgatilmaydi. Mobodo biror o‘quvchi o‘qituvchiga e’tiroz bildirsa u hech kim havas qilmaydigan o‘qituvchiga aylanadi. Maktabdagi jarayonga oqituvchi hukmron. Kasb bu jamiyat uchun kerak bo‘lgan, ijtimoiy mehnat qilgan insondan jismoniy, aqliy, ma’naviy kuch talab va sarflagan kuch evaziga insonga rivojlanish imkonini beruvchi faoliyatdir. Masalan o‘qituvchi,shifokor, stomatolog, pediatir, psixolog, quruvchi, injener, dizayner va hokazolar. Bundan tashqari lavozim , mansab, ilmiy unvon, degan narsalarga toxtalib o‘tish mumkin. Lavozim bu mehnat jarayonini kasb va mutaxassislik unga rahbarlik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat turidir. Bunga maktab derekto‘ri, zavod derekto‘ri va hokazolar kiradi. Kasb klasifikatsiyasini o‘quvchilarga tushuntirishdan avval uni kengroq tushuniz lozim. Klassifikatsiya - bu narsa va hodisalarning anglangan tartibi, o‘quvchilar xar hil klasifikatsiyalar bilan botanika, zoologiya, ona tili va yana boshqa fanlar bilan tanishib qulayliklarini o‘rganishlari lozim. Kasb hunarga yo‘naltirishning asil maqsadi o‘ziga xos usullar yordamida mutaxasisning mehnat bozorida raqobatdoshligini kuchaytirish axolini samarali bandligini oshirishdir. Kasib hunar ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratiladi. -mehnat imkoniyatlari oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiyot salohiyatini mustaxkamlash. -shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash. Maktabdagi olib boriladigan o‘quv faoliyati mantiqan tog‘ri fikrlash, taffakurini mustaqil bo‘lishini , chuqur mulohaza qilishni, va aqliy ozini tanqidiy munosabatda bo‘lishini rivojlantirib beradi. Shuni aytamanki kasib tanlash bu inson hayotidagi eng muhim narsadir. Hayota hursan bolishi uchun atrof muhit atrofingizdagi kasbdoshlaringizham katta hayot yo‘lida eng muhimidir. Kasb tanlashdaxam extiyotkorlik kerak ayrim insonlar o‘z orzusidan vos kechib hozirgi kunda yaxshi daromat olib keladigan kasb tanlashyapti. Men kelajakda shu soxaning mutaxassisi bo‘la olamanmi bunga mening iqtidorim yetadimi yoki yurtimizga foydam tegadigan kasb egallay olamanmi degan tushuncha yo‘q bo‘lib ketyapti. Bu tushunchani bola ongiga singdirish uchun maktabdan, bola yoshligidan shu narsaga o‘rgatishimiz lozim.

Hozirgi kunda ta’lim tarbiya nafaqat vatanimiz yoshlari hayotida har bir kishi faoliyatida, umuman jamiyatimiz taraqiyoti ijtimoiy tizimda o‘ta ahamiyatga ega. Ta’lim tarbiyasiz kelajakda o‘z samaralarini beruvchi isloxotlar yo‘q. Axloq va madaniyat yuksaltiruvchi vosita bu ta’lim tarbiyadir. Ijtimoiy hayotni takomillashtirish uchun inson ozi axloqiy jihatdan ideal bo‘lishi lozim, inson butun hayoti davomida tarbiyalanadi. 5-6 sinflar ongiga biror bir kasb mukammal egallagan

(cc) BY

kishilargina namuna qilib ko‘rsatshimiz mumkin nafaqat 5-6 sinf yuqori sinfdagi o‘quvchilar uchun har bir vatanimizga foydasi tegadigan insonlarni aytib ularga praktika asosida shu narsani yoritib qiziqishligini oshirish mumkin. Xulosa shundaki har bitta o‘quvchilarning kasb-hunarga qiziqishini o‘rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish lozim deb bilaman, malaka va ko‘nikmalarini o‘rganish ham kerak. Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o‘qtuvchining pedagogik faoliyati bilanxam bog‘liq. Kasb tanlash judayam jiddiy va mas’uliyatli ishdir. Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining, psixologning mahorati, bilim saviyasi, didaktik qobiliyatlari yuksak bo‘lishi fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va qo‘shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar tog‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘qilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko‘rgazmalari tashkil qilishlari zarur deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo`jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: Nizomiy, 2003.

2. Magzumov P.T., Antonov A.F. va boshqalar. "O‘quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash". - T.: «O‘qituvchi», 1991.132-bet.

3. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.

4. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

5. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652

6. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.

7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

Huquqiy tizim tushunchasi va uni shakllantirish asoslari, romano-german hamda anglo-sakson huquqiy tizimlaridagi farqlar

Xurshidbek Baxrom o‘g‘li Abduazimov
xurshidbekabduazimov@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy tizim tushunchasi va uni shakllantirish asoslari haqida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari ramano-german va anglo-sakson huquqiy tizimlaridagi farqlar haqida o‘rganilgan. Huquq oilalarining o‘ziga hos jihatlari, afzalliklari va kamchiliklari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy tizim, ramano-german, anglo-sakson, huquqiy oila, huquq normasi, huquq instituti, huquq sohasi, huquqiy pretsedent

The concept of the legal system and the basis of its formation, the differences between the Romano-Germanic and Anglo-Saxon legal systems

Khurshidbek Bakhrom oglu Abduazimov
khurshidbekabduazimov@gmail.com
Tashkent State Law University

Abstract: In this article, the concept of the legal system and the basics of its formation. In addition Ramano-german and anglo-Saxon have been studied about differences in legal systems. The legal families themselves are described in its own way, advantages and disadvantages.

Keywords: legal system, ramano-german, anglo-saxon, legal family, norm of law, institute of law, field of law, legal precedent

«Huquqiy tizim» tushunchasi yuridik fanga XX asrning oxirgi choragida kirib kelgan bo‘lib, u bugun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tizimlar bilan bir qatorda namoyon bo‘lmoqda. Huquqiy tizim huquqqa oid tushunchalar, huquqiy institutlar, huquqiy jarayonlar va boshqa barcha huquqiy voqelikni o‘zida mujassamlashtirgan holda ular o‘rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Huquqiy tizim, o‘z navbatida, davlat va jamiyatning huquqqa munosabatini aks ettiradi. Yuqori darajada rivojlangan huquqiy tizim nafaqat huquqni ijod qiluvchi, uni amalga oshiruvchi hamda muhofaza qiluvchi

(cc) BY

organlar faoliyatida qulayliklar yaratadi, balki butun jamiyatni huquq talablari doirasida hayot kechirishini ta’minlaydi.

Boshqacha aytganda, muayyan mamlakatning huquqiy tizimi ushbu davlatning hududida amal qiladigan va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqdir. Bugungi kunda siyosiy xaritada 200 dan ortiq davlat mavjudligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, demak, shuncha huquqiy tizim shakllangan. “Huquqiy tizim” atamasi quyidagi uch ma’noda qo‘llaniladi:

1. ijtimoiy-iqtisodiy ma’noda (bunda u umuman “huquqning ijtimoiy-iqtisodiy turi” tushunchasiga to‘g‘ri keladi);

2. biror mamlakatning huquqiy tizimi ma’nosida;

3. turli mamlakatlar huquqiy tizimlarining birligi ma’nosida.

Huquqiy tizimlarning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: roman-german (kontinental) huquq oilasi; umumiy (anglo-sakson) huquq oilasi; Skandinaviya mamlakatlarining huquqiy tizimlari; Lotin Amerikasi mamlakatlarining huquqiy tizimlari; Uzoq Sharq mamlakatlarining huquqiy tizimlari; diniy-an’anaviy huquq oilasi; sosialistik huquq oilasi; aralash huquqiy tizimlar[1].

Huquq tizimi - huquqning ichki tuzilishi, ichki qurilishi tarkibi bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va qismlar o‘rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko‘rsatadi. Yoki, huquq tizimi - ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning ichki tuzilishi bilan bog‘langan, huquqiy normalarni izchil tarzda joylashtirilishining ifodasidir. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, huquq tizimi huquqning ichki strukturaviy tuzilishidir. Uning tarkibiga: huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalari (tarmoqlari) kiradi. Demak, huquq tizimi - huquqning ichki tuzilishi, uning tarkibiy qismlarini tashkil etilishi va joylashishining muayyan tartibini ifodalaydi. Huquqiy tizim esa, mamlakat hududi doirasida amal qiladigan barcha yuridik vositalar, institutlar va muassasalarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, jamiyatning huquqiy tuzilishi, uning butun huquqiy hayoti va huquqiy jihatdan tashkil etilishini ifodalaydi. Huquqiy tizim nafaqat huquq normalarining o‘zi, balki ularniharakatga keltiruvchi, o‘zaro bog‘liq huquqiy hodisalar yoki vositalar hamda ularning bir butun harakatdagi ko‘rinishidir. Huquqiy tizim tarkibiga huquq normalari bilan bir qatorda, huquq ijodkorligi, huquqni qo‘llash, huquqiy amaliyot, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy mafkura, huquqiy siyosat, huquqiy tamoyillar, yuridik muassasalar va boshqalar kiradi. Huquqiy tizim, asosan, muayyan mamlakat va davlat miqyosida amal qiladi. Chunki, davlatlarda hokimiyatni amalga oshirish usuli, davlat organlarining tashkil etilishi va shu kabi davlatning asosiy siyosiy xususiyatlariga qarab, uning qonunchiligi, huquqiy asoslari yaratiladi. Huquq oilasi «huquq tizimi» va «huquqiy tizim»ga nisbatan keng ma’noli tushuncha bo‘lib, ularni

[1] Sh.A.Saydullayev Davlat va Huquq Nazariyasi darslik T – 2018 B-147

(cc) BY

o‘z tarkibiga qamrab oladi. Huquq oilasi ko‘p yuridik adabiyotlarda huquqiy tizim tushunchasi bilan aynanlashtiriladi.[2]

Huquq tizimining quyidagi tarkibiy qismlari mavjud:

1. huquq normasi;
2. huquq instituti;
3. huquq sohasi.

Huquq institutlari - bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalariguruhidir. Masalan, fuqarolik huquqi sohasida - mulk huquqi instituti, jinoyat huquqi sohasida - davlatga qarshi jinoyatlar instituti kabilar amal qiladi.

Huquq sohasi - bu ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi huquq normalari va huquq institutlarining yig‘indisidir. Masalan, moliyaviy munosabatlar moliya huquq sohasi bilan, mehnat munosabatlari mehnat huquqi sohasi bilan, yer bilan bog‘liq munosabatlar yer huquqi sohasi bilan tartibga solinadi va hokazo.

Huquq normasi - davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma’qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan, ijtimoiy munosabatni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvorqoidasi. Huquq normasi - huquq tizimining eng asosiy, dastlabki tarkibiy qismi bo‘lib, davlat joriy etgan, bajarilishi jamiyatning barcha a’zolari uchun majburiy bo‘lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yurish-turish qoidasidir.

Huquqiy tizim tushunchasini tahlil etishda, mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlarining fikrlariga e’tibor qaratish lozim. Ushbu tushuncha huquqshunoslar tomonidan turlicha talqin etiladi. Ba’zi mualliflar «huquqiy tizim»ni «huquq tizimi»iborasi bilan bir xil deb tushunadilar, boshqa olimlar esa, mazkur tushuncha doirasida huquqiy normalar va huquqiy munosabatlarning o‘zaro daxldorligini nazarda tutadi. Uchinchi guruh mutaxassislar «huquqiy tizim tushunchasi normativ tuzilma sifatida huquqning tuzilishini, vakolatli organlarning huquq ijodkorlik va huquqni qo‘llash sohasidagi faoliyatlarini qamrab oladi», deb ta’kidlaydilar[3]. Akademik V.S.Nersesyansning fikricha, huquqiy tizimni ta’riflash, o‘z mohiyatiga ko‘ra, huquqni umumiy tushunishni, shartli ravishda «huquqiy tizim» so‘zi bilanalmashtirilishini bildiradi[4]. «Huquqiy tizim» tushunchasini talqin etish orqali huquqning ochilmagan yangi qirralarini bilib olish va shu bilan bir qatorda huquq to‘g‘risidagi tasavvurlarni rivojlantirish mumkin. «Huquqiy tizim» bilan «huquq tizimi»ni qiyoslab ko‘raylik. To‘g‘ri, huquq tizimi o‘z tarkibiga huquq sohalari, huquq institutlari, huquq normalarini qamrab olgani holda, huquqiy tizimning

[2] Давид Р. Основные правовые системы современности 1996
[3] Алексеев С.С. Обшая теория права 1981.с. 87-88
[4] Проблеми общей теории права и государства В.С. Нерсесянс 2000. с.450

(cc) BY

normativ o‘zagini tashkil etadi. Lekin faqat huquqiy normalarning o‘zi huquqiy tizimning to‘la hajmini ifodalay olmaydi. Huquqiy tizim huquq normalaridan iborat bo‘lgan obyektiv huquqdan farq qilib, nafaqat bir turdagi elementlarni, balki turli yo‘nalish va harakatda bo‘lgan huquqiy tuzilmalarni, g‘oyalarni, prinsiplarni, jarayonlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Huquqiy tizimga harakatdagi hodisa sifatida qarash lozim. Huquqiy tizim - keng qamrovli tushuncha bo‘lib, muayyan makonda va zamonda amal qilayotgan huquqiy hodisalar, huquqiy prinsiplar, institutlar, huquq normalari hamda huquqiy jarayonlarning mushtarak bir butunligi, o‘zaro uzviy bog‘liqligi va aloqadorligidir. Prof. M.N.Marchenkoning fikricha, huquqiy tizim deganda, biror-bir mamlakat doirasida amal qiluvchi barcha yuridik institutlar va muassasalarning yig‘indisidan iborat mamlakatning butun huquqiy tuzilmasi, jamiyatning yagona vujud sifatida huquqiy jihatdan tashkil etilganligi tushuniladi. Bu nafaqat huquqiy normalar, shu bilan birga, huquqiy mafkura, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy amaliyot va hokazolarni qamrab oladi[5].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, huquq oilasi deganda bir huquq chegarasida tarixiy shakllanishning o‘xshashligi asosida birlashgan milliy huquq tizimlarining keng majmui, huquq manbalari tuzilishi, yetakchi huquq sohalari va huquq institutlari, huquqni qo‘llash, yuridik fanning umumiy jihatlari tushuniladi.

“Huquq oilasi” kategoriyasi yuridik belgilari o‘xshash bo‘lgan huquqiy tizimlar guruhini ifodalashga xizmat qiladi. Bu tushuncha o‘zaro o‘xshash belgilarga ega bo‘lgan huquq tizimlarining nisbiy birligini anglatish uchun xizmat qiladi va huquqiy tizimlarning muayyan tarixiy rivojlanish xususiyatlarini, ya’ni tuzilishi, huquq manbalari, yetakchi huquq sohalari va instituslari, huquqiy madaniyati, an’anasi kabilarni aks ettiradi”[6].

Romano-german huquq oilasida inson huquqlari anglo-sakson huquq oilasidagi kabi kafolatlanmaganligi ta’kidlangan. Huquq oilalarining o‘zaro farqli jihatlari haqida turli huquqshunos olimlar o‘z fikrlarini bayon qilishgan. “Romano-german huquq oilasiga mansub barcha mamlakatlarda normalarning oliy yuridik nufuzi e’tirof etilgan yozma konstitutsiyalar mavjud. Konstitutsiya huquqning xilma-xil manbalarini tabaqalashtirgan holda davlat organlarining huquq ijodkorligi faoliyatini cheklab turadi”[7]. Ushbu fikrdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Romano-german huquq oilasidagi mamlakatlarda normalar oliy qonun chiqaruvchi organ tomonidan chiqariladi hamda qoidalar aniq belgilab qo‘yiladi. Ammo, ushbu mamlakatlarda sud pretsedenti uncha yuqori ahamiyat kasb etmaydi. romano-german huquqiy oilasida normativ-huquqiy hujjatlar asosiy o‘rin egallaydi. “Anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi davlatlarda sudyalar tomonidan shakllantirilgan va sud pretsedentlarida

[5] Марченко М.Н. теория права и государства 2001. С. 131
[6] Odilqoriyev.X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent Adolat.2018.
[7] Islomov.Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 2007.

(cc) BY

ifodalangan normalar huquqning asosiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Huquqiy pretsedent shakli sifatida sud yoki ma’muriy organlar yangi huquqiy normalar yaratish huquqiga ega bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda huquq o‘zining murakkabligi va chalkashligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, bunda mansabdor shaxs tomonidan suiiste’mollik qilish ehtimoli bor”[8]. Yuqoridagi fikrdan bilishimiz mumkinki, huquqiy pretsedentni o‘zi yuritayotgan ishda qo‘llashi ko‘plab suiiste’molliklarga olib kelishi mumkin.

Romano-german huquq oilasida anglo-sakson huquq oilasidan ko‘ra inson huquqlari ko‘proq va yaxshiroq ta’minlangan va kafolatlangan. Negaki, ushbu huquq oilasiga kiruvchi mamlakatlarda ko‘plab qonun hujjatlari normativ-huquqiy hujjatlarda ifodalangan va ularni vaziyatga va shaxsga qarab o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, romano-german huquq oilasidagi barcha mamlakatlar uchun kodekslashtirilgan qonun xosdir. Anglo-sakson huquq oilasida esa qonunlarning yaxlit bir tizimi mavjud emas va hattoki Konstitutsiya ham yozma shaklda mavjud emas. Bu esa qonunchilikda anglashilmovchiliklar va korrupsiya holatlariga olib kelishi mumkin. Anglo-sakson huquq oilasida yuridik pretsedent asosiy huquq manbasi vazifasini o‘taydi. Bunda yuridik pretsedent ma’muriy yoki sud organining yozma yoki og‘zaki qarori bo‘lib, kelajakda xuddi shunday ishlarni ko‘rib chiqishda namuna bo‘lib xizmat qiladi.Romano-german huquq oilasida esa sud pretsedenti qonunchilik tizimida asosiy ahamiyat kasb etmaydi. Sud pretsedentining salbiy jihatlaridan biri sifatida sudyalarning norma ijodkori sifatidagi faoliyatini ko‘rsatishimiz mumkin. Bunda sudyalarning chiqargan qarorlari pretsedent sifatida boshqa quyi turuvchi sudyalar uchun manba bo‘lishi mumkin, ammo sudya hech bir qonunga asoslanmasdan qaror chiqarishiga to‘g‘ri keladi.

Har bir huquq oilasi albatta o‘zining maxsus xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi va shu sababdan turlarga ajratilgan. “Romano-german hamda anglo-sakson huquq oilalari o‘rtasida bir qancha farqlar mavjud.

Ushbu farqlar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1) Romano-german huquq oilasida huquq yaxlit tarzda ifodalanadi, anglo-sakson huquq oilasida esa turli xil hujjatlarda joylashgan bo‘ladi;

2) Romano-german huquq oilasida huquq ommaviy va xususiy huquqqa bo‘linadi, anglo-sakson huquq oilasida esa bo‘linmaydi;

3) Anglo-sakson huquq oilasidagi davlatlarda sud pretsedenti asosiy huquq manbasi sifatida maydonga chiqadi, romano-german huquq oilasida esa u unchalik katta ahamiyat kasb etmaydi;

4) Romao-german huquq oilasida huquq asoslarining yagona iyerarxik tizimi mavjud, anglo-sakson huquq oilasida esa bunday tizim mavjud emas;

[8] X.T.Odiqoriyev.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.-Toshkent.Adolat-2018. 403-bet.

(cc) BY

5) Anglo-sakson huquq oilasida protsessual qoidalar moddiy normalardan ustun turadi, agarda moddiy norma mavjud bo‘lmasa, sud uni yaratishga haqli, romano-german oilasida esa moddiy va protsessual qoidalar aniq va ravshan belgilab qo‘yilgan;

6) Romano-german huquq oilasida qonunchilik kodifikatsiyalashtiriladi, anglo-sakson oilasida bunday tizim mavjud emas;

7) Anglo-sakson huquq oilasida sud hokimiyati boshqa hokimiyat tarmoqlariga nisbatan katta avtonomiyaga ega;

8) Romano-german huquq oilasida odat normalari katta ahamiyatga ega;

9) Romano-german huquq oilasida qounchilikda eng katta yetakchi rol yuqori huquqiy vakolatga ega bo‘lgan Konstitutsiyaga tegishli;

10) Anglo-sakson huquq oilasi mazmuni “Sud himoyasi vositasi huquqdan muhimroq” degan tushunchada o‘z ifodasini topadi, ya’ni huquqdan kop’ra sudning himoyasi ko‘proq rol o‘ynaydi”.

Ushbu huquq oilalari bir-birlaridan huquq manbalari, huquqning ifodalanish shakllari, huquqning sohalarga ajratilishi, huquqiy asoslarning iyerarxik tizimi, huquq tiziminig kazuistik xarakterga egaligi, qounuchilikning kodifikatsiyalashtirilishi, sud hokimiyatining mamlakat hayotida tutgan o‘rni va boshqa ko‘plab xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi hamda ushbu xususiyatlarning har biri huquq oilasida o‘ziga xos ahamiyatga ega, ushbu xususiyatlarsiz huquq oilasi mavjud bo‘lmaydi yoki boshqa huquq oilasidan farqlanmaydi. Romano-german oilasining anglo-sakson oilasidan farqlab turgan asosiy jihatlardan biri bu sud hokimiyatining ahamiyati va sud pretsedentining yuqori mavqe egallashidir. Anglo-sakson oilasidagi mamlakatlarda sud ishlari qonunchilik hujjatlariga ko‘ra emas, sud pretsedentlariga binoan olib boriladi. Ushbu huquq oilalari o‘rtasidagi asosiy farqlardan yana biri huquqning ommaviy va xususiy huquqqa bo‘linishidir. Bunda huquq ijtimoiy munosabatlarning qanday turini tartibga solishiga qarab bu bo‘linish amalga oshirilgan. Ya’ni, ommaviy huquq ommaviy ijtimoiy munosabatlarni, xususiy huquq esa shaxslarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham, huquqning ommaviy va xususiy huquqqa ajratilishi xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.kidsplaneta.ru

2. Odilqoriyev.X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent Adolat.2018.

3. Islomov.Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. 2007.

4. X.T.Odiqoriyev.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.-Toshkent.Adolat-2018. 403-bet

5. Алексеев С.С. Обшая теория права 1981.с. 87-88

6. Проблеми общей теории права и государства В.С.Нерсесянс 2000. с.450

7. Марченко М.Н. теория права и государства 2001. С. 131
8. Давид Р. Основные правовые системы современности 1996
9. Sh.A.Saydullayev Davlat va Huquq Nazariyasi darslik T - 2018 B-147

(cc) BY

Zamonaviy kasblarga qiziqishni orttirishning yangi usul va metodlari

Gulnoza Sultanbayevna Xudayberganova
Urganch tuman 6-maktab
Gulyor Axmedovna Xodjayeva
Madina Abdurasulovna Madaminova
Urganch tumani 14-maktab
Shoira Davlatmuratovna Karimova
Urganch tumani 24-maktab
Zuhra Yo'ldosh qizi Matyoqubova
Urganch tumani 47-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy kasblarga qiziqishni oshirishga qaratilgan innovatsion usullar va usullar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lim, yoshlar, kasblar, usullar, texnologiyalar, qiziqish, o'yinlashtirish, amaliy mashg'ulotlar, murabbiylik, motivatsiya

New methods and methods of increasing interest in modern professions

Gulnoza Sultanbayevna Khudaiberganova
Urganch district, School №6
Gulyor Akhmedovna Khodjayeva
Madina Abdurasulovna Madaminova
Urganch district, School №14
Shoira Davlatmuratovna Karimova
Urganch district, School №24
Zuhra Yuldosh kizi Matyakubova
Urganch district, School №47

Abstract: This article discusses innovative methods and methods aimed at increasing interest in modern professions.

Keywords: innovation, education, youth, professions, methods, technologies, interest, gamification, practical training, coaching, motivation.

Kirish: Zamonaviy kasblar va mehnat bozori texnologik taraqqiyot va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida doimo o'zgarib turadi. Shu bois, ayniqsa, yoshlar

(cc) BY

o’rtasida zamonaviy kasblarga e’tiborni jalb etishda yangi usul va yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot sharhi:

Tadqiqotning zamonaviy kasblarga bo’lgan qiziqishni oshirish bo’yicha adabiyotlarni ko’rib chiqish qismi ushbu muammoning turli jihatlarini qamrab olgan bo’lib, adabiyotdagi yondashuvlarning dolzarbligi va xilma-xilligini aks ettiradi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy dunyoda yoshlarni kasbiy sohalarga jalb qilishning an’anaviy usullari samarasiz bo’lib bormoqda. Shu munosabat bilan tadqiqotchilar va amaliyotchilar ta’limni o’yinlashtirish, amaliy o’rganish, texnologiyadan foydalanish va murabbiylik kabi yangi yondashuvlarga e’tibor berishadi. Bu usullar yoshlarni o’quv jarayoniga faol jalb etishga qaratilgan bo’lib, ularda zamonaviy kasb-hunarlar uchun zarur bo’lgan amaliy ko’nikmalarni egallash imkonini beradi. Bundan tashqari, adabiyotlarni o’rganish zamonaviy kasblarga bo’lgan qiziqishni oshirishda eng katta samaraga erishish uchun shaxsiylashtirilgan yondashuv va usullarni yoshlarning o’ziga xos ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirish muhimligini ta’kidlaydi.

Zamonaviy kasblarga qiziqishni oshirish bo’yicha tadqiqotning uslubiy qismi maqsadlarga samarali erishishga qaratilgan bir qator yondashuv va usullarni o’z ichiga oladi.

1. Ta’limning gamifikatsiyasi: Metodikaning muhim jihati o’quv jarayonida gamifikatsiya tamoyillaridan foydalanish hisoblanadi. Bu o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan va ularning motivatsiyasini oshiradigan interfaol o’quv o’yinlari, tadbirlar va musobaqalarni yaratishni o’z ichiga oladi.

2. Amaliy ta’lim: Asosiy usullardan biri - talabalarga amaliyot, amaliy mashg’ulotlar va loyiha topshiriqlari orqali olgan bilimlarini amalda qo’llash imkoniyatini berishdir. Bu ularga haqiqiy professional ishlarni boshdan kechirish va kasbiy qiziqishlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

3. Texnologiyadan foydalanish: Virtual haqiqat, kengaytirilgan reallik va onlayn o’quv platformalari kabi zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi bugungi yoshlarning talablariga javob beradigan interaktiv va qiziqarli o’quv muhitini yaratadi.

4. Mentorlik va konsalting: metodologiyaning muhim elementi talabalarga maslahat va maslahat dasturlari orqali o’z qiziqishlari bo’yicha tajribali mutaxassislardan foydalanish imkoniyatini berishdir. Bu talabalarga haqiqiy sanoat istiqboli va martaba bo’yicha maslahatlar olishga yordam beradi.

5. Moslashuv va individuallashtirish: har bir usul yoshlarning o’ziga xos ehtiyojlari va manfaatlariga mos kelishi va individuallashtirilishi kerak. Bu talabalarning xilma-xilligini, ularning xohish-istaklarini, bilim darajasi va ko’nikmalarini hisobga olishni o’z ichiga oladi.

(cc) BY

Bu usullarning barchasi birgalikda zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishni oshirishga kompleks yondashuvni shakllantiradi, bu talabalarni maksimal darajada rag'batlantirishga va tanlagan sohada muvaffaqiyatli martaba olishga tayyorligiga qaratilgan.

Zamonaviy kasblarga qiziqishni oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari uslubiy qismda tavsiflangan turli xil usullar va yondashuvlardan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi.

Birinchidan, ta'limni o'yinlashtirish juda muvaffaqiyatli vosita ekanligini isbotladi. O'yin mexanikasiga asoslangan o'quv o'yinlari va vazifalari o'quvchilarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undadi. Ular o'qigan fanlariga ko'proq qiziqish bildirishdi va o'quv maqsadlariga erishish uchun ko'proq rag'batlanishdi.

Ikkinchidan, kasblarga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar katta rol o'ynadi. Amaliyot va loyiha ishlarida qatnashgan talabalar nafaqat amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdi, balki bu ko'nikmalarning haqiqiy hayotdagi ish muhitida qanday rol o'ynashini yaxshiroq tushunishdi. Bu ularning kasbiy manfaatlari va maqsadlari haqida aniq tasavvur hosil qilishiga yordam berdi.

Yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqishini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham katta ta'sir ko'rsatdi. Virtual haqiqat va onlayn o'quv platformalari o'quvchilarga interaktiv va innovatsion ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini berdi, bu esa o'rganishni yanada qiziqarli va qulay qilish imkonini berdi.

O'quvchilarni kasb tanlashda yo'l-yo'riq ko'rsatishda ustozlik va maslahatlar muhim rol o'ynadi. Tajribali mutaxassislar bilan muloqot qilish ularga qimmatli maslahat va yo'l-yo'riqlar olish, shuningdek, tanlagan sohada muvaffaqiyatli martaba uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni yaxshiroq tushunish imkonini berdi.

Va nihoyat, o'qitish usullarini har bir talabaning ehtiyojlariga qarab individuallashtirish va moslashtirish turli xil qiziqishlar, imtiyozlar va malaka darajalarini o'zida mujassam etgan o'quv muhitiga hissa qo'shdi. Bu har bir talabaning faolligi va motivatsiyasini samarali ravishda oshirdi.

Amaliy o'rganish, texnologiya, murabbiylik va individuallashtirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv yoshlarning zamonaviy kasblarga qiziqishini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu usullarni ta'lim muassasalarida va professional jamoalarda muvaffaqiyatli qo'llash orqali zamonaviy dunyo muammolariga yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash mumkin.

Zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishni oshirish bo'yicha tadqiqot natijalarini muhokama qilish qo'llaniladigan usullarning samaradorligi va ularning ta'lim va kasbiy muhitga potentsial ta'sirining asosiy jihatlarini ko'rib chiqish imkoniyatini ochadi.

(cc) BY

Birinchidan, shuni ta’kidlash kerakki, ta’limda gamifikatsiyadan muvaffaqiyatli foydalanish o’rganish nafaqat rasmiy, balki qiziqarli va qiziqarli bo’lishi kerakligi tendentsiyasini tasdiqlaydi. Ta’lim jarayonidagi o’yin elementlari o’quvchilar uchun o’rganishni yanada qiziqarli va rag’batlantiruvchi bo’lishiga yordam beradi, bu esa faol ishtirok etish va yaxshiroq o’rganishga yordam beradi.

Kasblarga bo’lgan qiziqishni shakllantirish uchun amaliy mashg’ulotlarning ahamiyati to’g’risidagi bayonot ham muhim xulosadir. Amaliyot va loyiha topshiriqlari orqali talabalarni haqiqiy mehnat sharoitlariga bevosita jalb etish ularga tanlagan kasbining mohiyatini va uning potentsial imkoniyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu ko’proq ma’lumotga ega bo’lgan kasb yo’lini tanlashga va ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani oshirishga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, virtual reallik va onlayn o’quv platformalaridan foydalanish o’qitishning innovatsion usullari yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga jalb etishda samarali vosita bo’lishi mumkinligini ko’rsatmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat o’rganishni yanada qulay va qiziqarli qiladi, balki talabalarga o’z sohalaridagi so’nggi tendentsiyalarni o’rganish imkoniyatini beradi.

Mentorlik va maslahatlar talabalarga qanday martaba yo’llari borligini va ular tanlagan sohada muvaffaqiyatga erishish uchun qanday ko’nikmalar zarurligini tushunishga yordam berishda muhim rol o’ynaydi. Tajribali mutaxassislar bilan muloqot qilish yoshlar uchun ilhom va motivatsiya bo’lishi mumkin, chunki ular o’z sohasida tajribaga ega bo’lgan kishilardan haqiqiy maslahat va yordam oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, zamonaviy martabaga qiziqishni samarali oshirish turli usullar va strategiyalarni o’z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Ta’limni o’yinlashtirish, amaliy o’rganish, texnologiyalardan foydalanish, murabbiylik va individuallashtirish yoshlarni kasbiy ta’lim va rivojlanishga qiziqtirishda muhim rol o’ynaydi.

Zamonaviy kasblarga qiziqishni oshirish bo’yicha tadqiqotning yakuniy qismida natijalarning ahamiyatini ta’kidlash va ta’lim va kasbiy jamoalar uchun amaliy natijalarni taklif qilish muhimdir.

O’yinlashtirish kabi innovatsion usullardan foydalanish yoshlar e’tiborini zamonaviy kasb-hunarlarga jalb etishning samarali usuli ekanligini tadqiqot natijalari tasdiqladi. Ular o’rganishni yanada qiziqarli, qiziqarli va amaliy qiladi, bu esa kasbiy mahorat va martaba o’sishi uchun motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, virtual reallik va onlayn o’quv platformalari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o’rganish va o’z-o’zini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim resurslarini yanada qulayroq va qiziqarli qiladi, bu esa ko’proq yoshlarni zamonaviy martaba yo’nalishlarini o’rganishga jalb qilishi mumkin.

(cc) BY

Yoshlarning kasbiy rivojlanishi jarayonida ustozlik va maslahatning rolini alohida ta'kidlash lozim. Tajribali mutaxassislar bilan muloqot qilish talabalar uchun ilhomlantiruvchi va rag'batlantiruvchi tajriba bo'lib, ularning kasbiy maqsadlarini va ularga qanday erishishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagi amaliy xulosa taklif etiladi: yoshlarni kasbiy o'sishida qo'llab-quvvatlashning innovatsion usullarini yanada rivojlantirish va qo'llashni kengaytirish zarur. Bunga qo'shimcha ta'lim dasturlarini yaratish, o'rganish va malaka oshirish uchun onlayn platformalarni ishlab chiqish, shuningdek, murabbiylik dasturlari va amaliyotlarni tashkil etish kiradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishni samarali oshirish uchun o'qitishning innovatsion usullari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va tajribali mutaxassislar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kompleks yondashuv talab etiladi. Bu zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli martaba uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlanishini ta'minlashning yagona yo'li.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmuratov X.S, Xusainova Z.M, Duschanov N.S, Abdullayev R.A, &Yangibayeva O.S qizi. (2022). Ta'lim jarayonida innovatsiya texnologiya. Fan va ta'lim,3 (1), 491-495. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2350

2. Xolmuratov X.S, Qurbanova X.D, Madaminova F.M, Madaminov B.R, Jumaniyozova S.B, &Saidova L.B(2021). Ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo'llash. Fan va ta'lim, 2 (12), 551-556. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/2207

3. Safasheva I, Xolmuratov X. S. (2021). Ta'lim-tarbiya faoliyatda gumanitar yo'l qo'yilgan narsalarni qo'llash hodisalari. Fan va ta'lim, 2 (5), 641-648. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1435

4. Холмуротов Ф. MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO 'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO 'LINI BAHOLASH //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. - 2023. - Т. 3. - №. 7. - С. 83-91.

5. Saribaevich, K. F. ISSUES OF HAVING OPTIMAL RATIO OF SUBJECTS IN ENSURING SUSTAINABLE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. Інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. III Міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 11-12 серпня 2021 р.-Дніпро, Україна, 2021.-477 с., 113.

(cc) BY

6. Saribaevich, K. F. ISSUES OF HAVING OPTIMAL RATIO OF SUBJECTS IN ENSURING SUSTAINABLE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. Інтеграція освіти, науки та бізнесу в сучасному середовищі: літні диспути: тези доп. III Міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 11-12 серпня 2021 р.-Дніпро, Україна, 2021.-477 с., 113.

7. Холмуротов, Ф. (2023). ОЦЕНКА РОЛИ СУБЪЕКТОВ, ПРОИЗВОДЯЩИХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННУЮ ПРОДУКЦИЮ, В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ РЕГИОНА. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 83-91. https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N12

8. Холмуротов, Ф. (2023). MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO ‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO ‘LINI BAHOLASH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 83-91.

9. Холмуротов, Ф. (2023). MINTAQADA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA QISHLOQ XO ‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI SUBYEKTLAR RO ‘LINI BAHOLASH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 83-91.

10. Холмуротов, Ф. (2023). МИНТАҚАДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ. Economics and education, 24(2), 386-391.

11. Холмуротов, Ф. С. (2021). Разработка прогнозных значений ключевых показателей сельского хозяйства Хорезмской области. Экономика и предпринимательство, (6), 577-581.

Ijtimoiy pedagogikada me’yordan og’ishish

Gulnur Navruzbek qizi Trakbayeva
Sevinch Odilbek qizi Safarboyeva
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC inustuti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy pedagogikada bolalardagi me’yordan og’ish turlarini haqida batafsil yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: pedagogikadagi me’yordan og’ish, jismoniy, ruhiy, pedagogik va sotsiologik guruh, ijtimoiy me’yor, sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarda deviant xulq-atvorga ega bolalar

Deviation from the norm in social pedagogy

Gulnur Navruzbek kizi Trakbayeva
Sevinch Odilbek kizi Safarboyeva
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article describes in detail the types of deviations from the norm in children in social pedagogy.

Keywords: deviation from the norm in pedagogy, physical, mental, pedagogical and sociological group, social norm, children with deviant behavior in sociological, psychological and pedagogical literature

Pedagogikadagi me’yordan og’ish - bu o’quvchilar yoki o’qituvchilarning xatti-harakatlarining belgilangan standartlariga yoki ta’lim natijalariga erisha olmaydigan holatlardir. Bu og’ishlar vaqtinchalik yoki doimiy bo’lishi mumkin va ta’lim jarayonining turli jihatlarida o’zini namoyon qilishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, normadan chetga chiqish har doim ham salbiy emas. Ular ta’lim jarayonidagi o’zgarishlar zarurligini bildirishi va talabalar duch keladigan muammolarni aniqlashga yordam berishi mumkin.O’qituvchilar o’quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o’tishlari va o’qish va rivojlanish muvaffaqiyatlariga erishish uchun o’zlarining uslublari va yondashuvlarini moslashtira olishlari kerak.

Hozirgi kunda AQSh va Yevropa davlatlarida me’yordan og’ishgagan kishilarning jamiyatga integratsiyalashuvi tamoyili amalga oshirilmoqda. Bu tamoyilga ko’ra, bunday odamlar ham jamiyatning teng huquqli, lekin ba’zi bir

(cc) BY

muammo yoki imkoniyati cheklangan a’zosi sifatida qaraladi. Hozirda imkoniyati cheklangan shaxslar soni butun dunyoda shu jumladan, yurtimizda ham sezilarli darajada ekanligi e’tiborni tortadi. Tibbiyotda, psixologiyada, sotsiologiyada “me’yor”ning o’z darajalari, o’z me’yorlari bo’lib, unga mos kelmaydigan jihatlarni “og’ish”, “chetga chiqish” deb atashadi. Ijtimoiy pedagogikada “me’yor” yoki “me’yordan og’ish” tushunchalari juda ahamiyatlidir. Ular bolalarning xulq-atvori va rivojlanish jarayonini harakterlashga katta yordam beradi. Og’ish ijobiy yoki salbiy harakterli bo’lishi mumkin. Masalan, bolalar rivojlanishida aqliy noqislik ham, qobiliyatlilik ham me’yordan og’ish turi hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqa og’ishlar ham shaxsning shakllanish jarayoniga, ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Me’yordan og’ishni shartli ravishda 4 ta guruhga ajratish mumkin:

- ❖ Jismoniy;
- ❖ Ruhiy;
- ❖ Pedagogik;
- ❖ Sotsiologik;

Jismoniy me’yordan og’ish inson sog’ligiga bog’liq.

Jismoniy sog’liqdagi og’ish, irsiy omillar yoki biror-bir tashqi holatlar: og’irning ekologik holati, ichimlik suvining sifati, oila hayoti darajasining pasayishi va boshqalar asosida vujudga keladi. Sog’lig’ida va rivojlanishida og’ishga moyillarning ko’pgina tasniflari mavjud. Butunjahon sog’liqni saqlash tashkiloti 1980-yilda imkoniyati cheklanganlarning 3 zvenosi shkalasining britancha variantini qabul qilgan:

Bular:

- kasallik, xastalik, ruhiy yoki fiziologik funksiyalar, anatomik struktura elementlarini yo’qotish;

- cheklangan imkoniyatli inson uchun me’yor hisoblangan chegarada biron-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yo’qotish yoki cheklab qo’yish;

- nogironlik jins, yosh yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqqan holda insonning biron-bir faoliyatini bajarishini cheklovchi yoki unga to’sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

G’arbda “sog’lig’ining cheklangan imkoniyatlariga ega shaxs” tushunchasi mavjud. Ularga ta’lim standartlarini o’zlashtirishga to’sqinlik qiluvchi ruhiy yoki jismoniy kamchiliklarga ega bolalar kiradi. Shuningdek, G’arb davlatlarida nuqson tushunchasi ham mavjud bo’lib, uning 4 ta turi yani ruhiy, jismoniy, murakkab va og’ir turlari mavjud. Jismoniy nuqsonlarga-inson organizmining faoliyat olib borishiga yoki rivojlanishiga doimiy yoki vaqtinchalik kamchiliklar, shuningdek har qanday somatik yoki yuqumli xastaliklar kiradi.

Ruhiy nuqsonlarga - insonning ruhiy rivojlanishidagi muntazam yoki vaqtinchalik kamchiliklari kiradi. Bular nutq buzilishi, miya faoliyati va aqliy rivojlanishning buzilishlaridir.

(cc) BY

Murakkab nuqson - belgilab qo'yilgan tartibda tasdiqlangan jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarni o'zida mujassam etadi.

Og'ir nuqson - bunday nuqsonga ega bo'lgan holatlarda davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ta'lim olishning umuman iloji bo'lmaydi. Bola jismoniy rivojlanishidagi og'ishlarga ko'rish, eshitish qobiliyatlarining buzilishlari kabi kasalliklar kiradi. Me'yordan ruhiy og'ishlar bolaning aqliy va ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlariga bog'liq. Buday turdagi og'ishlarga ruhiy rivojlanishdan to'xtab qolishi, bolalarning aqliy jihatdan ortda qolishi kiradi.

Aqliy qoloqlik asab tizimining tug'ma yoki jarohat asosida paydo bo'ladigan nuqson hisoblanadi. Bolalarda aqliy qoloqlik yengil, o'rtacha va og'ir darajada bo'lishi mumkin.

Ruhiy og'ishlarga turli darajadagi nutqning buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og'ishlarning boshqa bir turi emotsional faoliyatining buzilishi hisoblanadi.Bunday og'ish turi ruhiy og'ishning eng og'ir shakli hisoblanib bunga muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o'z-o'zini o'ldirish)larni misol qilib keltirsa bo'ladi.

Bolalarning iqtidorliligi bu alohida og'ish hisoblanadi.Chunki bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlab beruvchi qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unligi hisoblanadi. Iqtidorlilik darajasi nafaqat uning qobiliyatlarga qarab balki, faoliyat mahsullariga qarab ham belgilanadi.

Pedagogik og'ishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozirgi vaqtda kam qo'llaniladigan tushunchalardir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni bajarish, shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta'lim olayotganlar faoliyatini tartibga solganidan turli me'yorlar qo'llanmoqda. Buday ta'lim darajasini belgilaydigan standartlar, o'quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga yana ta'lim olishda yuqori natijalarni ta'minlab beruvchi bolalar rivojlanishining me'yorlarini kiritsa bo'ladi. Oxirgi yillarda ma'lum bir sabablarga ko'ra umumiy ta'lim ololmagan bolalar haqida ham ko'p fikrlar bildirilmoqda. Bunday bolalarni alohida toifaga ajratamiz.

Bular maktabga bormaydigan, faqat boshlang'ich maktabni tugatgan, umumiy o'rta ta'lim olmagan bolalar kiradi. Bunday vaziyatlarni yuzaga kelish sabablarga darslarni besabab qoldirish, o'qishni xoxlamaslik, oiladagi notinchlik vaziyatlar, pul topishga harakat qilish kabilarni ko'rishimiz mumkin.

Ruhiy va jismoniy rivojlanishda og'ishgan bolalar uchun alohida maktablar mavjud bo'lib, u yerda ular professional mutaxassislar qo'lda ta'lim olishadi. Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik professional ta'lim olishlari bilan bog'liq hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki men bu maqolada hozirda bo'lyotgan ijtimoiy me'yordan og'ish turlarini yoritib berishga harakat qildim ya'ni bu bolalardagi aqliy,jismoniy og'ish turlari borligi ular oddiy va murrakabga bo'linib

(cc) BY

ketganligini.Ya’na bu ma’ruzada biz pedagogikadagi me’yorlar tushunchasi va undan og’ishlarni ko’rib chiqdik. Norm - bu shaxsning xulq-atvori va rivojlanishini boshqaradigan jamiyat tomonidan o’rnatilgan qoidalar va taxminlar. Normalar turli xil bo’lishi mumkin va jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy jihatlarni o’z ichiga olishi mumkin. Me’yor va undan chetga chiqishlar ta’lim jarayoniga sezilarli ta’sir ko’rsatishini tushunish muhimdir. O’qituvchilar me’yordan chetga chiqishni tan olishlari, ta’lim dasturini moslashtirishlari va qiyinchiliklarni yengish va o’qishda muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarga yordam ko’rsatishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo`yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo`llanma

2. N.G`.Komilova. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. T.-2007

3. Ta’lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostika vositalaridan foydalanish Tuzuvchi psixol. fan. nomz., dos. N.A.Sog’inov. - Toshkent - 2001. - 40 b.

4. Umarov B.M. O’zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. - Toshkent, “Fan” nashriyoti - 2008,

5. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O’quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o’qitishni didaktik imkoniyatlari

6. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64-67.

7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).

(cc) BY

Tadbirkor rahbarlar faoliyatini yoritishda iqtisodiy psixologiyaning ahamiyati

A.R.Sobirova
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini ta’minlovchi ichki psixologik omillarning konkret ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarga hamda shaxsdagi ustivor motivatsiya, ustanovkalarga bog‘likligini ilmiy metodlar yordamida o‘rganish, shu asosda bugungi yoshlardagi tadbirkorlik motivatsiyasining real psixologik mexanizmlarini o‘rganishda iqtisodiy psixologiyaning o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik sohasi, erkin va ijodiy mehnat, iqtisodiy manfaatli faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, bozor iqtisodiyotiga o‘tish, o‘rta mulkdorlar sinfi, murakkab iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy psixologiya

The importance of economic psychology in explaining the activities of business leaders

A.R.Sobirova
Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

Abstract: In this article, the dependence of the internal psychological factors that ensure the effectiveness of entrepreneurial activity on concrete social and psychological conditions and the priority motivation and attitudes of the individual is studied using scientific methods, on the basis of this, the study of economic psychology in the study of the real psychological mechanisms of entrepreneurial motivation among today's youth. rni is talked about.

Keywords: market economy, entrepreneurship, free and creative work, economically beneficial activity, entrepreneurial activity, transition to market economy, middle class of owners, complex economic relations, economic psychology

Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishib, bozor iqtisodiyotiga yo‘l tutgan davrdan boshlab, tobora ko‘proq kishilar foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik va mahorat ko‘rsatmokda. Bunday sharoitda o‘z-o‘zidan aniqki, yoshlar orasida erkin va ijodiy mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy bilimlarga va iqtisodiy manfaatli faoliyatning barcha sohalarida tadbirkorlik faoliyatini egallab olishga intilish kuchayadi.

(cc) BY

Bulardan tashqari, xususiy tadbirkorlik va o‘rta mulkdorlar sinfi respublikada shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida o‘rta mulkdorlar sinfining vujudga kelishi har doim ham bir me’yorda, qonunlarda ko‘zda tutilgan tartibda, odamlarning shaxsiy tashabbuslari va imkoniyatlarini to‘la ifoda etgan tarzda amalga oshirilmayapti. Zero, buyuk maqsadlarimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan, mehnatda halollik, shijoat va tashabbuskorlik sifatlarini mujassam etgan yoshlarni tayyorlash dolzg‘arb vazifa bo‘lib qoladi.

Rus olimi professor A.A.Krilovning yozishicha, inson ilk yoshlik davridanoq murakkab iqtisodiy munosabatlar doirasida va ta’sirida bo‘ladi. Ilk bolalikdanoq, u oldi-sotti, almashinish munosabatlarida bo‘ladi va har doim tanlov asosida ish yuritadi. Hayot insonlarni xarid qilish, yo‘qotish, ortirish, ish kuchini tabiiy va notabiiy rag‘batlarga almashtirish va bunda foydaliroq, kerakli, samaralisini tanlashga o‘rgatadi. Tanlovning natijasi esa - foyda va yo‘qotishlar hisoblanadi, taqqoslanadi, qancha sarflangan (kuch, vaqt, qobiliyat, pul) va olingan manfaat (ishlangan haq, foyda), shuningdek o‘z ehtiyoji va qiziqishlari uchun sarflangan yo‘qotishlarga ham taalluklidir. Oddiy ko‘ringani bilan, bu iqtisodiy jarayonlar qiyin, sirli va o‘ziga xos ilmiy izlanishni talab etadi.

Iqtisodiyot - bu odamlarning xo‘jalik yuritish munosabatlari to‘g‘risidagi fan bo‘lib, u bu munosabatlarning qanchalik rejalashgan, o‘ylangan, o‘rganilgani raqam va predmetlar tilida bayon etadi, bu munosabatlarda asosiy figura bo‘lib esa shaxs qatnashgani uchun ham uning psixologiya bilan hamnafas bo‘lish zarurligi yuzaga keldi.

Iqtisodiyot hamda psixologiya fanlarining uyg‘unlashuvidan paydo bo‘lgan iqtisodiy psixologiyaning predmeti xo‘jalik munosabatlarining inson xulqi va bilimlarida namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Yani, u iqtisodiy munosabatlar tizimida inson iqtisodiy axloqining natijalari va fenomenlarini, iqtisodiy faoliyatning mexanizmi va shaxs mentalitetiga aloqador normalar algoritmini, iqtisodni yuksaltirishdagi qarorlar qabul qilish, muammolar yechimidagi ijtimoiy fikrning o‘rni kabi omillarni xo‘jalikni boshqarish tajribasiga tayanib o‘rganadi.

Shunday qilib, A.A.Krilovning ta’rificha, iqtisodiy psixologiya - xo‘jalikni boshqaruvchi sub’ekt psixologiyasidir.

Iqtisodiy psixologiya tarixiga nazar tashlasak, iqtisodiy va psixologik qonuniyatlarning asoslanishida bir qator buyuk iqtisodchilar tomonidan o‘ziga xos ulush qo‘shilganini ko‘rishimiz mumkin. Adam Smit (1723-1790) iqtisodiyotning mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos solgan, Alfred Marshall (1842-1924) mikroiqtisodiyot nazariyasini, Jon Keyns (1883-1946) makroiqtisodiyot nazariyasining mualliflaridir. Bu olimlar mehnati samarasida «iqtisodchi inson»

(cc) BY

nazariyasi vujudga kelib, unga ko‘ra, faoliyat maqsadi samarali natija, foyda olishga qaratilgan bo‘ladi. Konsepsiyaning alohida xususiyatlaridan biri «iqtisodiy egoizm», maksimal darajadagi shaxsiy foyda olish uchun urinish sanaladi. Shuning uchun «iqtisodchi inson» g‘oyasi bir muncha vaqt yangi shakllarni qabul qilgan holda qotib qoldi.

Iqtisodiy psixologiyaning tuzilishiga e’tibor qilar ekanmiz, shuni anglamogimiz kerakki, umumtartibli fanning muammolarga boy va turlichaligidir. G‘arbiy Yevropa va amerikaliklar ilmiy izlanishlarida uch yirik bo‘lim amaliy iqtisod bilan birga o‘rganilgan va ular quyidagilar:

• *«Bozor* (foydalanuvchi psixologiyasi va uy xo‘jalikni boshqarish psixologiyasi);

• *Biznes* (tadbirkorning xulqi va psixologik qobiliyati, kelishilgan ish oxiri, murosaga kirishish, raqobat, savdo siri va boshqalar);

• *Munosabat «jamiyat-fuqaro»* (soliq, foyda, inflyatsiya, ishsizlik, siyosiy iqtisodning ommaga ta’siri)».

Olimlarning ta’kidlashicha, iqtisodiy psixologiya predmetidagi asosiy kategoriyalar - iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy xulqdir. Shu ikkala kategoriyaning mutanosibligi, bir-biriga munosabati va aniq faoliyatda, ishlab chiqarish jarayonlarida namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish katta amaliy ahamiyatga egadir.

V.Karimovaning yozishicha, iqtisodiy xulq - ishlab chiqarish shart- sharoitlari, vositalari va stimullari ta’sirida namoyon bo‘ladigan xatti- harakat va xulq-atvordir. Demak, iqtisodiy xulq iqtisodiy ong va hamda ishlab chiqarish vaziyatlarining shaxs harakatlarida namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi. Bunda eng avvalo, iqtisodiy motivlar, ya’ni ishlab chiqarish shart-sharoitlaridan va shaxsning ularga munosabatlaridan kelib chiqadigan sababiy munosabatlar tizimi katta rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy psixologiya o‘z ilmiy tadqiqot izlanishlari doirasida aynan iqtisodiy ong va iqtisodiy xulqning u yoki bu sharoitida namoyon bo‘lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi qonuniyatlarini o‘rganadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu ikkala iqtisodiy psixologik mexanizm jamiyatda, ijtimoiy mehnat va faoliyat sharoitlarida namoyon bo‘lgani uchun ham u sof ma’noda iqtisodiy-psixologik kategoriyadir. Shuning uchun ham iqtisodiy psixologiya o‘rganadigan barcha masalalar va muammolar tabiatan va mohiyatan ijtimoiy-psixologikdir.

Shunday qilib, iqtisodiy psixologiyaning o‘rganishi mumkin bo‘lgan masalalari ko‘lami juda keng va barchasi bugungi kunda o‘ta dolzarbdir. Bu holat ushbu fanning metodologiyasini mukammal ishlab chiqish va uni kun sayin ortib borayotgan amaliyot ehtiyojlariga buysundirishni taqozo etadi. Tabiiyki, oxirgi o‘n yillikda, kommunistik iste’bdod davrida shakllangan metodologiya bugungi fan taraqqiyotiga xizmat qila olmaydi. Zero, ilgarigi mafkura ta’sirida shakllangan ishchi yoki

(cc) BY

xodimning bilim, malaka va ko‘nikmalari bugungi uzluksiz taraqqiyotimiz talablariga mutlaqo javob bermaydi. Ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun yetarli hisoblangan inson bilim, malaka va ko‘nikmalari, bugungi kunda yangidan- yangi sifat va fazilatlarni uygunlashtirishni, inson psixologiyasida zahiraviy, yashirin iqtidorning barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishni talab qilmokda. Bu fanning insongi, shaxsga munosabatini keskin o‘zgartiradi, unga aloqador barcha jarayon va hodisalarga nisbatan ijtimoiy-psixologik qarashlar shakllanishini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абрамова Г.С. Сборник задач по социальной психологии и психологии развития: Учеб. пособие для студ. Вузов. - М.: Издательский центр «Академия», 1999. - 144 ст.

Абрамов Ю.А., Демин В.Н. 100 великих книг. - М.: Вече, 2000. -480 ст.

Абрамова Г.С., Степанович В.А. Деловые игры: теория и организация - Екатеринбург: Деловая книга, 1999. - 192 ст.

Адизова Т.М. Бошқарув мулоқоти психологияси. - Т.: ТДПУ, 2000. -196.

Бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти: Олий ўқув юртлари магистрантлари учун дарслик / F.C. Гуломов, М.Шарифхўжаевлар таҳрири остида / - Т.: Укитувчи, 2000. - 280 б.

Avezov O.R. Psyshologisal relations between family members. Ssientifis Journal Impast Fastor. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 www.oriens.uz. P-945-949

Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reastions in Emergensy. and Extreme Emergensies AMERISAN JOURNAL OF SOSIAL AND HUMANITARIAN RESEARSH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/artisle/view/714

Avezov O.R. Turli ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish amaliyoti. Psixologiya fani va yoshlarning rivojlanishi. //Xalqaro ilmiy–amaliy onlayn konferensiya materiallari// Toshkent, 2020 y. B. 77 -80.

Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,”Durdona” nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.

Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, ” Buxoro viloyati bosmaxonasi” nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.

Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.

Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. “Durdona” nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.

Avezov O.R., L.Ya. Olimov. Sosial Psyshologisal Sharasteristiss Of Psyshologisal Defenses Manifested In Adolessents In Extreme Situations.

International journal of ssientifis & teshnology researsh volume 9, issue02, February 2020 p. 2784-2786

Tayyorlov guruhlari mashg’ulotlari va 1-sinf darsliklarining o’zaro bog’liqlikda tashkil etish

Asliddin Erkinovich Nuriddinov
Shahlo Ibragim qizi Quldosheva
Moxichehra Raxmatillayeva Baxrillayeva
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Annotatsiya: ushbu maqola keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni umumta’lim maktabiga tayyorlash va ularni maktab sharoitiga mos ravishda qiyinchiliksiz o’qitish jarayoniga bag’ishlangan. Unda maktabgacha ta’limni tashkil etish va tayyorgarlik guruhlari o’quvchilarining ta’lim faoliyati o’rtasidagi bog’liqlikdagi yangiliklar o’rganiladi.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, taraqqiyot, yangilik, islohot, matematika, ona tili, o’qish, alifbo, nutqni rivojlantirish

Organization of preparatory group classes and 1st grade textbooks in relation to each other

Asliddin Erkinovich Nuriddinov
Shahlo Ibragim kizi Kuldosheva
Mohichehra Rakhmatillayeva Bakhrillayeva
Urgut Branch of Samarkand State University

Abstract: This article is devoted to the process of preparing children for general education in the preschool education system in the following years and educating them without difficulty in accordance with school conditions. It examines the innovations in the connection between the organization of preschool education and the educational activities of students of preparatory groups.

Keywords: education, upbringing, development, innovation, reform, mathematics, mother tongue, reading, alphabet, speech development

Bugungi tez rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti davrida ta’limga bo’lgan extiyoj har zamongidanda yuksaldi. Jumladan fan texnika asri bo’lgan XXI asrda insonlar oldingi eski bilimlar o’rnini zamonaviy har tomonlama inson manfaatlariga xizmat qiluvchi bilmlarni bosqichma bosqich osondan murakkabga qarab bolalar psixologiyasiga aqliy, jismoniy, psixologik rivojlanishiga zo’riqishlarsiz ta’sir etgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. shu boisdan ta’limning ilk bosqichi

(cc) BY

bo'lgan maktabgacha ta'lim yozshidan boshlab bolalarega oddiydan murakkabga qarab ta'lim tarbiya berish muhimdir. shu jumladan bilimlarning bolalarga mos bo'lishi qoidasi yuzasidan bilim berishning muhim ikki jihatiga e'tibor qaratiladi:

a) Berilayotgan bilimlarning xususiyati ma'nosi va miqdori maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual rivojlanish xusisyatlariga to'g'ri kelishi

b) O'quv materillarining hajmi maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar aqliy imkoniyatlariga to'g'ri kelishi lozim. O'quv materiallarining tarbiyalanuvchilarga mos bo'lishi quyidagi qoidalarga asoslanadi: "Oson ma'lumotlardan murakkabga qarab borishiga", "Aniqdan noaniqqa qarab borish", "Oddiydan murakkabga qarab borishiga".

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan o'quv tarbiyaviy hamda sog'lomlashtish ishlarini tashkil etish "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etishning Davlat standartlari[1]" va 2022-yil 4-fevralda Maktabgacha "Takomillashtirilgan ilk qadam[2]" davlat o'quv dasturi asosida tashkil etilgan bo'lishi kerak. Shundagina olib boriladigan pedagogik jarayon hamda kutilayotgan natija ham shunga yarasha bo'ladi.

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar jarayonida bolalarning har tomonlama rivojlanishining zaruriy darajasiga yetish uchun maktabga qo'yiladigan talablarga yo'nalganligi;

- Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish asnosida ularga maktabgacha ta'limning asosiy masadi bo'lgan bolalarni maktabga har tomonlama jismoniy, psixologik va aqliy tomondan sifatli tayyorlash jarayonini ifodalaydi. Shu boisdan bolalar Maktabgacha ta'lim tashkilotida tayyorlov guruhida beriladigan umumiy faoliyatlar natijasida maktab darslariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, maktab ta'limining yangi o'quv mashg'ulotlariga o'tish bola uchun sezilarsiz bo'lgan psixologik qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Agar hamkorlikerta vatdan boshlab to'g'ri izchillikda yo'lga qo'yilsa bolalarda maktabga chiqish hamda maktab sharoitlariga ko'nikish davridagi inqirozlar sababli bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarining so'ndirmay davom ettirishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'nalaganligi ular o'rtasida ta'lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Bolalarga ilk ta'lim beriladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tayyorlov guruhlaridagi umumiy faoliyatlar "Nutq o'stirish", "Savodxonlik", "Elementar matematika", mashg'ulotlari hamda faoliyat markazlarida olib boriladigan "Badiiy adabiyot bilan tanishtirish", "Atrofizmizdagi olam" "Loy ishi" "Aplikatsiya", "Tasviriy faoliyat", "Qurish yasash va matematika" ishlari

[1] "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartlari" Maktabgacha ta'lim vazirligining 802-son Qarori
[2] "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2018-yil Toshkent

(cc) BY

maktabda1-sinf darslariga mutlaqo yaqinlashtirilgan holda tashkil etilishi kerak. Bu faoliyatlar natijasida tarbiyalanuvchilar quyidagi ko'nikmalar shakllanishi asosida maktab ta'limiga tayyorlanaid. Maktabga tayyorgarlik quyidagi ko'nikmalar asosida amalga oshiriladi:

1. Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;

2. Bilish jarayoni: atrof-olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash.

a) Elementar matematik bilim va ko'nikmalar;

b) Tasviriy faoliyat;

c) Musiqa.

Nutq o'stirish faoliyatida olgan ko'nikmalar bevosita 1-sinf darsligida "Alifbe" hamda "O'qish" darsliklarini uzviy davomi hisoblanadi:

- Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish;
- Lug'at ustida ishlash;
- Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- Bog'lanishli nutqni shakllantirish;
- Ijodiy hikoya qilish;
- Badiiy adabiyot bilan tanishtirish ishlari olib boriladi.

Bolalar nutqini o'stirish mashg'ulotlarida olgan bilimlari davomida bolalarda qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolaning maktabga aqliy nihatdan tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ona tilidagi hamma tovushlarni va harflarni aniq va to'g'ri talaffuz qilish, lug'atlarining boyligi, o'z fikrini mantiqiy Grammatik to'g'ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi - bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shuningdek, kesma harflar yordamida tovushharf tahlil va sintez bo'yicha mashqlarni bajarishga o'rgatish, kesma harflardan bo'g'in tuzdirish va o'qitish, unli va undosh tovushlar xususiyatlari, o'z ismini va 2-3 ta so'zlarni bosma harflarda mustaqil o'qishga o'rgatib boriladi. Bu tayyorgarlik davridagi tushunchalar maktab davrida mustahkamlanib, chuqurlashtirib boriladi.

"Elementar matematika" bilim va ko'nikmalar bo'limida bolalar 1-sinf uchun "Matematik" yoki "Mantiqiy matematika" fanlarini uzviy davom ettirish uchun asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ular quyidagilardir:

- son-sanoq, kattalik, geometrik figuralar, tevarak-atrofni mo'ljaiga olish, vaqtni chamalash, qurish-yasash faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Bolalarda pul qiymatlari, narx, plastik kartochka, terminal haqida dastlabki tushunchalar beriladi. Yil fasllari, yil taqvimi, hafta kunlari, soat turlari bilan tanishtiriladi.

"Tasviriy faoliyat" mazmuni yanada murakkablashadi. Inson qiyofasi detallashtirilgan holati, san'at asarlari bilan tanishtiriladi. Bunda predmetli va voqeaband rasm chizish, bezakli rasm, plastilin (loy) bilan ishlash, aplekatsiya, qurishyasash, qurilish materiallarini konstruksiyalash, qog'ozdan konstruksiyalar hosil

(cc) BY

qilish, tabiiy materiallardan, qurishyasash materiallaridan, konstruktorlik detallarni, qurilish materiallaridan konstruksiyalar hosil qilish va badiiy qo'l mehnati o'rgatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlangan "Musiqa mashg'ulotlari" maktab ta'limida ham bevosita davom ettiriladi ular orqali quyidagi ko'nikmalar davom ettiriladi: musiqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlar, qo'shiq aytish, bolalar cholg'u asboblarida chalish, turli harakatli o'yinlar o'rgatiladi.

Shuningdek, Ona Vatan, mashhur sarkardalar, buyuk siymolar, xalq amaliy san'ati, an'anaviy bayramlar, kattalar mehnati, transport va aloqa vositalari, buyumlar haqida bola o'z tanasining qismlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinf ta'limiga tayyorlanadi. Bu bilim va ko'nikmalar bolalarni 1-sinfdagi tegishli o'quv fanlarini egallashlari uchun tayyorgarliklarini tashkil qiladi. Ko'pchilik psixolog-pedagog olimlarning (A.M.Leushina, D.B.Elkonin, L.E.Jurova, F.R.Qodirova) ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim tashkilotida va maktab ta'limidagi o'qitishdagi bog'liqlik maktabda fanlarni o'qitish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Shunday qilib maktabdagi o'qishga aqliy tayyorgarlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlaridan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof-olam haqidagi anglangan, tizimlashtirilgan tasavvurlar hamda elementar tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o'quv materialini egallashga aqliy tayyorgarlikni vujudga keltiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhida ta'lim tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchi faoliyat dasturlari kelajakda bolaning maktab ta'limidagi fanlarni davom ettirishi uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Ayna bu fanlar bog'liqligini uzviy holda davom ettirolgan pedagoglar bolalarni maktab ta'limidagi qiyinchiliklardan oson olib o'tishiga yordam beradi. Biz maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarga olib bordigan frontal "Nutq o'stirish", "Elementar matematika", "Savodxonlik" faoliyatlari maktabda o'qitiladigan "Alifbe", Matematika", "O'qish", kabi fanlarning poydevoridir. Biz maktabgacha ta'lim tashkilotida "Elementar matematika" faoliyatida hisob kitob, fazoda mo'ljal olish, vaqtni idrok qilish, geometrik figura va shakllar haqida dastlabki tushunchalarni beramiz, maktabda esa bolalar shu bilimlarni yanada takomillashtiradi. "Savodxonlik" faoliyati esa maktabgacha ta'lim tashkilotida "alifbe" fanining o'tilishi uchun poydevor bo'lib hizmat qiladi.

Umumiy olganda maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyachasi hamda 1-sinf o'qituvchisi hamkorlik qilishi jarayoni bolalarni makta ta'limiga har jihatdan tayyorlanishiga, psixologik jihatdan moslashishiga ham qulaydir. Jumladan bolalarni maktabga sayohatga olib borish, maktab hayoti bilan illiq tassurotlar ila tanishtirish bolada maktabda o'qishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi.

Maktabga tayyorlov guruhi mashg'ulotlari va 1-sinf mashg'ulotlarida o'tiladigan fanlarning o'zaro bog'liqliklari quyida keltirib o'tilgan:

(cc) BY

Maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg’ulotlar nomi	Maktabda 1-sinflarda o’tiladigan fanlar
Elementar matematika	Matematika
Atrofi olam bilan tashtirish	Atrofi olam
Nutq o’stirish	Alifbe
Jismoniy tarbiya	Jismoniy tarbiya
Musiqa	Musiqa
Ingliz tili	Ingliz tili
Aplikatsiya	Texnalogiya

Maktabga tayyorlov guruhi mashg’ulotlari va 1-sinf mashg’ulotlarida o’tiladigan mavzularining o’zaro bog’liqlik ko’rsatgichlari quyida keltirib o’tilgan:

Elementar matematika	Matematika
1 dan 10 gacha bo’lgan sonlarning atalishi	1 dan 10 gacha bo’lgan sonlarning atalishi
1 dan 10 gacha o’ng va teskari sanash	1 dan 10 gacha o’ng va teskari sanash
Kata kichik teng tushunchalarini o’rgatish	Kata kichik teng tushunchalarini o’rgatish
100 gacha bo’lgan o’nliklarni o’rgatish	100 gacha bo’lgan o’nliklarni o’rgatish
Narsalarning o’lchami bo’yicha taqqoslash	Narsalarning o’lchami bo’yicha taqqoslash
Narsalarning xossalari bo’yicha to’plamga ajratish	Narsalarning xossalari bo’yicha to’plamga ajratish
10 gacha bo’lgan sonlar ichida qo’shish ayrish ammallarini bajarish	10 gacha bo’lgan sonlar ichida qo’shish ayrish ammallarini bajarish

Atrofi olam bilan tanishtirish	Atrofi olam
Kun tartibiga odatlantirish	Kun tartibini o’rgatish
Shaxsiy gigiyena qoidalarini o’rgatish	Shaxsiy gigiyena qoidalarini o’rgatish
Ko’chada yurish qoidalarini o’rgatish	Ko’chada yurish qoidalarini o’rgatish
Yil fasllarini o’rgatish	Yil fasllarini o’rgatish

Nutq o’stirish	Alifbe
Harflar tanishtiriladi	Harflar tanishtiriladi
Unli undosh tovishlar o’rgatiladi	Unli undosh tovishlar o’rgatiladi
So’zlarni bog’inlab o’qish o’rgatiladi	So’zlarni bog’inlab o’qish o’rgatiladi
Rasmga qarab hikoya tuzishga o’rgatiladi	Rasmga qarab hikoya tuzishga o’rgatiladi

Jismoniy tarbiya	Jismoniy tarbiya
Kun tartibiga rioya qilish o’rgatiladi	Kun tartibiga rioya qilish o’rgatiladi
60 metr metrga to’xtamasdan yugurib o’tishi kerak	60 metr metrga to’xtamasdan yugurib o’tishi kerak
Saflanish va qayta saflanish o’rgatiladi	Saflanish va qayta saflanish o’rgatiladi
Jismoniy tarbiya o’tishning asl maqsadi bolalarni fikrni jamlash, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik sifatlarini o’rgatishga qaratilgan.	Jismoniy tarbiya o’tishning asl maqsadi bolalarni fikrni jamlash, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik sifatlarini o’rgatishga qaratilgan.

Musiqa	Musiqa
Milliy cholg’u asboblari bilan tanishtirish	Milliy cholg’u asboblari bilan tanishtirish
Notalarni o’rgatish	Notalarni o’rgatish
Tovushlarning baland pasligini o’rgatish	Tovushlarning baland pasligini o’rgatish
Tovushlarning turlarini o’rgatish	Tovushlarning turlarini o’rgatish

Ingliz tili	Ingliz tili
O’qish va yozuvsiz o’rgatiladi	O’qish va yozuvsiz o’rgatiladi
Mashqlar, o’yinlar, qo’shiqlar orqali o’rgatiladi	Mashqlar, o’yinlar, qo’shiqlar orqali o’rgatiladi

(cc) BY

Til o’rgatish rasm chizish va bo’yash orqali mustaxkamlanadi	Til o’rgatish rasm chizish va bo’yash orqali mustaxkamlanadi

Aplikatsiya	Texnalogiya
Qaychi bilan ishlash texnikasi o’rgatiladi	Qaychi bilan ishlash texnikasi o’rgatiladi
Yelim bilan ishlash qoidalari o’rgatiladi	Yelim bilan ishlash qoidalari o’rgatiladi
Qog’oz va uning turlari o’rgatiladi	Qog’oz va uning turlari o’rgatiladi
Qog’ozni qo’lda yirtish o’rgatiladi	Qog’ozni qo’lda yirtish o’rgatiladi
Qog’ozni buklash orqli narsalar yasash o’rgatiladi	Qog’ozni buklash orqli narsalar yasash o’rgatiladi
Mazaika usulda narsalar yasash o’rgatiladi	Mazaika usulda narsalar yasash o’rgatiladi

Xulosa qilib, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktabda ta’lim-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishdagi izchillik bola shaxsini rivojlantirishni amalga oshirishda muhim omil bo’lib hisoblanadi. Bolani maktab ta’limiga moslashtirish, maktab hayotiga qiyinchiliklarsiz moslashishi uchun tayyorlov guruhlaridan boshlab bolalarni maktab darsliklariga mos ravishda o’qitish jarayonini boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyachisi va maktab boshlang’ich sinf o’qitiuvchilari hamkorlikda ish jarayonlarini tashkil etishi, maktablarga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini ekskursiyaga tashrif buyurushi zarurdir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat o’quv dasturi Toshkent 2022-yil 4-fevral

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat standartlari” Toshkent 2020 yil

3. F.Qodirova va boshqalar “Maktabgacha pedagogika” darslik 2019-yil

4. Fayzullayev, S. N. (2023). “ILM YO’LI” VARIATIV DASTURINING BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDAGI O’RNI VA AHAMIYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 143-144.

O‘quvchi yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish - ijtimoiy pedagogik muammo sifatida

Jamila Yusupjonova
Maftuna Mo‘minova
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov
TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo’lgan o‘quvchi yoshlarini sportga qiziqtirish masalalari, shuningdek bugungi kundagi o‘quvchilarining jismoniy faolligi va rivojlanishi pastligi ijtimoiy pedagogik muammo sifatida o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: jismoniy tarbiya, ijtimoiy pedagogika, sport turlari, muommo, ommaviy sport, me’yorlar

Formation of a healthy lifestyle among schoolchildren as a socio-pedagogical problem

Jamila Yusupjonova
Maftuna Mominova
Scientific supervisor: S.Khaidarov
TMC Institute

Abstract: This article explores and analyzes as a social pedagogical problem the issues of interest of student youth in sports, which is one of the relevant topics today, as well as the low physical activity and development of today's students.

Keywords: physical education, social pedagogy, sports, circulation, mass sports, norms

Ma’lumki, hayotimizda inson salomatligi, jismoniy komilligi, sog’lom turmush tarziga egaligi o’ta muhim qadriyat hisoblanadi. O’quvchi yoshni salomatligini ta’minlash, xalq genofondini kamchiliklarsiz saqlash sog’lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog’lom turmush tarzining mazmunini anglatish, yoshlarni bilimdon va barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini o’rtaga qo’yadi.

Yoshlarda sog’lom turmush tarzini shakillantirish - bu faol mehnat, ijod og’ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o’ta xavfli va zararli ta’sir

(cc) BY

ko’rsatuvchi omillarni yengil ko’tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir.

Sog’lom turmush tarzini shakllantirishning milliy kontseptsiyasi namunaviy modeli respublika aholisi o’rtasida sog’lom turmush tarzini shakllantirish jarayonini ma’lum bir tartibda va ilmiy asosda olib borishni imkon yaratadi, uning samaradorligini oshiradi.Shu bilan birga sog’lom turmush tarzini namunaviy modeli - odamlar o’rtasida sog’lom munosabatlarni hamda namunaviy hulqni shakllantirish jarayonini tartibga solib boradi va tezlashtiradi. Insonlar jamiyatda o’zlarining yashash tarzlarini, gigienik xulqlarini, shuningdek tibbiy faolliklarini namunaviy etap bilan qiyoslab ko’rish hamda unga o’zgartirishlar kiritib borish imkoniyatiga ega bo’ladi.

O’quvchi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiya omilining o’rni xaqida gap yuritmoqchi bo’lsak, avvalo motivatsiya atamasi o’z mazmuniga ko’ra shaxsni ma’lum bir faoliyatini bajarishga kirishishi uchun harakatga keltirish, uning muhimligini asoslash va anglatishdan iboratdir. Jumladan sog’lom turmush tarzini shakllantirish muammosida motivatsiya omili odamlarga ularning nima uchun sog’lom turmush tarzida yashash lozimligi, ne sababdan nosog’lom turmush tarzini tanlash yuzasidan kerakligini anglatishga qaratilgan.

O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti keskinlik bilan o’sib, rivojlanib borayotgan hozirgi davrda o’quvchi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzining ijtimoiy - gigienik mezonlarini aniq belgilab olish juda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda sog’lom turmush tarzi - inson salomatligining qonunyatlari majmui emas,balki inson salomatligini mustaxkamlashga bo’lgan qarashlar tizimidan tashkil topgan. O’quvchi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini mafkurasi , R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog’lom turmush tarzini shakllanishi bo’yicha yuritayotgan siyosatin, sog’lom turmush tarzining huquqiy, ahloqiy asoslarini , sog’lom turmush tarzining pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasi va hechinasligi o’zida mujjasamlashtirgan bo’lishi lozim

Har bir yosh avlod o’z tana a’zolarining zahiraviy imkoniyatlarini oshirish uchun, ularni muntazam ravishda chiniqtirib borishi lozim. Salomatlik zahiralarini shakillantirish uchun sog’lom turmush tarzining quyidagi mezonlariga amal qilish tavsiya qilinadi:

- ❖ muntazam ravishda jismoniy tarbiya va jismoniy mehnat bilan shug’ullanish.
- ❖ me’yoriy aqliy va jismoniy yuklama bilan ishlash, kuchli aqliy mehnatdan so’ng faol dam olish.
- ❖ zararli odatlardan yuz o’girishi
- ❖ organizmni chiniqtirish;
- ❖ toza havoda kamida 2-3 soat yurish;

(cc) BY

- ❖ kun tartibiga qat’iyyan amal qilish, bir kunda kamida 8 soat uxlash;
- ❖ ehtiyoj tug’ilganda turmush tarzini va ishini o’zgartirish
- ❖ turmush, o’qish va ishdan qanoatlanib yashash.

O’quvchi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi muammosi - odamzod oldida turgan eng muhim muammo - shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mehnat turmush va dam olish sohasida, ilmiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy - gigienik jihatdan faolligini kuchayishiga yordam beradigan, ijtimoiy-gigienik tarafdan samarali bo’lgan turmush tarzini shakllantirish muammosidir.

“O’quvchi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini - bu kundalik turmushni biologik va ijtimoiy qonunlar asosida bunyod etib, salomatlikni asrash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzidir” deb ta’riflanadi.

O’quvchi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi o’z hayotida ro’y beradigan aniq voqea-hodisa hamda turli o’zgarishlar ta’sirida shakllanadi. Jamiyatning rivojlanishi, axborot oqimining yuqorilab borish, tezkor hayot tarziga talabning ortishi natijasida o’zaro aloqa va munosabatning birmuncha qiyin tus olayotganligi o’quvchi yoshlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Oqibatda ularda o’z taqdiri, oilasi yaqinlari uchun zarur bo’lgan turmush tarziga ega bo’lish, aqliy va ruhiy erkinlikka intilishga asoslangan xatti-harakatlar majmuini tanlashga nisbatan ma’suliyatlar ortmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolotina, L.R. Maktabgacha pedagogika: darslik. talabalar uchun nafaqa. yuqoriroq darslik muassasalar / L.R.Bolotina, S.P.Baranov, T.S.Komarova. - M. : Akademik loyiha, 2005 - 240 b.

2. Venger, L.A. Psixologiya: universitetlar uchun darslik / L.A.Venger, V.S.Muxina. - M. :Akademiya, 2007 - 446 p.

3. Vorobyeva, M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini tarbiyalash / M.Vorobyeva // Maktabgacha ta'lim. - 1998 - No 7 - S. 5 - 9

4. Vygotskiy, L.S. Yig'ilgan asarlar. - V.4 / L.S. Vygotskiy. - M.: Pedagogika, 1984 - 213

5. Galperin, P.Ya. Rivojlanish psixologiyasining dolzarb muammolari / P.Ya.Galperin, A.V.Zaporozhets. - M. : Ta'lim, 1978 - 240 b.

6. Sog’lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari, https://tdpu.uz/articles/2

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish va ularni faoliyat jarayonlarida rivojlanishini ta’minlashning akmeologik omillar

Zarnigor Zoxidjon kizi Jurabayeva
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Quyudagi keltirib o‘tilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yoshi va pedagogik qobiliyatlarning rivojlantirish darajasi o‘rtasida sezilarli to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik jarayonlarinini o‘rganish natijasida ayrim kamchililar aniqlanmoqda. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi va ularning asosiy ta’limi o‘rtasida bog‘liqlikni to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshirish va kutilgan natijalarni kafolatlashga yordam beradi. Oliy ma’lumotli bilimga ega bo‘lish va bu kabi ko‘nikmalarni egalash bo‘lajak pedagoglarda kasbiy layoqatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu orqali o‘qituvchilik qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini statistik jihatdan ko‘rishimiz mumin.

Kalit so‘zlar: texnologiya, kasbiy layoqat, qobilyat, akseologik qadryatlar, akmeologiya, muammo, faoliyat, tipologiya, komunikativlik

Acmeological factors of improving the pedagogical skills of future primary school teachers and ensuring their development in the process of activity

Zarnigor Zhodjon kizi Jurabayeva
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: According to the results of the research mentioned below, as a result of studying the processes of a significant direct relationship between the age of today’s primary school teachers and the level of development of pedagogical skills some shortcomings are being identified. This will help to directly implement the connection between the level of development of pedagogical skills of primary school teachers and their basic education and guarantee the expected results. Having a higher education and acquiring such skills directly affects the professional competence of future pedagogues, through which we statistically see a positive effect on the development of teaching ability a believer

(cc) BY

Keywords: technology, professional ability, ability, axeological values, acmeology, problem, activity, typology, communicative

O‘bekiston Respublikasi ta’limi bugungi rivojlanayotgan ta’lim tizimining hozirgi bosqichda bo‘lishi kerak. mamlakatning jadal suratlar bilan rivojlanishini, shuningdek yangi innavatsion texnologiyalarni joriy etish bu orqali iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning asosiy sohalari, yo‘nalishlarini bilim ishlab chiqarish,

Natijada esa yangi texnologiyalar va ilg‘or tajribalar, jaxon miqyosida fan, ta’lim va san’at yo‘nalishi bo‘yicha etakchi o‘rinlarni egallashga amaliy harakat qilish, bu orqali biz mamlakatni uzoq udatli istiqbolli rejalarni tuzushimiz va yoshlarning intelektual qobilyatlarini rivojlantirishga erishamiz.

“Bizning yangi maktab” bugungi kunda milliy ta’lim tizimini belgilangan strategiyasi va tashabbusiga ko‘ra, ta’lim tizimida malga oshiriladigan isloxotlarning bosh bo‘g‘ini bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va ular bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglar hisoblanadi.

Chunki boshlang;ich sinflarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar yuqori texnologiyalardan foydalanish orqali raqobat dunyosida sodir bo‘layotgan hayotiy vaziyatlariga tayyor bo‘lishlari mumkin va bu orqali o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini kashf qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Bu kabi natijlarga erishish jarayonlarida asosiy rol boshlang‘ich sinf o‘qituvchi pedagoglarning zimmasiga ma’uliyatni yuklaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan vazifalarni ajratib olishi va o‘z oldida turgan vazifalarni mas’uliyati va murakkabligini, pedagogik faoliyat jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tkazish va pedagogik qobiliyatlarni yuqori darajada rivojlantirishning ko‘nikma va malakalarini o‘zida shakilantirishi kerak. Oldimizda turgan muhum vazifalaridan biri bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va pedagog hodimlarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish faoliyatining zaruriyati va bunday faoliyatlarni amalga oshirishning akmeologik texnologiyaningni ishlab chiqish va amalyotga tadbiq etish. Biz taqdim etayotgan yondashuvlarni tadqiq etish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatlariga akmeologik yondashuv jarayonlarini o‘rganish lozim. Dastlab pedagog hodimlarning pedagogik qobiliyatlarini o‘rganish va tadqiq etish muammosini o‘rganish, tahlil qilish orqali shakillanadigan pedagogik qobiliyatlarning mohiyati va mazmuniga oid tadqiqotlarni A.Disterveg, P.G.Redkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiyning asarlari ham o‘rganishimiz mumkin.

Pedagogik faoliyatlari jarayonida bir qator mutaxasislarni asarlarini ham tahlil qilib o‘rganib chiqamiz. Pedagog mutaxasis Ananyev o‘z asarlarida va qarashlarida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va pedagog hodimlarining pedagogik qobiliyati

(cc) BY

muammosini birinchi bo‘lib ilmiy asoslagan va o‘z fikrlari orqali boshlang‘ich o‘qtuvchisining faoliyat jarayonlarini muammoli tomonlarini tahlil qilgan.

Bundan tashqari yan o‘qituvchilik qobiliyatlarini namoyon qilinishida duch kelinadigan muammolarini N.D.Levitov, F.N.Gonobolin, V.A.Krutetskiylar ham umumiy struktura asosida ta’riflashga harakat qilishgan. Biz boshlang‘ich sinf o‘qtuvchilarining o‘qitish qobiliyatlarini asosiy tarkibiy struktura va tuzulmasini V.A.Slasteninning ilmiy tadqiqotlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini shakillantirishda biz birinchi navbatda ularning kasbiy faoliyat samaradorligi, kasbiy qobilyatlarini rivojlanishni ta’minlaydigan shaxsiy fazilatlari, xususiyatlari shakillantirishning tizimli loyihalarini ishlab chiqish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘ziga xos pedagogik qobiliyatini rivojlantirish jarayonining asosiy mezoni bu kasbiy faoliyatning mahsuldorligi bo‘lib, bu orqali ularning natijasi ya’ni, bitiruvchilarining boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitishga ijodiy tayyorgarlik jarayonlarida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik faoliyat jarayonlarida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bir qator akmeologik omillarning kuchli va tizimli ta’siri bilan amalga oshiriladi. Bu kabi faoliyatlarni amalga oshirish va bu orqali Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishning akmeologik texnologiyalarni ishlab chiqish va yuzaga keladigan muamoli vaziyatlarni tahlil qilish bu amali jarayonlarda turli yuzaga keladigan vaziyatlarni va omillarni hisobga olish orqali bu jarayonlarning samaradorligini taminlay olamiz.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish va ularni faoliyat jarayonlarida rivojlanishini ta’minlaydigan akmeologik omillar orqali quyudagi qobilyatlar va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik eksperimental ravishda yuzaga chiqadi:

1. kasbiy faoliyat motivatsiyasi,
2. kasbiy yo‘nalish,
3. o‘z-o‘zini tarbiyalash,
4. o‘zini o‘zi tashkil etish,
5. o‘zini o‘zi qadrlash
6. shaxsning tipologik xususiyatlari. ,
7. kommunikativ faollik,
8. empatiya darajasi,
9. kasbiy faoliyatga qadrli munosabat,
10. talabalar bilan mos pedagogik munosabatlar o‘rnatish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning akmeologik darajasiga ega, kasbiy pedagogik faoliyatning eng yaxshi motivatsion kompleksiga ega bo‘lgan boshlang‘ich

(cc) BY

sinf o‘qituvchilari kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining ta’lim va kognitiv motivlarini shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlarni amalga oshirishlari aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимина, И. Театр и театрализованные игры // Дошкольное воспитание. – 2005. - № 1.

2. Цапкова, Ю. А. Развитие речи детей младшего дошкольного возраста в процессе театрализованной деятельности // Педагогическое мастерство: материалы междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2012 г.). – М., 2012.

3. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.

4. Jo‘Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.

5. Yo‘Ldosheva, M. S. Q., & Adashaliyeva, Z. S. Q. (2023). Mehnat darslarida ta’lim jarayonining tashkil etishning pedagogik tehnologiyalari. Science and Education, 4(2), 1026-1029.

6. Oribboyeva, D. D., & Botirova, Z. (2024). Kichik yoshdagi maktab o ‘quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 541-544.

7. Orifboeva, D. D. (2017). O‘RTA TA’LIM MAKTABDA TA’LIM-VA KOGNITIV JARAYONINI OPMAMLAYTIRISh. Yosh olimlar forumi , (6(10)), 1320-1323.

8. Ориббоева, Д. Д., & Мирзаахмедова, Д. М. (2024). Болаларда ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришнинг аҳамияти. Science and Education, 5(2), 595-599.

9. Xalimjanovna, A. M. (2022). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL LIFE IN DISABLED FAMILIES. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 2(5), 39-42.

10. Xalimjanovna, A. M. (2022). Raising a Child and Preparing Him for Social Life in the Works of Our Great Scientists. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(5), 38-41.

11. Asranbaeva, M. H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 121-123.

12. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o ‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

13. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O‘smirlar o‘rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.

14. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O‘SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.

O‘qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta’lim metodlarining samaradorligini oshirish yo‘llari

Zeboxon Shuhrat qizi Jaloldinova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotasiya: Ushbu maqolada ta’lim metodlari, jumladan, metod atamasi haqida so‘z yuritilgan va bir qator o‘quv-metodik usullar, o‘quv-metodik usullar, interaktiv usullar, interaktiv ta’lim, o‘qitish usullari, og‘zaki usullar, o‘qitish usullari, amaliy metodlar ro‘yxati keltirilgan. Sharqshunoslarning o‘qitish metodlari bu o‘z navbatida talabalar o‘zlashtirish samaradorligini oshirishini ta’kidlab o‘tdi**.**

Kalit so‘zlar: metod, metodik usul, ta’lim metodlari, o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi, interfaol ta’lim, o‘qitish metodi, ko‘zgazmali metod, amaliy metod, Farobiy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino

Ways to improve the effectiveness of educational methods in the experience of pedagogical skills of teachers

Zebokhon Shuhrat kizi Jaloldinova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article discusses teaching methods, including the term methodology, and lists a number of teaching methods, teaching methods, interactive methods, interactive teaching, teaching methods, oral methods, teaching methods, and practical methods. Oriental scholars emphasized that teaching methods, in turn, improve the efficiency of students’ learning.

Keywords: methodology, methodological methodology, teaching methods, cooperation between teachers and students, interfaith teaching, teaching methods, visual methods, practical methods, Pharisees, Beroea, Horazmi, Ibn Sino

Tarbiya metodlari ayni vaqtda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari haqida so‘z yuritadi. Jumladan “Metod” so‘zining ma’nosi yunonchadan olingan bo‘lib tarjimasi “tadqiqot usuli, maqsadga erishish yo‘li” kabi ma’nolarini bildiradi. Filosofiya lug‘atida ushbu tushuncha umumiy tarzda “maqsadga erishish usullari” deya sharhlab kelingan.

Ta’lim metodlaridan pedagog foydalanishda muayyan yo‘nalishidagi faoliyatning umumlashma loyihasini ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladigan jarayon. Mazkur loyiha amaliyotga o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining o‘zaro birlashuvi,

(cc) BY

o‘qitish va o‘qishga aniq harakatlar amallar yoki usullar majmui sifatida keng targ‘ib qilindi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo‘la olmaydi, buning boisi shuki ta’lim metodi, o‘zida, umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifodalaydi Metod, jumladan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchi o‘qish faoliyatini amalga oshirish sharti bo‘ladi. “Ta’lim metodi” atamasi bilan birga ko‘p joylarda “metodik usul” tushunchasi ham foydalaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanib kelgan.

Metodik usullarning turlari

- Namoyish (ko‘rgazmali obyektiv - tajriba, amaliy va aqliy harakatlarni namoyish etish va h.)

Masalan: o‘rganish

- Topshiriq berish

Masalan: yo‘l -yo‘riq ko‘rsatish

Ta’lim metodlari ham asosiy funktsiyalari bajara oladi va ularga quyidagilar kiradi:

- Ta’lim metodlari

1. Motivatsiyali
2. Tashkiliy
3. Rivojlantiruvchi
4. Ta’limiy
5. Tarbiyaviy

Ta’lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlarga asoslanib aniqlanadi.

- didaktik maqsad asosida
- ta’lim mazmuni asosida
- o‘quvchi-yoshlarning o‘quv ko‘nikmalarini puxta egallash va rivojlantirish darajasi asosida
- o‘qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarligi darajasini ko‘rsatish asosida

Metodlarimiz orasiga interfaol metodlar ham kiradi. Interfaol metodlar bu - o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro birgalikdagi harakatdir. “Interfaol” so‘zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “interact” so‘zidan olingan “Inter” bu-o‘zaro “act” - harakatdir. Interfaol metodlardan o‘qitish o‘quvchilaridan yuqori faollikni olingan ma’lumotlarni to‘la anglashda ijodiy yondashuv talab qiladi. Interfaol o‘qitishning asosiy mezonlari bu - norasmiy munozaralarni o‘tkazish, o‘quv materiallarini erkin ifodalash, ma’ruzalar sonini kamaytirish, talabalarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlik talab qiladigan guruhiy, jamoaviy vazifalarni va yozma ishlarni bajara olishdir.

Interfaol usullardagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga fikrini erkin bayon qilishga tashabbuskorlikka guruhlarda

(cc) BY

masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon eta olishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki o'zaro faollikda hal etish demakdir. Biz bunga interfaol ta'limni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Interfaol ta'limga quyidagilar kiradi:

1. Rolli o'yinlar
2. Loyihali ta'lim

a) Kreativ ta'lim

b) Evristik ta'lim

c) Ta'limda AKT

3. Muammoli ta'lim

Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida yoki o'quvchi o'qituvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u talaba va o'qituvchi muloqotlarda sodir bo'ladi.

O'quv jarayoninining sifati ko'p omillarga bog'liq hisoblanadi va ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Avvamlambor, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, talabalarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi. Chunki u qandaydir maqsadga qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirilishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. O'qitish metodi o'qituvchi va talabalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yilgan:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borilishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitishda metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilab beradi.

4. O'qitish metodining tushunarligi: o'qitishning yo'li o'rganish usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosligi

(cc) BY

7. O‘qitish metodikasi nazariya va amaliy hodisalarning muvofiqligi

O‘qitish metodlarini bilish manbalari bo‘yicha tasniflash ancha sodda bo‘lsa-da, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo‘yicha metodlar uch guruhga bo‘linadi va ular quyidagilardan iborat:

1. Og‘zaki metodlar (bilimlarni so‘z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma’lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash)

2. Ko‘rsatmali metod (rasmlar, namoyish, kuzatishlar)

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar)

Bular ma’lum darajada shartdir, chunki mazkur metodlarning barchasi o‘zaro chambarchas bog‘langan, ularni doim ham aniq chegaralab bo‘lmaydi.

Aytib o‘tilganidek, ta’lim metodlari tizimida og‘zaki bayon qilish metodlaridan foydalanish muhimdir.

Og‘zaki bayon qilish metodlariga quyidagilar kiradi:

1. Hikoya
2. Suhbat
3. Tushuntirish
4. Ma’ruza

Ta’lim sifatini va samaradorligini ta’minlashda ko‘rgazmali metodlardan foydalanish ham o‘z o‘rniga egadir.

- Namoyish
- Tasvir

Amaliy ishlar metodlari talabalar tomonidan o‘zlashtiriladi va nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko‘nikmalar va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyatlidir.

Amaliy metodlar talaba va o‘qituvchi bilan birgalikda yoki talabalar o‘rtasida olib boriladigan jarayon hisoblanib, quyidagilar turlari hisoblanadi:

- Mashq
- Laboratoriya
- Amaliy ishlar

Olimlar o‘zlarining o‘qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida talabalarga turli xil bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo‘llarini ham ko‘rsatishadi, ularni bilimlarning zarurligini shubxasiz ishontirish kerakligini uqtirgan Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tashkil qilish, hozirgi termunologiyadan foydalangan holda, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o‘qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Hamma qomusiy olimlar foydalangan o‘qitish metodlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Bular: ko‘rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino) bilimlarni bayon qilishning savol javobli yo‘llari (Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy),

(cc) BY

ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Farobiy, Al-Xorazmiy va boshqalardan iboratdir).

Muhammad Muso ibn al-Xorazmiy kelsak buyuk mutafakkirimiz o‘zgacha bo‘lgan ta’lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Farobiy esa ta’lim-tarbiya ishlarni nazariy yo‘llar bilan amalga oshirishga e’tibor bergan. Shuningdek, ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majburlay olish metodlaridan foydalanish g‘oyalarini ilgari surganlar. Abu Rayhon Beruniy fikricha, ta’lim oluvchilarga ta’lim berishda quyidagilarga e’tibor berib o‘tish lozimligini ta’kidlab o‘tganlar:

- ta’lim oluvchilarni zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik kerak chunki bu dars jadvaliga qo‘yilgan talablardan biri hisoblanadi;
- uzviylik va izchillik
- tahlil qilish va taqqoslash
- materialni ko‘rgazmali bayon etish

Abu Ali ibn Sino ta’limoti bo‘yicha ta’lim oluvchilarni jamoa tarzda o‘qitishni ta’kidlaydi. U ta’lim oluvchilarni o‘qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo‘ymaslik kerakligini ko‘p ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. Hasanboyev, X. A. To‘raqulov, I. Sh. Asqarev, N. O‘. Usmanov, “Pedagogika”, “Noshir”, Toshkent – 2018,

2. B. X. Xodjayev, “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”, “Sano-standart” nashriyoti, Toshkent – 2017, 61-bet.

3. B. Mavlonova, N. Vohidova, N. Raxmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, Toshkent – 2010, 55-bet.

4. O‘. M. Asqarova. M. Xayitboyev, M. S. Nishonov, “Pedagogika” Toshkent – 2018, 52-bet.

5. X. I. Ibragimov, U. A. Yo‘ldashev, X. Bobomirzayev, “Pedagogika tarixi va nazariyasi”, “O‘zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent – 2009, 38-bet.

6. “Pedagogika”, “O‘zbekiston Faylasuflar Milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent – 2010, 68-bet.

7. Jo‘Rakabirova, M. X. Q. , & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.

8. Oribboyeva, D. D. , & Botirova, Z. (2024). Kichik yoshdagi maktab o ‘quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 541-544.

9. Karimov, J. J. O. G. L. , & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o‘rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.

10. Ibragimova, D. R. (2024). O’QISHGA BO’LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH, O’ZLASHTIRMASLIKNI OLDINI OLUVCHI OMIL SIFATIDA. Results of National Scientific Research International Journal, 3(1), 194-200.

11. Ubaydullayeva, M. B. Q. (2023). Iroda va uning shaxs hayotidagi ahamiyati. Science and Education, 4(2), 958-961.

12. Абдуллаев, Т. У. Центральная предельная теорема для последовательностей зависимых бернуллиевых случайных величин.

Turli maqsadlarga javob beruvchi testlar orqali talabaning bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish

Muhayyoxon Abduvohid qizi Abdullayeva
abdullayevamuhayyo9598@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish uchun turli testlardan foydalanish yoritilgan. Standart va nostandart testlar hamda ularning turlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bu test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talablar keltirilgan. Nostandart testlardan namunalar keltirish orqali ularning farqi va qo'llashda samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: standart testlar, nostandart testlar, gomogen testlar, geterogen testlar, integrativ testlar, adaptiv testlar, mezonli-mo'ljal olish testlari

Control of the student's knowledge, skills and abilities through tests that meet different goals

Muhaiyokhan Abduvahid kizi Abdullayeva
abdullayevamuhayyo9598@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article covers the use of various tests to monitor students' knowledge, skills and abilities. Information about standard and non-standard tests and their types is provided. Also, the main requirements for these test assignments are listed. Their differences and effectiveness in use are shown by giving examples of non-standard tests.

Keywords: standard tests, non-standard tests, homogeneous tests, heterogeneous tests, integrative tests, adaptive tests, criterion-referenced tests

Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari. Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E. Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi matematik

(cc) BY

uslublar ham qo'llashni taqozo qildi. Bunday uslublar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi [1-8].

Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanish sohalari rivojlana boshladi. Test tuzuvchilar turli odamlarda ta'sirga javob berish vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo'yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan. O'quvchilar bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruhlarga ajratishga ham urinib ko'rilgan.

Standart testlar. Test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talab, har bir test muayyan mazmun, tarkib, yaxlitlik va strukturaga ega bo'lishi lozim.

Shuni nazarda tutgan holda, u topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida tahsil oluvchining egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'lishi zarur.

Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko'zga tashlanadi. Har bir test topshirig'i yaxlit topshiriqning bir bo'lagi sifatida muayyan mazmunni qamrab oladi va mahlum bir vazifani bajaradi, shu sababli ularning birortasini olib tashlash bilimlarni aniqlash jarayoni va sifatiga bevosita tahsir ko'rsatadi. Test topshiriqlarining strukturasiga topshiriqning o'zaro aloqadorligini amalga oshirish orqali erishiladi. Asosan, har bir test topshirig'i bir-biri bilan umumiy mazmun va erishilishi nazarda tutilgan natijalarning umumiy variatsiyasi orqali bog'liqligini ko'rish mumkin [8-17].

Standart pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: gomogen va geterogen testlarga ajratiladi.

Gomogen testlar - bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Geterogen testlar - bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, tahsil oluvchilarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik

(cc) BY

darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Nostandart testlar. Standart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, nostandart testlar o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi. Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, talabaning tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi. Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o`quvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, o`quvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin.Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim [18-35].

Mezonli-mo'ljal olish testlari o`quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur fanning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovar natijada tahsil oluvchilarning shu kursni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi. Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali o`quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi

Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni

(cc) BY

egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari haqida fikr yuritish lozim.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar:

1. Test topshirig'i mazmunining to'g'riligi;
2. Savolning mantiqiy jihatdan to'g'ri tanlanishi;
3. Test topshirig'i shaklining to'g'riligi;
4. Test topshirig'ining savol va javobning qisqaligi;
5. Test topshirig'i elementlarining to'g'ri joylashganligi;
6. Test topshirig'ining to'g'ri javoblari bir xil baholanishi;
7. O`quvchilarga test topshirig'ining bajarish bo'yicha bir xil ko'rsatma berilishi;
8. Ko'rsatmalarning test topshirig'i va mazmuniga mosligi.

Pedagogik amaliyotda aksariyat hollarda standart test topshiriqlaridan foydalaniladi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim muassasalarining ish tajribasini o'rganish natijasida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar va tayanch va xususiy kompetentsiyalarni nazorat qilish va baholashda nostandart test topshiriqlaridan ijobiy natijani berayotganligini ko'rsatdi.

Mazkur nostandart test topshiriqlari iSpring dasturiga kiritilib, adaptiv test topshiriqlariga aylantiriladi va amaliyotga joriy etiladi [10-36].

Ma'lumki, test topshiriqlarining qiyinlik darajasi o'rganilayotgan obyektning xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u tahsil oluvchilar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko'ra:

- Reproduktiv daraja;
- Produktiv daraja;
- Qisman-izlanishli daraja;
- Ijodiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish printsiplari ichida nazariya va amaliyot birligi muhim o'rin tutadi, shuni hisobga olgan holda o'quv maqsadlaridan talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash imkoniyatini yaratish zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quv topshiriqlarini tuzishda talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatda qo'llashini nazarda tutishi lozim. Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar o'quv materialini qayta ishlashi, moslashtirishi, loyihalashi, modellashtirishi, qayta aytib berishi talab etiladi.

Talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash o'quv maqsadiga erishish darajasini standart o'quv va test topshiriqlari vositasida aniqlash ko'zlangan natijani bermaydi. Shu sababli, quyida berilayotgan ko'p javobli, jadvalli nostandart test topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Nostandart testlardan namunalar:


(cc) BY

1. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning maxraji uchun quyidagi munosabat to‘g’rimi?

$$q < |1|$$

1. noto‘g’ri
2. to‘g’ri


Javob: 2



2. Ikkinchi hadidan boshlab har bir hadi o‘zidan oldingi hadga o‘zgarmas bironta d sonni qo‘shish natijasida hosil bo‘ladigan ketma-ketlikka … deyiladi. Ta’rifni to‘ldiring.

1. ketma-ketlik
2. geometrik progressiya
3. arifmetik progressiya
4. cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya

Javob: 3




3. 16 soni quyidagi progressiyaning qaysi birini hadi bo‘la oladi?

1. -5, 0, 5, …
2. -2, 4, -8, …
3. -4, -2, 0, …
4. 3, 7, 11, …


(cc) BY

Javob: 2 va 3




4. Quyidagi jumlalarni moslang:

1. -1, 3, 7, ...	1. Ishorasi almashinuvchi progressiya
2. -3, 6, -12, …	2. q=7 bo‘lgan geometrik progressiya
3. 25, 5, 1, …	3. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya
4. 2, 14, 98, …	4. O‘suvchi arifmetik progressiya
Javob:	
1. -1, 3, 7, ...	4. O‘suvchi arifmetik progressiya
2. -3, 6, -12, …	1. Ishorasi almashinuvchi progressiya
3. 25, 5, 1, …	3. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya
4. 2, 14, 98, …	2. q=7 bo‘lgan geometrik progressiya




5. 3, 5, 7, … ko‘rinishdagi arifmetik progressiyaning dastlabki 10 ta hadi yig’indisini topish ketma-ketligini to‘g’ri ko‘rsating.


1) ayirmasi topiladi;
2) n-had formulasidan 10- had topiladi;
3) 1-hadi belgilab olinadi;
4) Dastlabki n ta hadi yig’indisi formulasidan foydalanib yig’indi topiladi.




Javobi:



(cc) BY



6. 2, 4, 8, … geometrik progressiyaning maxraji va 5-hadini toping.
Maxraji: 2, 4, -2
5-hadi: 16, 10, 32
Javob. maxraji: 2; 5-hadi: 16



Xulosa. Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o’rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari haqida fikr yuritish lozim.

Mazkur printsip o`quvchilarning o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi. Shuni qayd etish kerakki, reyting tizimining nazorat turlari joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari bir-biridan nafaqat didaktik maqsadi, balki mazmuni va mazmunning yoritilish darajasi bilan farq qilishini nazarda tutish lozim. Test topshiriqlarining mazmunini tanlashda bilimlarning turlari va ularning o’ziga xosligini e’tiborga olish va mos ravishda shaklni tanlash lozim.

Shuni qayd etish kerakki, o’quv fani mazmuni o`quvchilar tomonidan shu kursga oid ilmiy bilimlarni o’zlashtirish jarayonida o’ziga xos va mos proektsiyani

(cc) BY

hosil qiladi. Yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo'llanishini e'tiborga olingan holda bob, bo'lim yoki kurs mazmunini to'liq qamrab olishini taqoza etadi. Shuningdek, yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlari o'zida kursning nazariy masalalari, tushunchalar, qonunlar va qonuniyatlar, gipotezalar, faktik materiallar, masala va mashqlarni mujassamlashtirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.–279b.

2. Nishonova Z.T Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent: -2003 y., 300 b

3. Мухитдинов Р.Т., Абдуллаева М.А. Крайние точки множества квадратичных операторов, определенных на S^1// Scientific progress, 1:2 (2021), с. 470-477

4. Мухитдинов Р.Т., Абдуллаева М.А. Эргодические свойства мер, порожденных одним классом квадратичных операторов// Проблемы науки, 63:4 (2021), с. 16-19.

5. Мухитдинов Р.Т., Абдуллаева М.А. Гипергеометрик тенглама, унинг ечимлари ва гипергеометрик функциялар ҳақида// science and education, 2(11). 2021, 128-140

6. Tosheva N.A., Ismoilova D.E. Ikki kanalli molekulyar-rezonans modelining rezolventasi //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 580-586.

7. Тошева Наргиза Ахмедовна. "О ветвях существенного спектра одной 3x3-операторной матрицы". Наука, техника и образование 2-2 (2021): 44-47.

8. Abdullayeva M.A. Ba'zi masalalarni yechishda arifmetik va geometrik progressiyaning tadbiqlari// Центр научных публикаций (buxdu. uz), 45:45 (2024), 239-244.

9. Abdullayeva M.A. Point spectrum of the operator matrices with the fredholm integral operators// Центр научных публикаций (buxdu. uz), 47:47 (2024), 153-161.

10. Абдуллаева М.А. Решение задач геометрии с использованием прогрессии и ее свойств// Центр научных публикаций (buxdu. uz), 47:47 (2024), с. 173-178

11. Абдуллаева М.А. Применение метода "Рыбий скелет" при решении задач арифметических прогрессии// Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8:8 (2022), с. 1156-1166.

12. Mukhiddinov R.T; Abdullayeva, M.A. Dynamics of convex combination of non-volterra quadratics stochastic operators// Амалий математика ва ахборот технологияларининг замонавий муаммолари -2021, 281-282;

13. M. Abdullayeva, "Чала квадрат тенглама" мавзусини ўқитишда "Бумеранг" технологияси// ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8:8 (2021), с. 1651-1660.

14. M. Abdullayeva, Aniq integralning tatbiqlari mavzusini o'qitishda" Charxpalak" texnologiyasi// ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8:8 (2021), с. 1410-1421.

15. M. Abdullayeva, "Determinant va ularning xossalari. Determinant tushunchasi va uni hisoblash" mavzusini o'qitishda svetofor metodini qo'llash// ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8:8 (2021), с. 1661-1670.

16. G'afurovna X. X. et al. Matematika fanini o 'qitishda ba'zi ilmiy-izlanish metodlarining qo 'llashning afzalliklari //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 109-113.

17. Sayliyeva, Gulrux Rustam Qizi. "Diskret matematika va matematik mantiq fanining «predikatlar mantig'i» bobi mavzularini tushuntirishda samarali yondashuv va undagi zamonaviy usul va metodlar." Scientific progress 2.1 (2021): 552-558.

18. Sayliyeva GRQ Diskret matematika va matematik mantiq fanida bul funktsiyalarni jegalkin ko'phadlariga yo'nalish mavzusini materiallarda "matematik domino" metodidan yuklash// Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – Yo'q. 2. – 773-780-betlar.

19. Sayliyeva G. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanidan "Ta'riflar, teoremalar, isbotlar, formulalar, misollar" usulidan foydalanish // ILMIY NASHRLAR MARKAZI (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – Yo'q. 8.

20. Sayliyeva G. Diskret matematika va matematik mantiq" fanining amaliyot darslarida o'tilgan mavzuni mustahkamlashda "g'oyaviy charxpalak","charxpalak" texnologiyasi va "assotsatsiyalar" metodlariidan foydalanish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

21. Sayliyeva G. Talabalarning o'qitilayotgan fanlarga qiziqishini oshirishda foydalaniladigan samarali pedagogik metodlar //ILMIY NASHRIYOTLAR MARKAZI (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – Yo'q. 44.

22. Jumayeva C. I. Q., Shukurova M. D. Q. Ikki noma'lumli birinchi tur Fredgolm integral tenglamalar sistemasining yechimi haqida //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 12-18.

23. Jumayeva C. I. Q., Dalliyev B. E. O. G. L. AJRALGAN YADROLI XUSUSIY INTEGRALLI OPERATORNING XOS QIYMATLARI VA REZOLVENTASI //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 219-222.

24. Jumayeva C. I. Q., Abduraxmonov M. U. O. G. L. FRIDRIXS MODELINING XOS FUNKSIYALARI UCHUN FADDEYEV TENGLAMASI VA UNING XARAKTERISTIK XOSSALARI //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 215-218.

25. Jumayeva C. Основы и способы развития речемыслительной деятельности школьников при обучении математике //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

26. Jumayeva C. Local inner derivations on four-dimensional lie algebras //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

27. M.Sh.Sharipova. Sodda irratsional tengsizliklarni yechish usullari // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 24 (24) (2022) p.50-55

28. D.E.Ismoilova, M.Sh.Sharipova. Algebraik kasrlarni ko'paytirish va bo'lish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 24 (24) (2022) 56-61 b.

29. M.Sh.Sharipova. Uchinchi tartibli operatorli matritsaning muhim spektr tarmoqlari: 1 o'lchamli hol // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 40 (40) (2023) 52-59 b.

30. M.Sh.Sharipova. Usual, quadratic and cubic numerical ranges corresponding to a 3×3 operator matrices// Bulletin of National University of Uzbekistan №5(4) (2023) 242-249 b.

31. Boboyeva M.N. Maktab matematika darslarida misol-masalalar yechish orqali turli kasblarga oid ma’lumotlarni singdirish. Science and Education 2:8 (2021), 496-504 b.

32. Boboyeva M.N. Differensial hisobning iqtisodda qo‘llanilishini takomillashtirish istiqbollari. Science and Education 2:8 (2021), 476-485 b.

33. Xayitova X. G. et al. Panjaradagi ikki o’lchamli qo’zg’alishga ega bilaplasian operatorining spektri va rezolventasi //Science and education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 55-64.

34. Xayitova X. OLMOS PANJARADAGI DISKRET SHRYODINGER OPERATORINING SPEKTRI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

35. Rasulov, H. (2021). Funksional tenglamalarni yechish bo‘yicha ba’zi uslubiy ko‘rsatmalar. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 5(5).

36. Xayitova X. FUNKSIONAL TENGLAMALAR YECHISHNING AYRIM METODLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

Mulohazalar hisobida isbotlanuvchi formulalar: nazariya, amaliyot va tahlil

Charos Ilhomjon qizi Jumayeva
charosjumayeva2801@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalari va zamonaviy pedagogik usul va metodlardan dars davomida samarali foydalanib, o‘tilayotgan mavzuni yaxshi o’zlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada diskret matematika va matematik mantiq fanining muhim mavzularidan biri hisoblanuvchi “Mulohazalar hisobining isbotlanuvchi formulalar” mavzusini talabalarga mazmunli tushuntirishda samarali yondashuvlar va amaliy mashg’ulot darslarida foydalanish mumkin bo’lgan interfaol metodlar, ularning afzalligi va kamchiligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: mulohazalar hisobi, isbotlanuvchi formula, “zinama-zina” metodi, “matematik bozor” metodi

Formulas that are proved in the calculus of reasoning: theory, practice and analysis

Charos Ilhomjon qizi Jumayeva
charosjumayeva2801@gmail.com
Bukhara state university

Abstract: Today, in the educational system, it is of particular importance to master the topic under study, effectively using computer technology and modern pedagogical methods and techniques throughout the lesson. In this article, one of the important topics of discrete mathematics and mathematical logic is the thinking of effective approaches to a meaningful explanation of the subject of the calculating “Provable formulas of feedback calculus” to students and interactive methods that can be used in practical training lessons, their advantage and disadvantage.

Keywords: feedback accounting, a verifiable formula, the “ladder-adultery” method, the “mathematical market” method

KIRISH. Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida talabalarga o‘qitiladigan har bir fanga ilmiy jihatdan chuqur yondashiladi va har bir mavzuni mukammal, eng so‘ngi ma’lumotlar bilan boyitilishiga katta e’tibor qaratilgan. Talabalar o‘tilgan mavzuni

(cc) BY

yaxshi tushunib, anglab yetishi, mavzuga doir ma’lumotlar uzoq vaqt esda qolishida dars davomida foydalaniladigan zamonaviy pedagogik usul va metodlarning o‘rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYA. Mulohazalar hisobi-aksiomatik mantiqiy sistema bo‘lib, mulohazalar algebrasi esa uning interpretatsiyasi(talqini)dir. Berilgan aksiomalar sistemasi negizida qurilgan aksiomatik nazariya deb shu aksiomalar sistemasiga tayanib isbotlanuvchi hamma teoremalar majmuasiga aytiladi. Aksiomtik nazariya formal va formalmas nazariyalarga bo‘linadi. Formalmas aksiomatik nazariya nazariy-to‘plamiy mazmun bilan to‘ldirilgan bo‘lib, keltirib chiqarish tushunchasi aniq berilmagan va bu nazariya asosan fikr mazmuniga suyanadi [1-10].

Endi mulohazalar hisobida isbotlanuvchi formulalar sinfini ajratamiz. Isbotlanuvchi formulalar formulalar ta’rifiga o‘xshash xarakterda ta’riflanadi. Avval dastlabki isbotlanuvchi formulalar (aksiomalar), undan keyin esa keltirib chiqarish qoidasi aniqlanadi. Keltirib chiqarish qoidasi orqali bor isbotlanuvchi formulalardan yangi isbotlanuvchi formulalar hosil qilinadi. Dastlabki isbotlanuvchi formulalardan keltirib chiqarish qoidasini qo‘llash yo‘li bilan yangi isbotlanuvchi formulalarni hosil etishga shu formulalarni aksiomalardan keltirib chiqarish deb aytiladi.

Mulohazalar hisobining aksiomalar tizimi XI aksiomadan iborat bo‘lib, bular to‘rt guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruh aksiomalari:

I_1 $x \to (y \to x)$.

I_2 $(x \to (y \to z)) \to ((x \to y) \to (x \to z))$.

Ikkinchi guruh aksiomalari:

II_1 $x \wedge y \to x$.

II_2 $x \wedge y \to y$

II_3 $(z \to x) \to ((z \to y) \to (z \to x \wedge y))$

Uchinchi guruh aksiomalari:

III_1 $x \to x \vee y$

III_2 $y \to x \vee y$

III_3 $(x \to z) \to ((y \to z) \to (x \vee y \to z))$.

To‘rtinchi guruh aksiomalari:

IV_1 $(x \to y) \to (\overline{y} \to \overline{x})$.

IV_2 $x \to \bar{\bar{x}}$

IV_3 $\bar{\bar{x}} \to x$.

O‘rniga qo‘yish qoidasi.

Agar A mulohazalar hisobining isbotlanuvchi formulasi, x o‘zgaruvchi, B mulohazalar hisobining ixtiyoriy formulasi bo‘lsa, u vaqtda A formula ifodasidagi

(cc) BY

hamma x lar o‘rniga B formulani qo‘yish natijasida hosil etilgan formula ham isbotlanuvchi formula bo‘ladi.

A formuladagi x o‘zgaruvchilar o‘rniga B formulani qo‘yish operatsiyasi (jarayoni)ni o‘rniga qo‘yish qoidasi deb ataymiz va uni quyidagi simvol bilan belgilaymiz.

$$\int_x^B (A)$$

Agar A isbotlanuvchi formula bo‘lsa, uni |–A shaklda yozishga kelishamiz.

U holda o‘rniga qo‘yish qoidasini quyidagicha sxematik ravishda ifodalash mumkin:

$$\frac{|-A}{|-\int_x^B (A)}$$

va uni “agar A isbotlanuvchi formula bo‘lsa, u vaqtda $\int_x^B (A)$ ham isbotlanuvchi formula bo‘ladi’’ deb o‘qiladi.

Xulosa qoidasi

Agar A va A→B lar mulohazalar hisobining isbotlanuvchi formulalari bo‘lsa, u holda B ham isbotlanuvchi formula bo‘ladi. Bu qoida quyidagicha sxematik ravishda yoziladi:

$$\frac{|-A; |-A \to B}{|-B}$$

Isbotlanuvchi formulaning ta’rifi.

a) Har qanday aksioma isbotlanuvchi formuladir;

b) Isbotlanuvchi formuladagi x o‘zgaruvchi o‘rniga ixtiyoriy B formulani qo‘yish natijasida hosil bo‘lgan formula isbotlanuvchi formula bo‘ladi [11-24].

v) A va A → B isbotlanuvchi formulalardan xulosa qoidasini qo‘llash natijasida olingan B formula isbotlanuvchi formuladir

g) Mulohazalar hisobining boshqa hech qanday formulasi isbotlanuvchi deb sanalmaydi.

1-ta’rif. Isbotlanuvchi formulalarni hosil etish protsessi (jarayoni)ga isbot qilish (isbotlash) deb aytiladi.

Endi aksiomalar talqinini misollarda ko’ramiz

2-misol. |– A → A ekanligini isbotlang.

|– (x → (y → z)) → ((x → y) → (x → z)) –I_2 aksiomadan foydalanamiz. Bu yerda $\int_z^x I_2$ o’rniga qo’yishni bajarish natijasida

|– (x → (y → x)) → ((x → y) → (x → x)) – (x → (y → z)) → ((x → y) → (x → z) kelib chiqadi (1)

I_2 aksioma va (1) formulaga xulosa qoidasini qo’llab |– (x → y) → (x → x) (2)

(cc) BY

formulani hosil qilamiz. (2) formulaga nisbatan quyidagi o‘rniga qo‘yishni

$$\int_{y}^{\overline{x}} (2)\ bajarish\ natijasida$$

$$|- (x \to \bar{\bar{x}}) \to (x \to x)\ (3)$$

isbotlanuvchi formulaga ega bo‘lamiz. IV_2 aksioma va (3) formulaga nisbatan xulosa qoidasini qo‘llash natijasida

$$|\text{-}x \to x\ (4)$$

Isbotlanuvchi formulaga kelamiz .Nihoyat (4) formuladagi x o‘zgaruvchi o‘rniga A formulani qo‘ysak

$$|\text{-}A \to A$$

Isbotlanishi kerak formula hosil bo‘ladi.

Amaliy mashg‘ulotlarini mazmunli va qiziqarli tashkillashtirishda bir qancha metodlardan xususan “Zinama-zina” metodidan foydalanish qulay. Ushbu mavzudagi 11 ta aksiomani yodlash uchun juda samarali metod hisoblanadi. Bunda talabalarni 2 guruhga bo‘lamiz. Zinamiz 11 ta pog’onadan iborat bo‘lib, har bir pog’onaga 1 ta aksioma yoziladi. Keyin esa ularning yozgan aksiomalari to‘g‘riligi tekshirilib g’olib aniqlanadi [20-28].

MUHOKAMA. Ushbu metodning afzalliklari: diqqatli bo‘lishga chorlaydi, axborotni tanlab olish ko‘nikmasini shakllantiradi, o‘z fikrini to‘g‘ri, aniq-ravon ifodalashga o‘rgatadi.

Kamchiliklari: deyarli aniqlanmagan.

Amaliy mashg‘ulot darslarini yanada qiziqarli tashkillashtirishda «Matematik bozor» metodidan foydalanish juda ham samaralidir. Bunda savollar varaqchasining orqasiga savollarning qiyinchilik darajasiga qarab pul miqdorlari yoziladi. Agar talaba o‘sha savolni yecha olsa shu ballni oladi. Yechilgan misollar talabalar bilan birga tahlil qilinadi.

NATIJA. Metodning afzalliklari: Ushbu metod talabalarni yana harakatchan, tirishqoq bo‘lishga undaydi. Fanga nisbatan qiziqishini oshiradi. Erkin, aniq va to‘g‘ri, mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Natijada fan yuzasidan bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Metodning kamchiliklari: biroz vaqtni ko‘proq talab qiladi.

“Matematik bozor” metodini qo‘llaganimizda varaqchalar quyidagicha tayyorlanishi mumkin.

O‘rniga qo‘yish va xulosa qoidalarini qo’llab quyidagi formulalarni isbotlanuvchi ekanligini ko’rsating.

1) $A \vee A \to A$ 3) $A \wedge B \to B \wedge A$

2) $A \to A \wedge A$ 6) $A \vee B \to B \vee A$

(cc) BY

XULOSA. Ma’lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan matematika fani va uni amaliyotda qo‘llashni rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, bir qator qarorlar imzolangan. Qarorlar ijrosini ta’minlashning negizida albatta fanni talabalarga ilg‘or pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish yotadi. Maqolada tavsiya qilingan “Zinama-zina” va “Matematik bozor” metodlari talabalar tomonidan ijobiy baholanib kelinmoqda. Shu kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalar bir qator ilmiy izlanishlarda [29-33] ham tavsiya qilingan va ulardan foydalanish yo‘llari misollar yordamida tushuntirib berilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda nazariyaning amaliy tadbiqlarini kengaytirish dolzarbligini inobatga olib, kelgusida matematikani boshqa fanlar bilan integratsiyasi haqida ma’lumotlar berish ham muhim ahamiyat kasb etishi keng yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev H., Azizov I., “Matematik mantiq va diskret matematika”. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik: II jildlik.-Toshkent: Tafakkur-Bo’stoni, 2011. – 208 bet. 231-232

2. Jumayeva C. I. Q., Shukurova M. D. Q. Ikki noma’lumli birinchi tur Fredgolm integral tenglamalar sistemasining yechimi haqida //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 12-18.

3. Jumayeva C. I. Q., Dalliyev B. E. O. G. L. Ajralgan yadroli xususiy integralli operatorning xos qiymatlari va rezolventasi //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 219-222.

4. Jumayeva C. I. Q., Abduraxmonov M. U. O. G. L. Fridrixs modelining xos funksiyalari uchun faddeyev tenglamasi va uning xarakteristik xossalari //Scientific progress. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 215-218.

5. Jumayeva C. Основы и способы развития речемыслительной деятельности школьников при обучении математике //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

6. Jumayeva C. Local inner derivations on four-dimensional lie algebras //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

7. Jumayeva C. “Jegalkin ko ‘phadi” mavzusini o ‘qitishda interfaol metodlarni qo ‘llash //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.

8. Jumayeva C. Ba’zi to ‘rt o ‘lchamli li algebralarining lokal ichki differensiallashlari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.

9. qizi Jumayeva C. I. “Charxpalak” va” uchta to ‘g ‘ri bitta no ‘to ‘g ‘ri” metodlarining “jegalkin ko ‘phadi” mavzusini o ‘rgatishdagi o ‘rni //Zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o ‘rni. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 66-68.

(cc) BY

10. Мухитдинов Р.Т., Абдуллаева М.А. Крайние точки множества квадратичных операторов, определенных на S^1// Scientific progress, 1:2 (2021), с. 470-477

11. Мухитдинов Р.Т., Абдуллаева М.А. Эргодические свойства мер, порожденных одним классом квадратичных операторов// Проблемы науки, 63:4 (2021), с. 16-19.

12. Мухитдинов Р.Т., Абдуллаева М.А. Гипергеометрик тенглама, унинг ечимлари ва гипергеометрик функциялар ҳақида// science and education, 2(11). 2021, 128-140

13. Tosheva N.A., Ismoilova D.E. Ikki kanalli molekulyar-rezonans modelining rezolventasi //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 580-586.

14. Тошева Наргиза Ахмедовна. "О ветвях существенного спектра одной 3x3-операторной матрицы". Наука, техника и образование 2-2 (2021): 44-47.

15. Abdullayeva M.A. Ba'zi masalalarni yechishda arifmetik va geometrik progressiyaning tadbiqlari// Центр научных публикаций (buxdu. uz), 45:45 (2024), 239-244.

16. Abdullayeva M.A. Point spectrum of the operator matrices with the fredholm integral operators// Центр научных публикаций (buxdu. uz), 47:47 (2024), 153-161.

17. G’afurovna X. X. et al. Matematika fanini o ‘qitishda ba’zi ilmiy-izlanish metodlarining qo ‘llashning afzalliklari //Scientific aspects and trends in the field of scientific research. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 109-113.

18. Sayliyeva, Gulrux Rustam Qizi. "Diskret matematika va matematik mantiq fanining «predikatlar mantig’i» bobi mavzularini tushuntirishda samarali yondashuv va undagi zamonaviy usul va metodlar." Scientific progress 2.1 (2021): 552-558.

19. Sayliyeva GRQ Diskret matematika va matematik mantiq fanida bul funktsiyalarni jegalkin ko'phadlariga yo'nalish mavzusini materiallarda “matematik domino” metodidan yuklash// Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – Yo‘q. 2. – 773-780-betlar.

20. Sayliyeva G. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanidan “Ta’riflar, teoremalar, isbotlar, formulalar, misollar” usulidan foydalanish // ILMIY NASHRLAR MARKAZI (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – Yo‘q. 8.

21. Sayliyeva G. Diskret matematika va matematik mantiq” fanining amaliyot darslarida o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda “g’oyaviy charxpalak”, “charxpalak” texnologiyasi va “assotsatsiyalar” metodlariidan foydalanish //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

22. Sayliyeva G. Talabalarning o'qitilayotgan fanlarga qiziqishini oshirishda foydalaniladigan samarali pedagogik metodlar //ILMIY NASHRIYOTLAR MARKAZI (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – Yo‘q. 44.

(cc) BY

23. M.Sh.Sharipova. Sodda irratsional tengsizliklarni yechish usullari // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 24 (24) (2022) p.50-55

24. D.E.Ismoilova, M.Sh.Sharipova. Algebraik kasrlarni ko'paytirish va bo'lish mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 24 (24) (2022) 56-61 b.

25. M.Sh.Sharipova. Uchinchi tartibli operatorli matritsaning muhim spektr tarmoqlari: 1 o'lchamli hol // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 40 (40) (2023) 52-59 b.

26. Rasulov, R. X. R. (2022). Buzilish chizig'iga ega kvazichiziqli elliptik tenglama uchun Dirixle-Neyman masalasi. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 18(18).

27. Rasulov, R. X. R. (2022). Иккита перпендикуляр бузилиш чизиғига эга бўлган аралаш типдаги тенглама учун чегаравий масала ҳақида. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 22(22).

28. Boboyeva M.N. Differensial hisobning iqtisodda qo'llanilishini takomillashtirish istiqbollari. Science and Education 2:8 (2021), 476-485 b.

29. Xayitova X. G. et al. Panjaradagi ikki o'lchamli qo'zg'alishga ega bilaplasian operatorining spektri va rezolventasi //Science and education. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 55-64.

30. Xayitova X. Olmos panjaradagi diskret shryodinger operatorining spektri //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

31. Xayitova X. Funksional tenglamalar yechishning ayrim metodlari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.

32. M.Sh.Sharipova. Usual, quadratic and cubic numerical ranges corresponding to a 3×3 operator matrices// Bulletin of National University of Uzbekistan №5(4) (2023) 242-249 b.

33. Boboyeva M.N. Maktab matematika darslarida misol-masalalar yechish orqali turli kasblarga oid ma'lumotlarni singdirish. Science and Education 2:8 (2021), 496-504 b.

Yig‘indi va ayirmaning kvadrati, kvadratlar ayirmasiga doir misollar yechishda interfaol metodlardan foydalanish

Mubina Shodmonovna Sharipova
m.sh.sharipova@buxdu.uz
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayonlarni tashkil etishda, xususan, o‘quvchilarga “Yig‘indi va ayirmaning kvadrati, Kvadratlar ayirmasiga doir misollar yechish” mavzusini o‘rgatish davomida interfaol usullarni qo‘llash orqali ularning qiziqishlarini oshirish ko‘zda tutilgan. “Charxpalak”, “Mosini top”, “Zanjir” kabi o‘yinlarining mavzuga tatbiqlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, qisqa ko‘paytirish formulalari, “charxpalak”, “mosini top”, “zanjir”

Use of interactive methods when solving examples by square of sum and difference, difference of square

Mubina Shodmonovna Sharipova
Bukhara State University

Abstract: This article intends to increase the interest of students through the use of interactive methods in organizing the pedagogical process, in particular, when teaching the topic “Square of sum and difference, solving examples of difference of squares”. Applications of such games as “Mill”, “Find right one”, “Chain” are presented.

Keywords: interactive methods, brief multiplication formulas, “mill”, “find right one”, “chain”

Jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi zamonda o‘quvchilardan minimal vaqt va kuch sarflab ko‘proq bilim olishni talab qiladi. Bunda ta’limda interfaol usullarni qo‘llash juda samarali hisoblanadi va kerakli natijani beradi. Interfaol metodlarni darslar davomida qo‘llash darsning sifatini va samaradorligini oshiradi. Interfaol usullarni darslarda qo‘llash talabalarni mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash, diqqatni jamlash, bahs-munozara yuritish, o‘z fikrlarini bayon qilish va uni himoya qilish, jamoada ishlash malakasi shakllanadi. Shuning bilan darslarda interfaol usullarni qo‘llash o‘qituvchidan katta tayyorgarlik va mahorat talab qiladi.

(cc) BY

Interfaol ta’lim metodlari eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin.

O‘quv jarayoni asosiy pedagogik jarayonlardan biri bo‘lib, uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogik metod va vositalaridan to‘g‘ri va mohirona foydalanishga bog‘liq. Metod va vositalar ta’lim jarayonining eng muhim tarkibiy qismlari bo‘lib, ulardan foydalanmasdan o‘quvchilarni tarbiyalashda kerakli natijaga erishish mumkin emas. O‘qituvchining vazifasi - o‘qitishning eng mos metodlari va vositalaridan foydalanish orqali kognitiv qiziqishni uyg‘otadigan shart-sharoitlarni yaratishdir. O‘qitish ta’lim jarayonini tashkil etish usulidir. Bu tizimli ta’lim olishning eng ishonchli usuli bo‘lib hisoblanadi. Har qanday turdagi ta’limning markazida ayni bir tizim mavjud: o‘qitish va o‘rganish.

Bugungi kunda pedagogik metodlar ta’lim, tarbiya va rivojlanish jarayoniga qaratilgan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi tartibli munosabatlarning usullaridan biridir. Zamon rivojlanarkan, o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishga yondashuv ham doimiy ravishda takomillashtirilmoqda, yangi texnikalar, texnologiyalar paydo bo‘lmoqda. Agar an’anaviy va zamonaviy usullarni solishtiradigan bo‘lsak, unda ikkinchisi talabani markazga qo‘yishi bilan farqlanadi. Bu faol model bo‘lib, talaba nafaqat o‘qituvchining ma’ruzasini tinglaydi, qayd qiladi va eslaydi, balki jarayonga sho‘ng‘iydi. Ushbu zamonaviy o‘qitish usullaridan “Charxpalak”, “Zanjir”, “Mosini top” kabi o‘yinlar mavjud bo‘lib, ushbu ishda ular va “Yig‘indi va ayirmaning kvadrati, Kvadratlar ayirmasiga doir misollar yechish” mavzusini o‘rgatishda ulardan foydalanish misollarini ko‘rib chiqamiz.

Pedagogik jarayonlarda interfaol usullarning qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, [1]-[3] ishda arifmetik va geometrik progressiya tushunchalari va cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyalar bilan bog‘liq masalalarni yechish usullarini o‘rganilgan Ushbu usullardan foydalanib, turli masalalarni yechish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ayrim masalalarni arifmetik va geometrik progressiya yordamida yechishga misollar keltirilgan.

[4-8] ishlarda Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar asosida interfaol usullardan foydalanish, o‘quvchilarning fanga nisbatan qiziqishini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ayrim mulohazalar berilgan.

[9-20] maqolalarda bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilayotgan aniq fanlar bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanilganda samarali natija beradigan pedagogik usullar haqida so‘z yuritilgan. Jumladan, “Skallama”,

(cc) BY

“Ekspress testlar” kabi pedagogik usullardan foydalanish metodikasi, ularning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan. Shuningdek, talabalarning amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirokini ta’minlash, shu orqali fanga qiziqishlarini oshirish yo‘llari ham ko‘rsatilgan.

Interfaol usullar o‘qituvchiga darsda o‘quvchilarni o‘ziga jalb etish, ularni faol ishtirok etishga, natijalarga erishishga va birgalikda ishlashga undashga yordam beradi. Ularning qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan [21-30].

“Algebra” kursidan ma’lumki, “Yig‘indi va ayirmaning kvadrati, Kvadratlar ayirmasiga doir misollar yechish” mavzusi “Qisqa ko‘paytirish formulalari” mavzusidan so‘ng o‘tiladi va o‘quvchi ular haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lsagina, bu kabi misollarni tushunib, ishlaydi. Shu sababli, yangi mavzudan oldin o‘tilgan mavzularni mustahkamlash o‘quvchilarni yangi mavzuni osonroq tushunishga tayyorlaydi. Darsning mustahkamlash qismida o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, “Charxpalak metodi”dan quyidagicha foydalanish mumkin:

Har bir guruhga bir tomonida savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Bunda birinchi kartochkada savolning orqa tomonida “Start” yozuvi, charxpalakning so‘nggi “pallasi”da “End” yozuvi yozilgan bo‘ladi. Har bir guruh birgalikda “Charxpalak”ni quradi va uni muhokama qiladi. Kartochkalarda savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1-guruh uchun:

1. Yig‘indining kvadrati formulasini yozing.
2. $(c+d)^2 =$
3. Ayirmaning kvadrati formulasini yozing.
4. $(x-3)^2 =$
5. $(90^2 - 1^2) =$

2-guruh uchun:

1. Kvadratlar ayirmasi formulasini yozing.
2. $(7-m)^2 =$
3. $(2+x)^2 =$
4. Yig‘indining kvadrati formulasini yozing.
5. $(90-1)^2 =$

1-guruh javoblari:

1. $(a+b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$
2. $(c+d)^2 = c^2 + 2cd + d^2$
3. $(a-b)^2 = a^2 - 2ab + b^2$
4. $(x-3)^2 = x^2 - 6x + 9$
5. $(90^2 - 1^2) = (90+1)(90-1) = 91 \cdot 89 = 8099$

2-guruh javoblari:

1. $(a^2 - b^2) = (a+b)(a-b)$

(cc) BY

2. $(7-m)^2 = 49 - 14m + m^2$
3. $(2+x)^2 = (4 + 4x + x^2)$
4. $(a+b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$
5. $(90-1)^2 = (90^2 - 2 \cdot 90 \cdot 1 + 1^2) = 7921$

“Charxpalak metodi” asosan kichik guruhlar orasida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq va ushbu metodda kichik guruhlarga muvofiq vazifalar beriladi. Har bir guruh tarqatma qog‘ozlarni bir-birlariga uzatib, boshqalarning ishiga tuzatishlar kiritadi va oxirida boshlangich qog‘oz o‘ziga qaytadi. Guruhlar o‘z ishlarini takomillashtirib, taqdimot qiladilar. Metodning afzalliklariga o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, bo‘shliqlarni aniqlab, ularni to‘ldirish, guruh bo‘lib ishlash kabilar kiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yangi mavzuni o’zlashtirishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o‘tishi mumkin. Yangi mavzu bayoni quyidagicha olib borilishi tavsiya qilinadi

Ikki son yig‘indisining ularning ayirmasiga ko‘paytiramiz:

$$(a+b)(a-b) = a^2 - ab + ab - b^2 = a^2 - b^2$$

Ya’ni,

$$(a+b)(a-b) = a^2 - b^2 \ (1)$$

$$a^2 - b^2 = \ (a+b)(a-b) \ (2)$$

Ikki son kvadratlarining ayirmasi shu sonlar ayirmasi bilan ular yig‘indisining ko‘paytmasiga aytiladi. (1) va (2) tenglikda a, b istalgan sonlar yoki algebraik ifodalardir:

1. $(nm + 3k)(nm - 3k) = n^2m^2 - 9k^2$

(1) formula ham qisqa ko‘paytirish formulasi deyiladi. Uni hisoblashlarni soddalashtirish uchun qo‘llaniladi.

Masalan,

$$63 \cdot 57 = (60+3)(60-3) = 3600 - 9 = 3591$$

$$98 \cdot 102 = (100-2)(100+2) = 10000 - 4 = 9996$$

(2) Tenglik kvadratlar ayirmasi formulasi deyiladi. U ko‘phadlarni ko‘paytuvchilarga ajratishda qo‘llaniladi.

Masalan,

$$a^2 - 9 = (a+3)(a-3)$$

$$(a-b)^2 - 1 = (a-b+1)(a-b-1)$$

12. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 104-114. Retrieved from https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5204

13. Jumaniyozov, I. T., & Abdumannobov, A. M. (2020). MANAGING PUBLIC DEBT. In Ключевые проблемы современной науки (pp. 3-7).

14. Jumaniyozov, I. T., & Bakhodirkhujayev A.F. (2020). ISSUES AND CHALLENGES FOR THE IMPLEMENTATION OF MACROPRUDENTIAL POLICY IN UZBEKISTAN. In Ключевые проблемы современной науки (pp. 8-11).

15. T. Jumaniyazov, & A. Khaydarov. (2023). THE İMPACT OF UZBEKİSTAN’S SOVEREİGN WEALTH FUNDS ON ECONOMİC GROWTH. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 10, 1-7. Retrieved from https://www.americanjournal.org/index.php/ajrhss/article/view/495

(cc) BY

Кичик саноат зоналарининг мазмун-моҳияти, илмий-назарий асослари

Шахноза Элшодовна Маннапова
shaxnozamannapova85@mail.ru
Тошкент молия институти

Аннотация: Мақолада инвестицион фаолликнинг моҳияти ва меъёрий-ҳуқуқий асосларини илмий тадқиқ қилиш, кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни оширишнинг шарт-шароитлари ва омилларини очиб бериш, саноат зоналарида инвестицион фаолликни оширишнинг хориж тажрибаларини ўрганиш ва фойдаланиш имкониятларини кўриб чиқишга асосланган.

Калит сўзлар: кичик саноат зоналари, инвестиция дастури, инвестицион лойиҳа, инвестицион фаоллик, консалтинг, эмиссия, инвестицион салоҳият, инвестиция муҳити, инвестицион ресурс

The essence, scientific and theoretical foundations of small industrial zones

Shakhnoza Elshodovna Mannapova
shakhnozamannapova85@mail.ru
Tashkent Financial Institute

Abstract: In the article, the scientific research of the nature and constructions-legal bases of investment activity, the conditions and factors of the production of investment activity in small industrial zones, the study of foreign experiences of the development of investment activity in industrial zones and the consideration of the basis of profit.

Keywords: small industrial zones, investment program, investment project, investment activity, consulting, emission, investment potential, investment environment, investment resource

Бугунги иқтисодий глобаллашув шароитида ҳудудий иқтисодиётни ривожланишига таъсир этувчи муҳим омиллардан бири - кичик ва ўрта тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, ҳудудий иқтисодиёт тармоқларига инвестицияларни жалб этиш орқали ишлаб чиқариш қувватларини ташкил этиш ва уларни модернизация қилиш ҳамда бу орқали янги иш ўринларини

(cc) BY

яратиш ҳисобланади. Бу борада, узоқ йиллардан буён иқтисодий ривожланиши жиҳатдан бошқа ҳудудларга нисбатан рентабеллиги паст бўлган ҳудудларни инновацион ривожлантиришда тобора кўпроқ фойдланиб келинаётган усуллардан бири - саноат зоналарини барпо этиш ҳисобланади.

Ушбу йўналишда олиб борилган илмий тадқиқотларнинг натижаси шуни кўрсаткмоқдаки, кўплаб ривожланган ва ривожланаётган давлатларнинг ҳудудий-иқтисодий ривожланишидаги асосий механизмлардан ҳисобланган кичик ва ўрта тадбиркорликни ривожлантириш йўналишида турли хил кўринишдаги заноат зоналари, технопарк ва технополисларни ташкил этишдир. “Ҳозирги кунда АҚШ ва Хитойда 400 тадан, Германияда 200 та, Туркияда 262 та, Вьетнамда 200 га яқин индустриал парклар фаолият юритмоқда”.[1]

Жаҳон мамлакатларида кам ривожланган ва иқтисодий жиҳатдан тараққий этмаган ҳудудларда индустриал парклар, технополислар ва саноат зоналарини ташкил этиш орқали ривожлантириш, бу орқали иқтисодий салоҳият ва ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, йирик ва кичик ишлаб чиқариш корхоналари ўртасидаги саноат кооперациясини чуқурлаштириш, кичик саноат зоналари жойлашган ҳудудлардаги инвестицион жозибадорликни ошириш, шу асосда рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда аҳоли бандлигини ошириш масалаларининг илмий тадқиқотига алоҳида эътибор қаратилмоқда.[2]

Юқоридаги фикр ва мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, кичик саноат зоналарининг мазмун-моҳияти ва илмий асосларини ташкил этувчи илмий тадқиқотлар билан танишиб ўтиш ўринлидир. Кичик саноат зоналарини барпо этиш тажрибаси эволюцияси шуни кўрсатадики, мазкур тушунча ҳар бир давлат ва ҳудудда турли номлар билан атаб келинган. Уларнинг умумий мазмуни эса “саноат зоналари”, “индустриал парклар”, “технополислар” каби тушунчалар орқали ифодаланилади.

Мазкур йўналишда илмий тадқиқотлар олиб борган иқтисодчи олимлардан В.Миллберг ва М.Аменгуал томонидан олиб борилган тадқиқотларда, индустрила парклар фаолияти иқтисодий жиҳатдан “қолоқ” ҳудудлар учун яхши “мотивация” вазифасини ўтайди. Уларнинг фикрича, индустриал парклар - иқтисодий ривожланиш учун ажратилган кичик ишлаб чиқариш майдонлари бўлиб, уларнинг қулайлиги махсус иқтисодий ёки эркин иқтисодий зоналар сингари йирик ишлаб чиқариш инфратузилмасини талаб этмасдан ташкил

[1] Смольянинова Т.Ю. Индустриалные парки в региональной экономике: механизм создания, преспективы развития. Автореферат диссертации. – Воронеж, 2015.

[2] Салимов Б.Т., Салимов Б.Б. “Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш”. – Т.: Иқтисодиёт, 2020. – 135 б

(cc) BY

этилади.[3] Шунингдек, мазкур олимлар, индустриал парклар фаолиятига хорижий инвестицияларни жалб этишда маҳаллий давлат органларининг фаол аралашувини алоҳида таъкидлаб, бу жараён "минималлаштирилиши керак"лигини алоҳида қайд этиб ўтишади. Мазкур олимларнинг тадқиқотлари кичик саноат зоналарини ташкил этишда муҳим ўрин тутиши билан биргаликда, уларнинг тадқиқотларида кичик саноат зоналари учун зарурий инфратузилмани хорижий инвесторларнинг ўзлари томонидан шакллантирилишига алоҳида урғу берилган.

Аммо, бу борада ривожланган давлатлар тажрибасидан маълумки, саноат зоналари учун зарурий инфратузилма давлат томонидан хозирланмаган ҳолларда саноат зоналарининг инвестицион жозибадорлиги юқори бўлмайди. Бу ўз навбатида мазкур тадқиқотчиларнинг саноат зоналарининг инвестицион жозибадорлигини етарли даражада ҳисобга олмаганликларини кўрсатади.

Тадқиқотчи олим А.Агарвалнинг 2007 йилда эълон қилинган "Impact of SEZ on Employment, Powerty and Human Development" номли тадқиқот натижаларида саноат зоналарининг, хусусан кичик бизнес вакиллари учун мўлжалланган саноат зоналарининг ҳудудий банкдликни таъминлашда ва инсон ресурсларини ривожлантиришдаги ўрнига алоҳида эътибор берилган. Жумладан, мазкур тадқиқот ишида махсус саноат зоналарининг "кичиклаштирилган" вариантлари нисбатан паст ривожланган йирик ҳудудларнинг аҳоли зич истиқомат қиладиган жойлари учун самарали ҳисобланиб, йирик саноат ишлаб чиқаришдан ҳоли бўлган ҳудудлари ҳисобланади. Мазкур ҳудудларда малакали бўлмаган арзон ишчи кучини ўқитиш мазкази (ушбу саноат зоналарининг ўзида ташкил этилиши мумкин бўлган) орқали уларнинг малакаси ишчи кучи сифатида қайта тайёрланиб, иқтисодий фаол қатлам шакллантирилади. Шунингдек, ушбу саноат зоналарининг инвестиция имкониятларини оширишда фақатгина хорижий инвесторлар эмас, балки маҳаллий инвесторларнинг имкониятларидан фаол фойдланиш мумкин. Бунда уларда солиқ, маъмурий ва бошқа кенг кўламли, ҳатто хорижий инвесторлар учун махсус "виза режимлари" жорий этилиб, инвестицион имкониятларни ошириш керак.[4]

Мазкур тадқиқотчи олимнинг фикрий мулоҳазасига ҳамфикр бўлган республикамиздаги иқтисодчи олимлардан Ж.Каримқулов томонидан "Эркин иқтисодий зоналарнинг муайян бир тури сифатида кичик саноат зоналари бўш турган ёки фойдаланилмаётган бино ва иншоотлар негизида барпо этилаётган кичик саноат зоналар давлат ва хусусий сектор ўртасидаги шерикликнинг

[3] W. Millberg, M. Amengual. Economic Development and Working Conditions in Export Processing Zones: A Survey of Trends. ILO Office, Geneva, 2008. 68 p.

[4] A.Agarwal. Impact of SEZ on Employment, Powerty and Human Development. Worning paper. 194. CRIER, May2007

(cc) BY

нодир намунаси сифатида иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини таъминлаш, янги иш ўринлари барпо этиш, экспорт салоҳиятини оширишда қўл келиши" таъкидланади. Ж.Каримқуловнинг асосий тадқиқотлари "Эркин иқтисодий ҳудудларга хорижий инвестицияларни жалб қилишни ривожлантириш йўналишлари"га бағишланган бўлиб, кичик саноат зоналари фаолияти умумий ёндашилган, уларнинг инвестицион имкониятлари етарлича ёритилмаганлиги боис, кичик саноат зоналарининг инвестицион фаолиятини оширишда илмий изланишлар олиб бориш муҳим эканлигини кўрсатади.

Ушбу тадқиқотда Ўзбекистон иқтисодиётида кичик саноат зоналарининг тутган ўрни ва аҳамияти атрофлича очиб берилишига қарамасдан, кичик саноат зоналариннг ҳудудий иқтисодий ўсишга таъсири турли эконометрик моделлар орқали асосланиши эътибордан четда қолган жиҳатлардан биридир.

Бундан ташқари, иқтисодчи олимлардан М.Раимжановнинг тадқиқотларида кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришнинг ҳозирги ҳолати, уларга киритилаётган инвестициялар, ажратилаётган кредитлар таҳлили ёритилган ҳамда кичик бизнесни ривожлантириш юзасидан хориж тажрибаси ўрганилиб тегишли хулоса ва таклифлар келтирилган. Бу борада кичик саноат зоналари фаолиятини ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда ташкил этиш кўриб чиқилган[5].

Ҳусусан, тадқиқотчи олим ўз фикрини ривожланган давлатлардан бири - АҚШда ташкил этилган кичик бизнес вакиллари учун мўлжалланган "тадбиркорлик ҳудудлари" мисолида кўриб ўтган. АҚШда тадбиркорлик ҳудудлари (ТҲ) молиявий имтиёзлар бериш орқали кичик ва ўрта бизнесни жонлантиришга қаратилган минтақавий сиёсатнинг неоконсерватив вариантининг маҳсули сифатида вужудга келган. Бу ерда эркин иқтисодий ҳудуднинг бошланғич тушунчаси йўқотилади, чунки божхона имтиёзлари иккинчи даражали ёки умуман йўқ бўлиб қолади, асосий ролни эса, турли солиқ, молиявий ва маъмурий рағбатлантиришлар ўйнайди.


Ҳозирги пайтда АҚШнинг жами 700 та шаҳри ва шаҳарга қарашли ҳудудларида 1400 дан ортиқ ТҲ фаолият кўрсатмоқда. Бу ҳудудларнинг тез тарқалиши уларда фаолият юритувчи америка компанияларига бериладиган молиявий- иқтисодий ва бошқа имтиёзлар билан боғлиқ. Барча турдаги ТҲда давлат дастурининг асосий мақсади ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва ишсизликни камайтиришдир. Федерал миқёсдаги ТҲга кўрсатиладиган иқтисодий рағбатлантириш ва имтиёзлар қуйидагича: қурилиш ва таъмирлаш ишларида тўланадиган солиқдан 5% чегирма, корхона томонидан ҳар бир

[5] Раимжанова М.А. Эркин тадбиркорлик ҳудудлари фаолиятини ривожлантириш кичик бизнес ва тадбиркорликни рақобатбардошлигини ошириш омили сифатида. "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 4, август, 2017 йил

(cc) BY

қўшимча яратилган иш жойи учун солиқ чегирмаси (бир киши учун 2 минг долларгача), компаниялар капиталини кўпайтириш солиғининг бекор қилиниши. Турли штатлар миқёсида бу ҳудудларда фаолият юритувчи компанияларга ҳар хил имтиёзлар қўлланилади. Масалан, Коннектикут штатида корхона даромад солиғига нисбатан 50% чегирма, Луизиана штатида асбоб-ускуна сотувидан тушган даромад солиғидан, Канзас штатида қурилиш молларини сотувидан тушган даромад солиғидан ҳамда Вирджиния штатида асосий капитал солиғидан 100 % озод этилади. Барча солиқ имтиёзларининг 70% дан ортиғини ТҲларида янги иш жойларини ташкил этувчи тадбиркорларга берилади[6].

Мазкур тадқиқотларда кичик саноат зона эволюциясига таллуқли бўлган жиҳатлар, уларга бериладиган солиқ, маъмурий ва бошқа имтиёзлар умумий тарзда кўриб ўтилган бўлсада, ушбу омиллар саноат зоналари инвестиция фаолиятига таъсири кенгроқ тадқиқ этилмаганлигини кўрамиз. Сабаби мазкур имтиёзларнинг кичик саноат зоналари учун ва уларнинг инвестиция фаолиятига таъсирини аниқ таҳлил этилмаса, мазкур имтиёзлар ўз навбатида маҳаллий ва давлат бюджети учун "қимматга тушиши" мумкин.



1-расм. Кичик саноат зоналарининг асосий хусусиятлари[7]

Шунингдек, ушбу олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотларда кичик саноат зонасини тавсифловчи бошқа ёндош тушунчалардан фойдланилганлигини кўрамиз, яъни улар "саноат зонаси", "индустриал зона", "индустриал парк", "саноат комплекси ва кластер" таърифлари кўриб ўтилган. Мазмунан ва кўплаб хорижий давлатларда ушбу ҳудудларга кичик ва ўрта

[6] Раимжанова М. Ўзбекистонда эркин иқтисодий ҳудудларга инвестицияларни жалб қилиш: назарий асослари, ҳозирги ҳолати ва истиқболлари. Монография. –Тошкент: Extremum-press, 2013 й. Б 52.
[7] Муаллиф томонидан тадқиқот натижалари асосида тузилган

(cc) BY

тадбиркорлик вакиллари учун ишлаб чиқаришни тизимли ташкил этиш ва инновацион ва инвестиция лойиҳаларини реализация қилишга қаратилган фаолият юритилиши режалаштирилганлиги боис “ноформал” кичик саноат зоналари ҳисобланади. Хорижий мамлакатлар тажрибасидан маълумки, ушбу ҳудудлар мамлакат иқтисодий ривожланишига мос равишда ишлаб чиқаришни ҳудудларда ривожлантириш мақсадида тузилган. Уларда мамлакатимизда фаолият юритаётган кичик саноат зоналарининг айрим элементлари мавжулигини ҳисобга олсак, ушбу тушунчалар тавсифини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Юқоридагилардан ташқари, мамлакатимизда кичик саноат зоналарининг ҳуқуқий асослари ҳам шакллантирилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 июндаги “Кичик саноат зоналари фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқаришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4363-сон қарори, Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 мартдаги “Кичик саноат зоналари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 134-сонли қарорлари муҳим аҳамиятга эга.

Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 мартдаги 134-сон билан тасдиқланган “Кичик саноат зоналари тўғрисидаги Низом”га кўра, “кичик саноат зонаси - ишлаб чиқариш фаолиятини амалга ошириш учун мўлжалланган, аҳоли пункти ҳудудининг ёки аҳоли пунктлариаро ҳудуднинг қонун ҳужжатлари билан муайян мақом берилган ҳамда ҳудуди доирасида хизмат кўрсатувчи инфратузилмага эга бўлган ишлаб чиқариш майдонлари жойлашадиган ва чегаралари аниқ белгиланган қисми[8]” ҳисобланади. Юқоридагилар асосида айтиш мумкинки, кичик саноат зоналари - ҳудудий-иқтисодий ва инновацион ривожлантириш, хорижий ва маҳаллий инвесторларни жалб этиш мақсадида кичик ва ўрта тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлашга қаратилган, аниқ чегаралари белгиланган ва солиқ, божхона ва бошқа имтиёзли режим амал қилувчи ҳудуддир.1-расм.

ХУЛОСА

Кичик саноат зоналарига оид билдирилган фикр ва мулоҳазалар асосида айтиш мумкинки, мамлакат ҳудудларининг иқтисодий ривожланишини таъминлаш, бу борада инвестиция фаолиятини янада фаоллаштириш ва аҳоли бандлигини таъминлашга қаратилган кенг қамровли лойиҳалардан бири -кичик саноат зоналари ҳисобланади.

Ўзбекистонда ҳам бўш турган ва фойдланилмаётган ишлаб чиқариш майдонлари ўрнида ташкил этилган ва бугунги кунда инвестиция лойиҳалари иқтисодиётини ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллайди. Бундан ташқари,

[8] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 9 мартдаги 134-сон билан тасдиқланган “Кичик саноат зоналари тўғрисидаги Низом”дан. https://lex.uz/docs/4758585

(cc) BY

ушбу ҳудудлар “кичиклаштирилган саноат зоналари” ҳисоблангани сабабли, бозор иқтисодиёти шартларига тезда трансформацияланиши билан аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Смольянинова Т.Ю. Индустриалные парки в региональной экономике: механизм создания, преспективы развития. Автореферат диссертации. - Воронеж, 2015.

2. Салимов Б.Т., Салимов Б.Б. “Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий- иқтисодий асосларини такомиллаштириш”. - Т.: Иқтисодиёт, 2020. - 135 б

3. W. Millberg, M. Amengual. Economic Development and Working Conditions in Export Processing Zones: A Survey of Trends. ILO Office, Geneva, 2008. 68 p.

4. A.Agarwal. Impact of SEZ on Employment, Powerty and Human Development. Worning paper. 194. CRIER, May 2007

5. Раимжанова М. Ўзбекистонда эркин иқтисодий ҳудудларга инвестицияларни жалб қилиш: назарий асослари, ҳозирги ҳолати ва истиқболлари. Монография. -Тошкент: Extremum-press, 2013 й. Б 52.

6. Раимжанова М.А. Эркин тадбиркорлик ҳудудлари фаолиятини ривожлантириш кичик бизнес ва тадбиркорликни рақобатбардошлигини ошириш омили сифатида. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 4, август, 2017 йил

7. Ш.Маннапова. Кичик саноат зоналарида инвестицион фаоллик натижалари. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 1

8. Sh.Mannapova.Classification of factors for increasing the investment activity of small industrial zones american journal of research in humanities and social sciences.ISSN (E): 2832-8019 Vol.10, | March, 2023

9. Allayarov, S. A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128.

10. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926.

11. Аллаяров, С. (2022). К ВОПРОСУ РЕАЛИЗАЦИИ ОПТИМИЗИРОВАННОЙ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ ПРИ СТИМУЛИРОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Архив научных исследований, 2(1).

(cc) BY

12. Allayarov, S. (2018). Theoretical Study of Optimal Fiscal and Monetary Policies for Stimulating Economic Growth. Research Journal of Finance and Accounting, 9(8), 206-212.

13. Аллаяров, С. Р., & Зайнитдинов, С. М. Ў. (2021). Иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг таснифи. Science and Education, 2(11), 1156-1169.

14. Tashmatova, N. R. Q., & Allayarov, S. R. (2022). Islomiy moliya tizimida islom moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni qo'llash. Science and Education, 3(12), 997-1006.

15. Jiyanova, N., Tashmatova, R., Afsona, S. K. S., Allayarov, S., & Abdurashidova, M. (2023). Topical issues of increasing the role of economic ratings and indices in economic stability. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 13028). EDP Sciences.

16. Allayarov, S. R. (2014). Systemal understanding the insight, tasks and factors of economic growth. Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA), Oct.-Dec, 20, 56-65.

17. Khidirov, N. G. (2020). Methods and mechanisms of financing investment activities in industrial enterprises. International Journal of Economics, Commerce and Management, 8(7), 310-325.

18. Khidirov, N. (2020). Specific features of financing investment activity of industrial enterprises. International Finance and Accounting, 2020(1), 31.

19. Khidirov, N. G. (2021). Mechanisms and methods of financing enterprise investment projects. Journal of Economics, Finance and Management Studies, 4(05), 475-482.

20. Арсланбеков, С. М. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Journal of new century innovations, 21(2), 160-162.

21. Махсудов, Ш. С. (2022). Ўзбекистонда эркин иқтисодий зоналарни самарадорлигини ошриши ва ривожлантириш. Gospodarka i Innowacje., 24, 993-995.

22. М.А.РАИМЖАНОВА, КИЧИК САНОАТ ЗОНАСИ - ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАР МАЙДОНИ, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги - ЎзА Илм-фан бўлими (электрон журнал) 2021 йил, апрель сони

Инвестицион фаолликни таъминлашнинг макроиқтисодий омиллари

Шахноза Элшодовна Маннапова
shaxnozamannapova85@mail.ru
Тошкент молия институти

Аннотация: Мақолада инвестицион фаолликни таъминлашнинг макроиқтисодий омиллари билан боғлиқ жараёнлар тадқиқ этилган. Кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни таъминлаш жараёнига таъсир кўрсатувчи омиллар назарий-услубий жиҳатдан ўрганилган. Кичик саноат зоналари инвестицион фаоллигини оширишга салбий таъсир кўрсатувчи омилларни бартараф этиш йўналишлари ва имкониятлари асосланган.

Калит сўзлар: кичик саноат зоналари, инвестиция дастури, инвестицион лойиҳа, инвестицион фаоллик, консалтинг, эмиссия, инвестицион салоҳият, инвестиция муҳити, инвестицион ресурс

Macroeconomic factors of ensuring investment activity

Shakhnoza Elshodovna Mannapova
shakhnozamannapova85@mail.ru
Tashkent Financial Institute

Abstract: The article examines processes related to macroeconomic factors of ensuring investment activity. Factors influencing the process of ensuring investment activity in small industrial zones are studied theoretically and methodologically. Directions and opportunities for eliminating factors that have a negative impact on increasing the investment activity of small industrial zones are based.

Keywords: small industrial zones, investment program, investment project, investment activity, consulting, emission, investment potential, investment environment, investment resource

КИРИШ

«Инвестиция» категорияси нисбатан илмий-назарий қарашларнинг туб мазмун-моҳияти «инвестиция» категориясининг кўп қиррали илмий-амалий аҳамиятга эга эканлигини асослаш учун хизмат қилади. Инвестицион фаолиятни амалга оширишда иқтисодиёт субъектларининг фаоллиги самарали таъсир кўрсатади. Шу сабабли, иқтисодиёт субъектларининг етарли

(cc) BY

инвестицион салоҳиятга эга бўлиши ва уни инвестицион фаолиятни амалга ошириш жараёнида намоён этиш лаёқати инвестицион фаолликни таъминлашда муҳим ўрин эгаллайди. Ушбу жараёнда «инвестицион фаоллик»нинг ўрнини асослашда уни тадрижий иқтисодий ривожланиш характерига эга эканлигини алоҳида қайд этиш мақсадга мувофиқ.

АСОСИЙ ҚИСМ

Иқтисодий адабиётларда «инвестицион фаоллик» тушунчасига нисбатан кўплаб иқтисодчи олимлар томонидан турлича фикр ва мулоҳазалар билдирилганлигини кўриш мумкин. Айтиш керакки, билдирилган фикр-мулоҳазалар ва илмий қарашлар инвестицион фаоллик тушунчасига нисбатан якдил қараш жараёни устувор аҳамият касб этмайди.

Бу борада, МДҲ иқтисодчи олимларидан Т.А.Воронова ўз тадқиқотларида «Инвестицион фаоллик- бу иқтисодиёт субъектларининг мақсадли параметрларга эришиш учун ўз капитали ва жалб этилган капиталдан мақсадли фойдаланиш жараёнларидаги самарадорликни акс эттирувчи кўп қиррали иқтисодий категориядир» деб таърифлайди. Тадқиқотчи томонидан, инвестиция фаоллигини таҳлил қилишда нафақат инвестиция жараёнининг ўзи, балки унинг ҳолати ва ривожланиш даражасини белгилайдиган экзоген ва эндоген омиллар мажмуини баҳолашга имкон берадиган кўрсаткичлар ва мезонлар тизимидан фойдаланиш таклиф этилади»[1].

Н.И.Климова ўз тадқиқотларида инвестицион фаолликка - «...мамлакат-нинг инвестицион фаолият ҳажми, суръати, ўсиши ва самарадорлигини таъминлашда мавжуд имкониятлардан фойдаланиш салоҳияти»[2], деб таъриф беради.

Ж.Л.Вивиани, С.Маурел тадқиқотларига мувофиқ корхона инвестицион фаоллигини оширишда инвестиция портфелини диверсификация даражасига эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ. Мазкур ҳолат инвестицион жараённинг юқори риск шароитида амалга оширилиши билан боғлиқ ҳатти-ҳаракатларни мувофиқлаштириш учун хизмат қилади[3].

Юқоридагилар асосида, инвестицион фаолиятда макроиқтисодий даражада инвестицион фаоллик қуйидаги омиллар таъсири остида юзага келишини билдириш мумкин (2-расм).

[1] Воронова Т.А. Инвестиционная активность в стратегии экономического роста (методологические аспекты). Автореферат диссертатsii на соискание ученой степени доктора экономических наук. М., 2004. 17 с.

[2] Климова Н.И. Научние основи инвестиционного обеспечения регионалного развитиятема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.04, доктор экономических наук. Н.И.Климова.–Екатеринбург, 1999. 17 с

[3] Viviani, J.L, & Maurel, C. (2019). Performance of impact investing: A value creation approach. Research in International Business and Finance, 47, 31-39.doi.org/10.1016/j.ribaf.2018.01.001 https://meiji.elsevierpure. com/en/ publications/ performance-of-impact-investing-a-value-creation-approach

(cc) BY



“Инвестицион фаоллик”нинг мазмун-моҳиятини асослашга йўналтирилган юқоридаги тадқиқотларда мамлакат ички бозор сиғими, аҳоли турмуш фаровонлиги ва даромадларининг нисбий ўзгариш суръати,давлатнинг макроиқтисодий сиёсати каби қатор омиллар ҳисобга олинмаган. Айниқса, бу борада инвестицион фаолликка тўғридан-тўғри таъсир кўрсатувчи ички бозор сиғими ва унинг асоси ҳисобланган даромадлар даражаси инвестицион фаолликни оширишда самарали таъсир кўрсатувчи омиллар қаторидан ўрин эгаллайди.

Инвестицион фаоллик тушунчасига иқтисодий категория сифатида билдирилган илмий-назарий фикр-мулоҳазалар ҳамда таърифлар уларнинг умумий ҳолатда ёндашилганлиги сабабли мазкур тушунчанинг мазмун-моҳиятининг хусусий ҳолатда тўлиқ очиб берилмаган. Ушбу ҳолатни қуйидагиларда кўриш мумкин:

- иқтисодиётнинг турли тармоқ ва соҳаларида инвестицион самарадорликни ошириш имкониятлари бирдек намоён бўлмайди, қолаверса ушбу жараёнда давлат иқтисодиётдаги локоматив тармоқларнинг юқори инвестицион фаоллигини таъминлайди;

(cc) BY

- ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий салоҳиятининг ортиб бориши, шунингдек, аҳолининг ҳаёт даражаси ва фаровонлигининг юксалиши учун зарур шароитларни таъминлаш, фан ва инновацион фаолият ривожланишига доир лойиҳавий инвестицион дастурларни жорий этилиши уларга истиқболли ўзгаришлар киритиш жараёнини таъқазо этади;

- ишлаб чиқариш жараёнини ташкил этишда капитал ва ишчи кучига сарф-ҳаражатларнинг бир-бирига мутаносиб равишда амалга оширилишини таъминлаш имкониятлари бирдек мавжуд эмас, айниқса ушбу ҳолат инвестицион лойиҳаларнинг қайси босқичида инвестицион фаолликни талаб этиши дифференциал аҳамиятга эга ҳисобланади.

Инвестицион фаолиятни амалга оширишнинг реал ва потенциал имкониятлари аҳоли бандлигининг тармоқ ва ҳудуддий таркибини такомиллаштиришга асос яратади. Аҳоли бандлигининг интеллектуал таркибини ўсиши инвестицион фаоллик таъсирида рўй беради. Аҳоли бандлигининг ҳудудий, тармоқ ва интеллектуал таркиби билан инвестицион фаоллик ўртасида узвий алоқадорлик, инвестицияларнинг сафарбар этилиши,ўзлаштирилиши ва самарадорлигини таъминлашнинг муҳим асоси ҳисобланади.

Юқоридаги ҳолатларнинг аксарият кўринишлари мамлакатимиз иқтисодиётининг устувор тармоқлари: нефть ва кимё саноати, транспорт, энергетика, ер ости бойликларини қазиб олиш, қурилиш, телекомуникация тармоқлари, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва уларни қайта ишлаш, туризм каби соҳаларни ривожлантириш жараёнларида ўз аксини топмоқда.

Фикримизча, инвестицион фаоллик - мамлакатнинг ижтимоий- иқтисодий ривожланиш даражаси, илм-фан ва техника соҳасида эришган ютуқларни иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларига фаол жалб этиш орқали инвестицион муҳитнинг такомиллашуви ҳисобланиб, инвестициялар ва жамғармалар ўртасидаги макроиқтисодий мутаносибликнинг юқори ва қуйи чегараси орқали ифодаланади. Инвестиция ва жамғарма ўртасида мутаносибликнинг сон қиймати инвестицион фаоллик даражасини баҳолаш коэффициенти сифатида намоён бўлади.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда инвестицион фаолликни оширишнинг меъёрий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш жараёнига алоҳида эътибор берилмоқда. Бу борада амалга оширилаётган ислоҳотлардан асосий мақсад, инвестиция субъектларининг фаоллигини ошириш орқали инвестицияларнинг зарур даражасини таъминлашдан иборат.

Бугунги кунга қадар мамлакатимизда инвестиция фаолиятини янада ривожлантиришга қаратилган 200 дан ортиқ Қонунлар ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинганлигини алоҳида таъктидлаб ўтиш ўринлидир.

(cc) BY

Мамлакатимизда инвестицион фаолликнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари инвестицион фаолликнинг юқори даражасини таъминлашда саноат ишлаб чиқаришнинг тузилмавий таркибини такомиллаштириш, ишлаб чиқаришга йўналтирилган капитал қўйилмаларнинг ўртача йиллик ўсиш суръатини

таъминлашга қаратилинганлиги билан характерланади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати томонидан кафолатлар беришни, инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришга кўмаклашишни, махсус солиқ ва тўлов режимини яратишни, инвестиция лойиҳалари амалга оширилиши юзасидан давлат мониторинги ўтказилиши ҳудудларда инвестицион ноаниқликлар ва юқори риск шароити туфайли сотилиши юзага келган инвестиция лойиҳаларининг реал ва базис нархлари ўртасидаги тафовут қисқаради.[4]

Асосий капиталга ўзлаштирилган инвестицияларнинг ҳудудий фарқланиш даражаси мамлакатда аҳоли бандлигини таъминлаш, ялпи ички маҳсулот ҳажмини яратиш, саноат ишлаб чиқаришда ялпи қўшилган қиймат ҳажмини ошириш билан боғлиқ қатор ҳолатлар орқали мамлакат инвестицион фаоллигини пасайиш жараёнига сабаб бўлиши мумкин. Шу сабабли, истиқболда мамлакатимиз ҳудудларида саноат ишлаб чиқаришнинг ташкил этишни диверсификациялашув жараёнлари мутаносиблигини таъминлаш, саноатнинг муҳим тузилмалари фаолиятини қайта ташкил этиш, ишлаб чиқаришни техник ва технологик жиҳатдан қайта қуроллантириш ва модернизациялаш билан боғлиқ чора-тадбирлар тизимини амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

Истиқболда мамлакатимиз ҳудудларида инвестиция дастурларининг имтиёзли тузилмавий таркибини шакллантириш ва бошқарув тизимини оптималлаштиришда, рақамли транзакцияларни автоматик тартибда амалга ошириш, ҳуқуқ ва мажбуриятлар битилган электрон шартномалар тизимини жорий этиш, консалтинг, эмиссия, айирбошлаш ташкилотлар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш борасида миллий стандартларини тайёрлаш жараёни инвестицион фаолликни оширишнинг мақсадли кўрсаткичларига эришишни таъминлаш учун хизмат қилади.

Юқорида кўриб ўтилганлар асосида айтиш мумкинки, инвестиция фаолияти - мамлакат (ҳудуд) иқтисодиёти ривожланиш дастурлари ёки инвестиция лойиҳасида кўзда тутилган вазифаларни амалга ошириш билан боғлиқ бўлган ва ушбу фаолият ҳамда иқтисодиёт тармоқлари учун жадал иқтисодий-ижтимоий ривожланиш учун йўналтирилиши кўзда тутилган молиявий ресурсларни жалб қилиш, уларни тақсимлаш ва қайта тақсимлаш

[4]Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 25 декабрдаги «Инвестициялар ва инвестиция фаолиятитўғрисида»ги Қонуни 20-модда.

(cc) BY

билан боғлиқ бўлган яхлит муносабатлар тизимидир.

Инвестиция фаолияти бугунги кунда янгича илмий-назарий қарашларни, фикр ва мулоҳазаларни келтириб чиқармоқда. Бунга асосий сабаб бозор муносабабтларининг глобаллашуви билан боғлиқдир. Бу, ўз навбатида, мазкур фаолиятнинг меъёрий-ҳуқуқий асосларини ҳам доимий равишда такомиллаштириб боришни тақозо этади.

ХУЛОСА

1. Мамлакатда инвестиция муҳити ва унинг ривожланиш шарт-шароитлари билан боғлиқ жараёнлар инвестицион фаолликни оширишнинг асосий шарти ҳисобланади. Шу сабабли, кичик саноат зоналарида инвестицион фаолликни ошириш йўналишларини тадқиқ этишнинг ташкилий-иқтисодий, меъёрий-ҳуқуқий асосларини ўрганиш мақсадга мувофиқ. Кичик саноат зоналари инвестицион фаоллигини ошириш жараёнини тадқиқ этишдан олдин дастлаб шакллантириш жараёни «инвестицион фаоллик» категорияси таърифини шакллантириш мақсадга мувофиқ.

2. «Инвестицион фаоллик» тушунчасига нисбатан хорижий ва миллий иқтисодчи олимлар томонидан кўплаб таърифлар берилганлигини асослаш ўринли. Аммо, ушбу жараённинг баҳоловчи характер касб этишини ҳисобга олганда хорижий ва мамлакатимиз иқтисодчи олимларининг фикри ўртасида кескин фарқланиш жараёни юзага келади.

3. Инвестицион фаолликнинг моҳияти ва меъёрий-ҳуқуқий асослари, инвестицион фаолликни оширишнинг шарт-шароитлари ва омиллари, инвестицион фаолликни оширишнинг хориж тажрибалари ва улардан фойдаланиш йўлларини ҳисобга «инвестицион фаоллик» категориясига нисбатан муаллифлик таърифи ишлаб чиқилди. Таърифга мувофиқ, «инвестицион фаоллик» - мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси, илм-фан ва техника соҳасида эришган ютуқларни иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларига фаол жалб этиш орқали инвестицион муҳитнинг такомиллашуви ҳисобланиб, инвестициялар ва жамғармалар ўртасидаги макроиқтисодий мутаносибликнинг юқори ва қуйи чегараси орқали ифодаланади. Инвестиция ва жамғарма ўртасида мутаносибликнинг сон қиймати инвестицион фаоллик даражасини баҳолаш коэффициенти сифатида намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Воронова Т.А. Инвестиционная активность в стратегии экономического роста (методологические аспекты). Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. М., 2004. 17 с.

2. Климова Н.И. Научние основи инвестиционного обеспечения регионалного развитиятема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.04,

(cc) BY

доктор экономических наук. Н.И.Климова.-Екатеринбург, 1999. 17 с

3. Viviani, J.L, & Maurel, C. (2019). Performance of impact investing: A value creation approach. Research in International Business and Finance, 47, 31-39.doi.org/10.1016/j.ribaf.2018.01.001 https://meiji.elsevierpure. com/en/ publications/ performance-of-impact-investing-a-value-creation-approach

4. Sh.Mannapova.Classification of factors for increasing the investment activity of small industrial zones.American journal of research in humanities and social sciences. March 2023,ISSN:2832-8019

5. Allayarov, S. A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128.

6. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926.

7. Сатторов, Б. К., & Аллаяров, С. Р. (2017). Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов. Наука, техника и образование, 1(5 (35)), 98-100.

8. Аллаяров, С. Р., & Кандахарова, Ш. Н. (2021). ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ. СТОЛИЦА НАУКИ, 3, 4.

9. Аллаяров, С. (2022). К ВОПРОСУ РЕАЛИЗАЦИИ ОПТИМИЗИРОВАННОЙ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ ПРИ СТИМУЛИРОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Архив научных исследований, 2(1).

10. Anvarov, N. M. O. G. L., & Allayarov, S. R. (2022). Mahalliy byudjetlarni qo ‘shimcha manbalardan foydalanishning umumnazariy asoslari. Science and Education, 3(2), 1519-1527.

11. O‘G‘Li, D. G. A., & Allayarov, S. R. (2022). Respublika va mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo ‘nalishlari. Science and Education, 3(2), 1565-1573.

12. Allayarov, S. (2018). Theoretical Study of Optimal Fiscal and Monetary Policies for Stimulating Economic Growth. Research Journal of Finance and Accounting, 9(8), 206-212.

13. Аллаяров, С. Р., Мардонов, Ш. Х., & Абдурахимова, Г. М. (2020). РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ И ЦЕЛЕОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ. Экономика и социум, (4), 138-147.

14. Аллаяров, С. Р., & Зайнитдинов, С. М. Ў. (2021). Иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг таснифи. Science and Education, 2(11), 1156-1169.

15. Allayarov, S. R., & Ro'Ziyev, U. J. (2023). Byudjet tashkilotlari faoliyati ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish istiqbollari. Science and Education, 4(5), 1385-1392.

16. Tashmatova, N. R. Q., & Allayarov, S. R. (2022). Islomiy moliya tizimida islom moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni qo'llash. Science and Education, 3(12), 997-1006.

17. Jiyanova, N., Tashmatova, R., Afsona, S. K. S., Allayarov, S., & Abdurashidova, M. (2023). Topical issues of increasing the role of economic ratings and indices in economic stability. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 13028). EDP Sciences.

18. Allayarov, S. R. (2014). Systemal understanding the insight, tasks and factors of economic growth. Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA), Oct.-Dec, 20, 56-65.

19. Пўлатова, С. В. Қ., & Аллаяров, С. Р. (2023). Валюта курси сиёсатининг замонавий молия-валюта тизими ва иқтисодий ўсишга таъсири. Science and Education, 4(1), 971-978.

20. Sotvoldiyev, A. I., & Xidirov, N. G. (2022). Dinamik modellarni iqtisodiyotda qo'llanilishi. Science and Education, 3(3), 1128-1137.

21. Хидиров, Н. Ғ. (2022). Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноати корхоналарида инвестицион фаолиятни молиялаштиришдаги муаммолар ҳамда уларнинг ечимлари. Science and Education, 3(4), 1834-1840.

22. Khidirov, N. G. (2020). Methods and mechanisms of financing investment activities in industrial enterprises. International Journal of Economics, Commerce and Management, 8(7), 310-325.

23. Khidirov, N. (2020). Specific features of financing investment activity of industrial enterprises. International Finance and Accounting, 2020(1), 31.

24. Khidirov, N. G. (2021). Mechanisms and methods of financing enterprise investment projects. Journal of Economics, Finance and Management Studies, 4(05), 475-482.

25. Lex.uz веб сайти

O‘zbek adabiy tilining qadimgi turkiy davri

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Oltoydan tortib Markaziy Mugulistonga qadar, tomondan, Sharqiy Turkistondan tortib Kaspiyga qadar kengayadi. Turk xoqonligida ichki nizolar kuchayib 588 yili ikki mustakil davlatga - Sharqiy va garbiy xoqonlikka azhralib ketadi. Sharqiy xoqonlik Mugulistonda, garbiy xoqonlik esa Ettisuvda tashkil topadi. Ushbu xonliklarda rasmi til turkiy til bulgan. Davlat va jamiyat boshkaruvi, halqaro diplomatik munosabatlar rasmiylar turkish tilda olib borilgan. Buyuk ipak yo‘lida keng yo‘lgan sug‘d tiliga, o‘rni bilan tabgach (hitoy) tiliga ham etibor qaratilgan. Chunonchi, 732 yili tiklangan Kul tigin bitigi ikki tilli: matn turkchada, toshning ters yuzida hitoycha yozuvi ham bor.

Kalit so‘zlar: zamonaviy turkiy til, turkiy til bosqichlari, rune yozuvi uygur yozuvi, eski turkiy so‘zlar, lug‘at, leksik birlik

The ancient Turkic period of the Uzbek literary language

Yaqub Siddiqovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: It extends from Altai to Central Mongolia, and from East Turkestan to the Caspian. In 588, internal conflicts in the Turkish khanate became stronger, and in 588 it was divided into two independent states - Eastern and Western khanates. The Eastern Khaganate is established in Mongolia, and the Western Khaganate is established in Ettisuv. The official language of these khanates was Turkic. State and society management, international diplomatic relations are conducted by officials in Turkish. Attention is also paid to the Sugdian language, which was widely used on the Great Silk Road, and the Tabac (Chinese) language. For example, the inscription of Kul Tigin, restored in 732, is bilingual: the text is in Turkish, and there is Chinese writing on the reverse side of the stone.

Keywords: modern Turkic language, stages of Turkic language, rune script Uyghur script, old Turkic words, dictionary, lexical unit

Ma’lumki, VI asr o‘rtalarida Oltoy, Janubiy Sibir, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda joylashgan bir qancha turkiy qabilalar birlashishi natijasida Turk xoqonligi tashkil topadi. Tez vaqt ichida xoqonlik kuchayib Markaziy Osiyoning katta

(cc) BY

qismini egallaydi. Keyinchalik uning chegarasi, bir tomondan, Oltoydan tortib Markaziy Mo‘g‘ulistonga qadar, ikkinchi tomondan, Sharqiy Turkistondan tortib Kaspiyga qadar kengayadi. Turk xoqonligida ichki nizolar kuchayib 588 yili ikki mustaqil davlatga - Sharqiy va G‘arbiy xoqonlikka ajralib ketadi. Sharqiy xoqonlik Mo‘g‘ulistonda, G‘arbiy xoqonlik esa Yettisuvda tashkil topadi.

Mazkur xoqonliklarda rasmiy til turkiy til bo‘lgan. Davlat va jamiyat boshqaruvi, xalqaro diplomatik munosabatlar hamda rasmiy yozishmalar turkiy tilda olib borilgan. Badiiy adabiyot, ilmiy va tarixiy asarlar, xonlarning tuzuklari, yorliqlari va chet ellar bilan yozishmalari turk tilida va ko‘k turk yozuvida bitilgan. Hatto turkiy til Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab xalqaro til sifatida amal qilgan. Ko‘k turk xoqonliklari keyinchalik uning o‘rnida yuzaga kelgan uyg‘ur xoqonligi zamonida Markaziy Osiyoda, ayniqsa Buyuk ipak yo‘lida keng yoyilgan sug‘d tiliga, o‘rni bilan tabg‘ach (xitoy) tiliga ham e’tibor qaratilgan. Masalan, monumental matnlar bitishda, turkiy til bilan barobar, sug‘d, ba’zan tabg‘ach tillaridan ham foydalanilgan. Buni o‘sha kezlardan qolgan ikki, uch tilli bitiglarda ham kuzatishimiz mumkin. Chunonchi, 732 yili tiklangan Kul tigin bitigi ikki tilli: asosiy matn turkchada, toshning ters yuzida xitoycha yozuvi ham bor.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklariga turkiy run, uyg‘ur va qisman moniy, so‘g‘d va suryoniy yozuvlarida yozilgan obidalar kiradi. Run va uyg‘ur yozuvlari turkiy xalqlarga xos yozuvdir. Runik bitiklar Sharqda Lena daryosidan G‘arbda Dunay daryosigacha bo‘lgan ulkan hududdan topilgan. Turkiy-run yozuvi yodgorliklari Farg‘ona vodiysi, Toshkent viloyati, Buxoroning Qizilqum cho‘lidan ham topilgan. Bu yodgorliklar milodiy VI-VII asrga mansub bo‘lib, Janubiy Sibir, Talas vodiysidan topilgan turkiy yozuvlar bilan zamondosh, hatto bir oz oldinroq deb ham aytish mumkin. Shu bois O‘zbekiston hududidan topilgan turkiy-run yozuvi yodgorliklari o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini dalillashda asosiy vosita bo‘lmog‘i kerak.

Toshga o‘yib yozilgan run yozuvi yodgorliklari dastlab Enasoy havzasida, so‘ngra XIX asr oxirida Mo‘g‘ulistonnning O‘rxun daryosi bo‘yida topilib, bu yozuvni dastlab 1893 yilda daniyalik tilshunos V.Tomsen va rus turkologi V.Radlov aniqladi.

O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi va o‘rganilishi mazkur davrdan ancha ilgari, aniqrog‘i, XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqda dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmidt yodgorliklarni Yevropa ilm ahliga ilk marta taqdim qilgan edilar. Shundan so‘ng bu yozuvlarni o‘rganish va topish, ularni o‘qish borasida P.M.Melioranskiy, S.Ye.Malov, I.A.Batmanov, S.V.Kiselyov kabi turkologlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bitigtoshlarning badiiy va til xususiyatlarini o‘rganishda o‘zbek olimlaridan A.Rustamov, G‘.Abdurahmonov, Q.Sodiqov, N.Rahmonov kabilarning xizmatlari beqiyosdir.

Turkiy tillar tarixining ilk bosqichi meloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi va u melodning V asriga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr ilmiy adabiyotlarda

(cc) BY

eng qadimgi turkiy til nomi bilan yuritiladi va u ikki bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqich oltoy nomi bilan ataladi va u eramizdan oldingi III asrgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Keyingi bosqich eramizdan avvalgi III asrdan melodiy IV asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi va u xun davri deb yuritiladi.

Melodiy VI asrdan qadimgi turkiy adabiy til davri boshlanadi. Bu davr adabiy, ya’ni yozma til tarixining ilk bosqichidir, chunki turkiy yozma adabiy til ana shu kezda yuzaga kelgan. Bu davr to‘g‘risida so‘z ketganda unga yozma adabiy til atamasini qo‘shib ishlatganimiz ma’qul.

Qadimgi turkiy adabiy til VI-X asrlar adabiy tiliga nisbatan qo‘llaniladi. Turkiy tilning eng ko‘hna yozuv yodgorliklari o‘sha chog‘lardan qolgan. Turkiy, xususan, o‘zbek adabiy tilining tarixi ham mazkur yozma yodgorliklar tilidan boshlanadi. Bu davr quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1) Ko‘k turk yozma yodgorliklari tili (Bu guruhga Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliqlari davrida yaratilgan ko‘k turk yozuvli urxun va enisey, tuva, talas, farg‘ona yodgorliklarining tili kiradi);

2) Uyg‘ur xoqonliq va davlatlarida yaratilgan ko‘k turk, uyg‘ur, moniy, brahma, sug‘d yozuvlaridagi yozma yodgorliklar tili (turkshunoslik asarlarida “qadimgi uyg‘ur tili” deb ham atalmoqda).

Qadimgi turkiy adabiy tilga oid bitiktoshlar umumiy tarzda O‘rxun-Enasoy (Urxun-enisey) yodgorliklari nomi bilan yuritiladi. Ular O‘rxun va Enasoy daryolari havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Mazkur yodgorliklar run va uyg‘ur yozuvida bitilgan. Qadimgi turk runik yozuvi tosh, metall, yog‘och va boshqa predmetlarga o‘yib bitilgan. Ushbu yozuvda bitilgan yodgorliklar, chunonchi, Kul tigin, Bilga xoqon, To‘nyuquq, Ungin, Kuli chur va boshqalar V-X asrlarga mansubdir. Nazarda tutilgan yozuv tashqi ko‘rinishidan got (qadimgi german) yozuviga o‘xshash bo‘lganligi uchun yevropalik olimlar uni runik yozuv deb atagan.

O‘rxun-Enasoy yozuvining kelib chiqishi haqida mutaxassislar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas. Ayrim fikrlarga ko‘ra, mazkur yozuv o‘z kelib chiqishiga ko‘ra sug‘d va pahlaviy yozuvlari orqali oromiy yozuviga borib taqaladi. Ushbu yozuv arab yozuvi singari, o‘ngdan chapga qarab yozilgan va o‘qilgan, 38 belgi (harf)dan iborat bo‘lgan, unda tinish belgilari ishlatilmagan.

Runiy yozuvdagi yodgorliklar faqat toshga bitilgan emas. Ularning qog‘ozga, turli buyumlar (kumush ko‘zachalar, yog‘och, teri, oyna, qayish to‘qasi)ga yozilgan namunalari ham bor. Ayonki, O‘rta Osiyo va Qozog‘istondagi turkiy xalqlar oromiy, so‘g‘d, xorazm, o‘rxun-enasoy (run),. uyg‘ur, arab kabi yozuvlardan foydalanganlar. Oromiy yozuvining ta’sirida shakllangan so‘g‘d va xorazm yozuvlari eramizning I-V asrlarida ishlatilgan. Oromiy yozuvi ta’sirida I asrda uyg‘ur yozuvi shakllanadi, V asrga kelib esa runiy nomi bilan atalgan o‘rxun-enasoy yozuvi paydo bo‘ladi. O‘rxun-

(cc) BY

Enasoy yozuvi fonografik yozuvdir. Runiy yozuv yodgorliklari ilmiy manbalarda chizma va lingvistik belgilariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1. Enasoy yodgorliklari. Bu yodgorlik O‘rxun yodgorliklaridan avval topilgan bo‘lsa ham keyinroq o‘qildi. Ular Enasoy daryosining yuqori oqimida hozirgi Xakas va Tuva muxtor viloyatlari hududidadir. Enasoy yodgorliklaridan 50 dan ortiq matn o‘qilgan va nashr qilingan. Bu yozuv eramizning V-VII asrlariga mansubdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. -Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og‘uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

(cc) BY

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. --Тошкент 1 (2 …

Adabiy til, uning turlari va uslublari taraqqiyoti

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Ayonki, o‘zbek filologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalariga umumkasbiy fan sifatida o‘qitiladigan “O‘zbek tili tarixi” kursi “Qadimgi turkiy til”, “Eski o‘zbek tili va yozuvi”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” va “O‘zbek adabiy til tarixi” fanlaridan tarkib topgan. “O‘zbekiston davlat standarti”ning zaruriy talablariga muvofiq yaratilgan bo‘lib, unda qoraxoniylar davri adabiy tili va manbalari, chig‘atoy adabiy tili va manbalari, “Devonu lug‘otit turk” asarining qiyosiy turkiyshunoslikdagi o‘rni, Xorazm yodnomalarining til taraqqiyotidagi roli, Alisher Navoiyning adabiy til rivojidagi o‘rni kabi masalalar zamonaviy tamoyillar bo‘yicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiy tili, tarixi, predmeti, obyekti, maqsadi, vazifalari, me’yorlashtirilgan til, yozma va og‘zaki shakllari

Development of literary language, its types and styles

Yaqub Siddiqovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: It is clear that the course "History of the Uzbek language", which is taught as a general subject to undergraduate students of Uzbek philology, "Ancient Turkic language", "Old Uzbek language and writing", "Uzbek "Historical Grammar of the Uzbek Language" and "History of the Uzbek Literary Language". It was created in accordance with the necessary requirements of the "Uzbekistan State Standard", which includes the literary language and sources of the Karakhanid period, the literary language and sources of the Chigatai, the role of the work "Devonu lug'otit Turk" in comparative Turkic studies, the Khorezm memoirs in the language development issues such as the role of Alisher Navoi in the development of the literary language are explained according to modern principles.

Keywords: Uzbek literary language, history, subject, object, purpose, tasks, standardized language, written and oral forms

O‘zbek millati o‘z adabiy tili va yozuviga ega bo‘lgan eng qadimgi sanoqli xalqlardan biridir. Ajdodlarimizning ijodiy tafakkuri va ulug‘ dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi bitiklar, ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar bizning buyuk ma’naviy

(cc) BY

boyligimizdir. Ijtimoiy davr milliy manfaatlarimizni ta’minlash, madaniyat, azaliy qadriyatlar hamda ona tilimizni asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratish zaruriyatini taqozo etmoqda. Davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishiga, ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini namoyish etishga, uning eng qadimiy va boy tillardan biri ekanligini dalillashga harakat qilinmoqda. Shunga ko‘ra Mustaqillik davrida buyuk ajdodlarimizdan asrlar osha bebaho meros sifatida yetib kelgan nodir asarlarni chuqur o‘rganish, nashr etish va targ‘ib qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbek tili va adabiyotidan malakali ilmiy xodimlar va o‘qituvchilar tayyorlashda «O‘zbek adabiy tili tarixi» kursi muhim ilmiy, nazariy, amaliy, ta’limiy,tarbiyaviy, ma’rifiy va ma’naviy ahamiyatga ega. Bu fan talabalarga o‘zbek tiliniig taraqqiyot bosqichlarini, unda sodir bo‘lgan turli o‘zgarishlarni, hozirgi o‘zbek tilining fonetik, grammatik va leksik tizimini atroflicha tushunib olishda, eng muhimi, millat manfaatlariga daxldor til tarixiga doir bilimlarga ega bo‘lishda katta yordam beradi.

O‘zbek tili tarixi fani o‘zbek tilshunosligining ixtisosiy fanlaridan biri bo‘lib, u uch mustaqil kurs - «Qadimgi turkiy til», «O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi» va «O‘zbek adabiy tili tarixi» fanlaridan iborat. «Qadimgi turkiy til» fanida turk runiy yozma yodgorliklari (chunonchi, “Kul tigin”, “Bilga xoqon”, “To‘nyuquq”, “Ungin”, “Kuli chur” kabi bitiktoshlar)ning topilish tarixi, fanga ma’lum bo‘lishi, ularning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlari o‘rganiladi.

«O‘zbek tilining tarixiy grammatika» kursi turkiy, xususan, o‘zbek tili fonetik tizimi va grammatik qurilishidagi muhim o‘zgarishlar, ularning taraqqiyot bosqichlarini yoritib beradi. «O‘zbek adabiy tili tarixi» kursi esa o‘zbek tili tarixini xalq tarixi bilan bog‘liqlikda o‘rganadi, til hodisalarining ijtimoiy hodisalar bilan munosabatini baholaydi, adabiy til uslublarida yuz bergan o‘zgachaliklarni, ularning ko‘rinishlarini aniqlaydi. Mazkur fanlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, «O‘zbek adabiy tili tarixi» fani nazarda tutilgan fanlardagi fikrlarni ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtiradi.

«O‘zbek adabiy tili tarixi» o‘quv fani tilimizda sodir bo‘lgan turli o‘zgarishlar, uning taraqqiyot bosqichlari bo‘yicha bilim beradi, hozirgi o‘zbek tilining xususiyatlarini anglashda asos vazifasini bajaradi. Fanning asosiy maqsadi o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini aniqlash, eng qadimgi davridan to hozirgi kungacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, shu davrlar mobaynida ijtimoiy hayotdagi o‘rni va vazifasini belgilashdir.

O‘zbek adabiy tili tarixining ob’ekti turkiy va o‘zbek tili tarixida, xususan, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili va yangi o‘zbek adabiy tili davrida yaratilgan yozma yodgorliklardir. Bu yozma yodgorliklar tarkibiga badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar hamda tarixiy lingvistik lug‘atlar kiradi. Adabiy til tarixi matnda qo‘llaniluvchi til birliklarining xususiyatlarini tadqiq qiladi. Bunda adabiy til tarixi va nazariyasi tilshunoslikning boshqa sohalarini o‘rganuvchi fanlarning natijalariga tayanadi va

(cc) BY

ularning umumlashmalaridan foydalanadi. O‘zbek adabiy tili taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, kishilar nutqida ishlatilgan va paydo bo‘lgan har bir so‘z hamda birikma shu xalq tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan tilda o‘z aksini topadi.

O‘zbek adabiy tili tarixining predmetini esa shu yozma manbalarning tili va uslubi tashkil etadi. Aytilganidek, o‘zbek tili eng qadimiy tillardan biri bo‘lib, u uzoq tarixiy davrlar sinovidan o‘tib, hozirga qadar yetib kelgan. Uzoq asrlar davom etgan bu jarayonda tilda ma’lum o‘zgarishlar bo‘lgan, keyingi davr til birliklari bilan avvalgi til birliklari o‘rtasida muayyan farqlar yuzaga kelgan, ayrim til birliklari eskirgan, ba’zi yangi til birliklari ise’molga kirgan.

O‘zbek adabiy tili tarixida o‘rganilishi muhim bo‘lgan masalalar, asosan, quyidagilardir:

1. O‘zbek tilini o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, san’ati va adabiyoti bilan o‘zaro bog‘liqlikda, uning ijtimoiy ong, fan, madaniyat, adabiyot va san’at taraqqiyotiga ta’sirini, o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

2. O‘zbek adabiy tilini tarixiy-uslubiy jihatdan o‘rganish, uning uslublarida yuz bergan tadrijiy va inqilobiy o‘zgarishlarni ochib berish;

3. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili va yangi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini belgilash

4. O‘zbek xalqi tarixida o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeini belgilash;

5. O‘zbek adabiy tilining yangi so‘zlar bilan boyib borishini hamda unda mavjud so‘zlarning yangi ma’noda qo‘llanishlarini o‘rganish, uning leksik jihatdan takomillashuvini aniqlash va h.k.

O‘zbek adabiy tili tarixi kursining eng muhim vazifalaridan biri mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarining til xususiyatlarini aniqlash, ularning adabiy til taraqqiyotidagi xizmatlarini baholashdir.

O‘zbek adabiy tili tarixi tilshunoslik doirasiga kiruvchi fanlar, chunonchi, “Qadimgi turkiy til”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “O‘zbek dialektologiyasi” hamda boshqa - “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “O‘zbekiston tarixi” kabi fanlar bilan uzviy bog‘lanadi va ularning ilmiy xulosalariga suyanadi.

Adabiy til tushunchasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma’lum me’yorlarga solingan shakli”, deb izoh berilgan bo‘lsa, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da esa “muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlashtirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli” sifatida talqin etilgan.

Adabiy tilning asosida umumxalq tili turadi, u ilm va ijod ahli tomonidan qayta ishlanib, ijodiy boyitiladi. Adabiy til lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi jihatidan aniq me’yorga keltirilgan tildir. Adabiy til me’yoriga ko‘ra so‘zlar yozilishi, talaffuz etilishi, morfologik tuzilishi va sintaktik qurilmasi jihatidan to‘g‘ri ifodalanishi talab etiladi. Adabiy tilning barqaror shaklga kelishida yozuv muhim ahamiyatga ega. Biroq,

(cc) BY

unutmaslik kerakki, adabiy tilning og‘zaki shakli yozma adabiy tilning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Adabiy til bilan shevalar o‘rtasidagi munosabat har doim mavjud bo‘ladi. Ular muntazam bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Adabiy til shevalardan o‘zining me’yorga solinganligi bilan farq qiladi. Adabiy til so‘zlarni qo‘llash va uslubda, morfologik va sintaktik modellarga amal qilishda har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Bu fikr adabiy til faqat ichki manbalar hisobidan boyiydi, degan xulosaga olib bormasligi kerak. Adabiy til boshqa tillardan so‘zlarni o‘zlashtirish yo‘li bilan ham boyib boradi.

Adabiy til me’yori tarixiy kategoriya sanaladi. U tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarib boradi. Til tarixining muayyan bir davrida me’yor bo‘lgan til hodisasi keyingi davri uchun me’yor bo‘lmasligi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy davridan beri o‘zbek tili, uning lug‘at tarkibi va grammatik qurilishida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu narsa, albatta, adabiy til me’yoriga ta’sir etmasdan qolmadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o‘zgarishlar tilda o‘z aksini topa bordi.

Adabiy me’yor ongli aralashish orqali qayta ishlangan, tanlangan, baholangan me’yordir. Shu sababli ba’zan adabiy tilni “sun’iy til”, “yasama til”, xalq tili va shevalarni “tabiiy til” deb ham yuritadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. -Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og‘uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. --Тошкент 1 (2 …

Adabiy tilning belgisi, uning meyori qoidalarga asoslanganlik printsipi

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Tilining lug‘at tarkibidagi hamma so‘zlar ham adabiy tilning me’yori sifatida qabul qilinmaydi. Bunday so‘zlar jumlasiga shevalarga xos so‘z va iboralar, jargonlar va maxsus kasb-hunar leksikasini misol sifatida aytish mumkin. Adabiy tili muayyan xalqning barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy ehtiyoji va talablariga to‘liq xizmat qiladigan, davlat rasmiy hujjatlari, fan-texnika, ta’lim, matbuot, radio va televidenie, teatr va badiiy adabiyot tilidir. Bu me’yorlar til birliklarini nutqda qanday qo‘llashni, bir xillikni belgilab beruvchi qoidalar yig‘indisidir. Bunday me’yorlar har xil (leksik, fonetik, orfografik, grammatik) bo‘ladi.

Kalit so’zlar: yozuv, adaby meyor, adaby tilning ozaki va yozma usuli, adaby til uslublari, umumxalq tili, sheva, lag’ja

Sign of a literary language, its standard rules-based principle

Yakub Siddikovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: Not all words in the vocabulary of a language are accepted as the norm of a literary language. Examples of such words are words and phrases characteristic of dialects, slang and special professional vocabulary. Literary language is the language of state official documents, science and technology, education, print, radio and television, theater and fiction, which fully satisfies all the socio-political, economic, cultural and educational needs and demands of a particular people. A sign of a literary language is the presence of norms based on certain rules. These standards are a set of rules that determine the order of use of linguistic units in speech and their uniformity. Such standards are different (lexical, phonetic, spelling, grammatical).

Keywords: writing, literary standard, oral and written method of literary language, styles of literary language, folk language, dialect, humor

Adabiy tilning belgisi unda ma’lum qoidalarga asoslangan me’yorlarning bo‘lishidir. Bu me’yorlar til birliklarini nutqda qanday qo‘llashni, bir xillikni belgilab beruvchi qoidalar yig‘indisidir. Bunday me’yorlar har xil (leksik, fonetik, orfografik, grammatik) bo‘ladi.

(cc) BY

Umumxalq tilining lug‘at tarkibidagi hamma so‘zlar ham adabiy tilning me’yori sifatida qabul qilinmaydi. Bunday so‘zlar jumlasiga shevalarga xos so‘z va iboralar, jargonlar va maxsus kasb-hunar leksikasini misol sifatida aytish mumkin. Adabiy tili muayyan xalqning barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy ehtiyoji va talablariga to‘liq xizmat qiladigan, davlat rasmiy hujjatlari, fan-texnika, ta’lim, matbuot, radio va televidenie, teatr va badiiy adabiyot tilidir.

Adabiy tilning ikki - og‘zaki ham yozma ko‘rinishi mavjud. Har qanday adabiy til xalq og‘zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo‘lishi mumkin emas. Shu ma’noda adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til bilan milliy til tushunchalari ma’lum farqqa ega. Adabiy til xalqning tarixan har qanday davrida shakllanishi mumkin. Milliy til esa shu tilning egasi bo‘lgan xalq millat bo‘lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasiii o‘taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi.

Uslub. Adabiy til tarixi fanining eng muhim vazifalaridan biri yozma manbalar - badiiy, tarixiy, publitsistik, ilmiy-ommabop, hujjatli asarlar tilini o‘rganish, ularda adabiy tilning aks etishi va taraqqiyot jarayonini ochib berish, hozirgi adabiy tilning ularga munosabatini belgilash bilan birga ularning uslublarini ham aniqlashdan iborat. Adabiy til tarixi va uning taraqqiyotini ochib berishda ikki - tarixiy va uslubiy jihatlar alohida e’tiborga olinadi. Ular bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganiladi.

Uslub - tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma’lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Uslub tarixiy kategoriya bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Shuningdek uslub adabiy janrlar taraqqiyotiga ham aloqadordir. Til birliklarining qo‘llanishi me’yorlari asar janriga ko‘ra belgilanadi. Shuning uchun ham adabiy til uslublarining tasnifida yozma manbalarning janr xususiyati hisobiga olinadi. Adabiy til rivojining turli davrlarida adabiy uslublarning qo‘llanish mavkei o‘zgarib boradi. Nutqning ifoda maqsadiga va mazmuniga, ekspressivligiga ko‘ra uslublar turli xil bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi uslublarning quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin.

I. Til uslubi. Buning o‘zi kitobiy uslub va so‘zlashuv uslubi sifatida ikkiga bo‘linadi. Kitobiy uslub adabiy-badiiy uslub ham deb ataladi va u ikki guruhga bo‘linadi: poetik uslub va prozaik uslub.

II. Nutq uslubi. U aloqa uslubi va estetik-aloqa uslubi, deb ikkiga ajraladi.

(cc) BY

Aloqa uslubi o‘z navbatida so‘zlashuv uslubi, ilmiy bayon uslubi, publitsistik uslub, rasmiy-ish uslubiga bo‘linadi. Estetik-aloqa uslubiga badiiy adabiyot uslubi kiradi.

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy so‘z va iboralarning keng qo‘llanishi, janrlarning xilma-xilligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Shunga ko‘ra u ijtimoiy-publitsistik uslub ham deb ataladi va unga gazeta-jurnal, adabiy-tanqidiy ishlar, maqolalar va ocherklar uslubi kiritiladi. Mazkur uslub, asosan, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar va vaqtli matbuotda o‘z ifodasini topadi. Publitsistik uslub ommabop uslub, matbuot uslubi kabi atamalar bilan ham ataladi.

Badiiy uslub esa boshqa uslublardan o‘zining obrazliligi va estetik zavq uyg‘otish hamda ta’sir etish vazifasiga ko‘ra ajralib turadi. Ilmiy, rasmiy, publitsistik kabi uslublarda ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasi qisman ifodalansa, badiiy uslubda esa inson va u bilan bog‘liq barcha jihatlar ifoda etiladi. Uning muhim xarakterli xususiyati shundaki, unda turli kasb-qor, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli turli so‘zlar qo‘llaniladi. Bu uslubda til birliklari obraz va manzaralar yaratadi, u kishilarning badiiy-estetik didini takomillashtirish uchun qo‘llaniladi.

Badiiy uslubda har bir muallif o‘ziga xos so‘z ishlatish usullaridan foydalanadi. Shu sababli ijodkorlar hammaga ma’lum til vositalaridan o‘zigagina xos usulda foydalanishga harakat qiladi. Obrazlilik publitsistik va so‘zlashuv uslubida ham mavjud bo‘ladi. Biroq ular ko‘pchilik tomonidan ko‘p marta ishlatilgan obrazlilikdir. Badiiy uslubda esa obrazlilik yangi va ta’sirchan bo‘ladi.

Badiiy uslub til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lug‘aviy birliklarning qo‘llanilishi, ekspressiv, tasviriy vositalar va badiiy san’atlarning ko‘p ishlatilishi, so‘zlarning obrazli va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi kabi belgilari bilan o‘zga uslublardan ajralib turadi. Bunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangandir. Boshqa uslublarda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlardan, dag‘al so‘zlardan foydalanish o‘rinsiz bo‘lsa, badiiy uslubda ularni o‘rni bilan qo‘llash imkoniyati mavjud.

Izoh sifatida aytish mumkinki, badiiy adabiyotning barcha janrlarida so‘z ishlatish imkoniyatiga bir xil mezon bilan yondashib bo‘lmaydi. Har bir adabiy janr o‘zining tasvir va so‘z qo‘llash mezoniga ega. Masalan, she’riy asarning til vositalari bilan prozaik asarning til vositalari muayyan darajada farq qiladi. Ochun, oraz, samo, mujda so‘zlari, asosan, she’riyatda qo‘llanilsa, prozaik asarlarda esa ularning sinonimlari – dunyo, yuz, osmon, xushxabar so‘zlari keng ifoda etiladi. Biroq she’riyatga xos uslublar bilan nasrga xos uslublarning aralash holda qo‘llanilishi holatlari ham uchraydi. Badiiy uslubda tasviriy vositalar (uslubiy figuralar), chunonchi, o‘xshatish, sifatlash, metafora, jonlantirish, inversiya, ritorik so‘roq, takror, ellipsis kabilar faol qo‘llaniladi.

(cc) BY

Adabiy til uslubi muayyan darajada xalqning moddiy va ma’naviy hayotida yuz beradigan o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi, markazlashgan yirik davlatlarning yuzaga kelishi yoki inqirozga uchrashi, ilm-fan va adabiyotning taraqqiyoti kabi ijtimoiy-tarixiy omillar til taraqqiyotiga, o‘z navbatida, uning uslublari tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. –Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

(cc) BY

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og`uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

(cc) BY

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. –-Тошкент 1 (2 …

O’zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri bo‘lib, uning tili ham shunga ko‘ra qadimiydir. Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha, o‘zbek xalqi va tilining nomlanishi eng qadimgi davrdan to hozirgi davrlargacha turlicha bo‘lgan. O‘tmishda hozirgi o‘zbeklar va ularning tili bir qancha nom bilan atab kelingan. Bu nomlarning eng ma’lumlari *turk, chig‘atoy, sart va o‘zbek*dir. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy III asrgacha bo‘lgan davrda turklar Xun xoqonligi tarkibida bo‘lgan davrda Xitoy manbalarida *shyunnu, xunnu* deb ham atalgan. *Turk* so‘zi *baquvvat, barkamol, odillik* kabi ma’nolarni anglatadi, degan fikrlar mavjud. Ayrim olimlar *turk* so‘zining o‘zagi *tur*ga borib taqalishini aytishadi.

Kalit so’zlar: o‘zbek tili, umumxalq tili, turk, chig‘atoy, sart, o‘zbek, etnonim, adaby meyor, sheva

The history of naming the Uzbek people and language

Yaqub Siddikovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: It is one of the oldest nations in the world, and its language is correspondingly ancient. Historical written sources testify that the names of the Uzbek people and language have varied from the earliest times to the present. In the past, modern Uzbeks and their language have been called by several names. The most famous of these names are Turkish, Chigatai, Sart and Uzbek. During the period from the II century BC to the III century AD, when the Turks were part of the Khanate of Hun, Chinese sources also called Shuyunnu and Hunnu. There are opinions that the word Turk means strong, perfect, and justice. Some scholars say that the root of the word Turk goes back to type.

Keywords: uzbek language, universal language, Turkish, chigatoy, sart, Uzbek, ethnonym, literary standard, dialect

O‘zbeklar dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri bo‘lib, uning tili ham shunga ko‘ra qadimiydir. Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha, o‘zbek xalqi va tilining nomlanishi eng qadimgi davrdan to hozirgi davrlargacha turlicha bo‘lgan.

(cc) BY

O‘tmishda hozirgi o‘zbeklar va ularning tili bir qancha nom bilan atab kelingan. Bu nomlarning eng ma’lumlari turk, chig‘atoy, sart va o‘zbekdir.

Turk - turkiy tilning o‘tmishda keng qo‘llanilgan nomlaridan biri. Qadimgi xitoy manbalaridagi ma’lumotlarga ko‘ra bu atama bundan 4 ming yil muqaddam ierogliflar bilan yozilgan bitiklarda tiek va tiauk shaklida uchraydi. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy III asrgacha bo‘lgan davrda turklar Xun xoqonligi tarkibida bo‘lgan davrda Xitoy manbalarida shyunnu, xunnu deb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyingi 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni tiekle (tele) deb atashgan. ”Avesto” asarida O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi turlar (turonliklar) sifatida qayd etilgan. “Avesto”da u “Thura” shaklida keltiriladi.

Turk atamasi buddizmning VII-IX asrlarga mansub “Maytri simit no‘m bitig” asarida qo‘llangan. X asrda yashab o‘tgan beshbaliqlik mashhur tarjimon Shingku Sheli Tutung ham o‘z tarjimalarida ana shu atamani qo‘llagan. Uning tavg‘achcha (xitoycha) versiya asosida turkiyga o‘girilgan “Syuan-szan kechmishi” asari turk tilida ekanligi ta’kidlanadi: Tavg‘ach tilintin yana beshbaliqlig‘ Shingu Sheli tutung yangirti turk tilincha evirmish (“Tavg‘ach tilidan beshbaliqlik Shingku Sheli Tutung turk tiliga o‘girdi”).

XI asrda yashagan Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonida o‘z asarining tilini turkcha deb atagan.

Bu türkcha qo‘shuqlar tuzattim senga,
O‘qürda unitma duo qil menga.
(“Bu turkcha qo‘shiqlarni sen uchun bitdim,
O‘qirda unutma, meni duo qil”).

Turk nomi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida ikki - keng va tor ma’noda ifodalangan. Keng ma’noda hamma turkiy xalqlarga nisbatan va tor ma’noda esa Sharqiy turklarga nisbatan qo‘llangan.

Alisher Navoiy turk terminini turkman, tatar, qozoq, ozor (ozarbayjon), uyg‘ur kabi juda ko‘p turkiy xalqlarning umumiy nomi sifatida qo‘llagan. U «turk» terminidan arab, fors kabi tillardan farqlash uchun foydalangan. Buni shoirning o‘zi ham quyidagi baytida qayd qilgan:

Türk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yak qalam.
(Alisher Navoiy)

Mazkur baytda Alisher Navoiy arab va fors nazmida emas, balki turk nazmida ham ijod etganligini ta’kidlab o‘tgan. Adib asarlarida turk so‘zi ko‘proq o‘zbek tushunchasi ma’nosida qo‘llangan.

Alisher Navoiy asarlarida turkiy tilda so‘zlashuvchilar türk (türk, türk ulusi), türkügo‘ylar, atrak nomlari bilan yuritilgan. Turkiy tilni esa türk (türk tili, türk lafzi, türk alfazi), türkcha (türkcha, türkcha til), türki (türki, türki alfaz) deb ataydi.

(cc) BY

«Muhokamat ul-lug‘aytayn» asarida o‘zbek xalqini turk va uning tilini turk tili deb ataydi. Masalan: Mening tabim turk lafziga muloyim tushgan uchun ta’rifida mubolag‘a izhor qilurmen. Bu garib ma’ni adosida turkchada bu matla’ borkim.

Zahiriddin Bobur “Boburnoma” asarida Andijon to‘g‘risida ma’lumot bera turib, elini türk, uning tilini türki deb ataydi. Yoki Alisher Navoiy ijodi haqida fikr yuritib, turkiyda “hech kim uningdek ko‘p va xo‘p” bitmaganligini ta’kidlaydi: Turki til bila to she‘r aytupturlar, hech kim ancha ko‘p va xob aytqan emas.

XVI asrda yashagan Muhammad Solih o‘zining “Shayboniynoma” asarida Shayboniyxon fazilatlarini ta’riflar ekan, uning turkiy asarlarini türki ab’yot, tilini esa türkcha til deb atagan:

Türki ab’yoti erur sharbat-i nob,

Forsi she’rlari ham serob.

Türkcha til bila imolari bar.

Bu atama keyingi asrlarda yaratilgan asarlarda ham uchraydi. Lekin turk atamasining qo‘llanuv doirasi toraygan: uni Anato‘liy turklarigina o‘zining va tilining oti sifatida saqlab qoldi. Butun turkiy tillar oilasiga nisbatan esa turki (turki, turki tillar singari) atamasini qo‘llaymiz.

Atoqli fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy (taxminan 934-1030) qalamiga mansub “Shohnoma” dostoniga ko‘ra, Tur turkiy xalqlarning bobokaloni, akasi Salm esa somiy xalqlar bobokaloni hisoblangan. Dunyoning taqsimlanishi haqidagi fors an’analariga ko‘ra, Faridun o‘z saltanatini o‘g‘illari Tur, Salm va Eroj o‘rtasida taqsimlagan. Katta o‘g‘il Salm - boylik, o‘rtanchasi Tur - harbiy shon-shavkat, kichik o‘g‘li Eroj - qonun va dinni so‘ragan. Ularning iltimoslariga ko‘ra, podshoh otalari Salmga Rum yerlarini, Turga Turkiston va cho‘lu biyobonni, kenja o‘g‘li Erojga esa Eron taxtini va akalari ustidan oliy hokimiyatni topshirgan.

Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida keltirilishicha, Nuh payg‘ambar “Hom otli o‘g‘lini Hinduston yurtig‘a yubordi. Som otli o‘g‘lini Eroni zaminga yubordi. Va Yofas otli o‘g‘lini qutbi shimoliy tarafig‘a yubordi. Yofasni ba’zilar payg‘ambar erdi, teb tururlar va ba’zilar payg‘ambar ermas, deb tururlar. Yofas otasining hukmi birlan Judi tog‘idan ketib, Atil (Itil) va Yoyiq suvining yoqosig‘a bordi. Ikki yuz ellik yil anda turdi. Taqi vafot tobdi. Sakkiz o‘g‘li bor edi. Avlodi bisyor ko‘b bo‘lur erdi. O‘g‘lonlarining otlari munlor turur: Turk, Xazar, Saqlab, Rus, Ming, Chin, Kamari, Tarix. Yofas o‘larinda ulug‘ o‘g‘li Turkni o‘rnida o‘lturtub, o‘zga o‘g‘lonlariga aytdikim, Turkni o‘zlaringizga podshoh bilib, aning so‘zidan chiqmang. Turkka Yofas o‘g‘loni teb laqab qo‘ydilar. Bisyor adablik va oqil kishi erdi. Otasindin so‘ng yerlarni yurub ko‘rdi. Taki bir yerni xushlab, anda o‘lturdi. Bu kun ul yerlarni Issig‘ko‘l derlar”. Turk ibn Yofas, Yofas o‘g‘lon, Turkxon nomlari bilan mashhur bo‘lgan Turk qadimgi diniy aqidalarga ko‘ra, Yofasning to‘ng‘ich o‘g‘li hisoblangan.

(cc) BY

U otasi vafotidan so‘ng turkiy o‘lkalarni boshqargan ulug‘ xondir. Turkni ko‘proq o‘z xalqi Yofas o‘g‘lon, deb atagan.

Turk so‘zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma’nolarni anglatadi, degan fikrlar mavjud. Ayrim olimlar turk so‘zining o‘zagi turga borib taqalishini aytishadi. Ularning fikricha, to‘ra so‘zining o‘zagi tur bo‘lib, bu etnonimidan keyinchalik Turon, Turkiston atamalari vujudga kelgan.

Chig‘atoy atamasi o‘zbek xalqi hayotida mo‘g‘ullar istilosilan keyin paydo bo‘ldi. XV asrning ikkinchi yarimi - XVI asr boshlaridagi turkiy adabiyot chig‘atoy adabiyoti, tilini esa turkiy, chig‘atoy tili, chig‘atoy turkiysi, eski o‘zbek tili deb atalmoqda. Ushbu atamaning kelib chiqishi Chingizxonning o‘g‘li Chig‘atoyxon otiga bog‘lanadi. Ma’lumki, Chingizxon vafotidan oldin, ya’ni 1224 yilda mo‘g‘ullar zabt etgan yerlarni o‘g‘illariga mulk tarzida taqsimlab bergan. Shunda O‘rta Osiyo va Shimoliy Afg‘oniston hududlari o‘rtancha (ikkinchi) farzandi Chig‘atoy (1224-1242)ga tekkan edi. Shunga ko‘ra, bu yerlar Chig‘atoy eli, yerli xalqlar esa Chig‘atoy ulusi, xalqning tili esa chig‘atoy tili deb atalgan.

Chig‘atoy so‘zi atama sifatida XIII asrdan boshlab qo‘llanilgan. U dastlab Chig‘atoy atrofidagi aslzodalar, qo‘shini va ularning avlodlarini anglatgan. XIV asrda ko‘chmanchi va o‘troq turkiy aholining aralashuvi natijasida yangi elat shakllangan. Keyinchalik XV asrda Movarounnahr va Sharqiy Turkistonning turkiy aholisi chig‘atoylar deb atalgan. XVI asr boshlarida ham Movarounnahrning turkigo‘y va forsigo‘y o‘troq aholisi chig‘atoylar deb ataldi. XVI - XVII asrlarda Movarounnahrning o‘troq turkiy aholisining katta qismi o‘zbek nomini qabul qildi. XX asr boshlarida O‘zbekiston va Tojikistonning janubida Shayboniyxon yurishlarigacha yashagan aholi avlodlariga nisbatan chig‘atoylar atamasi ishlatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. -Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

(cc) BY

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og`uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. --Тошкент 1 (2 …

Sart atamasi, Shayboniynoma asari, O‘zbek atamasining kelib chiqishi

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Zahiriddin Bobur Marg‘ilonni ta’riflar ekan, uning eli sartlar ekanini ta’kidlaydi. U yozadi: Eli sarttur va mushtzan-u pursharu shor eldur. Jangaraliq rasmi Movaraunnahrda shaye‘dur. Samarqand-u Buxorada nomdar jangaralar aksar marg‘inanidur. Sart atamasi o‘tmishda o‘zbek xalqi va uning tilini anglatgan atamalardan biri bo‘lib, Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg‘ariy asarlarida *savdogar* ma’nosini bildirgan. O‘zbek atamasining kelib chiqishi bo‘yicha turli talqinlar mavjud. O‘zbek atamasi XI asr yozma yodgorliklarida ham uchraydi. Bu nom bilan ataluvchi qavmlar hozirgi O‘zbekiston, O‘rta Osiyo va arab mamlakatlari xududida ancha ilgaridan beri yashab kelayotganligi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud.

Kalit so’zlar: sart, o‘zbek xalqi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Shayboniynoma, O‘zbek atamasi, Mavoraunnahr va Xuroson, urug‘, qabila, elat

The term Sart, the work of Shaibaniinom, the origin of the Uzbek term

Yaqub Siddikovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: Zahiriddin Babur, while describing Margilan, notes that his hand is sarcastic. He writes: Eli sarttur wa mushtzan-u pursharu shor eldur. Militant painting is on display in Movaraunnahr. In Samarkand-u Bukhara, most of the famous fighters are killed. The term "Sart" is one of the terms used to denote the Uzbek people and their language in the past, and in the works of Yusuf Khos Hajib and Mahmud Koshgari, it means merchant. There are different interpretations of the origin of the term Uzbek. The term Uzbek is also found in written monuments of the 11th century. There is information that the peoples with this name have been living in the territory of modern Uzbekistan, Central Asia and Arab countries for a long time.

Keywords: sart, Uzbek people, Alisher Navoi, Zahiriddin Babur, Shaybaniynama, Uzbek term, Mavoraunnahr and Khorasan, clan, tribe, people

Sart atamasi o‘tmishda o‘zbek xalqi va uning tilini anglatgan atamalardan biri bo‘lib, Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg‘ariy asarlarida savdogar ma’nosini

(cc) BY

bildirgan. Masalan, “Qutadg‘u bilig”da: Neku ter eshitkil bu sartlar bashi (“Bu savdogarlar boshi nima deydi, eshitgin”). Yoki “Devonu lug‘otit turk”da: Sartning azuqi arïg‘ bolsa, yol uza yer (“Savdogarning moli toza bo‘lsa, yo‘l ustida yoyadi”).

“Muhokamatu-l-lug‘atayn”da Alisher Navoiy forsiy tilda so‘zlovchilarni sart (sart ulusi, sart eli) hamda farsigoy otlari bilan tilga oladi. Ularning tilini esa sart tili, sart lafzi, farsi (farsi til, farsi alfaz) deb ataydi.

Zahiriddin Bobur Marg‘ilonni ta’riflar ekan, uning eli sartlar ekanini ta’kidlaydi. U yozadi: Eli sarttur va mushtzan-u pursharu shor eldur. Jangaraliq rasmi Movaraunnahrda shaye‘dur. Samarqand-u Buxorada nomdar jangaralar aksar marg‘inanidur. Chamasi, marg‘ilonlik sartlar deyilganda ustachilik bilan shug‘ullanuvchi (o‘troq hayot kechiruvchi) toifa ko‘zda tutilgan ko‘rinadi. Bulardan anglashiladiki, sart atamasi o‘sha chog‘lar ham forsiy, ham turkiy tilli o‘troq, shahar aholisiga nisbatan qo‘llanilgan

Muhammad Solih ham “Shayboniynoma” asarida Samarqand qamalini ta’riflab, uning xalqini sart deb tilga oladi: Sartlar asru zabun boldilar. Bu o‘rinda ham sart atamasi o‘troq, shahar eliga nisbatan qo‘llanilgan. XVI asrgacha O‘rta Osiyo shaharlarida yashovchi tojik aholi sart deyilgan. Shayboniyxon istilosidan keyin bu yerlardagi o‘troq turkiy aholi ham ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan sart deb yuritilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa turkshunoslari va rus tilshunoslari asarlarida o‘zbek tili sart tili deb atalgan hamda u o‘troq aholiga nisbatan sart so‘zi qo‘llangan. Sart so‘zi urug‘ yoki xalq nomi emas. Bu nom shahar aholisiga nisbatan ko‘chmanchilar tomonidan qo‘yilgan. Bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi munozarali bo‘lib, hali aniq to‘xtamli fikrga kelingani yo‘q.

O‘zbek atamasining kelib chiqishi bo‘yicha turli talqinlar mavjud. Ba’zi olimlar bu nomni Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312-1342) ismi bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, O‘zbekxon qaramog‘idagi ulus keyinchalik o‘zbek otini olgan. Bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi shuki, O‘zbekxon Oltin O‘rdada xonlikka ko‘tarilgan vaqtdan oldin o‘zbek atamasi ayrim asarlarda uchraydi. Shunga ko‘ra o‘zbek etnonimi O‘zbekxon ismidan kelib chiqqan, degan fikr to‘g‘ri emas. Boshqa bir guruh olimlarning ta’kidlashicha, XIV-XV asrlarda Oq O‘rdadagi turk-mo‘g‘ul qavmlari shu ot bilan yuritilgan. O‘zbekxon esa Ko‘k O‘rdaning xoni bo‘lib, o‘zbek qavmlari unga bo‘ysunmaganlar.

Ayrimlar o‘zbek so‘zining tub ma’nosini o‘zi o‘ziga bek, xo‘jayin, mustaqil deb izohlashga harakat qiladilar. Bu so‘z qadimgi majorlar (vengrlar)ning yozma manbalarida martaba, unvon sifatida uchrashini dalil qilib keltirishadi. O‘zbek atamasi «o‘zi bek» degan ma’noni bildiradi, deb izohlash ilmiy dalil bo‘la olmaydi. O‘zbek atamasi o‘z qabilasi nomi bilan bog‘liq degan fikr ham isbot etishni talab etadi. Anglashiladiki, o‘zbek atamasining etimologiyasi bo‘yicha hali aniq to‘xtamli fikr mavjud emas.

(cc) BY

O‘zbek atamasi XI asr yozma yodgorliklarida ham uchraydi. Bu nom bilan ataluvchi qavmlar hozirgi O‘zbekiston, O‘rta Osiyo va arab mamlakatlari xududida ancha ilgaridan beri yashab kelayotganligi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud. Masalan, XI asrda Suriyada yashagan arab tarixchisi Isoma ibn Munqizning “Kitob-al e’tibor” (“Ibratli kitob”) degan asarida yozilishicha, o‘zbek qavmiga mansub bo‘lgan kishilar o‘sha vaqtdayoq Arabistonda ancha mavke egallaganlar va yevropaliklarning salb yurishlarida musulmonlar tomonida turib jang qilganlar.

O‘zbek atamasi XIII-XIV asrlarda yaratilgan forscha va arabcha manbalarda, chunonchi, XIII asr tarixchisi Juvayniy (“Tarixi jahonkushoy”), XIV asr tarixchisi Rashididdin (“Jome’-at tavorixi”) kabilarning asarlarida ham uchraydi. Ularda bu atama Dashti Qipchoqda yashovchi turk-mo‘g‘ul qavmiga nisbatan qo‘llanilgan. Keyinchalik bu atamaning ma’nosi kengayib, urug‘lar uyushmasini ham anglata boshlagan. Masalan, Mas’ud ibn Usmon Ko‘histoniyning yozishicha, o‘zbeklarning tarkibiga yigirmadan ortiq turk-mo‘g‘ul qavmlari kirgan. Bu qavmlarning bir qism XV asrning boshlarida Shayboniyxon atrofida birlashib, uning qo‘shini bilan birga O‘rta Osiyoga kirib kela boshladilar va shu yerda turg‘un yashab qoldilar. Shayboniyxon cherigining katta qismi ham o‘zbeklardan edi. Shu paytdan boshlab o‘zbek atamasi etnik ma’no kasb etdi va bu hududdagi turkiy aholi o‘zbek nomini qabul qildi. Bu bilan o‘zbek xalqining kelib chiqishi XVI asrga to‘g‘ri keladi degan fikrga bormaslik kerak. Bunda so‘z faqat o‘zbek atamasi etnonim sifatida paydo bo‘lgan vaqti haqida bormoqda.

XIII asrga qadar Mavoraunnahr va Xuroson turklari o‘zlarini o‘zbek demaganlar. Bora-bora bu o‘lkaga kelib o‘rnashgan o‘zbeklarning mavqei orta boradi; davlat boshqaruvi ham ko‘proq shularning qo‘liga o‘ta boshlaydi. Ana shunday tarixiy jarayon ta’sirida yerli turklar ham o‘zbek deb atala boshladi. Shunisi diqqatga sazovorki, kelib o‘rnashgan qavmlar burun qaysi urug‘-qabilaga tegishli bo‘lsalar, keyinchalik ham, hatto XX asr boshlarigacha ajdodiy-qabilaviy bo‘linish-belgilarini saqlab keldilar. Yaqin-yaqingacha o‘zbeklar orasida “qo‘ng‘irot urug‘i”, “nayman urug‘i”, “mang‘it urug‘i” singari otlarning saqlanib kelganligi bejiz emas.

Yuqoridagi ma’lumotlardan hozirgi o‘zbek xalqi XIV yuzyillikda Dashti Qipchoqda yuzaga kelgan, degan mutlaqo g‘ayri ilmiy xulosa kelib chiqmasligi kerak. O‘rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan turkiy tub aholi hozirgi o‘zbek xalqining ota-bobolaridir. Dashti Qipchoqdan “o‘zbek” nomini olgan qavmning kelib o‘rnashishi hozirigi o‘zbeklarning to‘liq tarkib topishidagi keyingi bosqichlardan biri, xolos. Ularga qadar yerli turkiy xalq boshqa otlar bilan atalar edi. Hozirgi otini esa, keyinchalik, o‘zlariga kelib qo‘shilgan o‘zbeklardan oldilar. Demak, atama tarixi xalq tarixiga mutlaqo teng emas.

Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arab’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asarida quyidagi ma’lumot keltirilgan: O‘zbekxon o‘zbek ulusiga podshoh bo‘ldi. So‘ngra hijriy yetti

(cc) BY

yuz yigirmanchi yilda (1320 melodiy) Said otaning sa'y-harakatlari bilan Dashti Qipchoq aholisi musulmon dinini qabul qildilar. Islomni qabul qilganlarni o'zbeklar, qabul qilmaganlarni esa qalmoqlar deb atay boshladilar.

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida mazkur nom ko'p keltirilgan:

Holi aning yeri Turkistondur,

O'zbak eliga muazzam xondur.

Shayboniyxon Dashti qipchoqdan bostirib kirgandan so'ng ko'chmanchilar bilan yerli qabilalar aralashib ketadilar. Shunga ko'ra o'zbek degan nom keyinchalik keng qo'llana boshlagan.

O'zbek atamasi urug', qabila, elat, saxiy, odamoxun, diltortuvchi, sevgili ma'nolarida Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy asarlarida uchraydi.

Tuzub o'zbek shilonining qo'yini,

Supurib yuz bila qaysar o'yini.

(Lutfiy)

Bu ulus to xublar ko'rduk ey o'zbekim,

Dilraboliqta sizingdek sho'xi ra'no ko'rmaduk.

(Atoiy)

Shoxu toju xil'ati kim men tomosha qilg'ali,

O'zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.

(Alisher Navoiy)

Halol ona sutidekdur gar o'zbakim tutsa,

Tabuq qilib yukinib tustig'on ichinda qimiz.

(Alisher Navoiy)

O'zbek xalqi va uning tili qaysi nom bilan atalmasin, shu xalqning birdan-bir aloqa vositasi bo'lib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. –Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og`uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. –-Тошкент 1 (2 …

O‘zbek adabiy tili va turkiy adabiy tillar

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbek tili, aytilganidek, dunyo tillari orasida eng qadimgi tillardan biri bo‘lib, u turkiy tillar oilasiga mansubdir. Bu oilaga ozarbayjon, turk, turkman, tatar, boshqird, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur, qozoq va boshqa turkiy tillar kiradi. O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy adabiy tili bo‘lib, u bir-biridan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari hamda ko‘plab katta-kichik shevalardan iborat. Uning tarixi oltoy davridan boshlanadi. Oltoy nazariyasiga ko‘ra, turkiy tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo‘lib tashkil topgan qadimgi oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili (asos til) dastlab ikkiga, ya’ni tungus-manjur va turk-mo‘g‘ul tillariga ajralgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar oilasi, oltoy tili, oltoy nazariyasi, xun davri, umumturkiy so‘zlar, turkiy tillarning fonetikasi, grammatika, leksik xususiyatlari

Uzbek literary language and Turkish literary languages

Yaqub Siddikovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: The Uzbek language, as mentioned, is one of the oldest languages in the world and belongs to the Turkic language family. This family includes Azerbaijani, Turkish, Turkmen, Tatar, Bashkir, Kyrgyz, Karakalpak, Uighur, Kazakh and other Turkic languages. The Uzbek language is the national literary language of the Uzbek people, and it consists of Qarluq-Chigil-Uyghur, Kipchak, and Oghuz dialects, which differ from each other in phonetic, morphological, and lexical features, as well as many large- consists of small dialects. Its history begins in the Altai period. According to the Altaic theory, the history of Turkic languages begins with the ancient Altaic period, when the Altaic languages became one language. Altai grandfather language (the main language) was initially divided into two, namely Tungus-Manchurian and Turkic-Mongolian languages.

Keywords: Turkic language family, Altaic language, Altaic theory, Hun era, common Turkic words, phonetics of Turkic languages, grammar, lexical features

Turkiy, chunonchi, o‘zbek tili eng qadimgi tillardan biri bo‘lib, uning tarixi oltoy davridan boshlanadi. Oltoy nazariyasiga rus sharqshunos olimi V.Radlov asos solgan

(cc) BY

bo‘lib, uning nazariyasiga ko‘ra oltoy tillarida so‘z boshida va oxirida kelgan undoshlar faqat jarangsiz bo‘ladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, turkiy tillarning tarixi oltoy tillari bir til bo‘lib tashkil topgan qadimgi oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili (asos til) dastlab ikkiga, ya’ni tungus-manjur va turk-mo‘g‘ul tillariga ajralgan. Keyinchalik turk-mo‘g‘ul tili mustaqil ikki til, ya’ni turk va mo‘g‘ul tillari sifatida taraqqiy etgan.

Turkiy tillar tarixidagi keyingi davr xun davri bo‘lib, u meloddan avvalgi uchinchi asrdan melodning to‘rtinchi asrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. VI-X asrlardagi turkiy til esa qadimgi turkiy til nomi bilan ataladi. VI asrda shakllangan qadimgi turkiy til Markaziy Osiyo, Shimoliy Mo‘g‘iliston, Oltoy, Xuroson, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Rossiyaning janubiy qismi, Sibirga tarqalgan butun turkiy urug‘lar uchun yagona umumtil edi. Mazkur davrga oid juda ko‘plab turkiy-runiy (O‘rxun-Enasoy) va turkiy-uyg‘ur (VI-X asrlardagi) bitiklar mavjud.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishicha, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Oltoy, Janubiy Sibir, Uraloldi hududlari aholisi bronza davrining 3-2 ming yilligidan boshlab turkiy tilda so‘zlashgan. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar hozirgi turkiy tillarning har birida u yoki bu miqdorda saqlanib qolgan. G‘.Abdurahmonovning ta’kidlashicha, turkiy xalqlarning ildizlari miloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug‘lar - qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. Har bir turkiy xalq va uning tilining shakllanishida bu urug‘larning biri asos bo‘lgan.

Turkiy tillar dunyo tillari tizimida alohida o‘ringa ega bo‘lib, hozirgi va qadimgi turkiy xalqlar hamda elatlarning tillaridir. Hozirgi davrda turkiy tillarda so‘zlashuvchi aholi, asosan, Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Rossiya, Xitoy, Afg‘oniston, Eron, Tojikistonda, shuningdek, Bolgariya, Ruminiya, Ukraina, Germaniya, Kipr, Makedoniya, Albaniya, Amerika, Saudiya Arabistoni va boshqa bir qancha mamlakatlarda yashaydi. O‘tgan asr oxiridagi ma’lumotlarga ko‘ra, turkiy tillarda so‘zlashuvchilarning umumiy soni bir yuz qirq million kishidan ortiqni tashkil etgan.

Eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi XIV asr oxirlari va XV asrga to‘g‘ri keladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, eski o‘zbek adabiy tilining davomi sifatida XX asrning birinchi choragida qarluq-chigil lahjasining Toshkent va Farg‘ona shevalari bazasida shakllandi.

O‘zbek tili, aytilganidek, dunyo tillari orasida eng qadimgi tillardan biri bo‘lib, u turkiy tillar oilasiga mansubdir. Bu oilaga ozarbayjon, turk, turkman, tatar, boshqird, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur, qozoq va boshqa turkiy tillar kiradi. O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy adabiy tili bo‘lib, u bir-biridan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari hamda ko‘plab katta-kichik shevalardan iborat.

(cc) BY

O‘zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktyabrdagi «Davlat tili haqida»gi qonuniga muvofiq, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbek tili, asosan, O‘zbekistonda, shuningdek, Afg‘oniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Amerika, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

Aytilganidek, o‘zbek tili boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk, qirg‘iz va qozoq tillari bilan bevosita qardoshdir. Hozirgi davrda mazkur tillarda so‘zlashuvchi aholi dunyoning turli hududlarida yashaydi. Masalan, turk tili Turkiya, Iroq, Suriya, Eron, Ruminiya, Bolgariya, Gretsiya, Rossiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Kipr oroli, Makedoniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. O‘tgan asr oxirlarida turk tilida so‘zlashuvchilarning umumiy soni ellik besh millionga yaqin kishini tashkil etgan.

Turkiy tillar oilasiga mansub qozoq tili turkiy tillarning qipchoq guruhiga mansub tillaridan biri bo‘lib, qoraqalpoq va no‘g‘ay tillari bilan birgalikda qipchoq tillarinnng qipchoq-no‘g‘ay guruhchasini tashkil etadi. Qozoq tili, asosan, Qozog‘iston, Xitoy, O‘zbekiston, Rossiya, Mongoliyada, shuningdek, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Turkiya, Ukraina va boshqa mamlakatlarda yoyilgan. Qozoq tilida so‘zlashuvchilarning umumiy soni qariyb o‘n million kishini tashkil etadi.

Qirg‘iz tili esa turkiy tillarning qirg‘iz-qipchoq guruhiga mansub tillardan biridir. Ushbu til, asosan, Qirg‘izistonda, shuningdek. O‘zbekiston, Tojikiston, Qozog‘iston, Xitoy, Afg‘oniston, Rossiya, Pokiston va boshqa hududlarda qo‘llaniladi. Mazkur tilda so‘zlashuvchilarning umumiy soni ikki yarim million kishidan iborat.

Turkiy xalqlar uchun mushtarak obida hisoblangan O‘rxun-Enasoy tosh bitiklari, O‘rta Osiyo turkiy xalqlarining umumiy adabiy tili namunalari bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” kabi o‘lmas asarlar o‘zbek xalqining ham dastlabki yozma yodgorliklari hisoblanadi.

Akademik B.Ahmedov o‘zbek xalqi O‘rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan biri bo‘lib, deyarli uch ming yillik tarixga egaligini aytadi. Anglashiladiki, o‘zbek tilining shakllanganligiga ham shuncha bo‘lgan. Chunki xalq bilan uning tili bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek xalqi va uning tili turkiy xalqlar oilasiga va tiliga mansub bo‘lib, uning shakllanishi turkiy xalqlar va tillarining shakllanish tarixi bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Hozirgi shakllangan o‘zbek xalqi va uning tili uzoq o‘tmishda ro‘y bergan murakkab jarayonlarning hosilasidir. O‘zbek xalqi etnik jihatdan juda ham murakkab turkiy xalqlardan biridir. Uning shakllanishida to‘qson ikki turkiy va turkiy bo‘lmagan urug‘larning ishtirok etgani tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarda ko‘rsatib o‘tilgan.

Turkiy tillarning genetik va lisoniy xususiyatlar jihatidan o‘zaro munosabati masalasiga qiziqish juda qadimdan davom etib keladi. Bu o‘rinda turkiy tillarni birinchi marta tasnif qilgan olim Maxmud Koshg‘ariy ishlarini qayd etish o‘rinlidir. Turkiy

(cc) BY

tillar tasnifi bilan qiziqish, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asrda avj oldi va hozirgacha ko‘plab tasniflar vujudga keldi.

Turkiy tillar o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan juda yaqin tillardir. Ular til xususiyatlariga ko‘ra ko‘p jihatdan o‘zaro o‘xshash, biroq ayrim farqlar ham mavjud. O‘zbek tilining asosiy fonetik belgilariga e’tibor qaratilsa, uning ayrim shevalarida boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi 8-9 unli mavjud. Izoh sifatida aytish mumkinki, o‘zbek adabiy tilida esa 6 unli qabul etilgan. O‘zbek tilining ayrim shevalariga, boshqa bir qancha turkiy tillarga xos bo‘lgan lab va tanglay ohangdoshligi (singarmonizm) hodisasi o‘zbek adabiy tilida yo‘q, urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Turk tilining fonetik o‘ziga xosliklari esa shundan iboratki, so‘z boshidagi t- d, k- g tovushlari jarangsiz va jarangli tarzida farqlanadi; bu tilda singarmonizm hodisasi mavjud; boshqa turkiy tillardagi «bo‘l» fe’li mazkur tilda «o‘l» tarzida qo‘llaniladi. Qozoq tilining asosiy fonetik xususiyatlari quyidagilardan iborat: 9 unli fonemaga ega, unlilar ohangdoshligi (lab singarmonizmi) va undoshlar assimilyatsiyasi mavjud, so‘z urg‘usi, asosan, dinamik xususiyatga ega. Qirg‘iz tilining asosiy fonetik xususiyatlari esa quyidagilardan iborat: qisqa va cho‘ziq unlilar (8 ta qisqa unli fonemaga qarama-qarshi 8 ta cho‘ziq unli) mavjud, singarmonizm hodisasi to‘liq amal qiladi, so‘z boshida y o‘rnida j undoshi qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. –Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og‘uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

(cc) BY

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. –-Тошкент 1 (2 …

Turkiy tillar oilasi hamda o‘zbek tilida ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning miqdori haqida

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Tub turkiy so‘zlar turkiy tillarning o‘z materiali, o‘z ona mulkidir. Bu so‘zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo‘lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug‘at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so‘zlar deb yuritilmoqda. Turkiy tillar lug‘ati ayrim so‘zlarga ko‘ra farqlanadi. Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei va obro‘yi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar bir - biriga yaqinligi bo‘lsada, ular sezilarli darajada farqlanadi.

Kalit so‘zlar: Turkiy tillarning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, Turkiy tillar oilasi, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar, lingvistik xususiyatlar, umumturkiy so‘zlar

In the Turkic language family and in Uzbek about the number of polysyllabic words

Yaqub Siddikovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: Native Turkic words are the material of Turkic languages, their native property. These words are found in all languages belonging to the Turkic language family. This situation created a common lexical fund in the lexicon of Turkic languages, which has been common for these languages since ancient times. This common lexicon contained in the dictionary of Turkic languages is used as common Turkic words in Turkology. The dictionary of Turkish languages differs according to some words. The socio-political status and prestige of the Uzbek language, which is part of the Turkic language family, has been increasing in the world society in recent years. Although the phonetic, grammatical and lexical features characteristic of the Turkic language family are close to each other, they are significantly different.

Keywords: formation of Turkic languages, stages of development, Turkic language family, polysyllabic words, linguistic features, common Turkic words

(cc) BY

Turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning miqdori juda oz. Bir bo‘g‘inli (o‘q, ot, oy kabi) va ikki bo‘g‘inli (bo‘ri, yetti, tulki kabi) so‘zlarning miqdori esa ko‘p.

2. O‘zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so‘zlar, asosan, uch tovushli bo‘ladi: kun, til, bel, kel kabi.

3. Barcha turkiy tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilidagi so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’noli xususiyatga ega. Bunga misol tarzida bosh, tish, uch kabi umumturkiy so‘zlarni aytish mumkin.

4. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida affikslar so‘z oxiriga qo‘shiladi: ezgulik (ezgu+lik), ko‘zsiz (ko‘z+siz) kabi.

5. Turkiy (o‘zbekcha) so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inida (pastki, ostki, ustki kabi ayrim ko‘makchilarni hisobga olmaganda) undoshlar yondosh kelmaydi.

6. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida so‘z boshida undoshlar ketma-ket kela olmaydi.

7. O‘zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so‘zning o‘zagi deyarli o‘zgarmaydi: tilni, tilga, tildan, tilsiz, tilli, tillik kabi.

8. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yuq, prefiks va old qo‘shimchalar mavjud emas.

9. O‘zbek tili va boshqa turkiy tillar sintaksisi sohasida gap bo‘laklari o‘zining muntazam joylashish tartibiga ega (aniqlovchi aniqlanmishdan, ega kesimdan oldin joylashadi).

10. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida bog‘lovchilar deyarli yo‘q (ularning aksariyati arab va fors tillaridan o‘zlashgan).

11. Turkiy tillarning lug‘at tarkibi bir-biriga juda yaqin va uning manbasini tub turkiy so‘zlar tashkil etadi.

O‘zbek adabiy tili o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan quyidagilarga ko‘ra farq qiladi:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi, aksariyat turkiy tillar, chunonchi, turk, qozoq, qirg‘iz tillarida esa bu qonuniyat amal qiladi.

2. O‘zbek adabiy tilida unlilar miqdori oltita (a, ə, o, o‘, u, i) qilib belgilangan bo‘lsa, qirg‘iz va uyg‘ur adabiy tilida esa sakkizta unli (a, ə, o, ө, u, ү, i, ы; a, e, o, ө, e, u, ү, i) qabul qilingan.

3. O‘zbek va turkman tillarida so‘z boshida keladigan y tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda dj va j tovushi bilan ifodalanadi: yo‘l - jo‘l, yigit - jigit, yo‘q -jo‘q kabi.

4. O‘zbek adabiy tilida ch, sh undosh tovushli ayrim so‘zlar qoraqalpoq va qozoq tillarida sh, s undoshlari bilan ifodalanadi: kuch - kush, tish - tis kabi.

(cc) BY

5. O‘zbek tilida k, t tovushlari bilan boshlanadigan so‘zlar o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, turkman tillarida g, d tovushlari bilan beriladi: ko‘z - go‘z, til - dil kabi.

6. O‘zbek adabiy tilida g‘ undosh tovushi bilan tugagan so‘zlar tatar, boshqird, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida v va u undoshlari bilan ifodalanadi: tog‘ - tav - tau, bog‘ - bav - bau kabi.

Ayonki, tub turkiy so‘zlar turkiy tillarning o‘z materiali, o‘z ona mulkidir. Bu so‘zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo‘lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug‘at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so‘zlar deb yuritilmoqda. Ularni quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

1. Inson va hayvon tanasi a’zolarining nomi: bosh, og‘iz, burun, ko‘z, tish, qosh, til, bel va boshqalar. Ushbu so‘zlar ayrim fonetik farqlar bilan turkiy tillarning aksariyatida qo‘llaniladi. Mazkur so‘zlar qadimgi turkiy tilda faol iste’molda bo‘lgan. 1969-yilda nashr etilgan “Древнетюркский словарь” kabi tarzda keltirilgan.

2. Qon-qarindoshlik va yaqinlik tushunchasini anglatuvchi so‘zlar: ota, er, bola, dada, o‘g‘il, tog‘a, qiz, opa, singil va h.k. Qadimgi turkiy tilda ushbu so‘zlar ata tarzida ifodalangan. “Девону луғотит турк” asarida apa so‘zining “ona; opa, egachi” ma’nolari bilan bir qatorda “katta, ulug‘” ma’nosi ham bo‘lganligi aytiladi. Tog‘a so‘zi Mahmud Koshg‘ariy devonida tag‘ay shaklida berilgan. Lekin uning ma’nosini muallif amaki deb izohlagan. Navoiy esa “Muhokamatul lug‘atayn” asarida turklar “onaning og‘a va inisin” tag‘oyi deb atashlarini ta’kidlaydi.

3. Kishi yoshini ifodalovchi so‘zlar: yigit/jigit, qari//qariya, yosh, bola, go‘dak, chol, erkak, chaqaloq, qizcha va h.k. Qadimgi turkiy tilda iste’molda bo‘lgan yigit kabilar hozirgi turkiy tillarning aksariyatida qo‘llaniladi.

4. Geografik joylar va aholi yashash manzillarining nomi: tog‘, yurt, qishloq, er, dengiz, yo‘l/jo‘l, ko‘l va boshq.

5. Vaqt, zamon tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: tun, kech (kech, uzoq), oy (oy, bir oy), bultur, kun//gun, ilk (ilk, dastlabki), tong, kecha, kechagi, bukun, (bugun), erta, indin, chog‘//choq (payt, vaqt), burun, ilgari, mangu, o‘tmish, yil va boshq. Qadimgi turkiy tilda iste’molda bo‘lgan tun, kech, oy, bultur, burun, choq, erta, ilk, yil, kechagi kabilar aksariyat turkiy tillarda hozirda faol qo‘llaniladi.

6. Hayvon, parranda, hasharot va ular gavda qismlarining nomlari - zoologik terminlar: ot, qush, tuya (teva), tulki, kiyik, ilon/yilon, echki, sichqon/sichon, tovuq va boshq. Mazkur guruh doirasidagi so‘zlarni qadimiy turkiy yozma yodgorliklar tili leksikasi bilan solishtirilganda ma’lum bo‘ldiki, mazkur guruh so‘zlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda mavjud: qoplon, qo‘zi, ot, baliq, echki, eshak, it,

(cc) BY

yo‘lbars, kiyik, qo‘y, tulki, qarg‘a va boshq. Mahmud Koshg‘ariy taquq (tovuq) so‘zini turkmancha so‘z sifatida qayd etadi.

7. O‘simlik nomlari - fitonimlar: chechak, terak, arpa, yaproq, bug‘doy, somon, qamish, don, tariq va h.k. Mazkur guruh so‘zlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi.

8. Uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomi - maishiy leksika: bolta, qozon, chiroq, ip, o‘choq, elak, ko‘zgu, taroq va h.k. Mazkur guruh so‘zlarining ham deyarli barchasi qadimgi turkiy tilda uchraydi. Misol sifatida quyidagilarni aytib o‘tish mumkin: boltu (bolta;, bichoq (pichoq;, egar, ketman (ketmon, ko‘zaj (ko‘za;, kigiz, qop, ko‘zgu va boshq. Mahmud Koshg‘ariy ko‘zaj (ko‘za) so‘zini arg‘ucha deb izohlaydi.

9. Oziq-ovqat va ichimlik tushunchalarini anglatuvchi so‘zlar: et (go‘sht) suv, bol (bol, asal), un, suv, qaymoq va h.k. Mazkur so‘zlar ham qadimgi turkiy tildagi shakl va mazmunda qo‘llaniladi. Misol sifatida quyidagilarni keltirib o‘tamiz: et, tuz, un, bol (va boshq.

10. Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomlari: yel (shamol), bulut, yomg‘ir, muz, oy, quyosh, yulduz, borliq, kun (quyosh), yoz, yovdu va h.k. Mazkur guruhga kiruvchi so‘zlar ham qadimgi turkiy tilda faol iste’molda bo‘lgan. El, bulut, yomg‘ur, yulduz, kun, qor, yolqin, yashin kabilarning nazarda tutilgan lug‘at so‘zligida mavjudligi fikrimizni dalillaydi.

Qadimgi turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili uchun xarakterli bo‘lgan ev (uy), yog‘i (dushman, yov), em (davo), qapu (eshik, darvoza), qamug‘ (barcha, hamma), yavuq (yaqin) kabi so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqqan bo‘lsa ham, boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk tilida qo‘llaniladi.

Turkiy tillar lug‘ati ayrim so‘zlarga ko‘ra farqlanadi. Bunga misol sifatida turk tilida hozirda faol qo‘llanuvchi yumruk (musht), kerpich (g‘isht), chabuk (ildam), kapi (eshik), ev (uy, xona), bilgin (olim), kendu (o‘z), gene (yana, tag‘in) kabi so‘zlarni aytib o‘tish mumkin. Mazkur so‘zlar qadimgi turkiy til va eski o‘zbek adabiy tilida, chunonchi, Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa mazkur leksik birliklar eskirgan, iste’moldan chiqqan.

Turkiy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi o‘zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqei va obro‘yi dunyo jamiyatida keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu til hozir Amerika, Germaniya, Turkiya, Polsha, Hindiston kabi mamlakatlarning universitetlarida alohida o‘rganilmoqda. U o‘zbek xalqining alohida etnik birlik - elat, xalq, millat sifatida shakllanishida muhim o‘ringa ega. Hozirgi davrda o‘zbek tili xo‘jalik hayotining barcha sohalarida to‘liq amal qiladigan til sifatida rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

(cc) BY

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. -Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале

узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og‘uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. --Тошкент 1 (2 …

O‘zbek adabiy tilining shakllanishida boshqa tizimdagi tillarning o‘rni

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlarda boshqa til oilasiga mansub tillardan o‘zlashgan so‘zlar, asosan, uch guruhga, ya’ni forsiy, arabiy va ruscha-evropacha so‘zlarga ajratilib tadqiq etiladi. O‘zbek tili tarixiga nazar solinsa, u murakkab shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tganligiga guvoh bo‘lish mumkin. O‘zbek tili o‘tmishda bir qator qardosh bo‘lmagan, boshqa til oilasiga mansub tillar bilan ma’lum ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra o‘zaro aloqada bo‘lgan. Mazkur aloqaning ta’sir darajasi va sifatiy ko‘rinishi boshqa tizimdagi tillarning har biri bilan turlicha. O‘zbek tili aloqada bo‘lgan ba’zi boshqa tillar unga, xususan, uning leksik tarkibining o‘zgarishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ayrimlarining esa ta’siri sezilarli emas.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili tarixi, o‘zlashma, o‘zbek adabiyot tili, o‘zga tillar, fors tili, arab tili, rus tili, un, so‘z o‘zlashtirish, taraqqiyot bosqichlari, lingvistika

The role of languages of other systems in the formation of the Uzbek literary language

Yaqub Siddiqovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: In the studies created in Uzbek linguistics, words borrowed from languages belonging to other language families are mainly divided into three groups, i.e. Persian, Arabic and Russian-European words. If you look at the history of the Uzbek language, you can witness that it has gone through complex stages of formation and development. In the past, the Uzbek language interacted with a number of unrelated languages belonging to other language families due to certain socio-political reasons. The level of influence and quality of this communication is different with each of the languages in other systems. Some other languages with which the Uzbek language is in contact have had a strong influence on it, in particular, on the change of its lexical composition, while the influence of some others is not significant.

Keywords: Uzbek language history, acquisition, Uzbek literary language, foreign languages, Persian language, Arabic language, Russian language, sound, word acquisition, stages of development, linguistics

(cc) BY

O‘zbek tili tarixiga nazar solinsa, u murakkab shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tganligiga guvoh bo‘lish mumkin. O‘zbek tili o‘tmishda bir qator qardosh bo‘lmagan, boshqa til oilasiga mansub tillar bilan ma’lum ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra o‘zaro aloqada bo‘lgan. Mazkur aloqaning ta’sir darajasi va sifatiy ko‘rinishi boshqa tizimdagi tillarning har biri bilan turlicha. O‘zbek tili aloqada bo‘lgan ba’zi boshqa tillar unga, xususan, uning leksik tarkibining o‘zgarishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ayrimlarining esa ta’siri sezilarli emas. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tili aloqada bo‘lgan boshqa til oilasiga mansub tillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. O‘zbek tili, xususan, uning leksik tarkibiga kuchli ta’sir etgan boshqa til oilasiga mansub tillar. Bular fors, arab va rus tillaridir. Mazkur tillardan o‘zlashgan so‘zlar miqdori ancha ko‘p bo‘lib, ular o‘zbek tili leksikasida alohida-alohida lug‘aviy qatlamni tashkil etadi.

2. O‘zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirmagan boshqa til oilasiga mansub tillar. Xitoy, hind, grek tillari kabilarni shunday tillar jumlasiga kiritish mumkin. O‘zbek tiliga mazkur tillardan sanoqli so‘zlargina o‘zlashtirilgan bo‘lib, ular alohida lug‘aviy qatlamni tashkil etmaydi.

O‘zbek tilida kam uchraydigan bu kabi so‘zlar jumlasiga hind tilidan o‘zlashgan lak (yuz ming), nilufar, bibi, tovus, mo‘ltoni (lo‘li); xitoy tilidan o‘zlashgan choy, lag‘mon, shiypon, jambul; mo‘g‘ul tiliga tegishli ulus (xalq), mergan, ko‘ragan (xon kuyovi); qadimgi yunon tilidan arab tili orqali o‘zlashgan marvarid, nomus, fonus, qandil, qonun, zumrad, qaysar kabilarni aytib o‘tish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida yaratilgan tadqiqotlarda boshqa til oilasiga mansub tillardan o‘zlashgan so‘zlar, asosan, uch guruhga, ya’ni forsiy, arabiy va ruscha-evropacha so‘zlarga ajratilib tadqiq etiladi.

O‘zbek adabiy tili va fors tili. Forscha-tojikcha so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishi bir davrning mahsuli emas. Ularning o‘zlashishi bir necha tarixiy taraqqiyot davrlari bilan bog‘liq. O‘zbek xalqi va tilining shakllanishida qarluq, o‘g‘uz va qipchoq urug‘lari bilan birga eronzabon urug‘lar (sug‘diylar, xorazmliklar, saklar)ning ham hissasi katta bo‘lgan. Fors-tojik aholi bilan turkiy aholining ijtimoiy etnik aloqasi tufayli o‘zbek tiliga ko‘plab forscha so‘zlar o‘zlashgan. Ma’lumki, somoniylar hukmronligi davrida, ayniqsa, XIII-XIV asrlardan boshlab tojik tilining mahalliy turkiy tillarga ta’siri ortdi, ikki tillilik kuchaydi, shoir va yozuvchilar tojik yoki o‘zbek (turkiy) tilida ijod qildilar. Rasmiy hujjatlar ko‘proq tojik tilida olib borildi.

Professor E.Begmatovning yozishicha, turkiy urug‘ va qabila tillari, jumladan, o‘zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. Turkiy urug‘, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug‘ tillari bilan aloqasi va qo‘shilishi (qadimiy davrlarda).

(cc) BY

2. O‘zbek tilining forsiy til bilan (IX-X, XI-XV asrlar) aloqasi.

3. O‘zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha).

Forsiy so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan: a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi; v) tojik va fors tillarida ijod qilish an’analarining uzoq yillar davom etganligi; g) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi; d) adabiyot, san’at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik.

Alisher Navoiy fors-tojik tilining o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni, ta’siri xususida “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida quyidagilarni yozganligini eslatib o‘tish o‘rinli bo‘lsa kerak: “... turkning ulug‘din kichigiga degincha, na navkardin begiga degincha sort (fors - Yo.S) tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, o‘z xurd ahvolig‘a ko‘ra aytaolurlar, balki ba’zi fasohat va balog‘at bila ham takallum qilurlar.”

Forscha-tojikcha o‘zlashma lug‘aviy birliklarning qo‘llanishi tarixiy asosga egadir. O‘zbek tiliga o‘zlashgan forscha-tojikcha so‘zlarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

1. Narsa-buyum nomlari: sag‘ana, parda, toj, taxt, dutor, durbin, xirmon, olov, gavhar, zanjir, belbog‘, aroba, zahar, tesha va boshqalar.

2. Qarindoshlik-yaqinlik tushunchasini anglatuvchi nomlar: birodar, do‘st, farzand, hamroh, oshno, mehmon, mezbon va boshq.

3. Mansab-martaba va kasb-kor nomlari: podshoh, shoh, savdogar, dehqon, qalandar, usta, rahbar, sozanda va h.k.

4. Tabiat hodisalari va koinot jismlarining nomi: bahor, shabnam, osmon, xurshid (quyosh), oftob va h.k.

5. Qush, parranda va hayvonlar nomi: xo‘roz, ohu (kiyik), sher, kaptar, jonivor, ko‘rshapalak, to‘ti, zog‘ (qarg‘a) va boshq.

6. O‘simlik, daraxt va ular bilan aloqador tushunchalar nomi: gul, barg, anjir, anor, paxta, daraxt, xirmon, gunafsha, binafsha, lola, piyoz, karam, sholg‘om, sholi va boshq.

7. Mavhum tushuncha bildiruvchi so‘zlar: dard, armug‘on, armon, umid, baxt, pushaymon, anduh, andisha, bahona, gumon, gunoh, mehr va h.k.

8. Oziq-ovqat va ichimliklar nomi: osh, non, kulcha, go‘sht, guruch, may va boshq.

9. Diniy tushuncha va tasavvurlar nomi: xudo, jon, pari, butxona, motam, musulmon, do‘zax, dev, afsona, afsun, banda, namoz, payg‘ambar, darvesh va h.k.

11. Odam va hayvon a’zolari nomi: chehra, siyna, peshona, panja, lab, jigar va h.k.

(cc) BY

12. Belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlar: nozanin, sho‘r, guliston, toza, mehribon, nigohbon, dilbar, bemor, dildor, xushtor, xushyor, xandon, kambag‘al, parishon, bandi, barno, durdona, baland, past va h.q.

13. Vaqt, zamon tushunchasi bilan bog‘liq so‘zlar: dam (on, lahza, kez, payt), hufton, shom, zamon, hafta, bahor, navbahor va h.k.

14. Shaxs tushunchasini anglatuvchi so‘zlar: yor, go‘dak, juvon, beva, banda (umuman odam, kishi), yor va boshq.

15. Joy tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: bozor, zamin, saroy, ko‘cha, shahar, gulzor, bog‘, hovli, biyobon, mozor, maydon, zindon va h.k.

Tarixiy rivojlanish jarayonlarida o‘zlashgan forsiy so‘zlarning fonetik qurilishi va leksik ma’nosida o‘zgarish u qadar yuz bermagan.

O‘zbek adabiy tili va arab tili. Arab tili turkiy tillar, chunonchi, o‘zbek tiliga kuchli ta’sir etgan tillardan biridir. Bu ta’sirning xususiyati va sabablari ayrim ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Bu ta’sirning boshlanish davri arab xalifaligi hukmronligi bilan bevosita bog‘liq. Ayonki, jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri Arab xalifaligidir. Arab xalifaligi davri O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Hindiston, Pireneya yarim oroli va Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o‘ziga xos yuksalish davrini boshlab berdi.

Tarixdan ma’lumki, 650-651-yillardan arablarning O‘rta Osiyoga harbiy harakatlari boshlandi. Ular O‘rta Osiyo hududlarini bir necha yillar davomida zabt etishga muvaffaq bo‘lishdi. Arablar o‘z hukmronligi siyosiy negizini mustahkamlash va uning barqarorligini ta’minlashda islom dinini keng yoyishga va targ‘ib qilishga katta e’tibor berdilar. Bu dinning ko‘p jihatdan afzalligi, xalqparvarlik ruhi, Alloh oldida barcha teng ekanligi, axloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyatlari mahalliy aholi tomonidan uni qisqa vaqt oralig‘ida qabul etishlariga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar. Arab tili esa mamalkatning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy o‘rinni egalladi. Arab tili faqat islom dinini targ‘ib qilish, islom falsafasi va aqidalariga doir g‘oyalar, fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida, mamlakatning ilmiy-madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo‘llanildi.

Mazkur ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra turkiy xalqlarning tiliga arab tilidan ko‘plab so‘z va iboralar qabul qilindi. O‘zbek tiliga arab tilidan so‘z olish, asosan, o‘zbek-arab bilingvizmi davrida (VII-IX asrlarda) kuchli bo‘ldi. Keyingi davrlarda esa o‘zbek tiliga yangi so‘zlar sezilarli darajada qabul qilinmagan. VII-IX asrlar oralig‘ida arab tilidan turkiy (o‘zbek) tilga o‘zlashgan so‘zlarning miqdori ancha katta bo‘lib, ular alohida lug‘aviy qatlamni tashkil qilgan. Bir necha asrlar davomida o‘zlashgan arabiy so‘zlar o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda davom etdi. Ayniqsa, o‘zbek adabiy tili tarixining XIV-XVIII asrlarida ularning iste’mol doirasi ancha kengaydi. Alisher

(cc) BY

Navoiy asarlari leksikasini maxsus tadqiq etgan olim B.Bafoevning ta'kidlashicha, shoir asarlari tilidagi so'z boyligining taxminan 35-40 foizini arab tilidan kirgan so'z va so'z shakllari tashkil qiladi.

Tilshunos Z.Hamidovning statistik hisobiga ko'ra esa "Lison ut-tayr" asari leksikasida 40 foiz lug'aviy birliklar arabiydir. XVII-XVIII asr yozma yodgorliklaridan biri bo'lgan So'fi Olloyorning "Sabotul-ojizin" asari leksik oyligida 47 foiz so'zlar arabiy ekanligini R.Zohidov ta'kidlab o'tadi.

O'zbek tiliga o'zlashgan arabiy so'zlarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Diniy-afsonaviy tushuncha va tasavvurlar nomi: malak, ruh, shayton, oshiq, fano, jannat, azon, farishta, mo'min, kofir va boshq.

2. Ilm-ma'rifat, madaniyat, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq nomlar: madaniyat ma'rifat, tarbiya, ilm, qalam, sahna, san'at, sahifa, kitob, rasm, haykal, raqam, rassom va h.k.

3. Joy, makon va zamon tushunchalarini anglatuvchi nomlar: Sharq, G'arb, qabr, tabiat, tarix, asr, vatan, vaqt, manzil, mahalla va boshq.

4. Xususiyat va belgi anglatuvchi nomlar: ma'shuqa, zolim, mazlum, mal'un, munis, qallob, dohiy, mudhish, harom, faqir, mash'um, aziz, ahmoq va h.k.

5. Antroponim va toponimlar: Behbudiy, Ka'ba, Majnun, Ehrom, Misr, Nil, Suriya, Sulaymon, Yusuf, Laylo, Ra'no va boshq.

6. Mavhum tushuncha ifodalovchi so'zlar: balo, davo, xayol, qimmat, hayot, qadr, hol, la'nat, fikr, ta'sir, nur, ma'no, alam, zulm, darak va boshq.

7. Mansab, unvon, kasb-hunar va mashg'ullik tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: sulton, olim, jallod, so'fi, mulla, hokim, hakim, tabib, rassom, raqqosa va boshqalar.

8. Inson tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar nomi: soat, bino, sham, madrasa, atlas, ovqat, mash'ala va boshqalar.

9. Qush, parranda va hayvonlar nomi: hayvon, maymun, bulbul, mol, qumri va boshq.

11. Inson va jamiyat tushunchasi bilan bog'liq nomlar: inson, mizoj, bashariyat, millat, xalq, sinf, oila, saltanat, bashar, jamiyat, ittifoq, inqilob, odam, firqa, hurriyat, avlod va h.k.

12. Etikaga oid nomlar: salom, marhamat, hurmat, haqorat, rahmat, takalluf, muhtaram, lutfan, iltifot, shukur va boshq.

14. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari: adabiyot, maqol, hikoya, ilhom, mazmun, marsiya, bob, shoir, tasvir va boshq.

15. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: inqilob, iqtisod, istiqlol, hukumat, muxolif, muxtor, davlat, islohot, ittifoq, siyosat va h.k.

(cc) BY

O‘zbek tilida diniy-axloqiy, mavhum va aniq tushunchalarni, belgi-xususiyat kabilarni ifodalovchi o‘zlashma arabiy so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy tushunchalarni bildiruvchi mazkur tilga tegishli lug‘aviy birliklar etakchi o‘rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. -Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. -Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og‘uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

(cc) BY

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. --Тошкент 1 (2 …

O‘zbek adabiy tili va rus tili, yevropa tillaridan kirib kelgan so‘zlar

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: O’zbek tiliga rus va yevropa tillaridan o’zlashgan so’zlarning aksariyat qismi ijtimoiy-siyosiy hayotga oid nomlar va ilm-fan, maorif, pochta-telegraf, transport sohalariga oid terminlardir. Rus tilidan qabul qilingan ayrim so‘zlar aslida turkiy (o‘zbekcha) so‘zlardir. Chor Rossiyasi XIX asrning o’rtalaridan O’rta Osiyo hududlarini egallash uchun dastlabki harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Mazkur siyosiy voqea Turkiston ijtimoiy hayotini tubdan o’zgartirib yubordi. Hukmron Chor Rossiyasi hukumati o’z mavqeini mustahkamlash maqsadida mahalliy xalqning madaniy, ma’naviy an’analari o’rniga o’z madaniyati va ma’naviyatini joriy etishga harakat qildi.

Kalit so’zlar: o’zbek adabiy tili, Turkiston ijtimoiy hayoti, ilm-fan, maorif, transport sohalariga oid terminlar, tarix, iqtisodiy sabablar, siyosat

Uzbek literary language and the transition of words from Russian and European languages

Yaqub Siddiqovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: Most of the words adopted from Russian and European languages into the Uzbek language are names related to social and political life and terms related to the fields of science, education, post-telegraph, and transport. Some words adopted from the Russian language are actually Turkic (Uzbek) words. From the middle of the 19th century, Czarist Russia started the first military operations to occupy the territories of Central Asia. This political event fundamentally changed the social life of Turkestan. In order to strengthen its position, the government of the ruling Tsarist Russia tried to introduce its own culture and spirituality instead of the cultural and spiritual traditions of the local people.

Keywords: uzbek literary language, Turkestan social life, science, education, transport terms, history, economic reasons, politics

(cc) BY

O‘zbek adabiy tili va rus tili. Tarixdan ma’lumki, Chor Rossiyasi XIX asrning o’rtalaridan O’rta Osiyo hududlarini egallash uchun dastlabki harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Bu harakatning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo’ldi:

1. Rossiya engil sanoatini ta’minlab beruvchi arzon xom ashyo bazasi O’rta Osiyoda mavjud edi. Chor Rossiyasi hukumati shu bois mazkur hududni bosib olish harakatida bo’ldi.

2. Qrim urushi (1853-1856) tufayli Qora Dengiz bandargohlarining Chor Rossiyasi qo’lidan ketishi uning iqtisodini tang ahvolga solib qo’ydi. Qora Dengiz bandargohlarining o’rnini O’rta Osiyoni egallash orqali to’ldirish mumkin edi. Shu orqali Janubdagi muzlamaydigan dengizlarga chiqish va Turkiston bu bosqinchilik yurishlarida plastdarm vazifasini o’tashi kerak edi.

3. Rossiyaning Yevropa bozorlari bilan raqobat qila olmasligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarini sotish uchun O’rta Osiyo bozorlarini egallashi lozim edi.

4. Rossiyada o’tkazilgan yer islohotlari tufayli qashshoqlashib qolgan aholini Turkistonga ko’chirib keltirish va ularni yer bilan ta’minlash vazifasi turgan edi.

Shu va boshqa siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko’ra Chor Rossiyasi O’rta Osiyoni bosqichma bosqich bosib oldi. Mazkur siyosiy voqea Turkiston ijtimoiy hayotini tubdan o’zgartirib yubordi. Hukmron Chor Rossiyasi hukumati o’z mavqeini mustahkamlash maqsadida mahalliy xalqning madaniy, ma’naviy an’analari o’rniga o’z madaniyati va ma’naviyatini joriy etishga harakat qildi. Asosiy maqsadi mahalliy aholini ruslashtirishdan iborat bo’lgan mustabid davlat yangi sanoat korxonalari, maorif va madaniyat muassasalarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratdi.

Ular bilan birga yangi tushunchalarni ifodalovchi so’zlar ham o’zbek tiliga kirib kela boshladi. Rus tilidan va u orqali yevropa tillaridan o’zlashgan so’zlar nafaqat mahalliy xalqning jonli so’zlashuv nutqida, balki uning badiiy adabiyoti, ayniqsa, publitsistik asarlari tilida keng qo’llanila boshladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida umumruslashtirish siyosati va mahalliy ma’rifatparvarlar shoirlar (Muqimiy, Furqat, Hamza, Zavqiy, Siddiqiy kabilar)ning targ‘ibu tashviqi bois qisqa muddatda ruscha so‘zlarning miqdori keskin ko‘paydi. O‘tgan asrning 20-yillariga qadar 3000 ga yaqin so‘z va ibora rus tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan. Bu so‘zlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid. Ular orasida, ayniqsa, sanoat korxonalari, xom ashyo va mahsulot nomlari (*zavod, mashina, benzin* kabilar), maorif, madaniyat meditsinaga oid terminlar (*gimnaziya, teatr, vistavka, apteka* kabilar), harbiy va aloqa sohasiga tegishli so‘zlar (*armiya, ofitser, pochta, telegraf* kabilar) ko‘pchilikni tashkil etadi.

O’zbek adabiy tilining rus va u orqali yevropa tillaridan kirib kelgan so’zlar hisobiga boyish jarayoni shunday kuchaydiki, bunday so’zlar o’zbek adabiy tilining lug`at tarkibida ma’lum bir qatlamni tashkil etdi. Rus tili o’zbek tiliga, ayniqsa, uning leksikasiga katta ta’sir ko’rsatib, unda sezilarli iz qoldirdi.

(cc) BY

Tarixdan ma’lumki, mustaqillikka qadar o’zbek tiliga yevropacha lug`aviy birliklar fors-tojik, arab, xususan, usmonli turk va rus tillari orqali o’zlashgan. Chunonchi, fors-tojik tili vositasida grek tiliga oid *musiqa, pul* kabi so’zlar; arab tili vositasida esa grek tiliga tegishli *qandil, jug`rofiya, faylasuf* singari so’zlar o’zbek tilining lug`at tarkibiga kirgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, Yevropa tillariga oid leksik birliklarning o’zlashishida usmonli turk va rus tillari muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur davrda fransuzcha *qo’mondon* (komandir), *vopur* (poroxod) kabi; lotincha *vulqon* kabi; italyancha *po’rtana, lava* kabi; grekcha *daftar* kabi; nemischa *polis* (politsiya) kabi so’zlar usmonli turk tili orqali o’zbek tiliga o’zlashdi. Rus tili orqali o’zlashgan so’zlar jumlasiga esa fransuzcha *dekret, mashina, gramm* kabi; inglizcha *klub, tramvay, traktor* kabi; nemischa *veksel, flot, front* kabilarni aytib o’tish mumkin.

Ayonki, arab tilidan o’zlashgan so’zlar orfografiyaning an’anaviy prinsipi asosida, ya’ni so’z va morfemalar qadimda qanday yozilgan bo’lsa, mazkur davrda ham shunday yozilgan. Eski o’zbek yozuvida arabcha so’zlarning yozilishiga juda bilimdonlik va ziyraklik bilan e’tibor berishgan. Arabcha so’zlarning asliga ko’ra xato yozish o’ta savodsizlik hisoblangan. Forscha-tojikcha so’zlar xususida ham shu fikrni aytish mumkin. Lekin bu bilan biz o’zbek adabiy tili tarixida barcha arabcha, forscha-tojikcha so’zlarni xatosiz yozilgan deyishdan uzoqdamiz. Ba’zan an’anaviy imloga rioya qilmaslik holatlarini ham uchratish mumkin.

Rus va u orqali yevropa tillaridan o’zlashgan so’zlarning yozilishida esa juda ko’p imloviy xatolar bo’lib, umumiy qat’iy bir orfografik prinsiplar belgilanmagan edi. Natijada, ayni bir o’zlashgan so’z turli xil imloviy shakllar asosida yozildi. O’zlashmalarning deyarli ko’pchiligi dastlab og`zaki nutq orqali o’tganligi uchun so’zlar talaffuzda qanday aytilgan bo’lsa, yozuvda ham shunday ifodalanib kelindi. Orfografik xatoliklarning yuzaga kelishiga, asosan, quyidagilar sabab bo’ldi: a) o’zbek va rus xalqlari yozuvlarining bir-biridan tubdan farq qilishi; b) ikki tilning fonetik, orfoepik va grammatik xususiyatlaridagi noo’xshashliklar; v) mahalliy xalq orasida rus tilini biladigan mutaxassislarning kamligi; g) matbuot nashrlarida boshqa turkiy xalq vakillarining (totor, ozarbayjon, turk va h.k) ishlashi va boshqalar.

Rus va yevropa tillaridan o’zbek tiliga o’zlashgan leksik birliklarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo’yicha tasniflash mumkin:

1.Vaqt, son-miqdor tushunchalarini ifodolovchi so’zlar: *minut* [r minuta < lat], *million* [r < fr], *mart* [p < lat], *may* [r < lat], *gramm* [p < fr], *desyatina* [p desyatina – botmon, bir gektarga yaqin yer o’lchov birligi], *pud* [p pud – 16 kilogrammga teng og`irlik o’lchov birligi] va h.k.

2. Savdo va moliya sohasiga oid terminlar: *bank* [p < fr < ital], *kapital* [p < lat], k*redit* [p < lat], *pensiya* [p < lat], *veksel* [p < nem] va h.k.

(cc) BY

3. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *kompaniya* [p < fr], *mandat* (r < lat), *dekret* [p < fr], *komitet* [p < fr], s*ud* [p], *partiya* [p < nem] va boshq.

4. Sanoat va transport sohalariga oid nomlar: e*lektr* [p < grek], *mashina* [p < fr], p*aroxod* [p], *flot* [p < nem], *texnika* [p < grek], *vagon* [p < ing], *traktor* [p < ing], *avtomobil* [p < grek + lat], *poezd* [p], *tramvay* [p < ing], *radio* [p < lat] va h.k.

5. Narsa-buyum nomlari: s*amovar* [p], *lenta* [p], *lampa* [p < fr], *kamzul* [p < fr], *tort* [p < ital], *material* [r < lat], *qandil* [a < grek], *grafit* [r < grek], *albom* [r], *prujina* [r] va h.k.

6. Mansab-martaba va kasb-kor tushunchalarini anglatuvchi so'zlar: *politsiya* [r < nem], *general* [r < lat], s*oldat* [r], *patrul* [r < fr], *ministr* [r < fr], *imperator* [r < lat], *doktor* [r < lat], *advokat* [r < lat], *deputat* [r < lat], *pristav* [r], *knyaz* [r] va boshq.

7. Tabiat hodisalarining nomi: *po'rtana* [ital – kuchli dengiz to'lqini; dovul, bo'ron], v*ulqon* [r vulkan < lat], *lava* [r < ital] va boshq.

8. Oziq-ovqat va ichimliklar nomi: *tort* [r < ital], *pivo* [r], *konfet* [r], *vino* [p], *konyak* [r] va h.k.

9. Aloqa sohasi leksikasi: *telefon* [r < grek], *telegramma* [r < grek], *telegraf* [r < grek], k*onvert* [r], *pochta* [r < polyak] va boshq.

11. Harbiy sohaga oid terminlar: *tank* [r < ing], *front* [r < nem], *pulemyot* [r], *armiya* [r < fr < lat], *shtab* [r < nem] va h.k.

12. O'rin-joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *restoran* [r < fr], *park* [r < ing], a*mbulatoriya* [r < lat], *klub* [r < ing], *port* [r < fr], *post* [r < fr – qorovul turadigan joy], *zal* [r < nem] va boshq.

13. Madaniyat, san'at va maorifga oid terminlar: *rol* [r < fr], *gimnastika* [r < grek], *gazeta* [r < ital], *teatr* [r < grek], *gazeta* [r < ital], *muzika* [r], kartina [r], *anketa* [r < fr], *roman* [r < fr], *konsert* [r < ital] va boshq.

14. O'simlik tushunchasini ifodalovchi so'zlar: *pomidor* [r < ital], *kartoshka* [r] va h.k.

Ruscha-yevropacha so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalariga tegishli bo'lib, ular orasida, ayniqsa, kundalik turmushga oid so'zlar va ilmiy-texnikaviy terminlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. O'zbek tiliga rus va yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarning aksariyat qismi ijtimoiy-siyosiy hayotga oid nomlar va ilm-fan, maorif, pochta-telegraf, transport sohalariga oid terminlardir. Rus tilidan qabul qilingan ayrim so'zlar aslida turkiy (o'zbekcha) so'zlardir. Bunday so'zlar jumlasiga *tovar, stakan, karandash, boyarin, altын, dengi, utyug* kabilarni aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

(cc) BY

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. –Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале

(cc) BY

узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og`uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. –-Тошкент 1 (2 …

O‘zbek adabiy tilining davrlastirilishi, adabiy tilning tayanch dialektizm masalasi

Yoqub Siddiqovich Saidov
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Hozirga qadar fanga ma’lum bo‘lgani shuki, turkiy tillarni ilk bor XI asrda Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida tasnif etgan. Mazkur tasnif o‘zining aniqligi, soddaligi va mukamalligiga ko‘ra undan keyin yaratilgan tasniflardan alohida ajralib turadi. O‘zbek adabiy tili o‘zining tashkil topishi va shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab hozirgi kunlargacha juda murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Til tarixini davrlashtirish “O‘zbek tili tarixi” fani uchun eng muhim masalalardan biridir. Chunki davrlashtirish orqali o‘zbek tili va unga qardosh turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o‘zaro munosabat va aloqalari, boshqa tizimdagi tillarning bevosita hamda bilvosita ta’siri kabilarni aniqlash mumkin.

Kalit so‘zlar: turk tillar, uzbek tili, til tarixi, adabii til tarixi, tasnif, ilm-fan, maorif, tarh, davrlashtirish, tamoyil

Periodization of the Uzbek literary language, the issue of basic dialectic of literary language

Yaqub Siddiqovich Saidov
Bukhara State University

Abstract: So far it is known to science that the Turkic languages were classified for the first time in the 11th century by Mahmud Koshgari in his work “Devonu lugotit turk”. This classification differs from the classifications created after it due to its accuracy, simplicity and perfection. The Uzbek literary language has traveled a very complex path of development from the early stages of its formation and formation to the present day. Periodization of the history of the language is one of the most important issues for the science of “History of the Uzbek language”. Because through periodization, it is possible to determine the origin of the Uzbek language and its related Turkic languages, stages of development, mutual relations and connections, and the direct and indirect influence of languages in other systems.

Keywords: Turkish languages, Uzbek language, history of literary language, classification, science, education, development, periodization, principle

(cc) BY

O‘zbek adabiy tili o‘zining tashkil topishi va shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab hozirgi kunlargacha juda murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Til tarixini davrlashtirish “O‘zbek tili tarixi” fani uchun eng muhim masalalardan biridir. Chunki davrlashtirish orqali o‘zbek tili va unga qardosh turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o‘zaro munosabat va aloqalari, boshqa tizimdagi tillarning bevosita hamda bilvosita ta’siri kabilarni aniqlash mumkin.

O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish o‘zbek xalqining tashkil topishi, etnik tarkibi, uning o‘ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish xususiyatlari, qadimgi umumtarkiy adabiy til qurilishida hamda hozirgi turkiy tillar tasnifida o‘zbek adabiy tilining tutgan o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy til tarixi shu tilda so‘zlashuvchi xalq tarixi, adabiy tilning tuzilmasi, tarkibiy qurilishdagi o‘zgarishlar bilan, shuningdek, ijtimoiy vazifalari o‘zgarishi bilan uzviy ravishda bog‘langandir. Ma’lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog‘liqdir. Tasnif ma’lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil prinsipga, ya’ni tarixiylik prinsipiga amal qilinadi.

Hozirga qadar fanga ma’lum bo‘lgani shuki, turkiy tillarni ilk bor XI asrda Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida tasnif etgan. Bu dastlabki tasnif bo‘lishiga qaramay haliga qadar ilmiy ahamiyatini yo‘qotgan emas. Mazkur tasnif o‘zining aniqligi, soddaligi va mukamalligiga ko‘ra undan keyin yaratilgan tasniflardan alohida ajralib turadi.

Turkiy tillar tasnifi masalasida xorij, xususan, rus olimlari XIX asrdan boshlab maxsus shug‘ullana boshladilar. Ular jumlasiga V.V.Radlov, A.N.Samoylovich, S.Ye.Malov, N.A.Baskakov, V.A.Bogorodiskiy kabilarni aytib o‘tish mumkin. Ularning tasniflarida turkiy tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bilan bir qatorda uning boshqa tizimdagi tillar bilan o‘zaro munosabati, hududiy ko‘lami ham e’tiborga olingan. Har bir olim bu masalaga o‘z nuqtai nazariga ko‘ra yondoshgan. Masalan, V.V.Radlov turkiy tillarni tasnif etishda ko‘proq uning o‘rinlashgan geografik hududiga e’tibor qaratgan va shunga ko‘ra turkiy tillarni to‘rt guruhga ajratgan:

1. Sharqiy guruh (Sibir tatarlari tili).
2. G‘arbiy guruh (qirg‘iz, qozoq, boshqird, tatar tillari).
3. O‘rta Osiyo guruhi (o‘zbek, uyg‘ur tillari).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim-tatar tillari).

A.N.Samoylovich keyinchalik V.V.Radlov tasnifiga tayanib, o‘zining quyidagi tasnifini beradi:

1. Janubi-Sharqiy yoki chig‘atoy guruhi (hozirgi uyg‘ur, va o‘zbek tillari).
2. Janubi-G‘arbiy yoki o‘g‘uz guruhi (o‘zbek tilining o‘g‘uz shevalari).

Turkiyshunos N.A.Baskakov (1905-1996) tasnifida turkiy tillarning til xususiyatlari e’tiborga olinib, u ikki guruhga ajratiladi:

(cc) BY

a) qarluq-uyg‘ur guruhi;

b) qarluq-xorazm guruhi. Olim qarluq-xorazm guruhiga qoraxoniy-xorazm tili, hozirgi o‘zbek tili va shevalari, hozirgi uyg‘ur tili va shevalarini kiritgan.

Bu va boshqa tasniflar mazkur fan uchun ahamiyatli emas. Chunki ularda turkiy tillarga bir tomonlama yondoshilgan holatlar ko‘p kuzatiladi. Masalan, ba’zi tasniflarda turkiy tillar hududiy ko‘lamiga ko‘ra tasnif etilgan bo‘lsa, ba’zilarida faqat til xususiyatlari e’tiborga olingan, boshqalarida esa til tarixi xalq tarixi bilan bog‘lanmagan. Shularga ko‘ra ular darslikda keng tavsif etilmadi. O‘zbek tili tarixini Tesha Salimov, Faxri Kamol, A.M.Shcherbak, Olim Usmon, Ergash Fozilov, Fattoh Abdullaev, U.Tursunov, B.O‘rinboev, A.Aliev, G‘.Abdurahmonov kabi olimlar davrlashtirgan.

Tesha Salimov «O‘zbek tili tarixi» (1940) dasturida o‘zbek tili tarixini quyidagicha davrlashtirgan:

1.Qadimgi davrda O‘rta Osiyo adabiy tillari (VIII asrdan XIV asr yarmigacha).

2. XIV asr adabiy tili;

3. XV-XVI asrlarda adabiy til.

4. XVII-XIX asrlarda adabiy til taraqqiyoti.

5. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o‘zbek adabiy tili.

6. O‘zbek adabiy tili taraqqiyotida yangi sho‘ro davri (hozirgi zamon o‘zbek tili).

“O‘zbek tili tarixi” dasturining 1948 yilda chop etilgan navbatdagi sonida davrlashtirish quyidagicha berilgan:

1. O‘rta Osiyodagi qadimgi tillar va yozuvlar (VIII asrdan XI asrgacha).

2. XI-XII asrlarda qadimgi turk adabiy tili.

3. XIII-XIV asrlardagi adabiy til.

4. XV-XVI asrlarda o‘zbek adabiy tili (temuriylar davridagi adabiy til).

5. XVII-XIX asrlarda o‘zbek adabiy tili (mustamlaka davrida o‘zbek adabiy tili).

6. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili (sho‘ro davrida o‘zbek adabiy tili taraqqiyoti).

Tesha Salimov 1952 yilda o‘zining yangi tarxini beradi. U o‘zbek tili tarixini davrlashtirishda til borasida yaratilgan ilmiy asarlarni asos qilib oladi:

1. XI asrdan XVIII asrgacha bo‘lgan davr (Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Mirza Mehdixon kabilarning ilmiy-ijodiy faoliyati bilan bog‘liq davr).

2. XIX asr boshlaridan to XX asr choragigacha bo‘lgan davr (qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning taraqqiyoti bilan bog‘liq davr).

3. XX asr birinchi choragidan to 1950 yilgacha bo‘lgan davr (N.Ya. Marr va uning izdoshlari faoliyati bilan bog‘liq davr).

4. I.V.Stalinniig tilshunoslikka oid asarlari bilan bog‘liq davr.

Faxri Kamol «O‘zbek milliy tilining tashkil topishi va taraqqiyoti» (1952) maqolasida til tarixini quyidagi bosqichlarga bo‘ladi:

1. V asrgacha bo‘lgan davrda urug‘-qabila xususiyatiga ega bo‘lgan til.

(cc) BY

2. V-XI asrlarda xalq tili unsurlariga ega bo‘lgan qabila tili.

3. XI-XII asrlardan Oktabr inqilobigacha bo‘lgan davrdagi milliy til unsurlariga ega bo‘lgan xalq tili.

4. Oktabr inqilobidai keyingi hozirgi milliy til.

Faxri Kamol til tarixini davrlashtirish bo‘yicha qarashlarini mukammallashtirishga harakat qilib, 1953 yilda «Hozirgi zamon o‘zbek tili» risolasida uning yangi ikkinchi tarxini beradi. U bu risolasida o‘zbek tilni uch asosiy davrga bo‘ladi:

1. Qadimgi turk adabiy tili.

2. Eski o‘zbek adabiy tili.

3. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili.

A.M.Shcherbak 1953 yilda quyidagi tarxni ilgari suradi:

1. Eng qadimgi davr o‘zbek adabiy tili (X-XII asrlar).

2. O‘rta davr o‘zbek adabiy tili (XIV-XVI asrlar).

3. Yangi davr o‘zbek adabiy tili (XVIII-XIX asrlar).

4. Eng yangi davr o‘zbek adabiy tili (XIX asr oxiri va XX asr boshlari).

Olim Usmon 1957 yilda quyidagi tarxni beradi:

1. Turk xoqonligi davrida qadimgi tug-yu turk tili (VI-IX asrlar); a) VI-VIII asrlar; b) VIII-IX asrlar).

2. Qadimgi o‘zbek tili (IX-XII asrlar).

3. Eski o‘zbek tilining ilk davri (XIII-XIV asrlar).

4. Eski o‘zbek tili (XIV asrning oxiridan XIX asr II yarmigacha).

5. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili:

a) XIX asrning II yarmidan Oktabr inqilobigacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiy tili; b) sho‘ro davri o‘zbek milliy adabiy tili.

Ergash Fozilovning 1977 yilda ilgari surgan tarxi quyidagicha:

1. Turkiy tillar uchun mushtarak bo‘lgan obidalar (VI-X asriing birinchi choragi).

2. Eski turkiy yodnomalar (IX-XII asrlar).

3. Tarix oldi o‘zbek tili (XII-XIV asrlar).

4. Ilk o‘zbek tili (XV-XVI asrlar, manbalari Sidiq Ahmad Xo‘jandiy, Atoiy, Sakkokiy, Navoiy Bobur).

5. O‘rta o‘zbek tili (XVII-XIX asrlar, manbalari Yoqub Chingiy, Xoksor, Abulg‘ozi Bahodirxon va boshqalar).

6. Yangi davr o‘zbek tili (XX asr, manbalari Hamza va uning zamondoshlari asarlari).

Fattoh Abdullaevning 1977 yildagi tarxi esa quyidagicha:

1. Turkiy tillar tarixining eng qadimgi davri (V-X asrlar).

2. XI-XIV asrlar:

(cc) BY

a) birinchi bosqich (manbalari «Qutadg‘u bilig», «Devonu lug‘otit turk» va XI-XII asrlarda yaratilgan asarlar);

b) ikkinchi bosqich (manbalari O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Volga bo‘ylaridagi ko‘plab yozuv yodgorliklari, XIII-XIV asrlarda yaratilga asarlar).

3. XV asrdan XIX asrning yarmigacha bo‘lgan davr o‘zbek adabiy tili.

4. XIX asr yarmilaridan XX asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davrdagi o‘zbek adabiy tili:

1) XIX asrning II yarmi va XX asrning 20- yillarigacha;

2) hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili.

U.Tursunov, B.O‘rinboev va A.Alievlar 1995 yilda chop ettirgan “O‘zbek adabiy tili tarixi” darsligida o‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bo‘yicha tarxni tavsiya etdi. Bu tarx ilmiy-nazariy jihatdan ahamiyatli bo‘lganligi sabab uni quyida aynan keltirib o‘tamiz:

I. Qadimgi turkiy xalqlar davrida adabiy til (V-X asrlar). Bu davrda qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishi va uning yodgorliklari. Qadimgi turkiy adabiy tilning xususiyatlari.

II. Ilk davr o‘zbek xalq tili (X asrdan XIV asrning yarmigacha bo‘lgan davr):

1) o‘zbek adabiy tilida ikki xil funksional tipning shakllanishi va dastlabki taraqqiyoti (X-XII asrlar). Bu davrda o‘zbek adabiy tilining kitobiy til va xalq adabiy tili kabi tiplari shakllandi. Xalq adabiy tilining shakllanishida xalq ogzaki ijodi katta rol o‘ynadi. Grammatik qurilishi va lug‘at tarkibi nuqtai nazaridan kitobiy til bilan xalq adabiy tili bir-biriga faol ta’sir qiladi. Shu ikki tipli adabiy til Sharqiy yoki Sharqiy Turkiston adabiy tili deb ataladi.

Bu davrning kitobiy til yodgorligi sifatida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» (XI asr), Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» (XII asr) asarlaridir. O‘sha davrda yaratilgan huquqiy hujjatlarda kitobiy til bilan xalq adabiy tili aralashgan holda ishlatilgan;

2) adabiy tilda mahalliylashish tamoyilining paydo bo‘lishi va kuchayishi (XII-XIV asrning yarmi). Bu davrga kelib Chig‘atoy va Oltin O‘rda davlatlari tuzildi. Adabiy tilda hududiy unsurlar o‘z ifodasini topdi. Kitobiy tilda ham, adabiy tilda ham, rasmiy hujjatlar tilida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Sharqiy adabiy tilning ta’siri kamayib, G‘arbiy adabiy til kuchaydi. G‘arbiy adabiy til yodgorligi sifatida qarluq-xorazm lahjasida yozilgai Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»i (XII asr), Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» (XIV asr) asari, adabiy tilning Oltin O‘rda turkumida yozilgan «Nahjul-farodis», «Muhabbatnoma», “Husrav va Shirin», «Me’rojnoma» kabi asarlar, adabiy tilning Chig‘atoy ulusi tilida «Muqaddimat-ul-adab», «Yusuf va Zulayho», «Ravnaq-ul islom», «O‘g‘uznoma» kabi asarlarni ko‘rsatish mumkin. XI-XIV asrlardagi aralash sheva xususiyatlarini «Tafsir»da uchratamiz.

(cc) BY

III. O‘zbek xalqi tilining takomillashish davri (XIV asrning oxiridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha).

1) o‘zbek xalq adabiy tilining to‘liq shakllanishi (XIV asrning oxiridan XVII asrgacha). Bu davr elat adabiy tilining roli oshganligi bilan ajralib turadi. Bu til ma’lum darajada o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi bilan munosabatda bo‘ladi. Elat adabiy tilining lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi va tovush tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi. Kitobiy adabiy til shakllari arxaiklasha boradi. Rasmiy hujjatlar tili jonli so‘zlashuv tiliga yaqnnlashadi. XIV asrning oxirida Movarounnahrda yagona Temur davlatining vujudga kelishi va bu davrda eski o‘zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiyoti Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Zahiriddin Bobur, Muhammad Solih kabi ijodkorlar yaratgan asarlardan ma’lum;

2) xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvining tugallanishi va adabiy tilga so‘zlashuv nutqi xususiyatlarining singishi (XVII asr va XIX asrning II yarmigacha). Bu davrda xalq adabiy tili so‘z san’atkorlari ijodi ta’sirida rivojlandi va mustahkamlandi. U kitobiy til va rasmiy hujjatlar tili bilan mustahkam aloqada taraqqiy qildi. Lekin rasmiy hujjatlar uslubi hali o‘rta asr darajasida edi. O‘sha davrda yaratilgan yodgorliklar tilida so‘zlashuv nutqi xususiyatlari ko‘plab uchraydi. Xalq adabiy tili bilan kitobiy tilning bir-biriga yaqinlashuvi shu davrda yashab ijod etgan yozuvchilar - Abulg‘oziy, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Ogahiy asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbek xalq tilining takomillashuvi davrida ikki xil uslub - dabdabali uslub va so‘zlashuv tili uslubi mavjud edi.

IV. Milliy til unsurlarining paydo bo‘lish, shakllanish va rivojlanish davridagi o‘zbek adabiy tili (XIX asrning II yarmidan hozirgi kungacha bo‘lgan davr).

1) XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tilining boyib borishi va taraqqiyoti. Bu davrda o‘zbek adabiy tili tizimida gazeta-publitsistika tili va uslubi shakllandi. Gazeta-publitsistika uslubi va demokrat shoirlarning asarlari orqali rus tili hisobiga tilimiz leksikasi birmuncha boyidi. O‘zbek milliy tili me’yorlarini yaratish sohasidagi dastlabki kurashlar davom etdi, buning natijasida arab, fors, turk va tatar tillariga xos til xususiyatlari paydo bo‘ldi. Milliy tilning dastlabki unsurlari vujudga keldi;

2) o‘zbek milliy tili va uning rivojlanishi. Milliy tilni yaratish va shakllantirish sohasidagi kurashlar: adabiy til uslublari to‘la shakllandi va ularning hajmi ancha kengaydi.

G‘.Abdurahmonov “O‘zbek xalqi va tilining shakllanish jarayonlari” (1999) risolasida o‘zbek adabiy tili tarixini quydagicha davrlashtiradi:

1. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo‘lgan davr).
2. Qadimgi turkiy til (VIII-XI asrlar).
3. Eski turkiy til (XI-XIII asrlar).
4. Eski o‘zbek adabiy tili.(XIV-XIX asrlar).

(cc) BY

5. Yangi o‘zbek adabiy tili (XIX-XX asrlar).

6. Hozirgi zamon adabiy tili.

O‘zbek adabiy tilini davrlashtirish bo‘yicha qator tarxlar va tavsiyalar berilgan bo‘lsa ham mazkur muammo hali uzil-kesil o‘z yechimini aniq topgan emas. Shunga ko‘ra ushbu masala o‘zbek tilshunosligining eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ё Саидов. Жадидлар ва Ойбек/Адабиёт ва таржима: Илмий мақолалар тўплами. Т.: Зарқалам, 83-85

2. СЁ Сиддиқович. Беҳбудийнинг «Тил масаласи» мақоласи хусусида. Педагогик маҳорат. –Бухоро 1 (2), 41-46

3. Ё Саидов. Жадид поэтик асарлари тилидаги янги сўзлар таҳлили. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 1, 59-64

4. Ё Саидов. Жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексика. Ўзбек тили ва адабиёти 2, 100-105

5. Ё Саидов. Жадид лирик асарларидаги арабий лексика ва унинг мавзуий таснифи. Илм сарчашмалари.-Урганч 7, 38-40

6. Ё Саидов. Жадидларнинг ўзбек лингвистик терминологиясини шакллантириш ва ривожлантиришдаги ўрни. Бухоро давлат университети илмий ахбороти.-Бухоро 4 (52), 42-46

7. Ё Саидов. Каримбек Камий лирик асарларидаги антонимларнинг айрим хусусиятлари. Вестник каракалпакского государственного университета имени Бердаха 17 (3-4 …

8. Ё Саидов. Чўлпон мақолаларида тил масаласи/Ilm-u adab jabhasida 60 yil: Илмий мақолалар тўплами. Бухоро: БухДУ, 61-64

9. СЁ Сиддиқович. Абдулла Бадрий драмаларидаги шевага хос унсурлар. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 4 (2), 38-42

10. ЁС Саидов, М Убайдуллоева. Анвар Обиджоннинг ўхшатишлардан фойдаланиш маҳорати. Science and Education 4 (6), 985-989

11. ЁС Саидов. История Узбекского литературного языка, вопрос формирования национального языка воззрения просветитетей жадидов. Science and Education 3 (5), 2085-2090

12. ЁС Саидов. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метафораларнинг лингвопоэтикаси. Buxoro davlat universiteti tahririyat 1 (2), 31

13. УН Бозорова, ЁС Саидов. жадид шеъриятидаги қадимги туркий лексиканинг мавзуий таснифи. международный журнал искусство слова 3 (4)

14. ЁС Саидов. Фитратнинг имло масаласига муносабати. Илмий мақолалар тўплами. –Бухоро: БухДУ 2 (1), 27-30

15. ЁС Саидов, ДШ Шарипова. Рамзнинг лексик - семантик хусусиятлари. Buxoro davlat universiteti tahririyat 4 (2), 102

16. YS Saidov. About the language of the work «gulistoni bit-turkiy». Scientific reports of Bukhara State University 3 (1), 97-102

17. Г Муродов, Ё Саидов. Лингвохудожественные особенности сравнения в узбекской поэзии (на примере стихов э. Вохидова). Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно …

18. СЁ Сиддиқович. Тематические группы лексики, заимствованной из западноевропейских языков посредством русского языка (на материале узбекской жадидской поэзии). Современная филология: Материалы II междунар. науч. конфер. 2 (4), 92-95

19. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги синонимларнинг айрим хусусиятлари. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

20. СЁ Сиддиқович. Жадид шеърий асарларидаги синекдохалар ва уларнинг услубий-бадиий хусусиятлари. Бухоро давлат университети илмий ахбороти 3 (3), 88-91

21. СЁ Сиддиқович. XX аср бошлари ўзбек шеърияти тилида арабий лексика. Проблемы и перспективы развития филологии на современном этапе: Межвузовский …

22. СЁ Сиддиқович. Özbek cedid edebiyatinda og`uz dillerine özgü unsurlar. Filologiya məsələləri 3 (3), 798-804

23. СЁ Сиддиқович. Жадидларнинг лингвистик эстетика ривожидаги ўрни. Цветаевские чтения. Текст и контекст: лингвистический, литературоведческий и …

24. СЁ Сиддиқович. Алишер Навоий ва Фитрат. Алишер Навоий ижодида оила, таълим ва тарбия масалалари: Республика илмий …

25. СЁ Сиддиқович. Фитратнинг «Девону луғотит турк» асарига оид тадқиқоти. Филология масалалари: Илмий мақолалар тўплами 5 (5), 109-112.

26. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан 2 …

27. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

28. СЁ Сиддиқович. Абдулҳамид Мажидий шеъриятидаги метонимияларнинг семантик моҳияти. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Фан …

(cc) BY

29. СЁ Сиддиқович. Ўзбек тили лексикологиясининг шаклланиши ва ривожи. Тилнинг лексик-семантик тизими ва қиёсий типологик изланишлар: синхрония …

30. СЁ Сиддиқович. Фитрат ва миллий тил ривожи муаммолари. Тилшунослик ва методика масалалари: Илмий мақолалар тўплами. –-Тошкент 1 (2 …